

**O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi**

**Al-Xorazmiy nomli Urganch Davlat universiteti**



**«Pedagogika va psixologiya» kafedrasи**

**“IJTIMOIY PEDAGOGIKA” FANIDAN  
“o'qituvchi taylorlash va pedagogik fanlar” bakalavrлari uchun**

**MA'RUZALAR MATNI**

**Tuzuvchi:**

**katta o'qituvchi    Исаева Г**

**Гулистон 2018**

## **Kirish**

«Ijtimoiy pedagogika va pedagogik sotsiologiya» kursi talabalarning umumpedagogik bilim darajasini kengaytirish bilan birga, ularni jamiyatdagi turli munosabatlarni, ma’naviy faktorlarni tekshirish, shuningdek, mazkur fanning ob’ekti, predmeti, uning boshka fanlar bilan alokadorligi, kategoriyalari, ijtimoiy pedagog kasbining spetsifik xususiyatlari kabi muommolar ustida bosh kotirishga undaydi.

## **Ijtimoiy pedagogika**

Ijtimoiy pedagogika ijtimoiy zaruriyat sifatida. Uning asosiy muammolari. Ijtimoiy pedagogikaning maqsadi, vazifalari, ob’ekti va predmeti. Ijtimoiy pedagogika asoslari.

Ijtimoiy pedagogika aloxida fan va amaliy faoliyat soxasi sifatida. Bolaning sotsiumda rivojlanishi. SHaxsning ijtimoiylashuvi. Odob-axlok xayotiy me’yorlar sifatida. Ijtimoiy pedagogikada «Me’yorlardan chekinish» tushunchasi. Ijtimoiy pedagogik jarayon. Markaziy Osiyo xalklarining ijtimoiy-pedagogik an’analari. Jamiyatning milliy mafkuraviy ongliligi ijtimoiy-pedagogik xodisa sifatida. Ijtimoiy pedagog va uning kasbiy faoliyati. Ijtimoiy pedagog va uning kasbiy statusi. Ijtimoiy pedagog ta’lim tizimida. Ijtimoiy pedagogning bolalar va usmirlar orasidagi reabilitatsion xizmati modeli va mexanizmi. Deviant bolalar va usmirlar. Ularni reabilitatsiya qilish yullari. Ijtimoiy pedagog faoliyati metodikasi va texnologiyasi. Ijtimoiy pedagog va uning kasbiy faoliyati. Ijtimoiy pedagog va uning kasbiy statusi. Ijtimoiy pedagog ta’lim tizimida. Ijtimoiy pedagogning bolalar va usmirlar orasidagi reabilitatsion xizmati modeli va mexanizmi.

Deviant bolalar va usmirlar. Ularni reabilitatsiya qilish yullari. Ijtimoiy pedagog faoliyati metodikasi va texnologiyasi.

## **Pedagogik sotsiologiya**

Pedagogik sotsiologiya sotsiologiya fanining integratsion tarmogi sifatida. Pedagogik sotsiologiya fani xaqida umumiyl tushuncha. Pedagogik sotsiologiya fanining maqsadi va vazifasi. Pedagogik sotsiologiya fanini o`qitishning taraqqiyot boskichlari. Ta’lim sotsiologiyasi. Sotsiologiya olamida ta’lim sotsiologiyasining urni, uning ob’ekti, predmeti va tuzilishi. Madaniy kadriyatlar ta’lim jarayonining uzlashtirish ob’ekti sifatida. Ta’limning rivojlanishiga jamiyat ijtimoiy talabining ta’siri: modellashtirish. Ta’lim tizimi va uning strukturasi. O`qitish jarayoni va uning strukturasi. Ta’limning ijtimoiy strukturasi. Ta’lim tizimida jamoaning urni. Ta’lim tizimini boshkaruv muammolari. Tarbiya sotsiologiyasi. Tarbiya sotsiologiyasi xaqida umumiyl tushuncha. Uning predmeti va strukturasi. Ijtimoiy ideal va shaxsiy xatti-xarakat. Tarbiya va madaniyat. Oila va ota-on. Avlodlar imtixon (integratsiya muammolari). Tarbiyaviy ishlarning samaradorligi xamda ijtimoiy rejalshtirish va boshkarish.

## **Amaliy mashgulotlar**

Ijtimoiy pedagogika maxsus fan sifatida.

Ijtimoiy pedagogikaning lugaviy ma’nosи. Tarbiya va ijtimoiy tarbiya. Ijtimoiy pedagogikaning ob’ekti va predmeti. Bolaning rivojlanishida ijtimoiy me’yorlardan chekinish ijtimoiy pedagogik muammo sifatida. Bolaning ijtimoiylashuvi xaqida umumiyl tushuncha. Bolaning ijtimoiylashuviga ta’sir etuvchi omillar. Ijtimoiy me’yor tushunchasi. Ijtimoiy me’yorlardan chekinish tushunchasi. Maxalla ijtimoiy

pedagogik munosabatlar maskani. Maxalla va uning ijtimoiy-pedagogik axamiyati. Ajdodlar va avlodlar orasidagi munosabatlarning ijtimoiy-pedagogik taxlili. Milliy xarakter va xulk-atvorning shakllanishi-ijtimoiy-pedagogik jarayon sifatida. Maxalla pedagogikasi metodikasi, ijtimoiy idealni shakllantirish, uz-uzini tarbiyalashga yunaltirish, ishontirish, targibot, tashvikot.

Maxalla ijtimoiy pedagogik munosabatlar maskani. Siyosat va siyosiy tarbiya. I.A.Karimovning ong tarbiyasi xaqidagi g'oyalari. Siyosiy partiyalar va nodavlat tashkilotlar xamda jamgarmalarning ijtimoiy-pedagogik faoliyati. Jamiyat ma'naviyatining ijtimoiy-pedagogik ta'rifi. Milliy ma'naviyatni shakllantiruvchi omillar. Ijtimoiy pedagog va uning ta'lim soxasidagi faoliyati. Ijtimoiy pedagog kim? Uning vazifalari, xak-xukuklari, vazifalari va kasbiy sifatlari. mактабгача tarbiya mikromarkazlarida bolalarga ijtimoiy-pedagogik yordam kursatish. Maktabgacha tarbiya mikromarkazlarida oila xamda bolalarmi ijtimoiy-pedagogik kullab-kuvvatlash xaqidagi Nizom. Internatlarda olib boriladigan ijtimoiy-pedagogik faoliyat. Ijtimoiy pedagogning internatlarda olib boradigan asosiy funksional vazifalari. Bolalar uylarida ijtimoiy-pedagogik faoliyat olib borish turlari.

Valeologiya xaqida umumiy tushuncha. Valeologik xizmatning asosiy maqsadi va vazifalari. Valeologik xizmatning asosiy mazmuni va tuzilishi. «Soglon avlod» xonasini tashkil etish tugrisida Nizom.

Pedagogik sotsiologiya davrning ijtimoiy talabi sifatida. Pedagogik sotsiologiya xalk olimlari nazarida. Pedagogik sotsiologiya olimlar nazarida. Pedagogik sotsiologiyaning ob'ekti, predmeti va asosiy muammolari. Ijtimoiy talabning ta'lim tizimi rivojiga bulgan ta'siri. Modellashtirish ta'lim tizimiga bulgan ijtimoiy talabning vositasi sifatida. Faoliyat modeli ta'lim tizimini modellashtirishning dastlabki boskichi sifatida. Ta'lim tizimining umumiy tuzilishi. Ta'lim tizimi tuzilishining umumiy taxlili. Xalk ta'limi tizimi. Kasbiy ta'lim shakllari. Uz bilimini mustaqil oshirish, o'quv jarayoni va uning strukturasi, o'quv jarayonining umumiy tavsifi, o'quv mashgulotlari, rejalar va dasturlar. O'quvchi jamoasi ijtimioy guruxlar sifatida. O'quv-pedagogik jamoa ijtimoiy birikma sifatida, o'quv-pedagogik jamoa ijtimoiy tashkilotning kurinishi. O'quv-pedagogik jamoada boshkaruv organlari. Boshkaruv organlari xaqida umumiy tushuncha. Ta'lim jarayonini boshkaruv ob'ekti va sub'ektlari. SHaxs va uning shakllanishi. Ijtimoiy ideal. SHaxsiy xatti-xarakatlar. Madaniyat va tarbiya.

### **Mustaqil ish**

Darslik va o'quv kulkanmalarining (ularning tula ta'minlanganligi takdirda) boblari va mavzularini urganish. Tarkatma materiallar buyicha ma'ruza kismlarini uzlashtirish. O'qitish va nazorat qilishning avtomatlashtirilgan tizimlari bilan ishslash. Fanning boblari va mavzulari ustida ishslash.

Ijtimoiy pedagogika va pedagogik sotsiologiya fanlaridan nazariy va amaliy mashgulotlar utish davomida talabalarni ijodiy jarayonga yunaltirish, ularni taxlil qilish, mustaqil ishslashga o'rgatish, mashklar bajarish. Malakaviy amaliyotni utish chogida yangi texnika, jixozlar, keng kulamli ilmiy ish olib borishga kulay jarayonlar va texnologiyalarni urganish. Talabalarning ilmiy-tadqiqot ishlarini bajarish bilan boglik xolda fanning muayyan boblari va mavzularini chukur urganish.

## **Darslik va o`quv qo`llanmalar ro`yxati**

- 1.Karimov I.A. «O`zbekiston XXI asr bo`sag`asida»: xavfsizlikka takdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolotlari. Toshkent 1997 y.
- 2.Begmatov A., Qurbonov M. «Ijtimoiy pedagogikaning dolzarb masalalari», T. OPI nashri, 1998-10b.
- 3.Umumiy sotsiologiya. O`zMU.. 2000 y.
- 4.Filippov F.R. Sotsiologiya obrazovaniya. M., 1980.
- 5.Alikoriev N.S. Sotsiologiya va ta`lim taraqqiyoti, ta`lim muammolari, ilmiy uslubiy yutuklar va ilgor tajribalar. Toshkent. 1998.
- 6.Alikoriev N.S. Sotsiologiya va ta`lim taraqqiyoti: ta`lim muammolari, ilmiy uslubiy yutuklar va ilgor tajribalar. Toshkent. 1998.
- 7.Bekmurodov.M. Sotsiologiya asoslari. Toshkent.- Fan,- 1994,
- 8.Inomova M.O. Farzand-nixol, ota-on-a-bogbon. Toshkent.- O`qituvchi, 1993y.
- 9.Bekmurodov.M. Sotsiologiya asoslari. Toshkent.- Fan,- 1994,
- 10.Xolbekov A.J. Sharq va Garb mutafakkirlarining sotsiologik ta`limoti. T. Universitet. 1996

## **1—Ma’ruza:**

### **Mavzu: Ijtimoiy pedagogika ijtimoiy zaruriyat sifatida. Uning asosiy muammollari**

- 1.«Ijtimoiy pedagogika» tushunchasi, uning moxiyati va mazmuni. Ijtimoiy pedagogika kursining muammolari.
- 2.Ijtimoiy pedagogika nazariya va amaliyotining paydo bo’lishi.
- 3.Ijtimoiy pedagogik fikr va amaliyotining asosiy yo’nalishlari va rivojlanish bosqichlari.
- 4.Ijtimoiy pedagogika nazariyasi va amaliyotinihg ob’ekti, predmeti.
- 5.Ijtimoiy tarbiya,ijtimoiy ta’lim, ijtimoiy-pedagogik texnologiya

### **Tayanch tushunchalar:**

Ijtimoiy himoya, ijtimoiy yordam, jamoatchilik, individ,ijtimoiy gurux,ijtimoiy xizmat ko’rsatish tizimi,mentalitet,depersonalizatsiya,ijtimoiy tarbiya vf ta’lim,noadekvat rivojlanish, A. Disterveg, kontseptsiya, sotsium, ijtimoiy omillar, «notiqni tarbiyalash», turmush pedagogikasi, pragmatik tarbiya, «anomal odam».

### **Nazorat uchun savollar:**

- 1.Xo’rijda ijtimoiy pedagogika taraqqiyotinihg asosiy bosqichlarini sanab o’tihg?
- 2.“Ijtimoiy pedagogika” atamasi kim tomonidan va qachon fanga kiritilgan?
- 3.Ijtimoiy pedagogikanihg ob’ekti va predmeti haqida tushuncha berihg?
- 4.Ijtimoiy tarbiya, ijtimoiy ta’lim tushunchalarini ta’riflab berihg?
- 5.Ijtimoiy pedagogik nazariya va amaliyoti printsiplariga izox berihg
- 6.Nima sababdan XX asrda ijtimoiy pedagogika fani va faoliyatiga ijtimoiy talab kuchaydi?

### **Foydalanilgan adabiyotlar.**

- 1.V. A. Nikitin. «Ijtimoiy pedagogika». Oliy o`quv yurtlari talabalari uchun o`quv qo`llanmasi. M. 2002 y. (ruscha).
- 2.SH. A. Amonashvili. «Pedagogik izlanish». T. «O`qituvchi». 1990y.
- 3.M.A.Galaguzova tahriri ostida. “Ijtimoiy pedagogika”-M.2003.
- 4.A.V.Mudrik. “Ijtimoiy pedagogika”-M.2003.
- 5.V.T.Boncharova.- “Ijtimoiy pedagogika” M.1994.
- 6.I.S.Kon. Bola va jamiyat -M.1998.
- 7.Xorijda Ijtimoiy pedagogika va ijtimoiy faoliyat. 1-nashr. M.1991

Ijtimoiy pedagogika garchi u avvaldan yurtimizda pedagogik bilim soxasi va fan sifatida mavjud bo`lgan bo`lsa xam, O`zbekiston uchun yangi xodisa va tushunchadir. Uning mustaqil fanga aylanganligi va amaliy tajribalarining tizimlashtirilmaganligining sabablari O`zbekiston tarixiy rivojlanishining murakkabliklari va karama-karshiliklari bilan izoxlanadi. Ijtimoiy pedagogikaga salbiy ta’sir ko`rsatgan xodisalarga XX asrning 30 yillarda boshlangan ijtimoiy tarbiyaning diskreditatsiyalashuvi, milliy olimlar va pedagoglarni xorij tajribasi va chet elliq xamkasblaridan ajratgan “temir pard”ning tushirilishi, umuminsoniy kadriyatlarni sinfiy kadriyatlarga almashtirilishi, ijtimoiy muammolar xaqida jim turish siyosati, raxmdillik, mexr-muruvvat an’analaring yo`k qilinishi kiradi.

Bugungi kunda ijtimoiy pedagogikaga kizikish **jamiyat taraqqiyotining extiyojlarini va davlatning ijtimoiy buyurtmasi** asosida paydo bo`ldi.

Xozirda respublika **siyosiy, iqtisodiy, ta'lim va ma'rifiy-madaniy isloxitlarni** boshdan kechirmokda. Ijtimoiy tuzilmalarni insonparvarlashtirishning yangi tamoyillari, bozor iktisodiyoti munosabati konunlari, mafkuraviy va axlokiy tamoyillarning o`zgarishi ishsizlik, moddiy etishmovchilik, bolalarning nazoratsizligi, oilalarning ajralib ketishi, gayri ijtimoiy xodisalar-alkogolizm, narkomaniya, jinoyatchilik, foxishalik kabi ijtimoiy muammolarni keskinlashuviga sabab bo`lmokda. Bu xolatda birinchi navbatda bolalar, so`ngra esa kattalar ijtimoiy yordamga muxtojdirlar. Bunday sharoitlarda jamiyatning ijtimoiy muammolariga boglik bo`lgan pedagogik masalalarni xal kiluvchi, uning ijtimoiylashuvi jarayonida shaxsga yordam beruvchi mutaxassis sifatida ijtimoiy pedagogga talab paydo bo`ladi.

Muxtojlarga ijtimoiy-pedagogik yordamni amalga oshirish, jamiyatda insoniylik, fuqarolarning xak-xukuklarini amalga oshirishga asoslangan **yangi demokratik kadriyatlar** paydo bo`lgani bilan xam izoxlanadi. Bu masalaning axamiyatiligi davlatimizning boshkaruv tizimlari tomonidan mustaqil likning ilk kunlaridanok angangan. **Quyidagilar bundan dalolat beradi:**

- 1) **kuchli ijtimoiy siyosatni respublika taraqqiyotining ustuvor yo`nalishi sifatida e`lon qilinishi;**
- 2) **axolinling kam ta'minlangan katlamlarini ximoya qilish yuzasidan bir kator konun va farmonlarning kabul qilinishi;**
- 3) **sobik ijtimoiy ximoya muassasalarining moddiy texnik bazasining yaxshilanishi va yangilarining ta'sis etilishi;**
- 4) **“Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” ning xar tomonlama barkamol shaxsni shakllantirishga karatilgan ijtimoiy pedagogik choralar majmuasi sifatida joriy qilinishi.**

O`zbekiston fuqarolari xayotida ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash masalasi Prezident I. A.Karimov asarlari va chikishlarida xam muxim o`rin tutmokda. Ularda insoniylik, mexribonlik o`zbek xalkining ajralmas xususiyati ekanligi ta'kidlanadi va ijtimoiy xarakterdagi ko`pgina muammolar- soglikni saklashni, maktab va shifoxonalarning moddiy-texnik bazasini yaxshilash, yashash va sport majmularini kurish, ko`p bolali oilalarga yordam berish muxokama qilinadi.

Bundan tashkari ta'lim mazmuniga shaxsni ijtimoiylashuvi masalasi asosiy g`oya sifatida kiritilayotgan xozirgi vaktda ijtimoiy pedagogikani fan sifatida o`kitishni takozo etadi. Buning uchun mazkur fanning mazmun-moxiyatini aks ettiruvchi darslik xamda o`quv ko`llanmalari g`oyatda zarur. YUKoridagi bir kator omillarni xisobga olgan xolda ushbu kitob yaratildi.

Ijtimoiy pedagogikaning fan sifatida rivojlanishi ancha kadimiylitka borib tutashadi. Uning kadimiyligi buyuk mutafakkirlarning ilmiy karashlarida o`z tasdigini topgan.

Ijtimoiy pedagogikaning fan sifatida rivojlanishi:

**Birinchi boskich -kadimgi davrlardan XVII asrgacha bo`lgan davrni o`z ichiga oladi.** Bu davrda faktlar to`planishi, tarbiya tajribasining anglanishi, pedagogik va ijtimoiy nazariyalarning shakllanishi ro`y bergen. Ijtimoiy

pedagogikaning bu rivojlanish boskichi tarbiyani ijtimoiy xodisa sifatida asta-sekin tan olinishi bilan xarakterlanadi.

Dastlab tarbiya faoliyat turi sifatida yuzaga kelgan bo`lsa, keyinchalik esa o`ziga xos faoliyat turiga aylangan va bu bilan shugullanuvchi odamlar-tarbiyachilar paydo bo`lgan. Vakt o`tgani sari tarbiya jarayoni xam murakkablashib borgan, yosh, jins, mazmuniga ko`ra farklana boshlagan, uning axlokiy jixatlariga e'tibor karatila boshlagan. Juft oilalarning oilaviy tarbiya tajribasi xam ommalasha boshlagan. Bundan tashkari, arxeologik ma'lumotlar ibtidoiy jamoada kasal va yaradorlarga yordam ko`rsatilganligini bolaligida olingen jaroxatlar tufayli vafot etganlarning skeletlari asosida to`la tasdiklanadi.. Bu kabi karashlar etnografik ma'lumotlarda paydo bo`lish bilan xam o`z tasdigini topgan. Ibtidoiy jamoa tuzumida yashagan barcha elatlarda mexnatning jins va yoshga karab ajratish an'anasi bo`lgan. Mavjud yoshlarni muntazam ravishda turli kasb-xunarlarga o`rgatishgan.

Bularning xammasi ibtidoiy jamoada ijtimoiy-pedagogik tajribaning ilk ko`rinishlari mavjud bo`lganligi xaqida tasavvur qilishga imkon beradi.

Agar ibtidoiy davrni ijtimoiy pedagogik amaliyotning vujudga kelishiga zamin yaratgan bo`lsa, kadimgi dunyo ilk tsivilizatsiyalarining paydo bo`lishi ijtimoiy-pedagogik fikrning shakllanishiga kuchli ta'sir etadi. Ijtimoiy-pedagogik fikrning shakllanishi yozuv xamda pedagogik g`oyalarning yozma manbalarda saklanib kolishi xodisasi bilan boglikdir.

Faqatgina miloddan avvalgi I ming yillikning o`rtalari va milodning ikkinchi yarmida ijtimoiy pedagogik g`oyalarni yaratuvchilarning nomlari ma'lum bo`la boshlaydi.

Qadimgi dunyoda jamiyat a'zolariga ta'lim berish va tarbiyalash jarayonida ijtimoiy omillarni hisobga olish an'anasi vujudga keladi. Eramizdan oldingi V asrda **Demokrit** tarbiyaning ijtimoiy sharoitlarga bog`liq ekanligini, **Platon** (eramizdan oldingi V – IV asrlar) tarbiyani inson tug'ilganidan to o`lishiga qadar davom etishi haqida hamda jamiyat taqdirini undagi barcha fuqoralarning ta'limiy – tarbiyaviy rivojlanishiga bog`liq ekanini, **Aristotel esa (E.O. IV asr)** jismoniy, aqliy va axloqiy rivojlanishi birga ko`shib olib borish haqidagi g`oyani ilgari surdilar. Aristotel insonni har tomonlama rivojlanishi deganda faqat antik polisning ozod (erkin) a'zosini nazarda tutgan va qul uning uchun atigi «gapiruvchi quroq» bo`lgan.

Mashhur rim pedagogi **M.F.Kvintilian** o`zining «**Notiqni tarbiyalash**» nomli pedagogik asarida, oilaviy hayot sharoitlari (oila ichida til orqali muloqatni ham qo`shganda) odamning rivojlanishiga umuman ta'sir qilishini ta'kidlaydi.

Qadimgi davrlardagi ta'lim va tarbiya tizimi o`zining aniq ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy xayotining o`ziga xos xususiyatlari aks etib turadi. Bunga misol bo`lib mashxur Sparta va Afina tarbiya tizimlari bo`la oladi. Ular o`rtasidagi tafovut faqat ijtimoiy va siyosiy-ideologik tartiblardagi farqlar bilan aniqlanadi.

Sharqning kuldorlik davlatlarida ijtimoiy pedagogik g`oyalar bir nechta mualliflar tomonidan shakllantirilgan va odatda mukaddas kitoblar shaklida butun xalk mulkiga aylangan (Xitoyda-SHo`qit, Xindistonda-Vedalar, Misrda-Tot xudosi kitoblari, O`rta Osiyoda-Avesto va boshka).

Ijtimoiy pedagogika fan sifatida respublikamiz mustaqil likni ko`lga kiritgandan so`ng o`kitila boshlagan bo`lsa-da, ijtimoiy tarbiya, ijtimoiy faoliyat-

ijtimoiy ximoya ko`rinishida kadimiy ildizlarga ega. Ilk diniy-falsafiy (Avesto) va adabiy (Alpomish, Go`ro`gli) manbalarda biz insonning ijtimoiy kelib chikishi nukta nazaridan pedagogik karashlarning aks etishini ko`ramiz. Keyinchalik VI-VII asrlarda Markaziy Osiyo xududida islom dinining tarkalishi yangi ma`naviy, axlokiy kadriyatlarni olib keldi va ular mintakada oila va jamiyat tarbiyasi tizimiga ta`sir ko`rsatdi. Markaziy Osiyoning arab xalifaligi tarkibiga kirishi madaniy almashuv, fikr va karashlarning erkin kurashi, o`zaro munosabatlarning shakllanishiga olib keldi. Moddiy barqarorlik va ishlab chikarish xamda savdo rivoji extiyojlariga asoslangan yangi ijtimoiy-iktisodiy xolat ma`naviy va madaniy xayotning yuksalishiga, dunyoviy ilm va fanlarning gullab-yashnashiga, fors, arab, kadimgi yunon madaniyati yutuklarini o`zlashtirishga yordam berdi.

### **O`rta Osiyo qomusiy olimlarining ijtimoiy pedagogik g`oyalari.**

Ijtimoiy pedagogik g`oyalalar va nazariyalarning shakllanishida Sharq uyg'on ishi davri olimlarining asarlari bekiyos o`ringa ega. Ular faoliyatining moxiyati shuki avval mavjud bo`lgan o`sha davrni ijtimoiylashtirish usullari ilmiy asoslangan tizimi asosida to`planganligidadir. Etuk olimlarning faoliyat xarakteri-ilm bilan mashgul bo`lish ijtimoiy pedagogik karashlarning mazmuniga o`z ta`sirini ko`rsatdi.

**Buyuk olim Al-Xorazmiy (783-850 y)ning asarlari yorkin didaktik xarakterga egadir. U savol-javob metodi orkali bilimlar kulga kiritilishini, bu jarayonda shaxs boshkalar bilan munosabatlarga kiritilishini, jamiyatning faol a`zosiga aylanishini ta`kidlagan.**

Al-Xorazmiy, Forobiy, Beruniy, Ibn Sino, Ulugbek-kabi olimlar o`z ilmiy va pedagogik faoliyatlarida rivojlantiruvchi, tarbiyalovchi va ta`lim beruvchi ta`sir kuchlarini o`sib kelayotgan avlodga karatish g`oyasini tushunishgan va buni tadbik etishgan. Avvalambor ular ta`limning maqsadi xayotga tayyorlash, axlokiy norma va koidalar, kasbiy malakalar va chukur bilimlarga ega bo`lishida,- deb bilganliklarida namoyon bo`lgan.

Buyuk komusiy olim **Abu Rayxon Beruniy** (973-1050 y) ta`lim jarayoniga ko`llaniladigan ilmiy usullarni ishlab chikkan. U, shuningdek, ta`lim tamoyillarini xam tasniflagan. Uning pedagogik karashlarining ijtimoiy yo`naltirilishi u axloknii ijtimoiy xususiyatlar va xissiyotlarning ifodasi sifatida tushunganligida o`z ifodasini topgan. Olimning tarbiya, shaxsning shakllanishida va jamiyatdagi amaliy xayot uchun ilm va mexnatning axamiyati xaqidagi g`oyalari xozirgacha muximligini saklab kolgan.

Buyuk komusiy olim **Abu Ali ibn Sino** (980-1037 y) o`z davrining barcha bilim soxalarini kamrab oluvchi katta ilmiy meros koldirgan. Uning barcha asarlarida pedagogik karashlar mavjud. Biz uning bilim, iroda va insonning rivojlanish jarayonidagi maqsadga intiluvchanligi, atrof muxit ta`siri, axlokiy va mexnat tarbiyasi, muomala san`ati, bolalarni jamoada o`kitish xaqidagi g`oyalari muxim xisoblanadi.

Forobiy, ibn Sino, Beruniy ta`lim muammolari bo`yicha bir xil fikrlar bildirgan va insonning jamiyatga sermaxsul xizmat qilishi uchun o`z akliy, jismoniy, axlokiy, estetik va mexnat kobiliyatlaridan samarali foydalanish imkonini beruvchi ta`lim vazifasini ajratib ko`rsatganlar.

**Feodalizm davri** tarbiyasining o`ziga xos xususiyatlari asketizm, dunyo dinlari koidalariiga kattik amal qilish bo`lgan. O`sha davrning (VI-XII asrlar) ijtimoiy-pedagogik g`oyasini yaratuvchilari o`sib kelayotgan avlodga singdirmokchi bo`lgan axlokiy kadriyatlar orasida xAMDARDLIK, yakinlarga yordam, xususan kasallar va nochorlarga yordam kabilar paydo bo`ldi.

**XV-XVI asrda avval Italiyada, so`ngra Evropaning boshka davlatlarida kapitalistik munosabatlar rivojlana boshladi. Gumanizm** (insoniylik) tushunchasi yangi madaniyat markazida iloxiylik emas, inson turishi guvoxlik berardi. Uning o`zi xam kalban, xam jisman go`zal bo`lishi lozim. Faqatgina inson ongi, kuchi, muvaffakiyatiga ishonchi, faolligi, irodasi tufayli barcha kadriyatlar va o`z baxtingning yaratuvchisiga aylana oladi. XIV-XVI asrlarda gumanistlarning aksariyati pedagog bo`lishgan yoki pedagogik nazariyaga murojaat qilishgan. Gumanizm g`oyasi pedagogikada xuddi ana shu davrlardan boshlab o`rnasha boshlagan.

Asl tarbiya o`z moxiyatiga ko`ra doimo go`zallik xaqida, uning kelajagi xaqidagi gamxo`rlikni bildirgan. Uyg'on ish davrida ijtimoiy gumanizm g`oyalarining amalga oshirila boshlanishi mashxur italiyalik pedagog-gumanist Vittorino de Genotre (1378-1446) tomonidan ilk marta **“Kuvonch uyi” nomli internat mакtabning** yaratilishi bilan boglik. SHuni ta'kidlash joizki, ta'riflanayotgan davrda din, pedagogika va ijtimoiy-pedagogika bir-biriga uzviy ravishda rivojlangan.

Evropada cherkov uzok vakt mobaynida **“nogiron bolalar”** raxnamosi bo`lgan. Unga nafaqat ruxiy yordam so`rab, balki tibbiy, moddiy yordam so`rab, adolatsizlikdan ximoya so`rab murojaat qilishgan. Butun dunyoda diniy tashkilotlarining boy ana`nalari mavjud. Masalan, Evropada antik davrlardan buyon ota-onasiz kolgan bolalarni ibodatxonalar eshigi oldiga ko`yib ketishgan. Manbalarga ko`ra ota-onasiz kolgan bolalar uchun ilk tarbiya uylari IV asrda Kesariya (Kichik Osiyo) shaxrida episkop **Vasiliy Kesariyning** tashabbusi bilan paydo bo`lgan. 787 yilda bunday muassasa Milandagi soborda xam paydo bo`lgan. Uzok vakt u Evropada yagona bo`lib tashkilot kolaverdi **va faqat XIV asrga kelib tarbiya uylari soni 30 tagacha ko`paydi.** kizigi, endi unda faqat tarbiya bilan shugullanishmagan, ularda amaliy ishlar xam olib borilgan: onalarga yordam berilgan, bolalarni oilalarga berishgan, ularning tarbiyasini nazorat qilishgan. Keyinchalik xam bolalar uylari ruxoniylar tomonidan boshkarilgan. Parijda 1640 yil ruxoniy **Vintsentom Depolen** tomonidan asos solingan tarbiya uyi juda mashxur bo`lgan. U uyni kirol Lyudovik XIV tomonidan moliyalashtirishga erishgan. Mexribonlik bilan shugullanuvchi organlar- yirik cherkov tashkilotlari xam tuzila boshlagan.

**Ijtimoiy pedagogika rivojining ikkinchi davri-XVII-XIX asrlar- ijtimoiy-pedagogika eng ilgor g`oyalar va ilmiy kontsepiyatslar bilan boyitilgan davr bo`ldi desak, xato bo`lmaydi.**

XVIII-XIX asrlar (burjua-demokratik inkiloblar davri) olimlarining (pedagog, faylasuf, sotsiolog, psixologlar) davlat va jamoat institutlari bilan birga ijtimoiy-pedagogik muammolarni hal qilish g`oyalarining paydo bo`lishi davridir. Tarbiya masalalari jamiyat isloxtlari, inson xukuklari tengligi bilan boglana boshlandi. Shvetsariyalik buyuk pedagog **Logann Genrix Pestalotstsi** (1746-1827 y) o`z

faoliyatida ijtimoiy pedagogik nazariyani va amaliyotni birlashtirgan va o`z mablaglari evaziga etimlar uchun uylar ochgan.

**XIX asr shunisi bilan xarakterlikni, bu davr mobaynida ijtimoiy pedagogikaning pedagogikadan ajralishi jarayoni sodir bo`lgan.** Ikkinchi tomonidan uning boshka fanlar- psixologiya, ijtimoiyogiya, tibbiyot, falsafa kabi fanlar bilan yakinlashuvi xam ro`y bergen.

19 asrda ijtimoiy pedagogikaning asosiy yo`nalishlariga quyidagilar tegishli:

- 1) *ijtimoiy pedagogikaning nazariy asoslarini ishlab chikish-* bu uning fan bo`lishiga olib kelgan. Bu yo`nalishga mafkurani xam kiritsa bo`ladi.
- 2) Ta`lim soxasidagi *ijtimoiy pedagogik faoliyat*. Gap ijtimoiy pedagogik ta`lim, tarbiya maqsadi va xarakteriga ta`siri xaqida ketmokda.
- 3) *Xayriya va o`quv-tarbiya muassasalarining tuzilishi bo`yicha ijtimoiy pedagogik faoliyat* (Bazedovning “filantroplari”, Ouenning “yangi institut” kontseptsiyalari);
- 4) *ijtimoiy pedagogikaning xarakat doirasining kengayishi*, “nochor” va tanlab olingan bolalardan tashkari unga boshka toifadagi katta yoshdagilar xam kiradi. Asosiysi, ijtimoiy pedagogika o`z faoliyatida davlat darajasiga chikadi va o`z sheriklari bilan birga talablarini konuniy rasmiylashtirishga erishadi. XIX asrning 60-70 yillarida Germaniya, Angliya, AKSHda ijtimoiy konunchilik tizimlari yaratiladi.

Ijtimoiy pedagogika rivojlanishining barcha yo`nalishlari uning eng asosiy vazifasini-bolalarning xukuklarini ximoya qilishni birlashtiradi.

Urta asrlar davrida ta`lim va tarbiya tizimi aniq ifodalangan tabaqaviy-ideologik xarakter kasb etgan bo`lib, u din va cherkov tomonidan belgilanar edi. Ammo, feodalizm tuzimining emirilishi va Uyg`on ish davrlarida gumanizm idealogiyasi va odamning tabaqaviy qaramlikdan ozod bo`lish g`oyalari qaror topa boshlaydi.

T. Mor o`zining «**Utopiya**» nomli kitobida, T. Kompanella esa «**Quyosh shahri**» nomli asarlarida endi tabaqlanmagan ta`lim va tarbiya g`oyalari ilgari surib, erdag'i xayotni yagona qimmatga ega bo`lgan narsa deb hisoblaydilar.

Yangi davrda burjuaziya tartib-qoidalari o`rnatila borgan sari hamda odamning bilish va tajriba – amaliy faoliyati ijtimoiy rivojlanish omili sifatida angvana boshlangach, Platonning odamga «**beshikdan – qabrgacha**» ta`lim berish kerak degan g`oyasi qayta tiklanadi va **pragmatik tarbiya kontseptsiyasini** vujudga keladi. YA. A. Komenskiyning pedagogik asarlarida har bir odam tomonidan butun umri davomida uzlusiz tarzda pansofiyani (hammani hamma narsani bilishi) egallashi lozimligi haqidagi kontseptsiya rivojlantiriladi. D. Lokkning «**Tarbiya haqida fikrlar**» nomli asarida endi dunyoga kelayotgan burjua kadriyatlari tizimiga muvofiq bo`lg`usi jetlmenni o`qitish va tarbiyalash dasturi taqdim etiladi.

Ma`rifat, ma`lumot asri deb nomlangan XVIII asrda jamiyat a`zolari ongiga ta`lim va tarbiya jamiyat rivojlanishida yaratuvchi –o`zgartiruvchi omil deb singdiriladi. Ozodlik, tinchlik, birodarlik kabi qadriyatlarga muvofiq tarzda odam rivojlanish vositasi emas, balki doimo uning maqsadi bo`lmog`i lozim, deb uqtiriladi.

Mana shunday g`oyalarga muvofiq tarzda erkin tarbiya kontseptsiyasini faol rivojlantirila boshlanadi. Yangi nasldagi odam zotini «**yaratib**», shular orqali jamiyatni qayta o`zgartirish g`oyasi ilgari surildi. Ulug` Frantsuz burjua revolutsiyasi davrida mamlakatda tabaqlanmagan umumta`lim tizimini rivojlanishga qaratilgan

bir qator reformalar amalga oshirildi. SHu sababli ham Frantsiyada XVIII asrning oxiriga kelib 59% aholi savodli edi.

XIX asrda fabrika va zavod ishlab chiqarishining rivojlanishi, Evropada sodir bo`lgan bir qator urushlar, ishchi va dehqonlarning revolyutsion chiqishlari, milliy ozodlik harakatlari va boshqa ko`plangan voqeа hamda omillar madaniyat va ta`lim – tarbiya sohasida demokratik tendentsiyalarning joriy etilishini muqarrar qilib qo`ydi. Endilikda jamiyatning olg`a siljishi nafaqat xukmron sinf vakillarining, balki xalqning barcha qatlamlarining ma'lum darajada ma'lumotisiz mumkin bo`lmay qoldi. Lekin, o`sha davrda ham ta`limning asosan shunday shakl va darajalari rag`batlantirildiki, toki ular xukmron sinflarning yashashiga tuskinlik qilmasin...

Turli xildagi pedagogik loyixalar va tizimlar, xuddi R. Ouenning ta`lim kompleksi kabi davlat tomonidan qo`llab – quvvatlanmadи hamda erkin bozor raqobati sharoitida boshidanoq katta qiyinchiliklarga duch keldi va mag`lubiyatga uchradi.

G. Kershenshteyner «Fuqaroviylar tarbiya» kontseptsiyasini ilgari surdi. SHunga ko`ra xalq «mehnat» mактаби davlatga so`zsiz bo`ysinuvchi o`quvchilarni tarbiyalashi, har bir bola o`zining ijtimoiy kelib chiqishiga qarab bo`lg`usi kasbiy faoliyatga tayyorlanmog`i lozim edi.

Mana shunday turlicha kontseptsiyalar, pedagogik yondashishlar ham pedagogika fanini olg`a qarab rivojlanishida ma'lum darajada progressiv rol o`ynadi.

Ingliz faylasufi va pedagogi **Robert Ouenning** ijtimoiy pedagogik faoliyati bir kancha kizikarli va sermaxsul tajribalardan iborat. Nyu-Lenarkda “**Inson xarakterini tuzishni yangi instituti**”ni ishchilarining turmush darajasini yaxshilash uchun yaratib, u amaliyotda ishlab chikarish ta`limini madaniyat bilan boglab ko`ydi. Jaxonda ilk marta didaktik o`yinlar o`tkaziladigan, bolalarning jismoniy xolati xaқida gamxo`rlik kiluvchi muassasalar u tomonidan tuzilgan.

Ingliz faylasufi **Gebert Spenser** (1820-1903 y) oilaning shaxs shakllanishidagi o`rnı xaqidagi ijtimoiy pedagogik g`oyalar bilan to`ldirilgan asarlar yaratgan.

XIX asrning 2 – chi yarmida «**Nemis o`qituvchilarining otasi**» hisoblangan **Adolf Disterveg** (xozirgi kunlarda voyaga etmagan yoshlar tomonidan sodir etiladigan huquqbazarliklar deb atalmish) hamma narsadan mahrum etilgan nochor va qorovsiz qolgan, boshpanasiz bolalar tomonidan sodir etilishi mumkin bo`lgan jinoyatlarni oldini olish uchun olib boriladigan pedagogik faoliyatni belgilash, ko`rsatish uchun «**ijtimoiy pedagogika**» so`z birikmasini taklif etgan edi. **XX asr boshlariда esa mashxur nemis faylasufi Paul Natorp** jamiyatning barcha tarbiyanuvchi kuchlarini bir butun, yaxlit xolga keltirish (birlashtirish) g`oyasini o`rtaga tashladi. Bundan ko`zlangan maqsad halq orasida madaniyat va maorifni keng tarqatish, umumpedagogik ma'lumot berish edi. SHuningdek, u tarbiyalovchi ittifoqlar, ya`ni – «fuqorolar ittifoqi» ni tuzishga chaqirdi. Ushbu ittifoqlar uning fikricha yuqorida aytilgan rejalarini amalga oshirmog`i lozim edi. Mana shu faoliyatlarning barchasini u **ijtimoiy pedagogika** deb atadi.

Aynan shu vaktdan ijtimoiy pedagogikaning mustaqil fan sifatida rivojlanishining **uchinchи boskichi bosylanadi**. XX asr inson tsivilizatsiya tarixiga ilmiy-texnikaviy inkiloblar asri sifatida nom koldirdi. Fan ishlab chikarish ob`ektidan iktisodiy va madaniy soxanining etakchi omiliga aylandi. Ilmiy inkiloblar ijtimoiy

pedagogikaning keyingi rivojiga o`z ta'sirini ko`rsatdi. Bu avvalambor falsafa orkali amalga oshdi. Ijtimoiy pedagogikaning boshka fanlar -psixologiya, fiziologiya, anatomiya, tarix, sotsiologiya va boshkalar bilan yakinlashuvi ro`y berdi. Eng asosiysi-XX asrda insonning muammolari, uning tarbiyasi va ta'limi uchun ijtimoiy sharoitlarni yaratish zamonning eng global muammosiga aylanadi.

XX asrda yoshlarning ijtimoiylashuvi muammosi nafaqat umummilliy, balki xalqaro xarakterga ega bo`la bordi. Ta'lim va tarbiya, xususan ijtimoiy tarbiya xukmron doiralar tomonidan odamni individ sifatida rivojlanishida bir vositagina emas, balki o`sha davrda xukmron bo`lgan ijtimoiy, siyosiy va ideologik tartiblarni barqarorlashtirish vositasi sifatida ham olib qaraldi. SHunga muvofiq tarzda ko`pchilik mamlakatlarda barcha jamiyat a'zolarini o`qitish va ularga madaniy tarbiya berish davlat dasturlari ishlab chiqila boshlandi. Davlat va siyosiy tashkilotlarning, harakatlarning rahbarlari o`zlarining saylovoldi dasturlariga ta'lim va tarbiya masalalarini albatta krita boshladilar. Albatta, bu shaxslar birinchi navbatda o`z manfaatlarini ko`zlagan bo`lsalarda, shu bilan birga unda ma'lum ma'noda jamiyatni gumanizatsiyalash va demokratlashtirish, shu asnoda har bir shaxsning rivojlanishi uchun ham sharoit yaratib berish kabi masalalar ham qo`yildi.

Mana shu tendentsiyalar pedagogik kontseptsiyalar va eksperimentlarda o`z ifodasini topdi. Endi insonga ta'lim va tarbiya berish odamni butun rivojlanish yosh boskichlarida uni ijtimoiylashtirish vositasi sifatida olib qaraladigan bo`ldi. Har bir jamiyat a'zosi o`zining ongini har tomonlama shakllantirishi, insoniyatning kelajagi uchun mas'uliyatni chuqur sezishi kabi masalalar vazifa qilib ko`yildi. Ijtimoiy tarbiyaning mana shunday nazariyasi va amaliyoti tushunchasiga binoan «ijtimoiy faoliyatga loyiqliq» uning maqsadi qilib e'lon qilindi.

Ana shunday jarayonlar oqimida ijtimoiy ta'lim tizimida, ya'ni, «anomal odamlar»ga ta'lim berish va tarbiyalashda katta o`zgarishlar sodir bo`ldi. XX asrning 2 – yarmida G`arbiy Evropa mamlakatlarida pedagogika nazariyasida va amaliyotida jamiyatdagi xulq – atvori salbiy xarakterda bo`lgan shaxslarni har tomonlama o`rganish g`oyasi ilgari suriladi. Ammo, milliy – etnik, siyosiy, diniy hamda jismoniy va aqliy jihatdan ojiz shaxslarni ajratib olishning iloji bo`lmaydi.

Yangi madaniy norma asoslарини yaratishga (odamlar o`rtasidagi farqlarni hurmat etish, odamlar o`z rivojlanishida qanchalik og`ir salbiy xulq – atvorga ega bo`lsada, ularni ta'lim – tarbiya olishga yaroqli deb hisoblash) kirishildi. Barcha turdagи internatlar va maktablar, dispanserlar, segregatsion muassasalar deb, maxsus ommaviy ta'lim tizimidan ajralgan, bekik muassasalar esa – diskriminatsion (haq – huquqlari cheklangan, kamsitilgan) deb tan olinadi.

Mana shu tizimga bolani joylashtirib qo`yish – uning huquqlarini buzilishi, deb qoralandi. Yangi terminologiya: «maxsus xojat va extiyoji bolalar», «muammoga ega bo`lgan bolalar», kabi iboralar paydo bo`ldi. Oldin ularni **«anomal bolalar»** deb atashardi. Endi – «tentak», «imbetsil», «daun», «mayib», «aqli past», «lunatik» – «oyparast» kabi ta'riflar odobsizlik deb hisoblanadigan bo`ldi.

YUqorida qayd etilgan jarayonlar, tendentsiyalar XX asrning 80 – yillarida asta – sekin ko`pchilik rivojlangan mamlakatlar axolisining ijtimoiy ongida ijtimoiy pedagogik fikr va amaliyotini to`la huquqli oqimi sifatida mustahkam joy oldi.

**XX asrning 50-yillariga kelib ijtimoiy pedagogika muammolarining global darajaga etganiga BMT Bosh Assambleyasi tomonidan 20.11.1959 yil va 20.11.1989 yilda bola xukuklari deklaratsiyasini kabul qilinganligi guvoxlik beradi.** Unda aloxida e'tibor etimlarning ijtimoiy ximoyasiga, ko'p bolali oilalar, kam ta'minlangan oilalar bolalariga ijtimoiy yordam ko'rsatishga karatilgan.

**XX asrning 60-yillarida** ijtimoiy pedagogika xukukbuzarlik sodir etgan bolalarga yordam berish, bolalar uyida tarbiya ishlari o'tkazish maqsadidagi ijtimoiy tarbiya asosi sifatida ta'rif etila boshladi.. Ijtimoiy pedagogika pedagogikani rivojlanishi bilan birga chet ellarda ijtimoiy pedagogika soxasidagi mutaxassislarining kasbga oid faoliyati xam rivojlandi. Xususan, XX asrning 70-yillarida Germaniyada oliy ma'lumotli pedagoglar tayyorlana boshlandi.

Bizning respublikamizda ijtimoiy pedagogika an'ana va tamoyillarinihg tiklanishi murakkab sharoitlarda amalga oshmokda; davlat ta'lim standartlari, mutaxassisliklar, darsliklar, o'quv rejalari va dasturlarning etishmasligi, ijtimoiy muxofazaning davlat siyosati darajasiga ko'tarilishi chet el mutaxassislari bilan yakin xamkorlik asosida bo'lishi kerak. CHunki Germaniya, Angliya, AKSHlarda boy ijtimoiy pedagogik tajriba mavjud.

## **Ma'ruza-2**

### **Mavzu:Ijtimoiy pedagogikaning maqsadi, vazifalari, ob'ekti va predmeti.**

1. «Ijtimoiy pedagogika» so'z birikmasinihg nazariy va amaliy ta'rifi
2. Ijtimoiy pedagogika nazariya va amaliyot darajalari va turlari
3. «Ijtimoiy pedagogika» va «Ijtimoiy ish» tushunchalarinihg tavsifi
4. Ijtimoiy pedagogika nazariyasi va amaliyotinihg ob'ekti, predmeti
5. Ijtimoiy tarbiya, ijtimoiy ta'lim va ijtimoiy pedagogik texnologiya
6. Ijtimoiy pedagogika nazariyasi va amaliyotinihg printsiplari

### **Tayanch tushunchalar:**

Ijtimoiy yordam, jamoatchilik, ijtimoiy gurux, ijtimoiy xizmat, mentalitet, depersonalizatsiya, ijtimoiy tarbiya, ijtimoiy ta'lim, trenihg, loyihalashtirish, tehglashtirish, identifikatsiya, noadekvat rivojlanish, sub'ekt-ob'ekt, gumanistik yondashuv, ijtimoiy-pedagogik faoliyat, texnologiya

### **Nazorat uchun savollar**

1. Ijtimoiy pedagogika nazariyasi va amaliyotinihg mazmuni va vositalari nimalardan iborat?
2. Ijtimoiy pedagogika nazariyasi va amaliyotinihg ob'ekti va predmeti nima?
3. Ijtimoiy pedagogika nazariyasi va amaliyotinihg printsiplariga izox berihg?
4. Ijtimoiy tarbiya, ijtimoiy ta'lim va ijtimoiy pedagogik texnologiya tushunchalarini ta'riflab btrihg?
5. Ijtimoiy-pedagogik faoliyat metodlari va vositalari qanday qo'llaniladi?

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

- 1.V. A. Nikitin. «Ijtimoiy pedagogika». Oliy o`quv yurtlari talabalari uchun o`quv qo`llanmasi. M. 2002 g. (ruscha).
- 2.SH. A. Amonashvili «Pedagogik izlanish». T. «O`qituvchi». 1990 yil.
- 3.M.A.Galaguzova tahriri ostida. “Ijtimoiy pedagogika”-M.2003.
- 4.A.V.Mudrik. “Ijtimoiy pedagogika”-M.2003.
- 5.V.T.Boncharova.- “Ijtimoiy pedagogika” M.1994.
- 6.I.S.Kon. Bola va jamiyat -M.1998.
- 7.Xorijda Ijtimoiy pedagogika va ijtimoiy faoliyat. 1-nashr. M.1991

XX asrga kelib pedagogik bilimlar va faoliyatning butun bir tizimidan ijtimoiy pedagogikadek, pedagogika nazariyasi va amaliyotining nisbatan mustaqil bo`lgan bir soxasining ajralib chiqishi uchun etarlicha shart – sharoitlar paydo bo`ldi.

SHuni aytib o`tish joizki, ba`zi bir pedagogika nazariyotchilari haligacha «**Ijtimoiy pedagogika**» iborasini qabul qila olishmayapti. Buning sababini ular shunday izoxlashadi: – barcha pedagogik nazariya va amaliyot ijtimoiy ehtiyojlar natijasida tug`ilgan va shularni amalga oshirishga yo`naltirilgan. U insonni ijtimoiylashtirishning maqsadli yo`naltirilgan vositasi edi va shunday bo`lib qoladi. U butkul ijtimoiy bo`lgani uchun ham pedagogik nazariya va amaliyotining biron bir qismini ijtimoiy pedagogika deb atash beadablik bo`ladi.

YUqorida bayon etilgan dalilning asosida ongli yoki ongsiz ravishda «jamoatga oid, jamoatchilik» va «ijtimoiy» tushunchalari aralashtirib yuboriladi. Odatda bu so`zlar rus tilida bir xil ma`noda, sinonim sifatida ishlataladi. Haqiqatan ham odamga ta`lim va tarbiya berishning maqsadi, mazmuni va vositalari jamiyat tomonidan iqtisodiy, siyosiy, ma`naviy jarayonlarning hamda ijtimoiy talablarning majmuidan kelib chiqadi. Ammo ijtimoiy extiyojlar ijtimoiy munosabatlarning faqat bir qisminigina tashkil etadi va uni amalga oshirish natijasi bo`lib, kishi tomonidan o`zining ijtimoiy mavqeini tiklashi yoki jamiyatda o`z o`rnini topishi, faoliyat ko`rsatishi hisoblanadi.

Bundan tashqari «**ijtimoiy pedagogika**» so`z birikmasi pedagogik nazariya va amaliyotning nisbatan mustaqil sohalari bo`lgan «**maktabgacha pedagogika**», «**maktab pedagogikasi**», «**xarbiy pedagogika**», «**davolash pedagogikasi**» va hak. Taxmin qilishicha, yaqin kelajakda bu haqda aniq bir nom topilmasa, «**ijtimoiy pedagogika**» degan ta`rifdan foydalanmoq maqsadga muvofiqdir.

**«Ijtimoiy pedagogika» nomi –uning ob`ekti Inson ekanligini ko`rsatadi.** Inson faqatgina bolalik paytida emas, balki butun umri davomida bu fanning ob`ekti hisobladi. Insonning ma`lum bir tomonlarini ijtimoiylashtirish jarayonida unga ta`limiy–tarbiyaviy yordam ko`rsatish esa ushbu fanning mazmunini tashkil etadi.

Ijtimoiylashish o`zining mazmuni va shuningdek vositalariga ko`ra odamning turli omillar bilan (tabiatdan boshlab to o`z o`zi bilan tamom bo`lgunicha) juda murakkab o`zaro bir – biriga ta`sir etishi, o`zaro munosabatga kirishishidir. Uni umuman olganda jamiyat va ayniqsa davlat amalga oshiradi. Ular doimo va turli shakllarda hamda turli darajalarda ushbu munosabatlar jarayonini boshqarib turishga chiqarilgandir. Bunda barcha xollarda pedagogik faoliyat maqsadli tashkil etilgan harakat sifatida aholining barcha qatlamlari, turli avlodlar va individlar orasida

ta’limiy – tarbiyaviy tadbirlar ijtimoiy kadriyatlar tizimiga kiritiladi. Istalgan bir jamiyat va davlat shunday bir odam tipini shakllantirishga harakat qiladiki, toki u davlat ko`zlagan ijtimoiy ideallarga mos keladigan bo`lsin. Davlat o`z fuqarolarini o`z jinsiy rollarini (erkak va xotin rollarini egallashlari), kasbiy (ijtimoiy xayotning barcha soxalarida omilkorlik bilan katnashish), siyosiy (qonunga bo`ysunuvchi, uni xurmat qiluvchi fuqaro bo`lib etishish) va boshqa xil ijtimoiylashuvlaridan manfaatdordir.

Insonning atrofdagi muxit bilan o`zaro alokaga kirishishi asosida rivojlanishini, uning ijtimoiylashish jarayoni deb ta’kidlash mumkin. Zero, u ijtimoiy norma – madaniyat, kadr-kimmatlar egallashi lozim. SHuningdek, jamiyatda insonning o`z kobiliyatlarini realizatsiya qilishi, nazorat qilishi, ijtimoiy tajribalarni egallah (bilimlar, kadr-kimmat, xulk-atvor koidalari) jarayoni ijtimoiy xodisa deb nomlanadn. Bolani ijtimoiylashtirish murakkab va davomli xodisadir. Bir tomonidan xar kanday jamiyat o`zining rivojlanish etapida ma’lum ijtimoiy, ma’naviy kadr-kimmatlar, o`zini tutish, axlokiy konunkoida normalarini ishlab chikadi.

Jamiyat, yosh avlod uzi yashab turgan jamiyatdagi konun - koidalarni egallab, uning teng xukukli a’zosi sifatida yashab, faoliyat kursatishini ko`zda tutadi. Buning uchun jamiyat ta’lim-tarbiya normasi orkali shaxsga ta’sir kursatadi Ikkinci tomonidan, atrofdagi olamda sodir etilayotgan turli xodisalar uning shakllanishiga uz ta’sirini kursatmay kolmaydi.

Jamiyat o`zaro munosabatda bo`lgan, o`zaro xarakatlanadigan xilma-xil ijtimoiy institatlarni o`zida namoyon kiladi. SHular orkali bola tomonidan ijtimoiy normalarni egallah jarayoni amalga oshadi. Bulardan ba’zilari bolani rivojlanishi va ijtimoiy shakllanishiga ta’sir kursatsa, boshkalari uning shaxsiy sifatlarini shakllanishiga ijobjiy ta’sir kursatadi. Bunday ijtimoiy institutlar katoriga- oila, ta’lim, madaniyat va din kiradi.

### **Ijtimoiy pedagogika fanining maqsadi va vazifasi.**

Ijtimoiy pedagogika fanining maqsadi- jamiyatda xar bir shaxsning xayotida uchraydigan ijtimoiy muammolarni bartaraf etish va xal qilishdan iboratdir. Ta’lim va tarbiya masalalari bilan shugullanish, keksalar , kariyalar, kasallar va bokuvchisini yukotganlar, mexribonlik uyida tarbiyalanayotgan

bolalar xolidan xabar olish. SHu jumladan foxishabozlik, narkomaniya va konunbuzarlikka karshi kurashish. Bu illatlardan jamiyatni, ayniksa kelajak avlodni ximoya qilish.

Ijtimoiy pedagogika fanining vazifasi quyidagi 4 boskichni o`z ichiga oladi:

1. Bolani va usmirni xakikatguy qilib tarbiyalash va voyaga etkazish;
2. SHaxsning mustaqil fikrlay olishi, muammoga duch kelganida uni mustaqil ravishda xal kila olishi va o`z munosabatini bildirishi;
3. Atrofdagi kishilar bilan erkin va madaniy xolda muomala qilishni o`rgatish;
4. Xayotda o`z oldiga kuygan maqsad va vazifalarini ongli ravishda tushunishga o`rgatish;

Ijtimoiy pedagogika va ijtimoiy faoliyat ishlarning rivojlanish tarixi juda yakin. Eng avvalo, ularni odamlarga aloxida gamxurlik va e'tibor talab etadigan madaniy – tarixiy an'ana birlashtirib turadi. Ijtimoiy pedagogika va ijtimoiy ishlarda **raxm – shafkat**, «**xayriya**», «**yordam**» kabi tushunchalar juda kup ishlatiladi.

*Ammo ularning anik ifodalangan o`ziga xos jixatlari xam bor. Mamlakatimizning dastlabki rivojlanish boskichida ular rasman tan olingan institut sifatida namoyon buldi. Masalan, ijtimoiy ishlar axolini ijtimoiy ximoyalash soxasida rivoj topdi, ijtimoiy pedagogika esa, yukorida ta'kidlanganidek, ta'lim tizimida va yoshlar ishlari buyicha kumita muassasalarida rivojlandi. ijtimoiy pedagogika – bu bilish nazariyasi va amaliyotini, ta'limiy–tarbiyaviy vositalar yordamida ijtimoiylashuv jarayonini boshkarish va amalgalashish bo`lib, bu oqibat natijada kishi tomonidan (individ tomonidan) xulq – atvor, hatti – harakat andozasini (ishonchlar, qadriyatlari, muvofiq keluvchi sezgilar va hatti – xarakatlar) egallab olishdir. Bu xususiyatlar jamiyatga, aholining turli qatlamlari va guruxlariga, individlarga nisbatan, ijtimoiy moslashish darajasi, turi, ijtimoiy faoliyat ko`rsatishiga bog`liq xolda namoyon bo`ladi. Ijtimoiy pedagogika ijtimoiy borliqning odamning butun umri davomida uning maqsadi va vazifalariga nisbatan ta'sirini o`rganadi. Bu ta'sirning odam va jamiyat uchun pedagogik oqibatlarini tadqiq etadi.*

Ijtimoiy siyosat shunga muvofiq keluvchi ta'limiy – tarbiyaviy tizimlarni, dasturlarni, uslublarni ishlab chiqadi va amalgalashish bo`ladi. SHuningdek u, oldga qo`yilgan maqsadlar va ijtimoiylashtiruv vazifalarini individning extiyojlarini,

ijtimoiy o'z taqdirini o'zi belgilashi, jamiyatda o'z o'rnini topishini nazarda tutgan holda bajaradi. Ayrim odamlar va aholi guruhlariga (ijtimoiy yordamga juda muxtoj bo'lган) o'zining ijtimoiy mavqeini, ijtimoiy rolini qayta tiklab olishida yordam berish ham uning vazifasiga kiradi.

**Ijtimoiy – pedagogik nazariya va amaliyotining ob'ekti bo'lib o'zining individual va ijtimoiy tavsiflari majmui bilan birga sotsium a'zosi bo'lган inson hisoblanadi.**

Uning predmeti esa ijtimoiy shakllanishi va rivojlanishining, ijtimoiy mavqeining, ijtimoiy faoliyatining tashkil topishi hamda xozirgacha erishgan ijtimoiy tavsiflarini ko'paytirish va yo'qotilganlarini qayta tiklash bo'yicha pedagogika jihatlaridir.

Odamning butun yosh davrlarida ijtimoylashuvining nazariyasi va amaliyoti sifatida pedagogikaning ajralmas bir qismi bo'lган ijtimoiy pedagogika, gap faol, ijtimoiy tomondan hamma narsadan xabardor fuqora haqida borganida alohida ahamiyatga egadir. Ammo, uning maqsadlari va vazifalari, mazmuni va vositalari – odamning yoshi, uning faoliyat sohasi, hayot sharoiti, aqliy va jismoniy xolati, jamiyatda egallagan mavqeiga qarab farqlanadi. U o'ziga turli darajadagi va shakllardagi ijtimoiy – pedagogik tizimlarni qo'shgani sababli anchagina murakkab tizim hisoblanadi.

Faoliyat masshtablaridan qat'iy nazar ijtimoiy pedagogikaning darajalarini bir – biridan farq etish, lekin qarama qarshi qo'ymaslik mantiqqa to'g'ri keladi. Ijtimoiy pedagogikaning sotsietal, sotsial–muxitiy va individual darajalari haqida gap yuritamiz.

**Jamiyatning sotsietal darajasida** ijtimoiy pedagogika nazariyasi va amaliyotining ob'ekti odamlarning nisbatan barqaror birligi bo'lsa, pedagogik faoliyatni tashkil etuvchi va o'tkazuvchi sifatida jamiyat a'zolarini ma'lum bir yo'nalishda ijtimoylashtirishdan manfaatdor bo'lган davlat hamda turlicha siyosiy va jamoat tashkilotlari, harakatlari ishtirok etadilar. Bunda tarbiyani amalga oshirishning tipik vositasi va usuli bo'lib qadriyatlarni shakllantirish tizimi sifatida ideologiya maydonga chiqadi. U jamiyatdagи barcha madaniy oqartuv va ta'limiy tadbirlarni qamrab oladi. Jamiyat a'zolari o'rtaida olib boriladigan ideologik ish turlicha shakllarda va turli mazmunda (ochiq yoki niqoblangan, totalitar yoki demokratik, madaniylashgan tarzda yoki diniy shaklda) o'tkazilib kelingan va bundan keyin ham shunday bo'lib qoladi.

Ijtimoiy – pedagogik nazariya va amaliyotning ob'ekti bo'lib **2-chi ma'noda** (ijtimoiy – muxitiy) jamiyatning ijtimoiy muxiti, mikromuxit, kishilar jamoasi va xak. hisoblanadi.

Uni amalga oshirishning tipik vositalari: madaniy – oqartuv, jismoniy – sog'lamlashtirish va ijtimoiy – tarbiyaviy ishlar va boshqalar hisoblanadi.

Ijtimoiy pedagogikaning ob'ekti bo'lib **3 – chi ma'noda (individual)** turli daraja va bosqichlarda ijtimoylashgan ayrim odam hisoblanadi. Unga nisbatan turlicha ijtimoiy – pedagogik usullar va vositalarni qo'llash individ rivojlanishining turgun, barqaror xolatiga qarab amalga oshiriladi.

YUqorida bayon etilgan uchta ijtimoiy pedagogika darajalarida ob'ekt masshtabga bog'liq tarzda individlar va individlar guruxi bilan olib boriladigan

ta’limiy – tarbiyaviy ishlar aloxida o`rinni egallaydi. CHunki ularning ijtimoiylashuvi buzilgan va ular pedagogik yordamga muxtojdir. Ular o`sib, rivojlanishi davrida o`zlashtirilgan salbiy ijtimoiy sifatlar shaxsan individning o`zi uchun ham, ularning atrofidagi odamlarning normal hayot faoliyatları uchun ham xavfli hisoblanadi. Bunday xildagi individlar asosan ijtimoiy ish deb atalmish tizimning maxsus tipdag'i muassasalari qaramog'ida turishadi. Bunday ishga yana ijtimoiy ta'minot va ijtimoiy yordamga, qo'llab quvvatlashga, himoyaga muxtoj bo'lganlarga ijtimoiy xizmat ko`rsatish ham kiradi.

Ushbu masala yuzasidan ba'zan ijtimoiy ish va ijtimoiy pedagogikaning nisbati to'g'risida savol beriladi. CHunki u ham nazariy va ham amaliy ahamiyatga egadir:

Ijtimoiy pedagogika va ijtimoiy ish mavqelari shakllanib borayotgan xozirgi bosqichda bu masalani o`rtaga qo`yilishi tabiiydir. Endi ular o`rtasidagi umumiy va alohida bo'lган jixatlarni aniqlab olmoq zarur. CHunki ularning o`zaro ish ob'ektlari bir – biriga to`g'ri keladi.

Ushbu soxalarni alternativ tarzda bir – biriga qarama-qarshi qo`yish yoki ularni «ijtimoiy pedagogika» o`z ichiga «**ijtimoiy ishni**» qo`shadi, yoki «**ijtimoiy pedagogika ijtimoiy ishning faqat bir qismidir**» degan formula asosida mexanik tarzda qo'shib yuborish to`g'ri bo`lmaydi. Bunday holda «ijtimoiy ish» faqat faoliyat sifatidagina ta'riflanadi va uning asosiy vazifasi – odamga ijtimoiy yordam (madad) berishni kafolatlash, muammolarini echishda yordam berishdan iborat bo`lib qoladi.

Bu masalaning echimi unga dialektik tarzda yondashishdadir. Ushbu masalaning nazariy mazmunining zamonaviy holatidan kelib chiqadigan bo`lsak «**ijtimoiy pedagogika**» va «**ijtimoiy ish**» ko`pincha o`zaro kesishib ketadigan tushunchalardan iboratdir. Keng ma'noda olinganda ijtimoiy ishning nazariyasi va amaliyoti keng mazmunga ega bo`lib, uning doirasida ijtimoiy – pedagogik nazariya va faoliyat uning tarkibiy kismidek bo`lib ko`rinadi (Ammo, yagona bir kismidek emas). Bunday tashqari ijtimoiy ish mazmuniga **tashqiliy–boshqaruv, huquqiy, iqtisodiy, psixologik, meditsinaga oid va boshqa jixatlari va texnologiyalari kiritiladi**. SHuning bilan birga, ko`p xollarda ijtimoiy pedagogika nazariyasi va amaliyotining predmeti nisbatan spetsifik xarakterga ega bo`lgani uchun, bunday xollarda ta'limiylar – tarbiyaviy texnologiyalar birinchi qatorga chiqadi, ijtimoiy pedagog esa ijtimoiy xodim kasbining integrativ vaqiliga aylanib qoladi.

SHunday qilib, har bir ijtimoiy xodim (oddiy xodim, boshliq, ijtimoiy ishning istalgan mutaxassis) ijtimoiy – pedagogik nuqtai nazardan ham yaxshi tayyorlangan bo`lishi kerak:

SHu xildagi bilimlar, layoqatlar, ko`nikmalar ijtimoiy soxa xodimining o`z kasbini yaxshi bilishining dalilidir.

Ijtimoiy xodim o`z soxasida sodir bo`layotgan jarayonlarga pedagogik jihatdan baho bera olishi, pedagogik texnologiyalarning ijtimoiy oqibatlarini oldindan ko`ra – bilishi lozim.

Ijtimoiy – gumanitar bilimlarning boshqa turlari va faoliyatları bilan birga ular ijtimoiy xodimning toshbag`ir, rasmiyatchi, byurokrat odam bo`lish yoki bo`lmasligini aniqlab beradi.

SHuning bilan bir vaqtning o`zida ijtimoiy xizmat ko`rsatish muassasalari tizimida maxsus ta'limiylar – tarbiyaviy extiyojlar mavjud bo`lib, ijtimoiy moslasha

olmagan bolalar va o'smirlar bilan, ko'p bolali va to'liq bo'lmanan oilalar bilan, ijtimoiy salbiy hulqqa ega bo'lgan shaxslar, qamoq joylaridan ozod etilgan kishilar, alkogolizm bilan og'rigan va narkotik moddalarni iste'mol qiladiganlar, zo'ravonlik qurbanlari hamda o'zini – o'zi o'ldirishga moyil bo'lganlar; jismoniy, ruxiy, sotsiomadaniy va shunga o'xshash siqilishlarga chalingan individular bilan ishlash uchun maxsus ixtisoslashtirilgan ijtimoiy – pedagogik yordamni tashkil etmoq kerak bo'ladi.

Bunday yordamni berish uchun maxsus tayyorgarlik zarur bo'lib, uni ijtimoiy xodim «Ijtimoiy xizmat ko'rsatish tizimida pedagogik ish» ni ixtisoslashtirish doirasida olishi mumkin.

Keng masshtabli ijtimoiy – pedagogik ishni tashkil etish va o'zkazish uchun endi qo'shimcha ixtisoslashtirish emas, balki **«Ijtimoiy pedagogika» mutaxassisligi bo'yicha kasbiy tayyorgarlikdan o'tish talab etiladi**.

Pedagogika fanining bir qismi sifatida ijtimoiy pedagogika so'zsiz ilmiy yondashuvlarga va printsiplarga suyanmog'i kerak.

Nazariya sifatida ijtimoiy – pedagogikaning hal qiluvchi tushunchasi – bu **ijtimoiy – pedagogik faoliyatdir**. Uning vazifasi: ta'limiy – tarbiyaviy vositalar yordamida shaxsning ijtimoiylashuvini ta'minlash, individga insoniyat ijtimoiy tajribasini berish, uning ijtimoiy faoliyat bilan shug'llanishi uchun yordam ko'rsatishdan iboratdir.

Ijtimoiy pedagogik faoliyatga ta'lim berish, o'qitish, tarbiyalash, ijtimoiy – madaniy dasturlar va ijtimoiy merosni interiorizatsiyalash hamda eksteriorizatsiyalashlar kiradi.

O'zining har qanday ko'rinishida ham ijtimoiy – pedagogik faoliyat ijtimoiy zarur bo'lgan faoliyat turi bo'lgan va shunday bo'lib qoladi. Uning paydo bo'lishi va rivojlanishi, umuman faoliyat ko'rsatishi oxir oqibatda xukmron sinflarning oliyjanoblik qilganliklari uchun emas, aksincha, jamiyat hayotining har bir bosqichida uning extiyojlari tufayli yuzaga kelgandir.

**Ijtimoiy – pedagogik faoliyat natijalari quyidagicha bo'lishi mumkin ekanligini ta'qidlash lozim:**

- reaktsion – salbiy harakter kasb etishi mumkin. Bunda odamning depersonalizatsiyalashuv jarayoni kuchayadi, u o'z – o'zidan va jamiyatdan begonalashadi;

- konservativ xarakter kasb etadi. Bunda uning yakuni faqat xukmron ijtimoiy qadriyatlarning va hulq – atvor shakllarining mustahkamlanib qolishi bilan chegaralanadi.

Umuman olganda faoliyatning bu turi gumanistik xarakterga ega. CHunki uning maqsadi – begonalashuvga qarshi turish, odamning tushkunlikka tushishi va ezilishiga tusqinlik etish, shaxsni o'zligini anglashiga, insonga xos hislatlarni rivojlantirishga yordam berishdir. Bunda kishining «Men»i ozodlik,adolat va tenglik, demokratiya va insonparvarlik kabi qadriyatlar bilan birlikdadir.

Ijtimoiy – pedagogik metod va vositalarni tanlash natijasida ijobjiy natijalarga erishish ta'minlanmogi lozim. **Ijtimoiy – pedagogik faoliyat jarayon hisoblanadi**. SHu sababli uning natijalari darxol namoyon bo'lmaydi va oldga qo'yiladigan maqsadlar hamda vazifalarni amalga oshirish uchun vaqt talab etadi.

**Ijtimoiy tarbiya, o`qitish va ma'lumot** ijtimoiy – pedagogik faoliyatning asosiy tushunchalari bo`lib, ularda asosiy operatsiyalar mazmuni amalga oshiriladi.

**Ijtimoiy tarbiya** – umuman olganda tarbiyaning eng muhim qismlaridan (ammo yagona emas) biridir. Uning mazmuni, maqsadlari, vositalari va natijalari insonni tarbiyalash yaxlit jarayonining boshqa yo`nalishlari va komponentlari bilan uzviy tarzda qo`shilib ketadi, shuning bilan birga o`ziga xos xususiyatga ham ega bo`ladi. Ijtimoiy tarbiyaning yaxlit xoldagi natijasi ijtimoiylik hisoblanadi. Bu – kishining ijtimoiy borlik bilan o`zaro harakatda, munosabatda bo`lishidir. Ijtimoiylikni jamoatchilik tushunchasi bilan tenglashtirmaslik, uning sinonimi deb tushunmaslik kerak. Jamoatchilik o`z mazmuniga ko`ra ancha keng tushuncha bo`lib ijtimoiylik tabiatining tipologik tafsifini ifoda etadi. Ijtimoiylik jamoa tushunchasi bilan ham bir xil emas, chunki u ijtimoiylikning mazmunini to`la ochib bera olmaydi.

**Ijtimoiylik** – shaxsiy va jamoa munosabatlarining birligini ifoda etishi bilan bir vaqtning o`zida u individual darajada odam ijtimoiy mohiyatining namoyon bo`lishi hamdir. SHuningdek, u shaxs faolligining manbai, ijtimoiy borlikka shaxsiy ijodiy munosabatning bir ko`rinishi hamdir.

**Ijtimoiy ta`lim** ham o`zining ba`zi bir o`ziga xos xususiyatlari bilan ajralib turadi. CHunki, uning maqsadi, yakuniy natijasi – Inson bilimlarini, uning ijtimoiyligini oshirishga ko`maklashuvchi layoqat hamda ko`nikmalarni rivojlantirishdan iboratdir. Ijtimoiy ta`lim jarayoni birinchi navbatda, albatta, ijtimoiy – pedagogik jarayon qatnashchilari o`rtasidagi muloqatni tashkil etishga qaratilgan bo`lib, u o`z ichiga turli faoliyat turlari (**axborotlar almashish, ta`sir etish, o`zaro ta`sir etish va o`zaro harakat, hamkorlik**) va shakllarini (**ijodiy va amaliy mashg`ulotlar, treninglar**) qo`shib oladi. Ammo, ijtimoiy ta`limda shaxsning muhit bilan o`zaro harakatini tashkil qilish, jamiyat tarbiyaviy kuchlarini, ijtimoiy birliklar, ijtimoiy guruuhlar, birinchi navbatda oilani, turli ijtimoiy muassasalar faoliyatini o`zaro muvofiqlashtirish alohida o`rinni egallaydi. Bu jarayon odamga tayyor ijtimoiy shakllarni mexanik tarzda qo`llash harakterida bo`lmasligi kerak, chunki har bir odam o`ziga xos biologik va psixologik xususiyatlarga ega bo`lib, ma'lum bir sotsiumda ijtimoiylashadi va shu sababli ham bir xildagi ta`sirlarni turlicha qabul qiladi.

**Aynan o`xhashlik, tenglashtirish (identifikatsiyalash)** – bu ijtimoiylashuv darajasidir. Uning natijasi bo`lib individning yoki ijtimoiy guruhning ijtimoiy munosabatlar tizimiga qo`shiluvchanligi, u yoki bu birlikka doirligini anglashi, ijtimoiy yo`nalishligini bilishi, o`z mavqeini, ijtimoiy hulq – atvorini tushunishi hisoblanadi. Bunday tenglashtirish jarayonini har bir kishi yoki birlik o`z rivojlanish bosqichlarida bosib o`tadi. Bu bosqich judayam zarur bo`lib, usiz olga siljish mumkin emas, chunki odam uchun darajalangan va tabaqalashgan jamiyatda yashash murakkablashadi.

**Individualashishga ehtiyoj** har bir normal odamda va ijtimoiy guruhda bo`ladi. Individualashuv natijasida odamlar bir – biri uchun qiziqarli va foydali bo`lib qolishadi, o`z qobiliyatlarini, ijtimoiy qiziqishlari va maqsadlarini ro`yobga chiqarish imqoniyatiga ega bo`lishadi.

Ayrim bir shahsda individualashuv tomon yo`l tutish hali u o`rta maktabgacha yoshligidayoq shakllana boshlaydi. Bu yoshda bola mustaqil bo`lishga intiladi va

hamma narsani o`zi bajarishni hoxlaydi. Ammo, bu intilish ayniqsa o`s米尔лик va o`spirinlik yillarida kuchayadi. Bu davrda yoshlar boshqalarga o`xshamaslikka va o`zini tanitishga harakat qiladi. U o`z ota – onalari, tengdoshlari va atrofidagi odamlar nazarida o`z shaxsining qadr – qimmatini ko`rsatishga, mavkeini belgilab olishga ehtiyoj sezadi. SHuningdek, har bir ijtimoiy gurux ham individuallashuv bosqichini bosib o`tadi.

Bu bosqich uning rivojlanish darajasiga, ijtimoiy munosabatlarning xolatiga bog`liq tarzda paydo bo`ladi va rivojlnana boradi. Ijtimoiy pedagoglar mana shu xususiyatlarni hisobga olishlari va jarayonning o`zini ijobiy natija berishi tomon yo`naltimoqlari darkor. SHaxsni noadekvat rivojlanishi va noto`g`ri pedagogik ta`sir oqibatida jinoyatchi, anarchist, qo`zg`olonchi, terrorchi shaklidagi dezadaptirlashgan kimsa shakllanib chiqishi, ijtimoiy guruh esa insonparvarlikka, demokratiyaga qarshi bo`lgan salbiy kuchga aylanib ketishi ham mumkin.

**Personalizatsiyalashish darajasi** individning shaxsga xos bo`lgan barcha xususiyatlarni egallab olayotganini, odamlar guruhini esa yuqori darajada o`z – o`zini belgilaydigan va o`z qadr – qimmatini biladigan jamoaga aylanganini bildiradi.

1. **Ijtimoiy – pedagogik texnologiya** – bu ijtimoiy pedagogni, uni individ yoki ijtimoiy guruh bilan ma`lum bir sharoitlardagi hamkorligi, uning maxsus, o`ziga xos faoliyat dasturidir. Ijtimoiy – pedagogik texnologiya uslubiyatini ishlab chiqishda tarbiya ob`ektining shaxsiy sifatlari, boshqa ko`pgina shart – sharoitlar hisobga olinadi.

**Ijtimoiy – pedagogik metodikalar:** «sub`ekt – ob`ekt», «sub`ekt–jarayon», «sub`ekt–vositalar», «sub`ekt – sharoitlar», «sub`ekt natijalar», «sub`ekt – tizim», «sub`ekt – muxit» va xak. kabi munosabatlarga bog`liq tarzda bir – biridan ajralib turadi. O`ziga xos, maxsus metodikalar faoliyatlarni oldindan diagnostika qilishda, madaniy oqartuv yoki jismoniy – sog`lamlashtirish ishlarini tashkil etish vazifalarini hal etish uchun zarurdir.

Ijtimoiy pedagog o`zida har bir pedagogga xos bo`lgan **«kasbiy ko`nikma va sifatlarni»** shakllantirib borishi bilan birga, asosiy e`tiborni o`z ijtimoiyligini, sub`ektivligini hamda ijtimoiy tarzda fikr yuritishga bo`lgan qobiliyatini rivojlantirishga qaratishi, jamiyat hayotidagi pedagogik jihatlar bilan bir qatorda pedagogik faoliyatning ijtimoiy oqibat – natijalarini ham ko`ra olish layoqatlarini o`stirib borishi darkor.

U o`z ishida umumiyligi va ijtimoiy – pedagogik printsiplar va qoidalarga asoslanmog`i lozim. Uning ishida markaziy o`rinda inson shaxsi turganligi sababli, tadqiqotchilik, tashkilotchilik va xususan pedagogik faoliyatida aniq – ravshan gumanistik pozitsiyada turmog`i maqsadga muvofiqdir. Mana shu printsiplarga tayangan holda ijtimoiy pedagog o`z ishida – **Insonni oliy ijtimoiy qadriyat** deb tan olish haqidagi g`oyaga amal qilishi kerak.

O`zaro harakatning barcha bosqichlarida u **ijtimoiy – pedagogik faoliyat ishtiroqchisini jamiyatning teng huquqli a`zosi deb tan olishi** va shunga muvofiq tarzda munosabatda bulmog`i kerak.

**Ijtimoiy –pedagogik ishda shaxsiy – gumanistik yondashish printsipi** shaxsga, guruhga individual tarzda yondashishni ham taqoza etadi.

Ijtimoiy pedagog, uning diqqatini jalg qilgan ob'ektning shaxs sifatida jismoniy, ruxiy va ijtimoiy xolatini, ta'lism olish hamda tarbiyalanishga qobiliyati borligini ham hisobga olmog'i kerak. Umuman olganda jamiyatga ham, ijtimoiy – pedagogik faoliyat ishtirokchilarining o'zlariga ham uning ijtimoiy oqibatlari befarq emas. Bu ishda yondashish, muomala alohida o'rinda turishi kerak. O'z faoliyatining loyixa va dasturini ishlab chiqayotganda ijtimoiy pedagog tarixiy jixatdan shakllangan ijtimoiy amaliyot tizimlariga va ayniqlsa ijtimoiy – pedagogik amaliyotga tayanmog'i lozim. Pedagog xozirgi zamona mehnat taqsimotini, ijtimoiy munosabatlar shaklining rivojlanishini hisobga olmasa muvaffakiyatga erisha olmaydi. CHunki, ular ijtimoiylashuvning tiplari va yo'nalishlarini belgilab beradi.

**Rivojlanish printsipi** ijtimoiy pedagogning doimo diqqat markazida turmog'i lozim. CHunki inson har doim o'sib, rivojlanib borishi tufayli unda ichki qarama – qarshiliklar mavjud bo'lib, ularning manbai odamning o'zida ham, tashqi ta'sirlarda hamdir. Mana shunday sabablarga binoan ijtimoiy – pedagogik faoliyat bosqichlidarajali xarakterga ega va shunga ko'ra ijtimoiy – pedagogik loyixalarni ishlab chiqarishda va amalga oshirishda bosqichlarni ajrata olish, odam bilan ishlash istiqbollarini ko'ra olishi va tasoddifiy sharoitlar, vaziyatlarning sodir bo'lishiga tayyor bo'lishi lozim.

Ijtimoiy – pedagogik nazariya va amaliyotning yana bir muhim printsipi, bu **ko'p o'lchamli – dialektik yondashish** bo'lib, bu aqidaga amal qilish tadqiqot ishlarini olib borishda bir yoqlamalik va cheklanganlikdan xalos etadi. Pedagog o'z ishida umumiyl va maxsus, tasoddifiy va zaruriy, ichki va tashqi, bo'lishi mumkin bo'lgan va haqiqiy bo'lgan vaziyatlar, voqealar dinamikasini, ijtimoiy – pedagogik faoliyatning mazmuni va shakllarini hisobga olib bormog'i kerak.

Ijtimoiy pedagog u yoki bu texnologiyalarni konkret ravishda qo'llay bilishi lozim. Masalan, ishni tashkil etishning bir xil andozadagi usullari – individual, jamoaviy, avtoritar va demokratik, umumiyl va maxsus, xususiy va integral, rekratsion va korreksion va xaqoza, mavjud bo'lib, ular zarur sharoit va vaziyatlarda qo'llaniladi. Bundan tashqari ayrim individ yoki ayrim guruh bilan ish olib borishning o'ziga xos xususiyatlari ham borligini nazarda tutmoq lozim. Individ bilan ishslash hamma vaqt ham individual – o'ziga xos xususiyat vositalari bilan chegaralanib qolmaydi.

Rivojlangan mamlakatlarda ijtimoiy tarbiyani amaliy jihatdan tashkil etish allaqachon maxsus kasb darajasiga ko'tarilgan. Bizning mustaqil Respublikamizda aholining, umuman jamiyat a'zolarini ijtimoiy muxofazalashga doir qator ishlar amalga oshirilmoqda. SHuning bilan birga hozircha ushbu dolzarb soxa bilan shug'ullanuvchi maxsus fan yo'nalishi to'liq shakllanmagan. Ijtimoiy ish jamiyat a'zolarining bir biriga insoniy munosabatda bo'lishini taqoza etadi. Qadim zamonlarda bu faoliyatning diniy mas'ullik, saxiylik, xayrioxlik singari qirralari namoyon bo'lgan.

Ijtimoiy pedagogikaning paydo bo'lishi jamiyatning iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy hayotidagi o'zgarishlar bilan bog'liq. CHunki, bu o'zgarishlar tarbiya jarayonini murakkablashtirib, yoshlar tarbiyasida yangi muammolarni vujudga keltirib, yosh avlodning ijtimoiy shakllanish jarayonini ilmiy o'rganishni talab etmoqda. An'anaviy pedagogika fani ta'lism – tarbiya muassasalari qobig'ida

cheklanib kolib, ijtimoiy muxit omilining tarbiyaga bo`lgan ta`siriga etaricha e'tibor bermadi. Ayniqsa, ijtimoiy tarbiyaning umumiy xarakterini chetga surib qo`ydi. Ijtimoiy pedagogikaning ma'lum bir qirralari bizning Respublikamizda yoritilgan bo`lishiga qaramasdan bu yo`nalish buyicha haligacha aloxida tadqiqot ishlari olib borilganicha yo`q. Ushbu fan xar bir jamiyatning, har bir mamlakatning, har bir millatning ijtimoiy hayoti va milliy psixologiyasi bilan bevosita bog`liqdir. SHu nuqtai nazardan mazkur fanni **TURMUSH PEDAGOGIKASI** deyish mumkin.

### **Ma’ruza-3**

#### **Mavzu:Ijtimoiy-pedagogik jarayon: tushunchasi, moxiyati va mazmuni**

1. Ijtimoiy pedagogik jarayon haqida tushuncha
2. Ijtimoiy pedagogikaning maqsadi, vazifalari, ob’ekti va predmeti.
3. Ijtimoiy pedagogik jarayonnihg asosiy bosqichlari
4. Ijtimoiy pedagogik jarayon tayorgarlik bosqichinihg mazmuni
5. Modellashtirish, texnologiyani tanlash va uni sinovdan o’tkazish
6. Monitorihg o’tkazish va yakunlovchi-oxirgi etap
7. Ijtimoiy pedagognihg asosiy axloqiy printsiplari

#### **Tayanch tushunchalar:**

O’zgarish, rivojlanish bosqichlari, davr, etap, muxit, tuzatish, o’z-o’ziga xizmat ko’rsatish, mutaxassis, diagnostika, zyon etkazmaslik mijoz, quyi etaplar, modellashtirish, maxsus ixtisoslashtirilgan markaz, sinov, moslashish, monitorihg, eruditsiya, tashhis, metod, bevosita faoliyat, loyixalashtirish, tenglashtirish-identifikatsiya, noadekvat rivojlanish, «sub’ekt – ob’ekt», gumanistik yondashuv, ijtimoiy – pedagogik faoliyat, texnologiya.

#### **Nazorat uchun savollar:**

1. Ijtimoiy pedagogik jarayon tushunchasini kehg va tor ma’nolarda izoxlab berihg?
- 2.Ijtimoiy pedagogik jarayonnihg qanday bosqichlari mavjud?
3. Diagnostika va ob’ektnihg individualligi qanday aniqlanadi?
- 4.Ijtimoiy pedagogika nazariyasi va amaliyotining ob’ekti, predmeti.
- 5.Modellashtirish, texnologiyani tanlash va amalga oshirish usullarini sanab berihg
- 6.Monitorihg qachon o’tkaziladi?
- 7.Umumiyligi va maxsus pedagogik qobiliyatlarni sanab berihg?

#### **Foydalilanilgan adabiyotlar:**

- 1.V. A. Nikitin. «Ijtimoiy pedagogika». Oliy o’quv yurtlari talabalari uchun o’quv qo’llanmasi. M. 2002 g. (ruscha).
- 2.SH. A. Amonashvili «Pedagogik izlanish». T. «O’qituvchi». 1990 yil.
- 3.M.A.Galaguzova tahriri ostida. “Ijtimoiy pedagogika”-M.2003.
- 4.A.V.Mudrik. “Ijtimoiy pedagogika”-M.2003.
- 5.V.T.Boncharova.- “Ijtimoiy pedagogika” M.1994.
- 6.I.S.Kon. Bola va jamiyat -M.1998.
- 7.Xorijda Ijtimoiy pedagogika va ijtimoiy faoliyat. 1-nashr. M.1991

Ijtimoiy pedagogikada ijtimoiy – pedagogik jarayonni ajratib ko’rsatishadi. Bunda ijtimoiy – pedagogik xodisani dinamik tarzda rivojlanishi yoki ijtimoiy pedagog xatti – harakatlarining, pedagogik faoliyatning ma’lum bir ijtimoiy – pedagogik maqsadga erishishni ta’minlayotgan tarbiyachi va tarbiyalanuvchining o’zaro harakatlari tushuniladi.

Har bir ijtimoiy – pedagogik jarayon o’z rivojlanish, o’zgarish bosqichlariga (davrlariga) ega. Amaliyotning ko’rsatishicha uning belgilari bo’lib, ma’lum bir

ijtimoiy – pedagogik ko`rinishda sodir bo`layotgan sifat yoki miqdor va yosh o`zgarishlari bo`lishi mumkin.

Bosqichlar, davrlar ko`pincha nima o`rganilayotgani, tarbiyalanayotgani, rivojlanayotgani, qanday sharoitlarda, qancha vaqt maboynida tadqiqot olib borilayotganiga qarab belgilanadi. Ularning har birida sodir bo`lishi mumkin bo`lgan eng tipik sifat o`zgarishlari ajralib turadi. Ular bir etapning boshqasidan o`ziga xos xususiyatlariga ko`ra farq etilishiga imkon beradi. Endi ijtimoiy – pedagogik jarayonning mazmunini biron bir xarakterli ijtimoiy xodisaning rivojlanishi, umuman olganda, odamning ijtimoiy rivojlanishi sifatida ko`rib chiqamiz.

**Keng ma'noda** olib qaralganda bu odamning butun umri davomida ijtimoiy rivojlanish jarayonidir. Mana shunday ijtimoiy –pedagogik jarayon ijtimoiy rivojlanishning o`ziga xos xususiyatlarini, odamning har bir yosh rivojlanish bosqichlarida o`zini namayon etishini ko`rishga imkon beradi.

Xozirgi zamon yosh psixologiyasi va pedagogikasi fani tomonidan odamning butun umri davomida rivojlanishining o`ziga xos xususiyatlari, unda ayrim (ma'lum bir) etaplar, yosh bosqichlarining sifat va miqdor tafsilotlari ham alohida ajratilgandir. Mana shu bilimlarga ega bulish ijtimoiy pedagogga ijtimoiy muhitda konkret bir odamga nisbatan, uning yoshiga bog`liq ravishda o`z maqsadini va hatti – harakat xarakterini aniqlab olishiga yordam beradi.

**Tor ma'noda** esa u yoki bu sifat belgilarini, odamning o`ziga xos xususiyatlarini, uning individual imkoniyatlarini bilish sifatida ijtimoiy–pedagogik jarayon o`z – o`zini rivojlantirish, o`z – o`zini takomillashtirish hamda ijtimoiy pedagogning tarbiyalanuvchiga maqsadli ta'siri, unga ijtimoiy muhitning ta'siri sifatida ham namayon bo`ladi. Rivojlanish jarayonining o`ziga xos xususiyatlarini, mazmunini, shaxsning ma'lum bir sifat belgilarini oldindan bilish mutaxassisga uning dinamikasi xususiyatlarini anglab etishga va izlanishga tayangan xolda o`z ish faoliyatini tashkil etish va amalga oshirishga yordam beradi.

**O`z moxiyatiga ko`ra ijtimoiy – pedagogik jarayon** – bu ijtimoiy pedagogning (sub'ektning) ijtimoiy rivojlanishda (rivojlanishni tuzatishida), tarbiyalashda (qayta tarbiyalashda, tuzatish, o`zgartirishda), o`z – o`ziga xizmat ko`rsatish layoqatlari va ko`nikmalarini egallahda, ta'lim berishda, ob'ektni professional ravishda tayyorlashda maqsadli tarzda yo`naltirilgan tizimli xarakatlaridir.

Bu jarayon ma'lum bir tarkibga ega: u sub'ekt va ob'ektni, etaplarni, pedagogik faoliyatning kichik etaplarini o`zida mujassamlashtirgan. Har bir muhit sharoitlari mavjud bo`lib, ular ijtimoiy –pedagogik jarayonni maqsadga muvofiq tarzda kechib (amaliy tarzda realizatsiya qilinishini), optimal natijaga erishilishini ta'minlaydi.

Har qanday ijtimoiy – pedagogik jarayonni konkret bir mutaxassis (yoki bir guruh mutaxassislar) – sub'ekt amalga oshiradi.

Ijtimoiy –pedagogik jarayonning sub'ekti –yoxud maxsus tayyorlangan mutaxassis yoki ota – ona, yo bo`lmasa uning (ularning) faoliyati qaysi kishiga yo`naltirilgan bo`lsa, o`sha kishi bilan ish olib boruvchi 3 – chi bir odamdir (bir gurux kishilar). O`ziga nisbatan bironta kishi o`z – o`zini rivojlantirish, o`z – o`zini tarbiyalashni amalga oshirgan taqdirda, u ham sub'ekt sifatida namayon bo`ladi.

Ijtimoiy pedagog uchun yo'l ko'rsatkich bo'lib uning o'zi orttirgan ijtimoiy tajriba, u o'zlashtirgan va boshqalar tomonidan tan olingan ijtimoiy qadriyatlar, milliy madaniyat hisoblanadi. U o'sib ulgaygan va tarbiyalangan jamiyat, millat va davlat sub'ektni kelgusi ijtimoiy – pedagogik faoliyatga yo'naltiradi.

Ijtimoiy – pedagogik jarayon yo`nalishi mazmunini belgilovchi 2 –chi asosiy komponent – bu tarbiya ob'ekti, uning individual xususiyatlari, imkoniyatlari, ijtimoiy muammolari, tarbiya sub'ektiga munosabatidir.

Har bir ijtimoiy – pedagogik jarayon maqsadli yo`naltirilgan harakatlarning izchilligi sifatida etap va quyi etaplarga bo`linadi. Odatda ijtimoiy pedagogik jarayonning quyidagi asosiy etaplari ajratib ko`rsatiladi:

1. Tayyorgarlik.
2. Bevosa faoliyat (tanlab olingan pedagogik texnologiyani amalga oshirilishi).
3. YAkuniy.

Ushbu etaplarning har biri o`z vazifasiga, mazmuniga va harakatlarni amalga oshirish izchilligiga ega. Ijtimoiy – pedagogik faoliyatga tayyorgarlik bunda alohida o'rinda turadi. Hammaga ma'lumki – faoliyatga tayyorgarlik qanday bo`lsa, uni amalga oshirish imkoniyatlari ham shunchalik yuqori bo`ladi. Tayyorgarlik etapi ijtimoiy – pedagogik faoliyat mazmunini belgilovchi quyi etaplarga ham ega.

Bular:

### **Diagnostika va ob'ekt individuallagini aniqlash.**

Ijtimoiy – pedagogik faoliyat konkret xarakterga ega. U konkret bir odamni nazarda tutadi va odamning ijtimoiy muammolariga bog'liq tarzda hamda uning individual imkoniyatlariga yoki jismoniy, fiziologik, psixologik kusurlariga, kundalik ijtimoiy xulq – atvorining o`ziga hosligiga ko`ra konkret bir shaxsga qaratilgandir.

### **Diagnostika quyidagilarni aniqlashni nazarda tutadi:**

A) odamning individual chetga chiqishi ( og`ishi ) va shu bilan bog'liq tarzda o`z – o`zini namayon etishda yuzaga keladigan ijtimoiy muammolar.

B) odamning o`ziga xos xususiyatlari, uning haqiqiy imkoniyatlarini, individual rivojlanishini ta'minlash yoki kamchiliklarni maqsadga muvofiq engib o'tish yo'llarini topish, professional tayyorgarlik va o`z – o`zini realizatsiya qilishni.

V) odam hayotiy pozitsiyasining o`ziga xosligi, uni o`z – o`zini rivojlantirishga, takomillashtirishga bo`lgan munosabati, o`z ustida ishlashida faolligi va boshqalar.

G) u yashayotgan va o`zini realizatsiya qilishga imkoniyati bo`lgan muhit sharoitini.

Ijtimoiy pedagog, ko`pincha alohida yordamga muxtoj kishi bilan ish olib borishini nazarda tutib, uning diagnostikasi aksariyat bir necha mutaxassislar: mediklar, psixologlar, pedagoglarni qatnashishini talab etadi. Mana shunday yondashish odam haqida ko`prok axborot toplashga va shu asosda ijtimoiy pedagogga quyidagi tavsiyalarni berishni taqoza etadi:

- Ma'lumotlar (ko`rsatmalar);
- Ogohlantirish (eng asosiysi – "ziyon – zaxmat etkazma");
- Ob'ekt va uning atrofidagilar bilan eng maqbul bo`lgan o`zaro harakatni yaratish uchun maslahatlar berish.

Diagnostika qilinayotgan faktor (omillar) odamni o`ziga xos individualligini aniqlashga va shundan so`ng navbatdagi quyi etapga o'tishga yordam beradi.

**SHaxs ijtimoiy – pedagogik muammosini aniq ifoda qilish (ta'riflash).**

Bunda gap aniq bir odam haqida boradi: shaxsan shu odam qanday yordamga muxtoj, unga qanday xildagi ijtimoiy – pedagogik ko`mak bermoq lozimligi.

**SHundan keyin ijtimoiy – pedagogik oldindan aytib berishga o`tiladi.**

Uning predmeti bo`lib:

A) individual rivojlanishining yo`naltirilganligi va tezkorligi, uning ijtimoiy tarbiyasining, qayta tarbiyalanishining, reabilitatsiya qilinishi, moslashuvi hamda unga umuman ta'lim berish va xususan, o`z – o`ziga xizmat etish, kasbiy masalalarni tushunishi, tayyorgarligi (boshlang`ich, o`rta) sohasida o`qitish;

B) odamni umuman rivojlanishidagi yoki ma'lum bir yo`nalishda rivojlanish imkoniyatlari;

V) tarbiyachining ma'lum bir, konkret ijtimoiy – pedagogik maqsadga erishish borasidagi qobiliyatni.

G) tarbiyachining, odamning maqsadga muvofiq rivojlanishini, uni o`qitish hamda tarbiyalashni ta'minlashga erishishga oid qobiliyatlar.

D) odam rivojlanishiga shart – sharoitlarning to`g`ri kelishi, tarbiyalanuvchi va tarbiyachilar imkoniyatlarining mosligi.

Odamni ijtimoiy – pedagogik jihatdan rivojlanishi mumkin bo`lgan yo`llarini oldindan aytib berishga harakat qilish – jarayonning eng murakkab quyi etaplaridan biridir. U sub'ektda ob'ekt haqida etarli darajada ma'lumotlar, axborotlar mavjud bo`lib, ular yordamida oldindan prognoz etish mumkin bo`lishiga hamda pedagogning shaxsiy tajribasi va ichki xis, sezgisiga asoslangan.

Ijtimoiy ob'ektga ta'sir qilish, uning individual belgilarining ahamiyatini tushunish, o`zining pedagogik imkoniyatlarini baholay bilishi, tarbiyalash shart – sharoitlarini anglay bilishi barobarida tarbiyachi tomonidan ijtimoiy buyurtmaning mohiyatini chuqur tushinib, **u o`z pedagogik faoliyatining maqsadi va vazifalarini belgilab oladi.**

YAgona jarayonning navbatdagi quyi etapi mana shundadir.

**Modellashtirish** – ijtimoiy – pedagogik jarayonning tayyorgarlik ko`rvuchi etapining navbatdagi quyi etapidir. Modellashtirish umumiyligi yoki xususiy xarakterga ega:

Umumiyligi maqsadga erishish, xususiy vazifalarini hal etish.

**Pedagogik modellashtirishning asosiy vazifasi** – pedagogik texnologiyaning eng optimal variantini tanlash natijasida kutilgan yakuniy natijaga erishishga yordamlashishdir.

**Texnologiyani tanlash va uni amalga oshirish usullari** – ijtimoiy – pedagogik jarayonning navbatdagi qo`yi etapidir.

Pedagogik texnologiya faoliyatning ma'lum bir dasturini nazarda tutadi. Bu dastur tayyor holda yoki ob'ektning individualligini hisobga olgan holda maxsus ishlab chiqilgan bo`lishi mumkin.

Pedagogik texnologiyani tanlash (ishlab chiqish) uchun ijtimoiy pedagog quyidagilarni bilishi zarur:

- Ob'ektning o'ziga xos tomonlarini: ob'ektning imkoniyatlarini, xulq – atvor va jismoniy jixatdan qusurga egaligi;
- Ijtimoiy – pedagogik maqsadi borligi (nimaga intilishi, nimani kutish mumkinligini);
- Pedagogik texnologiyani amalga oshirish shart – sharoitlarini (maxsus ixtisoslashtirilgan markazda, uyda);
- Pedagogik texnologiyani amalga oshirilishi mumkin bo'lgan shakllarini (maxsus statsionar sharoitida; mutaxassis tomonidan – maxsus ixtisoslashtirilgan markazda maslahat berish va amaliy yordam ko'rsatish orqali va uy sharoitida – onasi tomonidan va xak).
- Oldiga qo'yilgan maqsadga erishishda o'z imkoniyatlarini;
- Pedagogik texnologiyani amalga oshirish uchun qancha vaqt talab qilinishini va boshq.

Har bir ijtimoiy – pedagogik muammoni hal etishda bir – necha texnologiya qo'llanilishi mumkin. Kelajakda maxsus ixtisoslashtirilgan markazlarda turli xil ijtimoiy muammolar uchun texnologiyalar banki tashkil qilinishi mumkin. Har bir texnologiya o'ziga: ob'ektni o'ziga xos tomonlarini va ijtimoiy – pedagogik muammoni; tanlab olingan faoliyat tavsifini; uni amalga oshirish uchun tavsiyalarni... birlashtiradi.

Tanlab olingan texnologiya ijtimoiy pedagog tomonidan o'z individual metodikasi asosida amalga oshiriladi. **Texnologiya faqat bitta**, uni amaliy jihatdan ruyobga chiqarish metodikalari esa bir qanchalab bo'lishi mumkin.

**Ijtimoiy – pedagogik faoliyatni rejallashtirish** tanlab olingan texnologiyani amalga oshirish vaqtini, joyini va mashg'ulotlar turini nazarda tutuvchi grafikni ishlab chiqilishini talab etadi.

Odatda har bir texnologiya uslubiy jihatdan ta'minlangan, ya'ni, moddiy tayyorgarlikka ega bo'lmos'hish lozim.

Bunda gap mashg'ulotlarni, tarbiyaviy tadbirlarni sifatli ravishda o'tkazish uchun butun uslubiy va didaktik materiallarni tayyorlab qo'yish haqida boradi.

Ikkinci etap asosiy deb hisoblanadi. Ijtimoiy – pedagogik texnologiyani sinovdan utkazish (aprobatasiya) boshlang'ich quyi etap deb sanaladi. Buning sababi shundaki, ijtimoiy pedagogika ko'pincha ayrim shaxs yoki guruh bilan ish olib boradi, u esa pedagogik texnologiyani individuallashtirishni talab etadi. Buni ayniqsa pedagogik korrektsiya qilish (tuzatish), reabilitatsiyalash, individual o'qitish va tarbiyalash sohasidagi kundalik amaliyot ishlari ham tasdiqlaydi.

Bevosita amaliy faoliyat etapi o'z quyi etaplariga ega bo'lib, ularning har biri o'z vazifalariga va sifat hamda miqdor jihatdan farqlarga egadir.

Boshlang'ich quyi etap – ijtimoiy – pedagogik faoliyatda sub'ektni ham, ob'ektni ham moslashishi (adaptatsiya)dir. Ushbu quyi etap sub'ekt va ob'ekt o'rtaida o'zaro harakatni yo'lga qo'yish, birdamlik, hamjixatlik, bir – birini tushunish asoslarini yaratish uchun kerak bo'ladi. Keyingi harakatlarning samaradorligi mana shu quyi etapdagi muammolarni qanday darajada hal etilganligiga bog'lik. Bu ayniqsa, biron muammoga ega bo'lgan bolalar bilan ish olib borilganda, ularni qayta tarbiyalaganda juda xarakterlidir.

SHundan keyin ob'ektni o'z – o'zini rivojlantirish, o'z – o'zini tarbiyalash jarayoniga qo'shish quyi etapi keladi.

Har bir quyi etapdagagi faoliyat ma'lum bir rejalashtirilgan natijalarga erishishni nazarda tutadi. Bu natija hulosalar esa o'zining sifat va miqdoriy ko'rsatkichlari bilan ajralib turadi.

Ijtimoiy pedagogikada muammolar hamma vaqt ham osongina hal etilmaydi. CHunki, pedagogik ish ko'pincha juda murakkab, muammoli odamlar bilan yoki ijtimoiy guruhlar bilan olib boriladi.

Mana shunday faoliyat jarayonida ijtimoiy pedagogdan katta bilim, epchillik, o'z kamchiliklarini ko'ra bilish va yangi metod hamda usullarni izlab topa bilish talab etiladi. CHunki, ijtimoiy pedagog bir metodikadan boshqa birisiga o'tayotganda uni sinab ko'rishi, maqsadga muvofiqligini tekshirib ko'rishi va faqat shundan so'nggina uni faol qo'llamog'i kerak. Ishga mana shunday tarzda yondashish katta individuallashtirishni ta'minlashga yordam beradi.

Ijtimoiy – pedagogik jarayon bir zaylda, jo'shqin o'tayotganligini baholash uchun odatda ma'lum bir muddat, vaqt o'tganidan so'ng, yoki ma'lum bir kompleks pedagogik choralar qo'llanganidan keyin monitoring o'tkazishni ko'zda tutadi.

U qanday tadbirlar o'tkazilganligi, ob'ektida qanday o'zgarishlarga olib kelganligi haqida axborotlar toplashni, samaradorligini baholashni nazarda tutadi. Natijada qo'llanilgan texnologiyaning qanchalik amaliy natija berayotganini baholash, pedagogik ishning borishiga tuzatishlar, o'zgarishlar kiritishga imkoniyat beradi.

Mana shundan so'ng uchinchi – yakunlovchi, oxirgi etap boshlanadi. Bu etapda ijtimoiy – pedagogik texnologiyaning ta'sirchanligini tahlil etish va baholash, kelgusi faoliyatni belgilab olish ishlari bajariladi. Buning ham o'z quyi etaplari bor. Ijtimoiy – pedagogik texnologiya ta'sirchanligini oldindan baholash. Mutaxassisning dastlabki amaliy faoliyati tugallandi va endi uning samarasiga baho berish lozim. Dastlabki baho, xulosa – inson muammosini qay darajada hal etilganligini aniqlashga imkon beradi.


SHuni ta'kidlash joizki, pedagogik ta'sir etish kursini o'tagan kishiga moslashishiga kirishish vaqtি juda muhimdir.

U ob'ekt uchun har doim ham og'riqsiz, beozor o'tavermaydi. SHu sababli mijozning o'ziga xos tomonlarini hisobga olish va moslashuvining o'ziga xos xususiyatlarini oldindan ko'ra bilishni nazarda tutmoq lozim. Mana shunda ijtimoiy pedagog o'z mijoziga zarur bo'lsa yordam berishi, qo'llab – quvvatlashi mumkin bo'ladi. Asta – sekin mijozining mustaqilligi oshira boriladi va u o'z – o'zini namayon qilish, o'z o'rnini belgilab olish faoliyatiga to'la qo'shiladi.

Moslashuv davri yakunlangach qilingan ish va uning natijalarini tahlil etish quyi etapi boshlanadi. Foydalanilgan texnologiyaning yaxshi va salbiy tomonlari, uni amalga oshirish variantlari hamda mijozning o'z shaxsiy faoliyatining sub'ekti sifatida o'z – o'zini takomillashtirishi aniqlab olinadi. SHu bilan yakunlovchi etap tamom bo'ladi.

Har bir ayrim olingan holda ijtimoiy – pedagogik jarayonni sifat va miqdor jihatdan baholashning o'z o'lchov, mezonlari mavjud bo'lib, ular tubandagi sxemada keltirilgan.

## Ijtimoiy – pedagogik jarayon, uning etaplari.



### “Ijtimoiy m.

Ijtimoiy – pedagogik faoliyatda sub'ekt va ob'ektda sodir bo'ladigan o'zgarishlar sakrash tarzidagi xarakterda bo'lmaydi. Maxsus olib borilgan tadqiqotlarning ko`rsatishiga qaraganda ob'ektga nisbatan olib borilgan bunday faoliyat uni asta – sekin, ba'zan esa ziddiyatli tarzda o'zgarishiga sabab bo`ladi. Ijobiy natija ijtimoiy pedagogning maqsadli faoliyati, mahorati, o'z kasbini juda yaxshi bilishiga, faolligiga bog`liq. Faqat yuksak, boy madaniyatli shaxsgina boshqa bir shaxsni ruxiy va ma'naviy jiqatdan boyitishi mumkin.

Tarbiyachi yuksak madaniyatli shaxs bo'lishi bilan birga unda pedagogik mayl, ishtiyoq va qobiliyat hamda egallab olingan yuksak kasbiy sifatlar ham bo'lishi lozim.

Pedagogik mayl-moyillik, pedagogik faoliyatga beriluvchanlikdir. Pedagogik faoliyatga beriluvchanlik esa ijtimoiy yo`nalganlikni, kasbiy yo`nalganlik va pedagogik qobiliyatlarni o`ziga ko`shadi.

Pedagogning ijtimoiy yo`nalganligi – bu mustahkam ijtimoiy motivlarning majmui bo`lib, u pedagog faoliyatini belgilab beradi. Unga quyidagilar kiradi:

– Ma'naviylik, ijtimoiy tashabbuskorlik va faollik, keng dunyoqarash, eruditsiya, yangilikni tez sezish, ijtimoiy mas'uliyatlilik va burch sezgisi, ijtimoiy optimizm.

**Ijtimoiy pedagogning kasbiy yo`nalganligi** –bu odamning pedagogikaga moyillagini belgilovchi, shaxsning psixologo –pedagogik xususiyatlari hamda sifatlarining majmuidir.

Unga tubandagilar kiradi:

– bolalarga, pedagogik faoliyat ob'ekti sifatida odamga nisbatan bo`lgan qiziqish; muomilalik, dilkashlik, bilim berishga ehtiyoj, pedagogik yordam berishga intilish, o`z – o`zini takomillashtirishga intiluvchanlik.

**Pedagogik qibiliyatlar** –bu shaxsning pedagogik faoliyatni muvaffaqiyatli tarzda amalga oshirish sharti bo`lgan individual–psixologik xususiyatlaridir. Ana shular ichida umumiy va xususiyatlari ajratib ko`rsatiladi.

**Umumiylar va xususiy maqsadlar** – bu 1 – chi navbatda zexn, idrok etishning adekvatligi; intellektning chuqurligi; xotira hajmi; diqqatning bo`linuvchanligi,

tasavvur qila olishning boyligi, emotsiyalarning kuchliligi va qayg`udoshlik; iroda va sabr – chidamdir.

**Maxsus pedagogik qobiliyatlarga** – prognoz qila bilish (oldindan aytib berish); konstruktiv –tashkilotchilik; emotsional –ma’nodorlilik (ifodali): kommunikativlik; akademik bilimlar, suggestiv; tadqiqotchilik.

Pedagog uchun shuningdek, jismoniy, asabiy – ruxiy, intellektual va ijtimoiy sifatlar ham juda muximdir.

**Ijtimoiy sifatlarga:** mehribonlik va insonni sevish, hurmat etish, odamni qo`llab – quvvatlashga yo`nalganlik, hamdardlik,adolatlilik, sofdillik, muruvvatlilik, maqsadga intiluvchanlik, empatiya, kirishimlik, hamkorlikka moyillik, o`ziga nisbatan talabchanlik, ibolilik, o`z – o`ziga tanqidiy ruxda qarash, tashabbuskorlik, mehnatsevarlik, fuqaroviylashtirish, burch sezgisi, o`z kuchiga ishonish, quvnoqlik.

Ijtimoiy pedagog shaxsini va faolitini ahlokiy printsiplar, insoniylik qadriyatlari va etikaga oid kodekslar boshqalardan ajratib turadi.

Kundalik hayotda va amaliyotida u mana shu qadriyatlarga asoslanadi.

**Ijtimoiy –pedagogning axlokiy printsiplari.** Uning axlokiy xulq – atvorlarini belgilovchi dastlabki, boshlang`ich xolatini ko`rsatadi. Bular: ob`ektivlilik (xolisona, beg`araz), insonparvarlik, inson shaxsiga hurmat, individual yondashish, o`zining xatti – harakati, xulq – atvori uchun boshqalar oldida mas`uliyatni sezish, faoliyat va uni natijalari, odamning ijtimoiy psixik va jismoniy jihatdan mustaqilligini ta’min etish; o`z ishida odamga ziyon – zaxmat etmazmaslik.

Ijtimoiy – pedagogning gumanistik qadriyatları – bu shunday qadriyatlarki, ularning asosida insonga nisbatan hurmat va muhabbat yotadi.

**Ijtimoiy – pedagog uchun eng muximi:**

– inson shaxsining qadr – qimmatini chuqur anglash, uning individualligi, betakrorligi va ijodiy moxiyatini tushunish:

– odamni qanday bo`lsa, shundayligicha qabul qilish;

– ijtimoiy –pedagogik faoliyatning asosiy vazifasi deb shaxsni har tomonlama rivojlanishini, uni o`z – o`ziga xizmat qilishga, hayotda o`zini namayon qilishiga, o`z o`rnini topib olishga tayyorlashdir:

– o`z faoliyati juda katta asabiy – ruxiy kuch sarf etishni talab etishini, tinmay o`z – o`zini takomillashtirib borish lozimligini tushinish:

Ijtimoiy pedagogning etika (axloq – odob)ga oid qoidalari –bu pedagogning boshqa odamlar bilan o`zaro harakati jarayonida o`z faoliyatida qo`llanadigan ahlokiy qoida va normalarining majmuidir.

Bu qoidalarga jumladan:

– xulq – atvor va muloqat madaniyati;

– pedagogik nazokat;

– mijozni, uning yoshidan qat’iy nazar shaxsini, qadr –qimmatini, jinsini, dinini, millatini hurmat qilish;

– kasbiy rostgo`ylik va ob`ektivlik;

– mijozdan va uning yaqin qarindoshlaridan olgan axborotlarni sir saqlash;

– o`z faoliyati va uning oqibatlari uchun axloqiy mas`uliyatni sezish;

– mijoz bilan ishlayotganda uning istak – xoxishini birinchi o`ringa qo`yish, unga zarar etkazuvchi harakatlardan o`zini tiyish;

XX- asrning ikkinchi yarmida pedagogika olamiga «**texnologiya**», hamda «**pedagogik texnologiya**» kabi tushunchalar kirib keldi. Ularning mazmuni va moxiyati bilan biz yuqorida ancha batafsil tanishib o`tgan bo`lsakda, quyida ijtimoiy pedagogik texnologiyaning mazmuni va mohiyati nimadan iborat degan savolga yana bir bor izoh berishni lozim topdik.

**Ijtimoiy- pedagogik texnologiya** – bu sotsium a`zosi sifatida insonning ijtimoiylashuvi jarayonidagi faoliyati, hatti-xarakatlari va ongiga ma'lum maqsad asosida ta'sir o`tkazuvchi pedagogik metodlar va vositalar majmuidir.

**Bolalar va o`smirlar orasidagi ijtimoiy-pedagogik faoliyat texnologiyasi quyidagi shaklda amalga oshiriladi:**

- 1.Tashqiliy faoliyat. Bu faoliyat bolaning o`qituvchilari, ota – onalari, tengqurlari bilan uchrashuvlar, suhbat o`tkazish, to`plangan materiallarni taxlil etish va shu asosda bolaga ijtimoiy-pedagogik yordam berish kabi ishlarni uz ichiga oladi.
- 2.Tashxis qo`yish ishlari. Bu faoliyat bola yoki o`smir shaxsini o`rganish, turli xil savol-javob ishlarini olib borish kabi ishlarni o`z ichiga oladi.
- 3.Bolalar va o`smirlar orasida treninglar tashkil etish.
- 4.Kommunikativ – metodik ishlarni olib borish.
- 5.Kasbga yunaltirishga doir faoliyat.
- 6.Ijtimoiy zararlarga qarshi bolalarning ijtimoiy-psixik ko`nikmalarini hamda tanqidiy munosabatlarini shakllantirishga doir faoliyat ko`rsatish.

Ijtimoiy pedagogik faoliyat jarayonida qo`llaniladigan metodlar

Ma'lumki, metod-grekcha so`z bulib, u ma'lum masalalarni hal etishga qaratilgan yo`l degan ma'noni anglatadi.

**Ijtimoiy pedagogikada metod** – bu shaxsning ijtimoiylashuviga va ijtimoiy-pedagogik reabilitatsiya ishlarini olib borishga, pozitiv ijtimoiy tajribalarni o`zlashtirishga qaratilgan bola hamda ijtimoiy pedagogning o`zaro xamkorlik faoliyatidir.

**Ijtimoiy pedagog tomonidan qo`llaniladigan asosiy metodlar quyidagicha tasnif etiladi:**

1. Ijtimoiy ish metodlari. Bunga ijtimoiy tashxis metodlari (intervyu, monitoring, sotsiologik savol-javob ishlari, ekspertizadan utkazish va x. k.), ijtioiy reabilitatsiya (mehnat terapiyasi, guruxli terapiya va h. k.) kiradi.
2. Psixologik metodlar. Bularga psixodiagnostika (intellekt va qobiliyatlarni aniqlovchi testlar, savol - javoblar, loyixa testlari, sotsiometriya), psixokorreksiyalar (psixogimnastika treninglari, psixologik konsultatsiyalar berish kabilalar) kiradi.
3. Pedagogik metodlar (pedagogik tajriba, pedagogik nazorat, ta'lim – tarbiya berish metodlari).
4. Ijtimoiy – pedagogik metodlar (ijtimoiy tarbiya, ta'sir ko`rsatish, ijtimoiy pedagogik hamkorlik qilish va boshqalar).

Ma'ruza-4

**Mavzu: Ijtimoiy pedagogika asoslari.**

1. Ijtimoiy pedagogika alohida fan va amaliy faoliyat sogasi sifatida.
2. Ijtimoiy pedagogika bo`limlari va funktsiyalari

3. Ijtimoiy pedagogika kategoriyalari
4. Ijtimoiy pedagogika amaliy faoliyat soxasi sifatida

### **Tayanch tushunchalar:**

Shaxs,faoliyat, ijtimoiy siyosat, , pedagogik jarayon, Odav, individ umumiylar pedagogika, socialus, jamiyatga kirish jarayoni, bola va bolalikni himoya qilish,ijtimoiy tar,iya falsafasi, falsafa va ijtimoiy pedagogika, etika, psixologiya,funktsiyalar, kategoriyalar, ijtimoiy ishchi

### **Nazorat uchun savollar**

- 1.Ijtimoiy pedagogikaning fan sifatidagi xususiyatlari kaysilar?
- 2.Ijtimoiy pedagogikaning fan sifatidagi mazmunini xarakterlang?
3. Ijtimoiy pedagogika atamalariga ta'rif bering?
4. Ijtimoiy pedagogikaning funktsiyalarini aniklang?
5. Ijtimoiy ish nima?
6. Ijtimoiy ishchining faoliyati mazmuni?
7. Ijtimoiy pedagogika va ijtimoiy ishning o`zaro munosabati nimadan iborat?
8. Ijtimoiy pedagogika va ijtimoiy ish o`rtasidagi farklarni ayting?
9. Ijtimoiy o`kitish va ijtimoiy tarbiyaga ta'rif bering?

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Ijtimoiy pedagogika. Ma'ruzalar kursi. M.A.Galoguzova taxriri ostida. M.Vlados.2003.
- 2.A.Mudrik. Ijtimoiy pedagogika-M.Akademiya.2003.
- 3.I.P.Padlsiy. Pedagogika, (yangi kurs)-M.Vlados.
- 4.I.P.Padlsiy. Pedagogika.1000.M.2001.
- 5.Pedagogika. Ma'ruzalar matni T.TGPU, 2001.
- 6.YU.V.Vasilkova, T.A.Vasilkova. Ijtimoiy pedagogika.-M.,2003.
- 7.Quronov M., Qurbaniyazova Z. «Ijtimoiy redagogika».(Ma'ruza matnlari to'rlami). T. 2003 y.
- 8.Bola xuquqlari to'g'risidagi Konventsiya. T. O'zbekiston. Bolalar jamgarmasi.1993 y.
- 9.Syuzen Fauntin. «Noyob huquqlar». YUNISEF. 1993y.
- 10.Ovcharova N. «Srravochnik sotsialnogo redagoga». M. Sfera. 2001g.

### **IJTIMOIY PEDAGOGIKA FAN SIFATIDA**

#### **Ijtimoiy pedagogika tushunchasining moxiyati.**

Ijtimoiy pedagogikaning fan sifatidagi ta'rifi bir kator baxs-munozaralarga sabab bo`lmokda. YAxshi ma'lumki, xar kanday fan inson bilimi soxasi sifatida nazariya va amaliyotning birligi sifatida faoliyat yuritadi. Bu ikki soxa doimo bir-birini to`ldirib kelishadi va vokelikning mukammallashuviga o`z ta'sirini ko`rsatishadi. Demak, biz ijtimoiy pedagogikani xam fan va amaliy faoliyat soxasi sifatida o`rganishimiz lozim. Bundan tashkari ijtimoiy pedagogika ko`pgina boshka

fanlar (falsafa, matematika, biologiya) kabi o`quv fani bo`lib xam xizmat qilishi mumkin.

O`zbekiston kadimiy tarix va pedagogik an'analarga ega davlat bo`lgani uchun **kadimdan ijtimoiy pedagogika fanining Sharq mutafakkirlari va diniy arboblar asarlarida rivojlanishi asoslari mavjuddir**. XIX asrda o`zbek ma'rifatparvarlari, XX asrdagi novator pedagoglarning ijtimoiy tarbiya soxasidagi faoliyati ijtimoiy bilimlar uchun boy materialni tashkil kiladi. Birok ma'lum bir davrda ijtimoiy pedagogikaning tadrijiy rivojlanishi to`xtatib ko`yildi. Bu ish avvaliga inkilobgacha bo`lgan davrda pedagogikadan voz kechish, so`ngra **ijtimoiy muammolarni ma'lum kilmaslik siyosati** bilan amalga oshirilgan bo`lsa, ana shu asosdan kelib chikib, aytish mumkinki, ijtimoiy pedagogika ilmiy nazariy bilimlar va ijtimoiy –pedagogik faoliyatni o`rganadi, keyinchalik **unga burjuaziya fani sifatida karalgan**. Ijtimoiy pedagogikaning tiklanishi faqatgina XX asrning 90-yillarida ro`y berdi. Uning kayta **“tugulishi”** ijtimoiy pedagoglarning zamonaviy sharoitlardagi faoliyatlarida, amaliyotda ijtimoiy pedagogika fanining yutuklaridan foydalanish zaruriyati tugilgani bilan izoxlanadi. Bu erda davlat va jamiyatning faoliyat yuritishining yangi tamoyillari-bozor iktisodiyoti, rakobat, budjetdan pul ajratishni kamaytirish, dunyo xamjamiyatiga kirish, iktisodiy xolatning barqarorligi nazarda tutilmokda. SHu bilan birga ijtimoiy xayotni demokratiyalashtirish, jaxon xamjamiyatiga kirish, axolining kam ta'minlangan katlamlariga e'tiborni yanada kuchaytirishni talab kiladi. Birok bundan avvalgi davr nazariya va amaliyotining tizimlashtirilmagani, bu ikki soxani bir-biridan aloxida ravishda rivojlanishiga sabab bo`ldi va ijtimoiy pedagogikaning fan sifatida shakllanishiga uz ta'sirini ko`rsatdi. Natijada bugunda ilmning bu soxasini to`lik kamrab oluvchi ta'rif mavjud emas.

Masalan, YU.V.Vasilkova bu fanni **“aloxida shaxs va guruxni tarbiyalash va o`kitish nazariya va amaliyoti”** deb ta'kidlaydi<sup>1</sup>.

A.V.Mudrikning fikricha ijtimoiy pedagogika-**“barcha yosh guruxlar va ijtimoiy toifalarini ijtimoiy tarbiyasini o`rganuvchi pedagogika”**dir<sup>2</sup>.

V.D.Semenov «**ijtimoiy pedagogika yoki muxit pedagogikasi fan yutuklarini birlashtiruvchi va ularni ijtimoiy-tarbiya amaliyotida amalga oshiradi**»<sup>3</sup>, deb xisoblaydi.

I.Podlasiyning «Pedagogika» darsligida quyidagicha ta'rif mavjud:

**“Ijtimoiy pedagogika- ijtimoiy muxitning shaxsni shakllantirishga va ijtimoiy tarbiya muammolariga ta'siri konuniyatlarini o`rnatuvchi fan”**<sup>4</sup>.

YU.N.Galaguzova ijtimoiy pedagogikaga uning ob'ekti va predmetini aniklash orkali ta'rif bermokchi bo`lgan.

Ijtimoiy pedagogikaning fan sifatidagi moxiyatini aniklash uchun “fan” tushunchasining o`zi inson faoliyatining ob'ektiv bilimlarni tizimlashtirish va ishlab chikishga karatilgan faoliyati ekanligini ta'kidlash lozim. Tushunchaning ilmiy-mazmuniy jixatini o`rganish “ijtimoiy pedagogika” atamasining o`ziga e'tibor karatishni talab kiladi. U ikki soxadan iborat bo`lib, ularni bitta soxaga birlashtirib

turadi. Bu birlashuv tasodifiy emas va fanda tabakalashuv va ixtisoslashuvning zamonaviy jarayonlariiga boglik. Pedagogika fanida tabakalashuv va ixtisoslashuv jarayoni so`nggi paytlarda ancha kuchaydi. Ba`zi bir ixtisoslashtirilgan soxalar-**maktabgacha pedagogika, maktab pedagogikasi, maxsus pedagogika, kasbxunar pedagogikasi, tarix pedagogikasi mustaqil ilmiy soxalarga aylanib bo`lishdi.** Ularning katoriga ijtimoiy pedagogikani xam kiritsak bo`ladi.

Ijtimoiy pedagogika xam pedagogika singari ta`lim-tarbiya jarayoni va xodisalarini o`rganishidan dalolat beradi. Birok ularni muayyan o`ziga xos yo`nalishlarda o`rganadi. Bu fanning o`ziga xos xususiyati “**ijtimoiy**” so`zida mujassamlashtirilgan.

**“Ijtimoiy” (lotinchada socialis-umumiyligi, ijtimoiy)** tushunchasi ostida odamlarning shakllari, ularning o`zaro munosabatlarini turli shakllari bilan boglik barcha narsa tushuniladi. Bu degani, agar pedagogika o`sib kelayotgan avlodlarning ta`lim- tarbiyasi xaqidagi fan bo`lsa, **ijtimoiy pedagogika ta`lim-tarbiya jarayonlarida bolaning jamiyatdagisi xayotga ko`shilishiga boglik xodisalarini aloxida ajratadi. Bolaning jamiyatga “kirish” jarayoni, uning muayyan ijtimoiy tajribani ko`lga kiritishi (bilim, kadriyat, yurish-turish koidalari) ijtimoiylashuv deyiladi.**

SHunday qilib agar biz ijtimoiy pedagogika moxiyatini bu fanning ob`ekt va predmetini kiyoslash orkali aniklamokchi bo`lsak quyidagi xolat kelib chikadi. Pedagogikaning xam, ijtimoiy pedagogikaning xam ob`ekti- bu bola, birok o`rganish predmetlari turlicha. Pedagogikaning o`rganish predmeti bolani tarbiyalash konuniyatlari xisoblanadi, **ijtimoiy pedagogikaning predmeti esa bolani ijtimoiylashtirish konuniyatlari xisoblanadi.** SHuni ta`kidlash lozimki, bu ikki fanlarning uzok tarixiy alokasiga karamay natijada ularning o`ziga xos vazifalari tufayli uzoklashishi ro`y berdi. Umumiy pedagogikaning spetsifik vazifasi ta`lim-tarbiyadir. **Bola va bolalikni ximoya qilish ijtimoiy pedagogning asosiy kasbi xisoblanadi.**

SHu sababli **ijtimoiy pedagogika jamiyatni va ijtimoiy munosabatlarni o`rganadi, insonlar bir-birlari bilan kanday muomalaga kirishishlarini ,nimaga bir guruxga birlashishlarini va jamiyatning boshka ijtimoiy masalalarini aniklashga xarakat kiladi.** Ijtimoiy pedagogika bu muammolarni biroz boshkacha tarzda, uning ilmiy vazifalariga mos ravishda o`rganadi. SHu bilan birga o`z rivojlanishida umumiy pedagogikadan ajralib chikib, u kompleks xarakterga ega bo`ldi. Xozirda uning **nazariy va amaliy faoliyati soxasiga maktab va maktabdan tashkari muassasalarda tarbiya va kayta tarbiya, bolalar uylari, kariyalar uylarida yashovchilarga gamxo`rlik, xuxukbuzarlar bilan ishslash, kabilar kiradi.** Ijtimoiy pedagoglar faoliyatning turli soxalari: **ekologiya, badiiy ijod, soglomlashtirish soxalarida ixtisoslashishadi.** Ijtimoiy pedagogning kompleks xarakteri uning boshka fanlar bilan munosabatida namoyon bo`ladi.

**Falsafa va ijtimoiy pedagogika.** Falsafa inson, borlikning mavjudligi masalalarini o`rtaga ko`yadi va ularga javob topishga xarakat qilib, dunyokarashning umumlashgan tizimini ishlab chikadi. Ijtimoiy pedagogikaning “**ijtimoiy tarbiya falsafasi**” bo`limi inson va uning tarbiyasiga muayan karashlardan kelib chikadi va bu karashlarda xar doim u yoki bu falsafiy asoslarni uchratsak bo`ladi.

***Etika va ijtimoiy pedagogika.*** Etika axlokiy tasavvur va karashlar rivojlanishining umumiyligi konuniyatlarini, shuningdek, u tartibga solayotgan axlokiy ong shakllarini va ularning axlokiy faoliyatini taxlil kiladi. Ijtimoiy pedagogika etika shakllantirgan tamoyillardan foydalanadi, tarbiya usullari va maqsadlarini ishlab chikadi. Falsafa, ijtimoiy tarbiya nazariya va uslubiyatining boshka muammolarini o`rganadi.

***Sotsiologiya va ijtimoiy pedagogika.*** Sotsiologiya-jamiyat, ijtimoiy munosabatlar va ijtimoiy tarbiya uslubiyati rivoji faoliyat yuritishi, shakllanishi konuniyatlarini xaqidagi fan ijtimoiy tarbiya sotsiologiyasi ijtimoiylashuv muammolarini o`rgana turib ijtimoiy bitimlar soxalarining birkator ma'lumotlari: (yosh, shaxar va kishloq, dam olish, ommaviy alokalar, yoshlar, axlok, ta'lim, jinoyatchilik, din, oila sotsiologiyasi)dan foydalanadi.

***Etnografiya, etnopsixologiya va ijtimoiy pedagogika.*** Etnografiya xalklarning maishiy va madaniy xususiyatlarini o`rganadi. Etnopsixologiya insonlar ruxiyatining etnik xususiyatlari, milliy xarakteri, milliy o`z-o`zini anglashning shakllanishi konuniyatlarini, etnik steriotiplarini o`rganuvchi bilim soxasi. Ijtimoiy tarbiya sotsiologiya va psixologiya inson xayotining yosh davrlarga bo`linishi, etnik xususiyatlari xaqidagi ma'lumotlar, etnosda u yoki bu yoshdagi yoki jinsdagi insonlarning tutgan o`rnini belgilaydigan omillar ijtimoiylashuv va tarbiyaning etnik va konuniyatlarini xaqidagi ma'lumotlardan foydalanadi.

Ijtimoiy tarbiya nazariyasini ishlab chikishda etnografiya va etnopsixologiya ma'lumotlari xam inobatga olinadi. Etnik xususiyatlarni tarbiyaning anik vazifa va mazmunini aniklashda, tarbiya tizimini tashkil qilishda inobatga olish lozim. SHu bilan birga umuminsoniy tarbiya tamoyillariga mos tushadigan etnosda shakllangan tarbiya usullaridan shu xalk doirasida ijtimoiy tarbiya tizimida foylanish maqsadida muvofikdir. Bundan tashkari ijtimoiylashuv va tarbiyaning ba'zi bir etnik xususiyatlarini muayyan doirada jadallashtirish va o`rnini to`ldirish xam lozimdir.

***Ijtimoiy va yosh psixologiyasi xamda ijtimoiy pedagogika.*** ijtimoiy psixologiya insonlarni ijtimoiy guruxlarga ko`shilishlari faktini keltirib chikuvchi inson faoliyati va yurish-turish konuniyatlarini, shuningdek bu guruxlarning psixologik ta'riflarini xam o`rganadi. YOsh psixologiyasi inson ruxiyati dinamikasi va yosh xususiyatlarini, shuningdek shaxs rivojlanishining yoshga boglik omillarini xam o`rganadi. Ijtimoiy pedagogika **ijtimoiylashuv** va **viktimalogiya (jinoyatshunoslik)** muammolarini o`rgana turib va ijtimoiy tarbiya uslubiyat va psixologiyasini ishlab chika turib ijtimoiy va yosh psixologiyasi ma'lumotlaridan foydalanadi.

SHunday qilib ijtimoiy pedagogika ilmiy tadqiqot larning intizomiy soxasi xisoblanadi. **Uning asosi pedagogika, pedagogika tarixi, pedagogik usullar va vositalar xisoblanadi.** SHu bilan birga ijtimoiylashuv muammolari ijtimoiyogiga tomonidan o`rganilganligi sababli ijtimoiy pedagogika ba'zi ijtimoiyogik nazariya, usul va vositalardan xam foydalanadi. SHu bilan birga ijtimoiy pedagogika o`zining nazariya, uslub, vosita va texnologiyalarini xam ishlab chikadi.

YUkorida bayon etilgan isbot dalillar asosida YU.N.Galaguzovanining ta'rifiga juda yakin turuvchi ijtimoiy pedagogikaning eng anik ta'rifi quyidagicha:

**Ijtimoiy pedagogika-shaxsni ijtimoiylashuvi konuniyatlarini o`rganish, jamiyatning ijtimoiy muammolarini xal qilish maqsadida ijtimoiy pedagogik**

**faoliyatning samarali usullari texnologiyalarini ishlab chikish va ularni ko`llashga karatilgan pedagogika soxasidir.**

SHuningdek, ijtimoiy pedagogikaga bola **ijtimoiy lashuvi** konuniyatlarini o`rganadigan va mutaxassislarini **ijtimoiy tarbiya** va ta`lim usullari va texnologiyasi bilan ta`minlaydigan fan sifatida ta`rif bersak xam bo`ladi.

### **Ijtimoiy pedagogika soxalarilari va ularning vazifalari.**

Ijtimoiy pedagogika bilim soxasi sifatida bir nechta bo`limlardan iborat. Bu bo`limlarda olingan bilimlar ijtimoiy tarbiyani ijtimoiy amaliyotning turlaridan biri sifatida xarakterlashga va uni mukammallashtirish bo`yicha muayyan yondashuv va tavsiyalarni berish imkonini yaratadi.

**Ijtimoiy tarbiya falsafasi** falsafa, etika, ijtimoiy sotsiologiya va pedagogika to`knashuvidan kelib chikadi. Unda amaliy, uslubiy va dunyokarashga oid masalalar o`rganiladi. Xususan ijtimoiy tarbiya va uning vazifalari ta`rifi beriladi: inson obrazini muayyan tushunish asosida rivojlanish, ijtimoiylashuv va tarbiya nisbatiga umumiy yondashuvlar ishlab chikiladi; **ijtimoiy tarbiyaning kadriyat va tamoyillari ishlab chikiladi** va boshkalar.

**Ijtimoiy tarbiya ijtimoiyogiyasi** ijtimoiylashuvni ijtimoiy tarbiya konteksti va ijtimoiy tarbiyani ijtimoiylashuv tarkibi sifatida o`rganadi. Olingan bilimlar ularning tarbiya soloxiyatlaridan foydalanish, ijtimoiylashuv jarayonida inson rivojiga ta`sir etishi mumkin bo`lgan ijobiy ta`sirlarni kuchaytirish va salbiy ta`sirni kamaytirishning usullari va yo`llarini izlab topish imkonini beradi. Umuman olganda ijtimoiy tarbiya ijtimoiyogiyasi tomonidan o`zlashtirilgan bilimlar **jamiyat tarbiyaviy kuchlarini birlashtirish yo`llarini kidirishga asos bo`lishi mumkin.**

**Ijtimoiy tarbiya nazariyasi** ijtimoiy tarbiyaning **faoliyat yuritishini tavsiflaydi, tushuntiradi va bashorat kiladi.** Ijtimoiy tarbiya darajasidan kelib chikib, ijtimoiy tarbiya ijtimoiyogiyasi ma'lumotlarini inobatga olib ijtimoiy tarbiya individ, gurux, ijtimoiy sub'ektlari nima ekanligini va ular o`zaro kanday munosabatda bo`lishlarini o`rganadi.

**Ijtimoiy tarbiya psixologiyasi** gurux va insonlarning ijtimoiy psixologik tavsiflari, ularning turli yoshlardagi xususiyatlari asosida ijtimoiy tarbiya sub'ektlarining o`zaro munosabati samaradorligining psixologik sharoitlarini aniklaydi.

**Ijtimoiy tarbiya uslubiyati** ijtimoiy tarbiyani maqsadga muvofik tashkil qilishning yangi usullarini ishlab chikadi.

**Ijtimoiy tarbiya menejmenti va iktisodiyoti** bir tomonidan jamiyatning inson mablagiga extiyojini, boshka tomondan ijtimoiy tarbiyani tashkil qilishda foydalanishi mumkin bo`lgan jamiyatning iktisodiy resurslarini tadkik etadi. Bundan tashkari bu bo`limda ijtimoiy tarbiya boshkaruvi xam ko`rib chikiladi.

**Ijtimoiy pedagogika fan soxasi sifatida bir kator vazifalarga ega.** A.V.Mudrin bu vazifalarni 3 guruxga ajratib ko`rsatadi: nazariy, insoniylikka oid va amaliy.

**Nazariy vazifa** ijtimoiy pedagogik bilimlarni to`plib zamonaviy jamiyatda o`rganayotgan jarayon va xodisalarining to`lik tasvirini tuzishga intilishida namoyon bo`ladi.

*Amaliy vazifalarga* ijtimoiy pedagogikaning ijtimoiylashuviga tashqiliy-pedagogik va psixologik yo`nalishlardagi ta`sirini samarali takomillashtirish ishlarini aniklash bilan boglik. Amaliy vazifalarga quyidagilar kiradi:

- 1)bola (o`smir) ongida yaxshilik, adolat, yakinlariga, ijodga, o`zaro tushunishga muxabbatni tarbiyalash;
- 2)inkirozdan mustaqil chikib ketish maqsadini ko`yish, chikish yo`llarini aniklash, atrofdagilar bilan muomala qilishni o`rganish, xayot mazmuni va maqsadini aniklash;
- 3)atrof-muxit, inson, uning jismoniy va ma`naviy xususiyatlari, jamiyatdagi xukuk va majburiyatlarini bilishga intilishni rivojlantirish;
- 4)gurur, mustaqil lik, o`ziga ishonch xissini rivojlantirish;
- 5)bola (o`smir)da insonlar bilan oila, maktab, tengdoshlari davrasida, ishda muomala qilishga ishtiyokni oshirish. Bunda ijtimoiy pedagogika o`z tarbiyanuvchilarining yosh xususiyatlarini bilishi zarur. SHuningdek, u bolaga ijtimoiy munosabatlarning axlok va xukuk normalariga suyangan xolda insonlar, shaxs va jamiyat o`rtasidagi nizolarni echishga o`rgatishi kerak. Bu vazifalarni yaxshilik qilish, o`z xayotini tashkil qilishni o`rgatish, o`ziga xosligi va iktidorini tashkil qilishga rivojlantirishda o`z aksini topadi.

*Insonparvarlik vazifasisi* shaxsning rivojlanishi uchun sharoitlar yaratib beruvchi ijtimoiy pedagogik jarayonlarni mukammallashtirish uchun maqsadlarni ishlab chikishda o`z ifodasini topadi. Zamonaviy ijtimoiy pedagogikaning insoniyligi bola va pedagog o`rtasidagi munosabatlarni kattikko`llik emas, o`zaro tushunishga asoslanadi. Ijtimoiy pedagogning vazifasi **bolaning jismoniy, axlokiy va ma`naviy kuchlariga dalda berish, unda jamiyat kabul kilgan xislatlarni tarbiyalashga yordam berishdan iborat**.

YU.V.Vaselkova ijtimoiy pedagogikaning asosiy vazifalari sifatida tarbiyaviy, ijtimoiy- xuquqiy va ijtimoiy -reabilitatsion umumlashmalarni ajratadi.

*Tarbiyaviy vazifa* bolani atrof muxitga ko`shilish, uning ijtimoiylashuv jarayoni, o`quv va tarbiya jarayoniga ko`nikishini ko`zda tutadi.

*Ijtimoiy- xuquqiy vazifa* davlatning bolalarga g`amxo`rligi, ularning xuquqiy ximoyasini bildiradi.

*Ijtimoiy reabilitatsion vazifa*- nogiron, jismoniy va ruxiy nuksонlarga ega bolalar bilan tarbiyaviy va o`quv ishlarini olib borishdir. Bunda asosiy ijtimoiy vazifalarni pedagog bajaradi.

SHu bilan birga u vazifalarning yanada kengrok tavsiflarini xam beradi:

- 1.falokatga uchragan bola(o`smir)larga yordam ko`rsatish. Inkirozdan chikish yo`llarini topish, kiyin vaktda ko`llab-kuvvatlash xam muximdir;
- 2.bola(o`smir)ni, uning xolatini, oila va maktabdagagi munosabatlarini o`rganish;
- 3.bolani o`rab turgan va unga ta`sir kiluvchi turli ijtimoiy soxalardagi ijtimoiy tarbiya xolatining taxlili;
- 4.u bola (o`smir) faoliyatini o`z-o`zini tarbiyalash, o`z-o`zini o`kitish va o`z xayotini mustaqil tashkil qilishni bilishga karatishi ;
- 5.ijtimoiy pedagog bola (o`smir) muammolarini xal kiluvchi, uning inkirozi, xukuklariga alokador tashkilot, mutaxassislarni birlashtirish bilan xam shugullanish;

6.ijtimoiy pedagogining vazifalaridan biri ijtimoiy tarbiyaning turli muammolarini o`rganishni tashkil qilish, ijtimoiy pedagoglar faoliyatini taxlil qilishi lozim.

### **Ijtimoiy pedagogikaning asosiy kategoriyalari.**

Xar bir fanni shu fanning o`rganish predmetiga asoslangan bilimlar tizimi ajratib turadi. Fanning bilimlar tizimi uning tushuncha va kategoriyalarda aks etadi. Tushuncha-real olamni bilish jarayonida aks etish shakllaridan biri. Realliklarning o`zgaruvchanligi va ko`p kirraligi tufayli tushunchalar dinamik, rivojlanadigan xarakterga ega. Ular tarixiy xolat va xayot sharoitlariga boglik ravishda o`zgaradi.

Xar kanday fan rivojlanishi jarayonida tushunchalar fan kategoriyaliga birlashishadi. **Fan kategoriyalari shu fanda ko`llaniladigan yanada kattarok, amaliy tushunchalardir.** Ijtimoiy pedagogikaning asosiy kategoriyaliga olimlar “**ijtimoiy pedagogik faoliyat**” “**ijtimoiy ta’lim**” va **ijtimoiy tarbiyani kiritishadi.**

### **Ijtimoiy pedagogik faoliyat va ijtimoiy ta’lim.**

Ijtimoiylashuv jarayonida bola jamiyat, ijtimoiy munosabatlar, ijtimoiy makom va rol, ijtimoiy xulk- atvorning me’yor va koidalari xaqida ko`p bilimlarni o`zlashtiradi. U shuningdek uning jamiyatga ko`nikishiga yordam beruvchi turli ko`nikma va malakalarni xam o`zlashtiradi. Bu jarayon ayniksa bolalikda juda jadal amalgalashadi. Ma’lumki, bola besh yoshgacha uning keyingi xayotida o`z aksini topuvchi nixoyatda ko`p bilimlarni oladi.

Bolalar ijtimoiylashuvining ajralib turuvchi xususiyati shuki, bola jamiyat ilgari surayotgan yurish-turish me’yorlariga baxo berishi va nazorat qilishi kiyin. U ularni faqat o`zlashtirib boradi. SHuning uchun bolalar ijtimoiylashuviga ota-onalar, karindoshlar, bolalar bilan ishlayotgan mutaxassislar (psixolog, shifokor, pedagoglar – “agent”lar) katta ta’sir ko`rsatishadi.

Bolalar xayotda zarur ijtimoiy bilimlarni ertarok va yaxshirok o`zlashtirishlari va ularni xayotda ko`llashga intilishlari aynan ularga boglik.

Buni ijtimoiy pedagogika bilan boglikligi shundaki, maktab yoki boshka ta’lim muassasida ta’lim olishi jarayonida avvalo akademik bilimlarni o`zlashtiradi. Birok shu bilan bir paytda u muayyan tizimlashgan ijtimoiy bilim, ko`nikma va malakalarni xam ko`lga kiritadi. Bu bilim, ko`nikma va malakalar ijtimoiylashuv jarayonida bolaga maxsus yordam kerak bo`lganda juda zarur bo`ladi.

Bolaning ijtimoiylashuviga yordam beradigan ijtimoiy bilimlarni bolaga etkazish va unda ijtimoiy malaka va ko`nikmalarni shakllantirish jarayoniga ijtimoiy ta’lim deyiladi.

### **Tarbiya va ijtimoiy tarbiya.**

Tarbiya pedagogikaning asosiy ob’ekti sifatida pedagogikaning rivojlanish tarixi mobaynida olimlarning dikkat markazida bo`lib kelgan. SHu bilan birga “tarbiya” tushunchasining mazmuni amaliy axamiyatga ega. CHunki bu tushuncha pedagogik faoliyatning vazifa va maqsadlariga asosiy yondashuvlarni belgilaydi.

Boshka tomondan tarbiya-ijtimoiy xayotning doimiy va umumiyy kategoriyasidir. Tarbiyaning ijtimoiy kamrovii uning lugaviy ma’nosidan ancha kengdir.

Ijtimoiy tarbiyani insonning kobiliyat, bilim, yurish-turish namunasi, kadriyatlar u yashayotgan jamiyatga munosabatidan iborat imkoniyatlarini rivojlantirishga yordam beruvchi, maxsus tarbiya tashkilotlarida amalgalashadi oshiriladigan jarayon sifatida ko`rib chikish lozim.

Boshkacha aytganda, ijtimoiy tarbiyaning maqsadi insonni ijobiy rivojlanishga karatilgan sharoitlar yaratish jarayoniga yo`naltirishdir.

Bu sharoitlar individual va guruxiy sub'ektlarning uchta o`zaro boglik va shu paytning o`zida mazmuni, shakli, usuli jixatidan nisbatan mustaqil bo`lgan jarayonlar: (bolalar, o`smirlar, o`sipinlar)ni kamrab oladi O`smirlarning ijtimoiy tajribasini tashkil qilish, ularga individual yordam tajribasini tashkil qilish, ularga individual yordam ko`rsatishning o`zaro munosabati jarayonida yaratiladi.

Ijtimoiy tajribani tashkil qilish gurux (jamoa)larning xayotiy faoliyatini tashkil qilish orkali amalga oshiriladi. Bular ga gurux a`zolarining o`zaro munosabatlarini tashkil qilish, guruxdagi faoliyatga ragbatlantirish va norasmiy mikroguruxlarga ta'sir etish.

**Ijtimoiy tajriba keng ma'noda turli ko`nikma va malakalar, bilim va fikrlash usullari, yurish-turish me'yor va stereotiplari, kadriyatlar, odamlar bilan munosabatga kirishish tajribasi, ko`nikish, shuningdek o`z-o`zini anglash, o`z-o`zini aniklab olish birligidir.**

Ta'lim o`z ichiga quyidagilarni oladi: tizimli ta'lim (rasmiy ta'lim), madaniyatni targib qilish va tarkatish, o`z-o`zini shakllantirishga yo`naltirish.

**Individual yordam** insonga muammolarni xal qilishda yordam berish, o`z-o`zini rivojlantirishga yordam berish, jamiyatdagi mavkei, o`rnini yuksaltirishda namoyon bo`ladi.

Individual yordam boshka insonlarning extiyojlarini kondirishga zarur bo`lgan bilim, malakalarni o`zlashtirishga insonga ongli yordam berish, insonning o`z kadriyatlarini anglashi, o`z-o`zini anglashini rivojlantirish, oila, gurux, jamiyatga mansubligi xissini rivojlantirishdir.

Tabiiyki, ijtimoiy tajriba ta'lim va individual yordamning usul, shakl, mazmuni, xarakter, jadalligi bevosita tarbiyalanuvchilarning yoshi, jinsi, kaysi kasb egasi ekanligi ularning va ijtimoiymadaniy mansubligiga boglik. Bu jixatlar turli ta'lim muassasalari va tashkilotlarda bular farklanadi. Farklar xam tashkilot turiga, xam unda faoliyat yuritadigan pedagoglarning o`z faoliyatlarida amalga oshirayotgan ishlariga boglik.

Ijtimoiy tarbiya jarayonidagi o`zaro munosabat uning sub'ektlari orasidagi axborot, faoliyat usullari, kadriyatlar almashuvidir. Bunaka munosabat ijtimoiy jixatdan tabakalashgan, aloxida ko`rinishga ega. CHunki o`zaro munosabatning anik ishtirokchilari muayyan etnik, ijtimoiy va ijtimoiy psixologik guruxlar vaqili bo`la turib o`z munosabatlarida u yoki bu darajada ular mansub guruxlarga tegishli ijtimoiy yurish-turishni amalga oshirishadi.

Umuman olganda o`zaro munosabat tarbiyachilar va tarbiyalanuvchilarning, birgalikdagi faoliyati, uning mazmuni, xarakteri tarbiyaviy samaradorligi, unda kimlar ishtirok etishi va ular o`zlarini kay darajada shaxs deb xisoblashiga boglik.

O`zaro munosabat jarayonida amalga oshirilayotgan ijtimoiy tarbiya insonning ijobiy ijtimoiy, ma`naviy bilim va ko`nikmalarni o`zlashtirishda kulay sharoitlar yaratadi.

### **Ijtimoiy pedagogika - amaliy faoliyat soxasi sifatida**

## **Ijtimoiy pedagogika va ijtimoiy ish**

XIX asrda Evropa va SHimoliy Amerikada bo`lib o`tgan ijtimoiy-madaniy jarayonlar nafaqat ijtimoiy pedagogika balki “**ijtimoiy ish**” deb nomlangan ijtimoiy faoliyat soxasining paydo bo`lishini ta`minladi.

Garbiy Evropa davlatlarida ayniksa Germaniyada XX asr davomida ijtimoiy pedagogika bilan bir katorda ijtimoiy ish xam amaliy faoliyat soxasi sifatida rivojlanadi, birok ijtimoiy pedagoglar va ijtimoiy ishchilarning kasbiy faoliyatlarida ko`p umumiy jixatlar bor. Ular bir kasbni anglatuvchi sinonim so`zlardir. Bu mutaxassislar jamiyatda tarbiyaviy, axborot, xamkorlik, tashqiliy, ximoya, ko`llab-kuvvatlovchi vazifalarini bajarishadi.

Ishchilarning bu toifalarini paydo bo`lishi axolining ximoyalanmagan katlamlariga ijtimoiy yordam bera oladigan mutaxassislarda extiyoj tugilgani bilan boglik.

Ijtimoiy pedagogika va ijtimoiy ishning rivojlanish tarixi juda yakin. Avvalambor ularni insonlarga munosabatning tarixiy-madaniy an`analari birlashtiradi. “**Mexribonlik**”, “**xayriya**”, “**yordam**” tushunchalarining xam ijtimoiy pedagogik, xam ijtimoiy ishda ko`llanishi tasoddif emas.

Ijtimoiy pedagogika va ijtimoiy ish amaliy faoliyatining yakinligi, bu ikki ishchilar toifasining kengaytirish, ularning maqsadlarining yakinlashuviga va bir-birlarini to`ldirishlariga olib keldi. Turli davlat va nodavlat ta`lim muassasalarida masalan, bolalar bogchalari, maktablarda xozirda xam ijtimoiy ishchilar va ijtimoiy pedagoglar birgalikda ishlashlari mumkin. Birok ulardan xar biri o`z majburiyatlariga ega.

Ularning farklari quyidagilarda namoyon bo`ladi. Ular bilim soxasi sifatida turli fanlardan kelib chikishgan: **ijtimoiy pedagogika-pedagogikadan**, **ijtimoiy ish esa ijtimoiyogiyadan**.

Amaliy faoliyatda ularning farklari ijtimoiy pedagoglar o`z faoliyatlarida pedagog faoliyatining nazariy va metodik asoslariga suyanganlarida, **ijtimoiy ishchilar esa asosan ijtimoiy nazariya va texnologiyalardan foydalanishlarida** namoyon bo`ladi. Bu ikki mutaxassisliklar shuningdek, faoliyat ob`ekti bo`yicha xam farklanadilar.

Ijtimoiy ish ob`ekti insonning me`yorida faoliyat yuritishiga xalakit beruvchi muammolarga ega shaxsdir. Muammolar xar bir insonda butun xayoti davomida yuzaga keladi. Ular psixologik, tibbiy, xuquqiy, moddiy bo`lishi mumkin. Ular xam insonga boglik bo`lmagan tashki omillar(kasallik va boshka)ga boglik bo`lishi xam mumkin. Bu xolatda ijtimoiy ish ob`ekti o`z muammolarini mustaqil xal qilishga kuchi etmaydigan va kasbiy yordamga muxtoj bo`lgan inson bo`ladi.

SHunday qilib **ijtimoiy ish ob`ekti xayoti davomida ijtimoiy yordamga muxtoj bo`lgan insondir**. Ijtimoiy pedagogika ob`ekti esa bolaning ijtimoiy sub`ektga aylanishiga kerak bo`ladigan yordamdir.

**Ijtimoiy ishchi yordam ko`rsatayotgan inson mijoz deyiladi, ijtimoiy pedagogikada odatda “go`dak” so`zi ishlataladi.**

“**Ijtimoiy ish**” insonning insonga insoniy munosabatini namoyon bo`lishini bildiruvchi ibora. U xali kadim zamonlardayok insonning diniy burchi, extiyojmandlarga insoniy xizmatlar tizimi sifatida paydo bo`lgan. Birok faqatgina

bizning asrimizga kelib ijtimoiy ish butun dunyoda maxsus tayyorgarlikni talab kiluvchi kasb sifatida tan olinayapti.

**Ijtimoiy faoliyat**-insonning jamiyatga muvaffakiyatli moslashuvini osonlashtirish karatilgan tizimli chora-tadbirlardir. U mexribonlik va shuncha o`xhash faoliyat doirasidan nafaqat kundalik muammolarni xal qilishga yordam berish, balki extiyojlarni kondirishga to`sik bo`ladigan muammolarni xal qilishga yordam berish bilan ajralib turadi.

Davlat va jamoatchilik ko`llab-kuvvatlaydigan tashkilotlar (tijorat va notijorat) ko`rsatadigan yordam eng samaralidir. Ijtimoiy yordam ko`rsatma berish jamiyatning yukori madaniyati va tarakkiy etganligidan dalolat beradi. U butun axolining xamdarligiga sabab bo`ladi. SHuning uchun ancha obro` e'tiborga ega. Birok ijtimoiy ishchilarning maoshi yukori emas va ijtimoiy tashkilotlarga ishga kiruvchilar soni xam ko`p emas.

Ijtimoiy pedagog ishini xam axlokiy burch xam kasb desak bo`ladi. Savol paydo bo`ladi: ijtimoiy pedagog o`zi nima bilan shugullanadi?

Ijtimoiy ishning o`ziga xosligini tushunishda asosiy omil 1917 yilda Meri Richmandning "**Ijtimoiy suxbat**" kitobining chop etilishi bo`ldi. Bu mumtoz asarda "**YAxshi ijtimoiy ishchi odamlarni kambagallikdan xalos etish bilan shugullanmaydi, u kambagallikni umuman bartaraf etish uchun nima qilish xaqida o`yaydi**", -deb yozilgan. Richmonddan keyin izlanish, tashxis, davolash parofigmasi ijtimoiy ishda asosiy bo`ldi.

Ijtimoiy ishni metodologik asoslashga bagishlangan ilk yirik asarlaridan birida **I.Karpf (1931 yil)** o`z rivojlanishida tayanish lozim bo`lgan fanlarni sanab o`tgan: **biologiya, iktisod, tibbiyot, psixiatriya, sotsiologiya, statistika, antropologiya, pedagogika, ijtimoiy psixologiya**. O`shandan buyon bu ro`yxat deyarli o`zgarmadi.

**Amaliy ijtimoiy ishchi atamasi 1970 dan buyon ko`llanilmokda** Avvallari bu ishga turli ta`riflar berilgan: metodologiya nuktai nazaridan-mijoz, gurux bilan ishslash, ernen yo`naltirilganligi nuktai nazaridan-bolalarni ijtimoiy ta`minlash, oilaviy xizmatlar, tibbiy ijtimoiy ish, axlok tuzatish muassasalarida psixiatrik ishlari, kambagallar, nogironlar, akliy ojizlar, arokxo`rlar bilan ishslash. Bunaka tor ixtisoslashgan yondashuvlar bilan birga yanada kengrok yondashuvlar xam shakllandi.

Ijtimoiy ishchilar keng doiradagi muammolar bilan to`knash kelishadi. Bu muammolarga arokxo`rlik, mulkchilik xukuklarining buzilishi, bolalarga yomon munosabat, oiladagi nizolar ruxiy va jismoniy kasalliklar, bezorilik, jamiyatdan ajralib kolish, kabilarni kiritish mumkin. Muammolarni bunday tasniflash mutaxassisiga ularni yanada chukurrok o`rganish imkonini berdi.

Xozirda amaliy ish soxalari quyidagilar xisoblanadi: oila, bolalarga yordam berish, soglikni saklash, turli kasb egalari bilan ijtimoiy ish olib borish, kariyalar, ta`lim va axlok tuzatish muassasalari. Bu ixtisoslashuvga eng keng ta`rifdir. U ishchi o`z soxasida unga yordam so`rab murojaat kilgan axoli toifalari xaqida zaruriy bilimlarga ega bo`lishini talab kiladi.

XX asrning 70-yillarida tizimli yoki bir butun yondashuv etakchi yondoshuvga aylandi. Unga muvofik ijtimoiy ishchilardan bir soxaga ixtisoslashuv mos, universallik turli usullarni uygunlashtira olish talab qilina boshladi. Pedagogik,

ijtimoiyogik, nazariyalarning axamiyati oshdi. Birlashishga extiyoj ijtimoiy ish tarkibida xam muxim o`zgarishlar ro`y berardi: metodik madaniyat, ijtimoiy ishlarning anik texnologiyasiga extiyoj tugildi. Tizimli yondashuv yordamida ijtimoiy ishchilar bir vaktning o`zida bir kancha inson muammolarini xal qilishdi.

Butun dunyoda ijtimoiy xizmatlar ishchilari jiddiy o`kitilmokda. U milliy ta`lim tizimlarining o`ziga xos xususiyatlari aks etadi. U turli davlatlarda-Frantsiya, Germaniya, Italiya, Belgiya, Norvegiya, Daniya, SHvetsariya va YAponiyada katta farklarga ega.

Zamonaviy ijtimoiy pedagogika jiddiy ilmiy asosga asoslanadi. Ijtimoiy ishda bilimlar zaxirasiga oid soxada ishlangan va boshka soxalardan o`zlashtirishganlarning ko`shiluvidan iborat. Ijtimoiy ish falsafa, etika, xukukshunoslik, sotsiologiya, psixologiyadan ko`p narsa olgan. SHaxs, ijtimoiy guruxlarning yurish-turishi, oila muammolari, xokimiyat, ko`shnichilik va ijtimoiy xayot, ijtimoiylashtirish, submadaniyat, stratifikatsiya va ijtimoiy katlamlashish, murakkab tuzilmalar va turli madaniy tizimlarning turlarini ijtimoiy ishchilar psixologiya va ijtimoiyogiyadan o`zlashtirishdi. Birok mizojlar va guruxlar bilan amaliy ish olib borish metodikasi xal kiluvchi darajada pedagogika, psixologiya va tibbiyot ta'siri ostida shakllanadi.

Bugungi kunda ijtimoiy ish ilmiy asoslangan bo`lishi lozimligini tushunish kengayib bormokda. Bu kasb bo`yicha o`tkazilayotgan ilmiy tadqiqot larning nufuzi oshib bormokda, maxsus konferentsiyalar o`tkazilmokda va ularda nazariyani amaliyotda yana samarali ko`llash masalasi muxokama qilinmokda. Xalkaro darajada ilgor yutuklar almashuvi ijtimoiy pedagogikaning dinamik rivojlanishini ta'minlashi mumkin.

O`tmish tajribasini o`rganish zamonaviy pedagogika fanining asosiy vazifalaridan biriga aylanmoqda. Biroq tarbiyaning milliy xususiyatlariga murojaat qilish madaniy ajralishga olib kelmasligi kerak. Zamonaviy pedagogika fanining maqsadi u milliy xususiyatlar asosida fanning zamonaviy muammolarini echishga yordam beruvchi, uning rivojiga o`z hissasini qo`shuvchi kuchlarni topishdan iborat bo`lmogi lozim.

Xozirda dunyoning turli davlatlarida xalqlarning madaniy xususiyatlariga katta e'tibor berilishi avvalgi madaniy yutuqlarning xozirgi zamon talablariga javob berishi, mavjud muammolarni hal qilish uchun ulardan foydalanish masalasining keskinligini tushirmaydi. Usib kelayotgan avlodni hayotga tayyorlashning ko`p asrlik tajribasi yordamida yoshlarning zamonaviy bozor-iqtisodiyoti munosabatlariiga asoslangan demokratik jamiyatga tayyorlash mumkinmi; - degan masalada qizgin baxs- munozara boradi.

Qanday qilib xalqning o`z milliy kiyofasi, madaniy xususiyatlarini tiklamasdan bugunning muammolarini echsa bo`ladi? SHubhasiz, moziy tajribasida, xalq pedagogikasida tarbiya va ta`lim jarayonlariga qo`llash mumkin bo`lgan ko`p narsa bor. Xalq pedagogikasi shaxsga o`z davrida ijtimoiy xususiyatlarni paydo qilish uchun lozim bo`lgan **pedagogik bilim, ko`nikma va malakalar, ta`lim-tarbiya berish, yo'llari, vositalarining majmuasi** xisoblanadi.

Milliy pedagogika xalqning ta`lim-tarbiya masalasi yuzasidagi qarashlari, g`oyalari, an`analari asosida shakllangan. Milliy pedagogikaning tengsiz qadriyati

shuki, u birinchidan o`zida asrlar davomida shakllangan pedagogik haqiqatlarga ega, ikkinchidan esa u xayotiy, amaliy xarakterga. U o`z ifodasini xalq pedagogikasining barcha g`oyalari amaliy tajribaga asoslanganligi,, amaliyatda sinalgan va yosh avlodni tarbiyalash bo`yicha amaliy faoliyatga qaratilganligida topadi..

Xalq pedagogikasida xayotiy (maishiy, mexnat, axloqiy) va pedagogik ma'lumotlar, kuzatuvlar muhim ahamiyatga ega bo`lib, muomala jarayonida o`zlashtiriladi. Xalq pedagogikasi tarixiy va ijtimoiy tajriba maxsuli va shu bilan birga ijtimoiy axloq va ijtimoiy moslashuv malakalarining shakllanishi vositasi, omili xisoblanadi.

Xalq pedagogikasi jamiyatning pedagogik madaniyatidagi eng yaxshi qadriyatlarni mujassamlashtirgan: kattalarga xurmat, mexmondo`stlik, mexnatsevarlik, yuqori axloq, rostgo`ylik.

Xalk pedagogikasining ijtimoiy xarakteri yana, shunda namoyon bo`ladiki, u ko`pgina etnomadaniy xodisalar-dunyokarash, tibbiyat, etika, din, ekologiya va boshkalar bilan o`zaro munosabatda yorin namoyon bo`ladi. Bu muammolar olimlar tomonidan o`rganilmokda.

O`zbek xalk pedagogikasida shaxs dunyoni xayotiy shaxsiy tajriba orkali o`zlashtiradi, degan teran fikr mavjud, chunki u boshka shaxslar bilan muomalaga kirar ekan, ularning o`ziga xos xususiyatlarini o`rganadi.

O`zbek xalkida shunday nakl bor: chakalok xali shaxs emas, u tom ma'nodagi inson bo`ladimi, yo`kmi- bu uning ota-onasi, uni o`rab muxit va boshka odamlar bilan o`zaro munosabatiga boglik. SHuning uchun xalk pedagogikasi faqatgina avvalgi avlodlar tomonidan erishilgan, ishlab chikarilgan turli ong shakllarini o`zlashtirsagina go`dak insonga aylanadi. Bolaning tugilishi bilan birga, tarbiyalanishsiz xalk xayotining rivoji, oldinga intilishi mumkin bo`limgan xodisadir. Bu g`oya ko`p sonli xalk rivoyatlari, afsonalari, dostonlarida o`rin olgan. Agar uni zamonaviy tushunchalarda ifodalasak, o`zbek xalk tarbiyasini xozir bolaga gamxo`rlik qilish, uning sogligi xaqida kaygurish, uning xayotini ximoya qilish, kattalar tomonidan uning akliy rivojini, axlokiy, estetik, jismoniy va mexnat tarbiyasi uchun ularga ta'sir qilishning majmuasi xisoblanadi.

O`zbeklarning etnografiyasining turli xil materiallarini taxlil kilar ekanmiz, u o`ziga yarasha mukammal inson modelini yarata olishini e'tirof etishimiz mumkin.

Buyuk ma'rifatparvarlar-olimlar, pedagoglar, shoirlarning pedagogik g`oyalari ni o`rganish inson tarbiyasi xaqidagi xalk g`oyalari ularning asarlaridan joy topganligiini tasdiklaydi. Ibn Sinoning "**Tadbiri manzil**" kitobining "**bolalar tarbiyasi va ta'limi**" bobida oila tarbiyasi amaliyotidan, Beruniyning "**Kadimgi xalklardan kolgan yodgorliklar**" kitobida turli xalklarning an'analaridan Al-Forobiyning "**Katta musika kitobi**"da xalk musikasidan ko`p misollar bor, Nosir Xusravning "**Baxt kitobi**"da xam oddiy odamlarning mexnatlari uluglanadi.

O`zbek xalk pedagogikasining o`ziga xos xususiyatlaridan biri xalk ogzaki ijodi matnlarida tarbiyaning vosita, usullarining tavsifi beriladi.

Xayotiy sharoitlar, oilaviy an'analar, tarbiya usullari va vositalari o`zbek xalki orasida nixoyatda turli tumandir va bundan ko`p sonli manbalar dalolat beradi. Aynan shularda biz mexnat jarayonlarinin yigit va kizlar uchun mo`ljallangan bayramlarning o`ziga xos tavsiflarini topamiz.

An'ana, odat, marosimlar avloddan-avlodga o`tgan. Nikox tuzish, bolaning tugilishi, , mexmonlarni kutib olish va kuzatish, vafot marosimi, mexnat jarayonlarini o`tkazishning muayyan koidalari mavjud bo`lgan. Bu marosimlarda bolalarning doimiy ishtiroki ta'minlanadi. Bu odatlar yordamida o`zbeklarning an'anaviy muomala shakllanadi.

Sobik sho`ro tuzimi davrida milliy an'analarga, odatlarga xurmatsizlik qilish oxir-okibat axlokiy xolatlarning yomonlashuviga olib keldi. So`nggi yillarda insonlarning tabiat, jamiyat, dinga nisbatan munosabatida ko`prok erkinlik paydo bo`ldi. Bu sharoitlarida odat, marosimlar, muomala madaniyatdagi o`ziga xoslik o`sib kelayotgan avlodning xar tomonlama barkamol inson qilib tarbiyalash tizimida yanada muxim o`rin tuta boshladi. O`zbek xalki axlokiy odatlarining mustaxkamligi asosan oilaviy munosabatlar va oilaviy tarbiyaning aloxida axamiyati bilan boglik.

O`zbek xalk pedagogikasida sevgi, oila, bolalar xaqidagi karashlar ko`p yillik tajriba ta'sirida shakllangan. Bu tushunchalarning konun va konuniyatlarida pedagogik va amaliyotda sinalgan tarbiya normalari koidalari o`z aksini topgan. Xalk pedagogikasida oila inson xayotida eng asosiy tarbiya omili sifatida ko`riladi. Oila jamiyat negizidir. Oila bolalarga ta'sir etish usullari, odat-an'analarini aniklashi kerak. U dam olish tartibini, bolalarning mexnat va o`quv mashgulotlarini belgilashi lozim. SHuningdek, oila ota-onva bolalar orasidagi o`zaro munosabatlarning eng kulay me'yorlarini ishlab chikadi. CHunki bola o`zini kiziktirgan masalalar bo`yicha eng avvallo o`z ota-onasi bilan o`rtoklashadi. Bu erda oila a'zolari orasidagi munosabatlar amalga oshadi, xamda ota-onaning tarbiyaviy vazifalari aniklanadi.

Oila va oilaviy tarbiyaning u yoki bu xususiyatlari doimo xalk e'tiborining markazida bo`lgan va bu xalk pedagogikasida o`z ifodasini topgan. Xalk avvalom bor baxtli oila yaratish yaratish uchun kurashgan. Xalk oilani baxt manbai, "tabiat go`zalligi", mexnatsevar oila jamoasi sifatida ko`radi va oilada ayol va erkak teng xukukliligini e'tirof etadi, ayollar xuquqini ximoya kiladi, ajralishlarni koralaydi, oilaviy nizolarni nixoyatda extiyotkorlik bilan xal qilishni maslaxat beradi.

Xalk pedagogikasida onalikka oliy ijtimoiy kadriyat sifatida koraladi, xalk ogzaki ijodida esa ona doim uluglab kelinadi. Oilaning ijtimoiy vazifalarini xalk bolada axlok, xurmat, kattalar va kichiklar bilan xushmuomala bo`lish, kishlok xo`jaligi, kasb-xunar malakalarini egallahda ko`rgan.

### **Islomning ma'naviy-axlokiy o`gitlarining ijtimoiy mazmuni.**

So`ngi paytlard respublikamiz olimlari xalk pedagogikasining manbalari doirasini kengaytirishni taklif qilishmokda. "Evropa pedagogikasida tarbiya uchun zarur bo`lgan umuminsoniy xislatlarning mavjudligini tan olgan xolda YAn Amos Komenskiy, Ushinskiy, Makarenkolarning ilmiy merosiy axamiyatini e'tibordan chetda koldirmay, bizda xam boshka xalklarda bo`lgani kabi Beruniy, Forobi, Imom al-Buxoriy, At-Termizi, Navoiy, Avloniy, Bexbudiy, Munavvar Kori kabi mashxur mutaffakkirlar borligini unutmasligimiz lozim. Bizning yoshlar ko`p yillar mobaynida ularidan, buyuk merosdan bebabxra bo`lishganligi esa achinarli xoldir.".

SHuni xam nazarda tutish kerakki, bu sanab o`tilgan shaxslarning barchasi Beruniy, Forobi va Navoiylardan tashkari bevosita islomga alokador bo`lgan Imom Buxoriy (810-870) islom olamida mashxur xadisshunoslik olim xisoblanadi. 600000

xadis ichidan 7400 saxix xadisni tanlab olib, u “**Al-Jome’ Saxix**” kitobini yozgan. Bu asar Kur’ondan keyingi o’rinda turuvchi mukaddas kitob xisoblanadi.

At-Termiziy- eng yirik musulmon olimlaridan biri, 80 tadan ko`p islom tarixi, ta’limoti, so`fiylik nazariyasiga bagishlangan asarlar yozgan. Uning **“SHamoyili Muxammadiya” (Muxammad xayoti)** asari barcha diniy o`quv yurtlarida darslik xisoblanadi. Islom monoteistik din, ya’ni uning mazmuni yagona xudo-Alloxga iymon keltirishdir. Bu dinning asoschisi Muxammad (sav) xisoblanib (570-632) u ushbu dinning paygambari xisoblanadi. Musulmonlar o`limdan keyingi xayotga ishonishadi. Ularning mukaddas kitobi Kur’ondir.

Tarbiyaviy vositaga ega bo`lgan Kur’on oyatlari muxim axamiyatga ega. Ularda ota-onada farzand o`rtasidagi munosabat xaqida bolalarni tarbiyalayotgan ota-onada nimaga intilishi xaqida, shuningdek ular etmokchi bo`lgan maqsadlar xam anik belgilab ko`yilgan.

Kur’on musulmonlar xayotining mazmuni va maqsadi xaqidagi karashlariga katta ta’sir ko`rsatgan va uning g`oyalari musulmon xalklarining madaniyatidan chukur joy olgan xamda xalk pedagogikasi manbalari-makol, rivoyat, ertaklar va boshkalarga xar tomonlama ta’sir ko`rsatgan.

O’sib kelayotgan avlodning tarbiyasi va ijtimoiy jarayonlarga moslashuvida bilim, unga munosabat masalasi doimiy muammo xisoblanadi. Bu muammo zamonaviy sharoitda yanada keskin ko`rinish kasb etmokda. Bir tomondan iktisodiy xayotda ro`y berayotgan jarayonlar shunga olib keldiki, bilimsiz odamlar katta pul topadigan bo`lishdi. Ularning topganlari bilan ziylolarning maoshini tenglashtirib bo`lmaydi. Buning xammasi yoshlarda bilim olishga kizikish pasayishiga sabab bo`ldi. Ularga bilim olish moddiy va ma’naviy muvaffakiyat garovi bo`lib tuyulmayapti. Boshka tomondan esa bozor munosabatlari va unga boglik bo`lgan texnikaning doimiy yangilanishi, korxonalar orasidagi rakobat, ishsizlik yoshlardan faqat chukur bilimlarga ega bulishni talab kiladi.

YOshlarning bilim olishida Kur’on suyangich bo`lishi mumkin. Ma’lumki, **Kur’onda “ilm” so`zi 750 marta uchraydi**. Agar Kur’on **780000** so`zdan iboratligini inobatga olsak, “ilm” so`zi mukaddas kitobning 1/104 kismini tashkil qilishi ma’lum bo`ladi.

**Kim o`z o`tmishini yo`kotsa-uning kelajagi yo`kdir. Kariyalarning xikmatlarini unutgan yosh avlod iymonni xam unutadi va shunda yovuzlik yaxshilik ustidan galaba kozonadi.**

Fuqarolar o`z konstitustiyaviy xukuklariga, konkret tabiiy, iktisodiy, ijtimoiy – tarixiy, milliy- ma’naviy – madaniy sharoitlarga asoslangan axlok normalariga tula rioya etgan xoldagina rivojlana oladi.

Ijtimoiy ta’lim va tarbiya tizimidan utgan xar bir odam – shaxs sifatida shakllanadi.

Ijtimoiy vazifalarni bajarish layokatiga ega bo`lgan, o`zining kizikishi, kobiliyatini ijodiy namoish eta oladigan, jamiyatning boshka a’zolari bilan mustaqil munosabatga kirisha oladigan odam shaxs sifatida ijtimoiy mavkega erishadi.

Ayni vaktda **ijtimoiy pedagogika** va **ijtimoiy ishlar** amaliy faoliyati bir – biriga juda yakin, bu yakinlik vazifasiga, mazmuniga va ish metodiga kura yuz beradi, ular xech kachon biri ikkinchisini kesib utmaydi.

Prezidentimiz Islom Karimov «**Milliy istiklol g`oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar**» kitobining kirish kismida ta`kidlaganidek, milliy davlatchilikka doimo xavf bo`lgan, bor va bo`ladi. Bu xavf – xatarni bartaraf etish uchun ma’naviy – ma’rifiy faoliyatni yangi boskichga kutarish, milliy istiklol g`oyasini joriy etish masalasida ijtimoiy pedagogik yondashuvidan keng foydalanish: differensassiyalashgan psixologik – pedagogik dasturni, yangi darslik va ko`llanmalmalarni yaratish zarur. Jamiat dunyo xamjamiyatining dinamik o`zgarishi munosabati bilan o`qitish, tarbiyalash, targibot va tashvikot ishlarini uzviy ravishda kushish, ya’ni ma’naviy – mafkuraviy, ma’rifiy faoliyatni pedagogika bilan birga olib borish uchun zarur sharoit yaratish lozim.

Bu ijtimoiy pedagogika soxasidagi yangi ijtimoiy buyurtma bo`lib, tadqiqot ishlarini yulga quyishda xakikiy jushkinlik kasb etadi.

Ijtimoiy pedagogika pedagogika soxasining pedagog faoliyati bilan boglikdir. SHuning uchun ijtimoi pedagoglar pedagogika universitstlarida etishib chikadilar. Ijtimoiy pedagogning pedagoglik soxasidagi asosiy boglikliklaridan biri - bu soxa ob’ekti bolalar ekaligidir. Ijtimoiy pedagog faoliyatining markazida esa **normal ijtimoiy faoliyatdan chetlashgan bolalarni** jamiyatdagi tengdoshlari katoriga kaytarish xisoblanadi. Ijtimoiy pedagogika fanining ob’ekti ijtimoiylashtirishga muxtoj bo`lgan bolalar, Bunga akliy, pedagogik- psixologik, sotsial- axlokiy normalardan chetlashgan, ijtimoi pedagog ola olmagan va jismoniy, akliy, psixik tomonidan buzilishlarga uchragan bolalar kiradi. Ularning xammasi jamiyatining alovida yordamiga muxtojdir. Ijtimoiy pedagog - faqat o`qituvchigina emas balki, bola kanday ukiyotganini va rivojlanayotganini tushunadigan va xis etadigan shaxsdir. U bola xayotini, kechinmalarini xuddi o`zinikidek tushunadigan va uning ma’naviy, madaniy, axlokiy rivojlanishida yullanmalar bera oladigan mutaxassis bulmogi kerak. SHuning uchun xakikiy pedagog faqat o`z fanini bilibgina kolmay, ayni vaktda bolalar va kattalar bilan ijodiy mulokot kila oladigan, o`z ustida ishlaydigan inson bulishi muxim axamiyatga ega.

SHaxs tarbiyasi va rivojlanishi pedagogika fanining muxim muammosi xisoblanadi. Usib va rivojlanib boruvchi inson tarbiya ob’ekti xisoblanadi. Insonning rivojlanishi butun xayoti davomida davom etadi. Bunda u turli uzgarishlarni: jismoniy, ruxiy, mikdor va sifat uzgarishlarni uz boshidan kechiradi. Insonda buladigan jismoniy uzgarishlarga – buyinning usishi, vaznining ogirlashib borishi, suyak va mushak tizimlarining, ichki a’zolari va asab tizimining uzgarib borishi kiradi. Ruxiy uzgarishlari esa uning akliy rivojiga alokador buladi va insonda ruxiy sifatlarning shakllanib borishi, unda xayot uchun zarur bulgan sotsial sifatlarni tarkib topishi xisoblanadi.

Odam bolasining rivojlanishi – bu muxim jarayon xisoblanadi. SHaxsnинг kamol topishida va uning xulkiga ijtimoiy va biologik omillarning ta’sir kuchi xamisha bir xil bulavermaydi. SHaxsnинг fazilatlarini tugri aniklash va bexato baxolash uchun uni turli munosabatlar doirasida, turli vaziyatlarda kuzatib kurish lozim.

Pedagogikada "shaxs" tushunchasi "inson" tushunchasidan farkli ularok, u insonning ijtimoiy xususiyatlarini anglatadi. SHaxs boshka odamlar bilan muomalada

bulishi, munosabat urnatish natijasida shakllanib boradi. Inson ruxiy xususiyatlarini rivojlanishi (akl, iroda, dikkat, xarakat va xakozo), xayotda uz urnini topa olishi, uning Vatan, xalkning ravnagi yulida ogishmay, e'tikod bilan xizmat qilish, imonli bulishi, insonni shaxs darajasiga kutaradi. Bunday sifatlarning ruyobga chikishi tarbiyaga boglik buladi.

Inson rivojlanishi juda kiyin jarayondir. Rivojlanish xar kanday tirik organizmga, shu jumladan insonga xam xosdir. Rivojlanish tashki va ichki faktorlar ta'siri ostida bo'ladi.

Tashki faktorlarga: Insonni urab turgan tabbiiy va ijtimoiy muxit kiradi. Bolalarda ma'lum shaxsiy jixatlarni shakllantirishga karatilgan, maqsadli yunaltirilgan faoliyat kiradi. Ichki faktorlarga biologik faktorlar kiradi. Inson rivojlanishga ta'sir kiladigan faktorlar boshkariladigan va boshkarilmaydigan bo'ladi. Bolaning rivojlanishi jarayonida turli faoliyatlarga duch keladi: uyin, ukish, mexnat, sport va boshkalar. Turli kishilar bilan mulokotda bo'ladi: ota-onasi, aka ukasi, karindoshlari, dustlari va boshkalar bilan.

Turli faoliyatlarda turli insonlar bilan mulokotga kirishish natijasida turli ijtimoiy kunikmalar xosil bula boshlaydi. Bolaning normal rivojlanishi uchun mulokotning axamiyati juda kattadir. Bolaga tabbiiy, ekologik faktorlar:suv, xavo ifloslanishi ta'sir etadi. Xozirgi kunga kelib kur, sakov ya'ni nuksunli bolalarning kupayishi kuzatilmokda. Ekologik faktorlar natijasida tayanch apparati buzilishini, shizofreniya, kon kasalliklari kabi kasalliklarga olib kelmokda.

Lekin, bolani ijtimoiylashtirish jarayonida bularning xammasini xisobga olish kerak. Ijtimoiy faktorlarga: Mikro faktorlar makro faktorlar, mezon faktorlari kiradi.

Bolaning rivojlanishida sotsiumning axamiyati juda kattadir. Bolaga eng yakin bo'lган sotsiumlar: bular- oilasi, turli xil guruxlar, turli xil tugaraklardir. Bola bir sotsiumdan ikkinchisiga utib yurishi mumkin. U faqatgina bu sotsiumdan o'ziga mos keladigan kulay sharoitni kidiradi va shu kidirish natijasida ma'lum bir ijtimoiy malakalar orttirib boradi. Bu orttirilgan malakalar salbiy yoki ijobjiy bulishi mumkin.

Bolaning sotsiumda rivojlanishiga ijtimoiy makom - shaxsining ta'siri juda katta bo'ladi. Ijtimoiy makom tugma, orttirilgan bo'ladi.

Tarbiya- tarixan vujudga kelgan ijtimoiy xodisa bo'lib, keyin xulkni boshkarish va belgilash bir – birinitakoza etadigan tarkibiy kismlar - axlokiy ong axlokiy faoliyat va axlokiy munosabatlarning murakkab yigindisidir.

Tarbiya - shaxsni maqsadga muvofik takomillashtirish uchun uyushtirilgan pedagogik jarayon bo'lib, tarbiyalanuvchilarning shaxsiga muntazam va tizimli ta'sir etish imkoniyatini beradi.

Tarbiya kishilik jamiyati paydo bulishi bilan vujudga kelgan, jamiyatning o'zgarishi bilan tarbiya xam o'z garib bordi. A. Avloniy tarbiya xaqida gapirar ekan shunday degan edi: «Tarbiya bizlar uchun yo xayot, yo momot, yo najot, yo xalokat, yo sadokat, yo falokat masalasidir»...

Ma'lumki, inson butun umri mobaynida o'zgarib, rivojlanib boradi. Lekin bolalik, usmirlik va uspirinlik davridagi usish nixoyatda kuchli kechadi. Bola mana shu yillar mobaynida xam jismoniy xam ruxiy jixatdan usishi va o'zgarishi tufayli shaxs sifatida kamolga etadi, bunda ularning xarakteriga singdirilayotgan tarbiya maqsadga muvofik ta'sir etishi natijasida bola jamiyat a'zosi sifatida kamol topadi.

Murakkab ijtimoiy munosabatlар jarayонида жамиятда о'зига муносиб урин егалийди. SHuning учун xам L .I.Bojovich одам shaxs bulishi учун u psixik jixatdan rivojlanishi, o'zini bir butun inson deb xis kilmogi, o'z xususiyat va sifatlari bilan boshkalardan fark kilmogi kerak,- degan edi.

Xar bir odam shaxs sifatida turlicha namoyon bo'ladi. Bir odam boshkasidan o'zining mijozи, fe'l- atvori, kobiliyati, akliy rivojlanganlik darajasi, extiyoji vamexnatga bulgan munosabati bilan fark, kiladi. Bular odamning shaxsiy, ruxiy xususiyatlari bo'lib, ana shu xususiyatlar rivojlanib ma'lum bir talim-tarbiya chukkisiga erishganidan sung inson shaxs sifatida o'zini namoyon kila olishi mumkin. Ayni vaktda odam atrof muxitda run berayotgan vokea va xodisalarga nisbatan o'z nuktai nazariga xам ega bulmogi kerak. Bu xам shaxsning birini ikkinchisidan farklantiradigan belgilaridir.

SHaxs ijtimoiy munosabatlarda xам namoyon bo'ladi. Anikrogi, xar bir odamning mexnatga. kishilarga, жамиятга nisbatan munosabati xам turlicha ifodalanadi. SHaxsning axlokiy va faollik darajasiga xos sifatlari xам uni boshklardan ajratib turadi.

SHaxs xaқida gapirliganda tabiiy xolatda shunday savol tugiladi. Xar kanday odam xам shaxs bula oladimi? Odam shaxs bulmogi учун унга nimalar darkor? Bu savolga shunday javob berish mumkin. Insonning sotsial mavjudod sifatida shaxsga aylanishi учун унга eng avvalo, ijtimoiy xayot tartiblari va yaxshi tarbiya kerak bo'ladi. Ana shunday omillar ta'siri ostida inson rivojlanadi va shaxsga aylanadi.

Pedagogika soxasida tadqiqot olib boruvchi olimlarning kup yillik izlanish natijalari asosida insonning rivojlanishiga quyidagicha ta'rif berishadi: Oddiydan murakkabga, quyidan yukoriga, eski sifatlardan yaxshi xolatga utish, yangilanish, yangining paydo bulishi va eskining ulib borishi, mikdor o'z garishlarning sifat o'z garishlarga olib keluvchi murakkab xarakat jarayoni deb karaydilar. Zero, xayot konunlarining kursatishicha xам rivojlanishning asosiy manbai karama-karshiliklar urtasidagi kurashdan iboratdir.

Insonning munosabatlар doirasiga nafaqat o'zga kishilar bilan alokasi, balki tabiatga, жамиятга , xayotga, mexnatga bo'lgan munosabatlari xам kiradi. Mana shunday munosabatlар asnosida inson o'z kobiliyatlarini, aklini, farosatini namoyon kila boshlaydi. Bu bilan u o'z Vataniga, umuman butun borlikka munosabatini ifodalaydi. Tabiiyki, bu fazilatlar faqat tarbiyaning maxsuli bo'lib xisoblanadi. SHuning учун xам inson rivojlanishini унга singdirilgan tarbiyaning natijasi deb karash mumkin.

SHaxsini rivojlantirish vazifasini to'gri xal qilish учун avvalo uning xulkiga ta'sir etuvchi omillarning tabiatini, shaxsning shaxsiy xususiyatini yaxshi urgamok lozim. Buning учун uni turli munosabatlар doirasiga quyib kuzatish darkor.

Ana shundagina shaxsning ijtimoiy xulki, ma'naviy kiyofasi, insoniy fazilatlarini bilib olish mumkin buladi.

«Xar bir inson,- degan edi Farobi - o'z tabiatи bilan shunday tu zilganki, u yashash va yuksak etuklikka erishmok, учун kup narsalarga muxtoj bo'ladi, u bir o'zi bunday narsalarni kulga krita olmaydi va ularga ega bulish учун insonlar jamoasiga extiyoj tugiladi. SHu sababli odam yashash учун zarur bo'lgan narsalarni

bir-birlariga etkazib beruvchi va o`zaro yordamlashuvchi kup insonlarning birlashuvi orkaligina o`z tabiatini buyicha intilgan etuklikka erishuvi mumkin»...

Tarbiyachining bolaga singdirishi lozim bo`lgan tarbiya samarali ta`sir etishi uchun uning usish va rivojlanish konuniyatlarini yaxshi bilish, shaxsiy xususiyatlarini xisobga olishi muxim shartlardan biridir.

Bolalardagi shaxsiy farklarni, ulardagi ruxiy xolatlarning turlicha namoyon bulishi, xulki va karashlaridagi farlarni kaysi omillar belgilaydi?- degan tabiiy savol tughiladi. Demak, inson rivojlanishida biologik omilmi, ijtimoiy omilmi yoki tarbiya omilimi - kaysi, biri etakchi rol uynaydi?- degan savolga javob berish lozimday kurinadi. Bu savolga turli tarixiy davrlarda turlicha yondoshib,unga turlicha javoblar berilgan. Xozirgi kunda xam bu masalaga turli nuktaiy nazarlar bildirilmokda.

Ochikrogi, fanda odamning shaxs sifatida rivojlanishiga biologik va sotsial omillarning ta`siri urtasidagi munosabatni belgilash borasidagi munozara kup asrlardan beri davom etib kelmokda. Kup asrlik mazkur munozara zamirida ikki bir-biriga karama karshi nuktaiy nazar vujudga kelgan. Ulardan biri: odam bolasining shaxs sifatida rivojlanishida tabiiy-biologik omillar xal kiluvchi rol uynaydi desa, ikkinchi toifa olimlar esa ijtimoiy omillar xamda tarbiyaning muxim omil ekanligini ta`kidlayilar. Birinchi gurux olimlarining fikricha odam bolasining rivojlanishi tugma imkoniyatlarga boglik bo`lib, rivojlanish esa usish va tabiiy tugma xususiyatlarning mikdoriy o`z- garishlaridan iborat ekan. Demak, bolada ona avlod-ajdodlaridan tugma utgan xususiyatlarga rivojlanadi,- degan tushuncha kelib chikadi. Bu nuktaiy nazar namoyonlari tarbiyaning rolini cheklab, rivojlanishni inkor etadilar. Bunday ilmiy faraz fanda biologik yunalish deb ataladi. Bunday yunalishning dastlabki namoyondalari kadimgi yunon olim va faylasuflari Aristotel, Platon, Sokrat va Demokritlarning pedagogik karashlarida o`z aksini topib, ular odamlar azaldan biri ikkinchisi ustidan xukmron bulishga, biri kambagal, biri boy bo`lib yashashga va bunda itoat etish lozimligini va bu olloxning irodasi ekanligini ta`kidlashgan, sabr-tokat qilishga da`vat etishgan. Takdir, to`le xar kimning xayotdagi urnini belgilab beradi. Rizk-ro`zini, umrini ulchab bsradi. SHu jumladan insonning kelajakda kanday inson bulishi xam ularning nasliy sifatlariga kup jixatdan boglik, deb kursatganlar.

Aytish joizki, xuddi shunga yakin nukta-nazarni XX asr falsafasida vujudga kelgan «**preformizm**» okimi namoyondalarining fikrlarida xam uchratish mumkin. Ular odam bolasiga ona pushtidan kanday sifatlar utgan bulsa, faqat shu sifatlarga shakllanadi deb ijtimoiy muxit va tarbiyaning rolini chegaralab quyishadi.

Inson shaxsi va uning xulk-atvorining rivojlanishida naslning rolini yuksak baxolagan yana bir okim «**bixevoirizm**» bo`lib, u XX asrning boshlarida keng tarkaldi.

Bu okimning ko`zga kuringan yirik namoyondalari Eduard Trondayk bixevoirizm ta`limotiga asoslanib, odamning xulk-atvori mexanik mashklar bilan mustaxkamlanadigan sof tashki reaksiyalardan iboratdir, deydi. Uning fikricha, shaxsning barcha xususiyatlari, shu jumladan ong va akliy kobiliyat xam nasldan naslga utadi, guyo odamning «ko`zi, tishlari va barmoklari kabi akliy kobiliyat tabiatian berilgandir. Inson «**genlar batareyasi**» bo`lib, ular nasldan-naslga tugma

utib boradi va shaxsning rivojlanishini xam, uning kelajagini xam shular belgilaydi, deydi.

Amerikalik «**progrmatik**» pedagogikaning atokli vaqili D. Dyui va uning nazariyasining davomchisi A.Kombaslar xam shaxs rivojlanishini biologik omil deb izoxlaydilar. Ular rivojlanishni faqat mikdoriy o`z garishdan iborat deb kursatadilar. Odam nima bilan tugilgan bulsa, tarbiya jarayonida bu sifatlar va xususiyatlar o`sib boradi. Tarbiya tashkaridan kiritilgan narsa emas, odam bilan dunyoga kelgan xususiyat va kobiliyatni o`zgartiradi» - deydi D. Dyui.

Darxakikat, pedagogika fani odam bolasining shaxs sifatida rivojlanib, tarakkiy etib borishini uta murakkab va karama-karshi jarayon deb biladi. Uning shaxs sifatida shakllanishida nasl xam (biologik omil), ijtimoiy muxit xam (bola yashaydigan sharoit), tarbiya xam o`z xoli va o`z urni bilan muxim rol uynaydi. Bu xar uchala omilning kaysi biri etakchi ekanligini pedagogika fani asrlar mobaynila avlod-ajdodlarimiz tuplagan tajribalarga suyangan xolda ilmiy nuktai nazardan isbotlab berishga xarakat kiladi.

SHaxs ma'lum bir ijimoiy tuzimning maxsuli. Uning moxiyatini ijimoiy muosabatlar tashil etadi, u yashayotgan jamiyatdagi konkret tarixiy sharoit belgilaydi. SHaxsning xayotiy faoliyatida sodir bo`ladigan ijtimoiy muxit unga xam ijobiy, xam salbiyta'sir kursatishi mumkin. Zero, odam ota-bobolar tajribasini urganadi, shaxs sifatida rivojlanib boradi, urgangan tajribalarni takomillashtiradi. Natijada ularni o`z faoliyatida ko`llaydi... Ana shu yashayotgan muxit va mexnat kilayotgan sharoit unga bulayotgan tarbiyaviy ta'sir va faoliyat jarayonidagi faollik tufayli shaxsiy xususiyatlar vujudga keladi. Demak, odam shaxsining jamiyatdagi rivojlanishi tabiat, muxit va insoning o`z i urtasidagi murakkab aloka ta'siri ostida ruy beradi, inson ularga faol ta'sir etadi va shu yul bilan xayotini, o`z tabatini o`zgartiradi.

Pedagogik va psixologik olimlar shaxsning rivojlanishida irsiyatning roliga katta axamiyat berish bilan birga muxit va tarbiyaning roliga xam yuksak baxo berishadi.

Zotan, shaxsning kamolga etishida irsiyat va biologik omillarning rolini inkor etish aslo mumkin emas, lekin bolalarga o`zgarmas xususiyatlarga utadi,- deb tushunmaslik, o`zgaruvchan xususiyatlarni xam unutmaslik kerak. Tarixiy taraqqiyot jarayonida odamning anatomik belgilari o`zgarishi, avloddan-avlodga mustaxkamlanib borishi, nasldan-naslga utishi mumkin.

Ayni vaktda, odam bolasiga xos xususiyatlar xam irsiyat yuli bilan utadi, ammo |bu xususiyatlarning rivojlanishi uchun ular insonlar orasida yashashi, aloka qilishi muxim rol uynashini unutmaslik lozim.

Agar bolada tugma layokatlar bulsayu, lekin, uni ustirishga yordam beradigan ijtimoiy, oilaviy va tarbiya muxiti bulmas ekan, inson bo`lib tugilishning xojati xam yukdir.

Madomiki shunday ekan, demak, bola o`z layokatiga mos sharoitlarda o`sib, zarur faoliyat bilan shugullansa, layokat erta kurinib, rivojlanishi, aksincha, zarur sharoit bulmasa bor kobiliyat xam yuk bo`lib ketishi mumkin. Mana shunday nuktai nazar inson layokatining namoyon bulishi va koobiliyat sifatida rivojlanishi tula-tukis xayot sharoitiga boglik ekanligini kursatadi.

Odam bolasidagi qobiliyat kurtaklarining rivojlanishi, avvalo ijtimoiy muxitga boglik ekan. YAna shu narsani xam aytib utish kerakki, sharoit kulay va nokulay bulishi xam mumkin.

Butun jaxonga ma'lum va mashxur Urta Osiyoning buyuk allomalari onalaridan biri tabib, biri shoir, biri xandasa, biri muxandis, biri faylasuf bo'lib tugilmagan, balki, ularning yashab turgan davri, ijtimoiy muxiti kolaversa oila muxiti ularning mana shunday insonlar bo'lib etishishlarida asosiy turtki bo'lgan. Ular yashab turgan xayotning ma'nosi, ideal va vokelik, axloxiy xakikat, burch va borlik, axlokiy xayotda ob'ektivlik va sub'ektivlikning o'zaro munosabati, bilish va kadr kimmatt singari axlokiy sifatlarning uta shakkllanganligi xam bu kabi insonlarni etishib chikishida asosiy turtki bo'ladi. Usha davrda insonparvarlik g'oyalari kadr-kimmati, insoniylik yangi va yuksak boskichga kutarilgan edi. SHuning uchun xam Mirzo Bedil xakli ravishda tarbiyada inson kadr-kimmatining buyukligi xaqida gapirib shunday deydi; - «Xazrati insonnnng xurmat-extiromga sazovor ekanligini tan olmagan xar knm mal'undir».

Darxakikat bunday insonlar kadriyatlarimizning daxosi bulishi imom Buxoriy, Forobiy, Axmad YAssaviy, YUsuf Xos Xojib, Sufi Olloyor, Abu Rayxon Beruniy, Abu ali ibn Sino, Umar Xayyom, Sa'diy SHeroziy, Abduraxmon Jomiy, Alisher Navoiy, Zaxiriddin Muxammad Bobur, Mirzo | Ulugbek, Mirzo Bedil, Axmad Donish va boshka kupgina mutafakkirlarning ta'lim-tarbiya va ma'rifat xaqidagi g'oyalardan keng foydalanish va ularning didaktik karashlarini pedagogika fanining rivojlanishida metodik asos qilib olish bugungi kun talabasiga yoshlarni tarbiyalashda muxim omil bo'lib xisoblanadi

Individning sotsiumga kirishi murakkab jarayon xisoblanadi.. Bir tomondan, individga xamjamiyatlar a'zosi sifatida faoliyat kursatish imkonini beradigan muayyan kadriyatlar tizimini (normalar, namunalar, bilimlar, tasavvurlarni) o'zlashtirib olishni o'z ichiga oladi. Ikkinci tomandan - shaxsning o'z ijtimoiy tajribasini orttirishi va o'zini faol karor toptirishini o'z ichiga oladi.Ijtimoiylashuvining samaradorligini (odamning ijtimoiy jarayonlarga tula – tukis kushilganligini) bildiruvchi eng muxim kursatkichlar ijtimoiy faollik va xarakatchanlikdir.**Ijtimoiy faollik** – shaxsning ijtimoiy jarayonlarda ongli ravishda katnashishi, ularga ta'sir kursatish imkoniyatining muvjudligidir. Totalitar tizim sharoitida ijtimoiy tizimning xar kanday joyida odam ijtimoiy jarayonlarga ta'sir kursata olmas, ularni o'zgartirish yulida ijtimoiy faollik kursata olmas edi. Bu xol odamning jamiyatdagi o'z urnini belgilab olishi jarayoni kupincha uning real istaklari va intellektual kobiliyatlariga boglik bulmasliligiga olib borar edi. Binobarin, shaxsning sotsial roli uning ijtimoiy jarayonlar xamda ularni o'zgartirish imkoniyatlari xaqidagi tasavvurlariga adekvat emas edi. Individning sotsiumga kirishishi juda murakkab jarayon xisoblanadi. Bir tomondan, individga xamjamiyatlar a'zosi sifatida faoliyat kursatish imkonini beradigan muayyan kardiyatlar tizimini (normalar, namunalar, bilimlar, tasavvurlarni) o'zlashtirib olishni o'z ichiga oladi.

## Ma'ruza- 5

### Mavzu: Shaxsning ijtimoiylashuvi. Bolaning sotsiumda rivojlanishi.

1.Ijtimoiylashuv tushunchasi va ijtimoiylashuv jarayoni

- 2.Ijtimoiylashuv jarayonida muhitnihg o'rni**
- 4.Shaxs shakllanayotgan muhitdagi salbiy omillar**
- 3.Tarbiya ijtimoiylashuv sifatida**
- 4.Tarbiya ijtimoiy institut sifatida**
- 5.Tarbiya tamoyillari**

### Tayanch tushunchalar

Ijtimoiylashuv, jarayon, ijtimoiy muxit, ijtimoiylashuv vositalari, agentlari, o'z-o'zini cheklash, identifikatsiya, empatiya, intellektuallashuv, megaomil, makro' omil, mezo'omil, ijtimoiy institutlar, noosfera, tarbiya tamoyillari, ratsionallashuv

### **Nazorat uchun savollar:**

- 1.Ijtimoiylashuv nima? Bolaning ijtimoiylashuviga ta'sir qiluvchi omillar qaysilar?
- 2.Bola rivojlanishiga muhitning ta'siri qanaqa bo'ladi?
- 3Bola tarbiyasi va uning ijtimoiylashuvi orasidagi bogliqlik nimada?
- 4 Ijtimoiy moslashuv nima?
- 5Tarbiya ijtimoiy institut sifatida qanday o'ziga xoslikka ega?
- 6.Tarbiyaning ijtimoiy vazifalarini sanab bering.
- 7.Tarbiyaviy tamoyillarining mohiyatini izoxlab berihg
- 8.SHaxsning ijtimoiy shakllanishida jamoaviylik va tarbiyaning tugallanmaganligi tamoyillarining o'rni qanday?

### **Foydalilanigan adabiyotlar**

- 1.Berns D. "Men"ning rivojlanishi kontseptsiyalari. M. 1986.
- 2.Bojovich L. I. SHaxs v uning bolalikda shakllanishi. M. 1968.
- 3.Mudrik A. V. " Ijtimoiy pedagogika". M. 2003.
- 4.Podlsiy I. P. Pedagogika-100 savolga-100 javob. M. 2001.
- 5.Xarlamov I. F. Pedagogika savol javoblarda. M. 2001.
- 6.Pedagogika. I. P. Pidkasustiy taxriri ostida. M. 2003.
- 7.Slastenin V. A., Isaev I. F. va boshkalar "Umumiy pedagogika" 1-kism, M. 2003.

### **Ijtimoiylashuv tushunchasi**

**"Ijtimoiylashuv" so'zi dastlab siyosiy-iktisodiyotdan kelib chikkan. U siyosiy-iktisodiyotda er, ishlab chikarish vositalarining umumiylashuvi ma'nosini anglatgan.**

"Ijtimoiylashuv" atamasining muammoli deb, bu atamani "Ijt. nazariyasi" (1987) kitobida xozirgiga yakin ma'noda ko'llagan amerikalik sotsiolog F.G.Keddings xisoblanadi. Uning zamonaviy ma'nosi- **ijtimoiy tabiat yoki individ xarakterini rivojlantirish, insonni ijtimoiy xayotga tayyorlashdir.**

XX asr o`rtalarida ijtimoiylashuv inson rivojlanishini uning butun umri mobaynida o`rganuvchi mustaqil ilmiy soxaga aylandi. Ijtimoiylashuvning turli kontseptsiyalarining taxlili uni shartli raivshda ikki asosiy yondoshuvga ajratish imkonini beradi:

-sub'ektiv-ob'ektiv. Unda insonga jamiyat ta'sirining passiv iste'molchisi sifatida karaladi (E.Dyurkgeym, T.Parsons)

-sub'ektiv-sub'ektiv. Bunda ijtimoiylashuv jarayonida insonning faol o`rni, uning xayotiy xolatlarga ta'sir etish kobiliyati nazarda tutiladi.

Jamiyat va ijtimoiy moslashuv jarayonlarini tushunishning xozirgi talablariga ikkinchi yondashuv ko`prok mos tushadi, chunki zamonaviy fanda ijtimoiylashuv insonning madaniyatni o`zlashtirish jarayonidagi rivojlanish va o`zgarishi bilan aniklanadi.

### Ijtimoiylashuv jarayoni

Bolaning ijtimoiylashuvi, xususan insonning ijtimoiy moslashuvi uning xamma narsani egallahsga bo`lgan ob'ektiv extiyoji jarayonida paydo bo`ladi. Birok bu bilan uzviy ravishda bola boshka bir ob'ektiv extiyoj -o`ziga xosligini namoyon qilish xissi xam shakllanadi. Bola uni yuzaga chikarish uchun turli usul va vositalarni kidira boshlaydi va buning natijasida uning individuallashuvi ro`y beradi. Bu xodisa shunda namoyon bo`ladiki, shaxsning ijtimoiy axamiyatga ega xislatlari individual, faqat shu shaxsga tegishli tarzda namoyon bo`ladi, uning ijtimoiy yurish-turishi takrorlanmas jixatlarga ega bo`ladi. SHunday qilib bolaning ijtimoiy rivojlanishi ikki o`zaro boglik yo`nalishda olib boriladi: ijtimoiylashuv (ijtimoiy madaniy tajriba madaniyatni o`zlashtirish) va individuallashuv (mustaqil lik, nisbiy o`ziga xoslikni ko`lga kiritish). SHu tarzda ijtimoiylashuv tushunchasi zamonaviy fanda moslashuv (birlashish) va individuallashuv jarayonlari bilan boglik ijtimoiylashuv jarayonining mazmuni inson(bola)ning anik bir jamiyat sharoitlariga moslashuvidir. moslashuv sub'ekt va ijtimoiy muxit faolliklarining yakinlashuv jarayoni va natijasidir. (J.Pia Je, R.Mertoj).

**Ijtimoiy moslashuv** esa ijtimoiy muxit talablariga insonning munosabat bildirishidir. SHunday qilib, ijtimoiylashuv (moslashuv) individning ijtimoiy mavjudodga aylanish jarayoni va natijasidir.

**Individuallashuv** insonning xali yoshligidayok paydo bo`ladigan ob'ektiv extiyojlari bilan boglik jamiyatdagi o`z-o`zini egallahdir. Bu extiyoj:

a) o`z karashlariga ega bo`lish;

b) o`ziga xosliklariga ega bo`lish;

v) unga tegishli bo`lgan masalalarini xal qilish, uning o`z darajasini aniklab olishiga xalakit beradigan xayotiy xolatlarga karshi turish xoxishi sifatida namoyon bo`ladi.

Agar shaxsning jamiyatga kirishida ijtimoiylashuv va individuallashuv jarayonlari o`rtasida tenglik yuzaga kelsa, insonning jamiyatga yakinlashuvi ro`y beradi. SHu bilan birga bu erda shaxs va muxitning o`zaro ta'sir etish xam sodir bo`ladi. SHunday qilib, muvaffakkiyatli ijtimoiylashuv moslashuv va individuallashuv o`rtasida muvozanat saklangandagina amalga oshishi mumkin. Bu jarayon 3 asosiy soxada amalga oshadi:

- faoliyat-turlarning kengayishi, uning shakl va vositalarini ko`lga kiritish, erkin mo`ljal olish.

- muomala-muomala doirasini kengaytirish, uning mazmunini chukurlashtirish, xulk-atvor me`yorlarini o`zlashtirish.

- anglash-shaxsiy men obrazini faoliyatning faol ishtirokchisi sifatida shakllantirish, o`z ijtimoiy mansubligi va o`rnini anglash, o`ziga baxo berishni shakllantirish.

## **Ijtimoiylashuv vositalari.**

Inson ijtimoiylashuvi u yoki bu jamiyat ijtimoiy katlamlariga xos bo`lgan universal vositalar orkali amalga oshiriladi, ularga: go`dakni emizish va gamxo`rlik qilish usullari, maishiy va gigienik yurish-turish koidalari, insonni o`rab turuvchi moddiy madaniyat maxsulotlari, ma`naviy madaniyat unsurlari(alladan boshlab ertaklargacha), muomala usuli va mazmuni, shuningdek oilada jazolash va mukofotlash uslublari, insonning xayotiy faoliyatidagi ko`p sonli munosabatlari-mulokot, o`yinlar, ma`naviy-amaliy faoliyat, sport bilan shugullanish kiradi.

Xar bir jamiyat, davlat, ijtimoiy gurux ijobiy va salbiy ta`kiklar-man etish, ruxsat berish, majburlash chora-tadbirlarini ishlab chikishadi. Bu choralar yordamida inson xulk-atvori shu jamiyatda kabul qilingan me'yoriy kadriyatlarga moslashtiriladi.

**Bola ijtimoiylashuvining etakchi vositalari** muomala (ota-onalar, tengdoshlar va boshkalar bilan) xamda faoliyat (o`yin, o`kish, ijod, sport)dir. Psixologik-pedagogik tadqiqot lar jarayonida turli yosh davrlariga turli faoliyat turlari mos kelishi aniklangan.

Bolaning me'yorida rivojlanishining eng muxim shartlaridan biri bu muomala. Muomala va faoliyatning etakchi turlariga nisbatan quyidagi yosh davrlari ko`llaniladi::

- go`daklik davri-bevosita xissiy-ruxiy;
- go`daklikdan keyingi davr-predmetli faoliyat;
- maktabgacha davr-rolli o`yinlar;
- ilk maktab davri-o`quv faoliyati;
- o`smdirlik davri-kasb ta`limi faoliyati;
- o`sprinlik davri-shaxsiy mulokot faoliyati.

## **Ijtimoiylashuv agentlari**

Insonning voyaga etishida, uning shakllanishi jarayonida, u bevosita munosabatda bo`lgan kishilar muxim o`rin tutishadi. Ularni ijtimoiy pedagogikaga oid adabiyotlarda **ijtimoiylashuv agentlari** deb xam nomlanadi. Turli yosh davrlarida agentlarning tarkibi turlicha bo`ladi. Bolalar va o`smdirlar uchun **ota-ona, aka-uka, opa-singillar, karindoshlari, tengdoshlari, ko`shnilar** agent bo`lishlari mumkin. YOshlik davriga kelib agentlar katoriga **turmush o`rtogi, xamkasblari** xam ko`shilishlari mumkin. Ijtimoiylashuvdagи tutgan o`rinlariga, inson uchun qanchalik axamiyatli ekanligiga karab agentlar xam farklanadi: faol ta`sir etuvchi va faol ta`sir ko`rsatmaydigan.

## **Ijtimoiylashuv mexanizmlari.**

Insonning ijtimoiylashuvi turli omillar, agentlar bilan xamkorlikda va bir kator mexanizmlar asosida amalga oshadi. Frantsuz olimi Gabriel Tard, Amerikalik Uri Bronfenbrener, rus olimlari V.S.Muxina va A.V.Petrovskiyarning tadqiqot lari ijtimoiylashuv mexanizmlariga turli yondoshuvlarni keltirib chikardi. Mavjud ma'lumotlarning umumlashtirilishi quyidagi mexanizmlarni alovida ajratib ko`rsatish imkonini beradi:

1. I.P.Podlsiy tasnifi bo`yicha:

**Bostirish mexanizmi**, uning mazmuni muayyan g`oya, fikr, xoxish, istaklarni ongdan chikarib tashlashdan iborat. Bu mexanizmning tashki va ichki turlari mavjud. Ichki mexanizm xam o`z o`rnida ixtiyoriy va gayri ixtiyoriyga bo`linadi. gayri

ixtiyoriy mexanizm -unutishdir. Ixtiyoriy bostirish mexanizmi esa iroda kuchi bilan amalga oshiriladi. Tashki bostirish mexanizmi tarbiyaning keng tarkalgan usulidir;

**Ajratish mexanizmi**, bu mexanizm ijtimoiylashuv mexanizmi sifatida inson o`zi uchun yomon taassurotlardan voz kechishi bilan bogliq. Ajratish mexanizmi odatda nizolarni hal qilishda kuzatiladi.

**Uz-o`zini cheklash mexanizmi**, bu mexanizm ijtimoiylashuv jarayonida muhim o`rin tutadi. Agar tarbiyalanuvchiga uning yutuqlari do`stlarinikidan ko`ra ahamiyatsizroq tuyulsa, uning o`z-o`ziga hurmati pasayadi, yomon o`qiy boshlaydi. Bu o`z menini cheklab qo`yish, qiyinchiliklar oldida ojiz qolishdir. Ba`zi hollarda o`z-o`zini cheklash mexanizmini qo`llashni qo`llasa bo`ladi. CHunki bu holatda moslashuv sodir bo`lishi mumkin. Biroq uzoq muddatli o`z-o`zini cheklash, o`z-o`ziga baho berishning pasayishiga olib keladi. Buning natijasida o`z salohiyatini bilmay turib tarbiyalanuvchi ilk muvaffaqiyatsizlikdan so`ng boshlagan ishini tashlab qo`yadi, oqimda suza boshlaydi;

O`z kamchiliklarini boshqalarga tegishli deb hisoblash **loyihalash mexanizmining** mohiyatini tashkil qiladi. O`ziga, boshqalarga qarshi qaratilga qaratilgan salbiy hissiyotlar bilan inson o`ziga bo`lgan hurmatni saqlab qoladi. SHubhali inson hammadan gumonsiraydi, xudbin hammani xudbin hisoblaydi;

Ijtimoiylashuvning yana bir asosiy mexanizmlaridan biri bu-**identifikatsiyadir**. Identifikasiya jarayonida tarbiyalanuvchi hayolan o`zini o`rtoqlari bilan qiyoslaydi. Identifikasiya ob`ekti nafaqat real insonlar, balki tasavvurlardagi insonlar ham bo`lishi mumkin. Identifikasiyaning to`liq, qisman, ongli, ongsiz turlari mavjud.

Identifikasiya mexanizimi **introektsiya** mexanizimi bilan juda bogliq. Bunda boshqalarning xislatlari o`zgarmagan holda o`zlashtirib olinadi. Garchi bu mexanizm xayolan amalga oshirilsa ham uning natijalarini anglab olish qiyin emas;

**Empatiya** mexanizmi, ya`ni boshqa odamning hissiy xolatiga hamdard bo`lish. SHaxsnинг muammo, qiyinchiliklarini engishga yordam berish hissiyotga boy shaxslarning ijtimoiylashuvida muhim ahamiyatga ega;

Qiyin xolatlarda **intellektuallashuv** mexanizmi ishga tushadi. Katta yoshdagи tarbiyalanuvchi abstrakt fikrlay boshlaydi va vaziyatdan chiqib ketish yo`lini o`zi uchun emas, go`yoki boshqa odam uchun qidiriyotgandek tuyuladi. Bu mexanizm tarbiyalanuvchi hayotiy muhim muammolarga (kasallik, boshqa mакtabga o`tish, institutga kirish) duchor bo`lganda namoyon bo`ladi.

**Ratsianallahuv** mexanizmida tarbiyalanuvchi o`z xatti-harakatlarining mantiqiy xulosasini chiqaradi. YOsh ratsianalizatorlar odatda maqsadning diskreditatsiyasini qo`llashadi.

Fikr, xissiyot, harakatlarini susaytirish uchun **harakatlarni bekor qilish** mexanizmi qo`llaniladi. Tarbiyalanuvchi kechirim so`raganida, uning harakatlari kechirilishi va sof vijdon bilan harakat qila boshlashiga ishonadi. Ko`p shaxslar shu tarzda komillikka erishishadi.

2. I.V.Mudrikning fikricha psixologik va ijtimoiy- psixologik mexanizmlarga quyidagilarni kirlitsa bo`ladi:

**Imprinting** (xotirada saqlab qolish)-insonga ta`sir qiladigan hayotiy muhim ob`ektlarni eslab qolishi. Bu mexanizm odatda go`daklik davrida ko`p qo`llaniladi. Biroq keyingi yosh davrlarida ham imprintingni kuzatishimiz mumkin.

**Eksiztentsial** bosim mexanizmi-tilni o`zlashtirish va munosabatga kirishganda kerak bo`ladigan ijtimoiy xulq-atvor normalariga anglamagan xolda ega bo`lish.

**Taqlid**-biror bir namunaga o`xshashga harakat qilish. Bu xolat insonning ijtimoiy tajriba to`plashining ixtiyoriy va asosan ixtiyorsiz yo`llaridan biridir.

**Refleksiya mexanizmi**-ichki suhbat. Unda inson jamiyatning turli institutlari, oila, tengdoshlar jamoasi, obro`- e'tiborli shaxslarga xos xususiyatlarga baho beradi, ularni ko`rib chiqadi yoki inkor etadi. Refleksiya insonning turli “men” obrazlari orasidagi real va hayoliy shaxslarning ichki suhbatidir. Bu mexanizm yordamida insonning shakllanishi ro`y beradi.

Bundan tashqari ijtimoiylashuvning ijtimoiy pedagogik mexanizmlariga quyidagilarni ham kirtscha bo`ladi:

1. Ijtimoiylashuvning **an'anaviy mexanizmi** inson tomonidan oila, atrof-muxit, qo`snilar, o`rtoqlariga xos norma, qarash steriotiplarini o`zlashtirishni ko`zda tutadi. Bu o`zlashtirish ongsiz xolatda amalga oshib taasurotlar yordamida sodir bo`ladi.

2. **Instituttsional mexanizm** insonning jamiyat institutlari va turli tashkilotlari bilan o`zaro munosabati jarayonida kuzatiladi. Bu jarayonda inson turli bilim va tajribalarni to`plashi mumkin.

### Ijtimoiylashuv omillari

Ijtimoiylashuv bolalar, o`smirlar, yoshlarlarning rivojlanishiga ta`sir qiluvchi ko`p sonli shart-sharoitlar bilan o`zaro munosabatida yuzaga keladi. Insonga ta`sir qiluvchi bu sharoitlar omil deyiladi. Aslida ularning hammasi ham aniqlanmagan. O`rganilgan omillar xaqida bilimlar etarli emas. Ijtimoiylashuvning omillari 4 guruxga bo`linadi;

**1. Megaomillar** (mega-eng katta)-kosmos, planeta, dunyo, shuningdek bularga demografik, ijtimoiy siyosiy, ekologik, planetar jarayonlarni ham kirtscha bo`ladi. Ular boshqa omil guruxlari orqali erving barcha aholisining ijtimoiylashuviga ta`sir ko`rsatadi.

**2. Makroomillar** (makro-katta)-davlat, xalq, jamiyat. Bu omillar muayyan xududda yashovchi aholi ijtimoiylashuviga ta`sir qiladi.

**3. Mezoomillar** (mezo-o`rta)-xudud va yashash joyi ommaviy aloqa tarmoqlari, auditoriya, u yoki bu submadaniyatga tegishliligiga ko`ra ajratilgan guruxlarning ijtimoiylashuvi shart-sharoitlari. Mezoomillar etnik qurilmalarni shakllantirish jarayoniga, mintaqaviy sharoitlarga, shu xududning OAVlariga ta`sir qiladi.

**4. Ijtimoiylashuvga mezoomillar** mikroomillar orqali ta`sir qiladi. Mikroomillarga muayyan shaxslarga ta`sir qiluvchi omillar-oila, qo`snilar, tengdoshlar guruxlari, tarbiya muassasalari, turli ijtimoiy, diniy, davlat, xususiy tashkilotlar kiradi.

SHaxs tugilganidan boshlab rivojlanadigan muxit **sotsium yoki mikrosotsium deyiladi**.

Tashki ijtimoiy omillardan tashkari ichki biologik omillar xam mavjud. Ularni bir-biridan mustaqil o`rganishning iloji yo`k. Zamonaviy ilmiy nazariyalarda shaxs rivojlanishining asosiy omillari sifatida biologik va ijtimoiy omillarajratib ko`rsatiladi.

**Biologik omillar.** Biologik irsiyat insonni inson kiluvchi umumiy jixatlarini aniklaydi. Irsiyat deganda ota-onalardan bolalarga turli belgi, o`xshashlik, xususiyatlarning o`tishi tushuniladi. Irsiyatga ko`ra bolaga ota-onasidan inson

organizmi, asab tizimi, miya va xis tuygu organlari, shuningdek, komat tuzilishi, soch, teri rangi o`tadi. Bular insonni boshka insonlardan ajratib turuvchi tashki omillar xisoblanadi. SHuningdek irsiyat bo`yicha nerv faoliyatini rivojlanadirigan nerv xusuiyatları xam o`tishi mumkin. Irsiyat bolaning tabiiy xususiyatlari asosida biror bir faoliyat soxasida muayyan kobiliyatlarining shakllanishini ko`zda tutadi. Psixologik ma'lumotlarga ko`ra kobiliyat insonning tabiiy xususiyati bo`la olmaydi. Bola kobiliyatlarining namoyon bo`lishi uning xayot, talim-tarbiya jarayonlariga boglik.

Ota-onadan bolaga o`tuvchi bir kator kasalliklar mavjud-kon kasalligi, shizofreniya, epilepsiya, daun kasalligi va boshkalar. Bu kasalliklarni genetika o`rganadi.

Xozirgi paytda bola rivojlanishiga **ekologik muxit, atmosferaning buzilishi** kabi tashki omillar xam salbiy ta'sir ko`rsatadi. Buning natijasida jismoniy nuksonli bo`lib tugilayogan bolalar soni ko`paymokda. Bunday bolalarning muomalaga kirishishi va faoliyat yuritishi nixoyatda ogir kechadi. SHuning uchun ularga **o`kitishning yangi metodlari joriy qilinmokda va bu metodlar ularning akliy rivojlanishga erishishlariga yordam beradi**. Jismoniy nuksonli bolalar bilan maxsus pedagoglar shugullanishadi. Bu bolalar o`z tengkurlari bilan muomalaga kirishganlarida jiddiy muammolarga duch kelishadi. Bu esa ularning jamiyatga integratsiyalashuvlarini kiyinlashtiradi. SHuning uchun bunday bolalar bilan ijtimoiy pedagogik ish olib borishning asosiy maqsadi **bolaga tashki olam bilan aloka qilish kanallarini ochishdir**.

**Ijtimoiy omillar.** Insonning biologik mavjudotdan ijtimoiy sub'ektga aylanishi, uning ijtimoiylashuvi, jamiyatga integratsiyasi natijasida sodir bo`ladi. Bu jarayon shaxsning ijtimoiy axamiyatga ega xislatlari asosida shakllanadigan kadriyat, ijtimoiy norma, xulk-atvor namunasi orkali amalgalashadi.

Ijtimoiylashuv insonning butun xayoti davomida kechadigan ko`p kirrali jarayondir. U ayniksa bolalik va yoshlik davrida nixoyatda jadallik bilan kechadi. Chunki aynan bolalikda asosiy ijtimoiy me'yorlar o`zlashtiriladi.

Bola ijtimoiylashuvida sotsium muxim axamiyatga ega. Bu ijtimoiy muxitni bola asta-sekinlik bilan o`zlashtiradi. Agar bola tugilgandan keyin asosan oilada rivojlansa, uning keyingi rivojlanishi yangi va yangi muxitlar-maktabgacha ta'lim muassasalari, maktab, maktabdan tashkari tarbiya muassasalari, turli ko`ngilochar maskanlarda kechadi. YOsh ulgaygan sari ijtimoiy muxit "**xududi**" kengayib boradi. Bola kanchalik ko`p muxitlarni o`zlashtirsa, u shunchalik keng doira xududini egallahsga xarakat kiladi. Bola doimo o`zi uchun kulay bo`lgan uni yaxshi tushunadigan, unga xurmat bilan munosabatda bo`ladigan muxitni izlashga urinadi. SHuning uchun u bir muxitdan boshka muxitga ko`chib yuradi. Muxit bolaning shakllantirishida, uning ijtimoiy tajriba to`plashida ijtimoiylashuv jarayoni uchun muxim axamiyatga ega.

Muxit tushunchasi turli fan vakillari-sotsiologlar, psixologlar, pedagoglarning o`rganish ob'ekti xisoblanadi. Ular muxitning bunyodkorlik saloxiyati va bola shakllanishi, rivojlanishidagi ta'sirini o`rgandilar.

## **Ijtimoiylashuv jarayonida muxitning o`rni**

Ijtimoiy pedagogikada jamiyat, ijtimoiy muxit avvalambor bolaning yangi muxitlarga integratsiyalashuvi nuktai nazaridan o`rganiladi. SHu nuktai nazaridan inson va unga ta'sir kiluvchi tashki omillarning jamiyatdagi o`zaro munosabati xamkorlik xarakteriga ega ekanligi muximdir. Muxit-inson kirishishi, o`zini kulay sezishi uchun joylashuvinigina etarli bilishi lozim bo`lgan ko`cha, uy va boshka narsalar emas. Balki, muxit bu aloxida o`zaro munosabatlar tizimi va koidalari bilan xarakterlanadigan inson jamoalari xamdir. SHuning uchun inson muxitga yangilik kiritadi, muayyan darajada ta'sir kiladi xamda o`zgartiradi va o`z o`rnida muxit xam inson oldiga o`z talablarini ko`yadi. U insonni, uning xatti-xarakatlarini kabul qilishi xam, inkor qilishi xam mumkin. Muxitning insonga munosabatini insonning yurish-turishi, uning talablariga kanchalik javob berishiga karab aniklasa bo`ladi. Insonning xulk-atvori uning jamiyatda tutgan o`rni bilan belgilanadi.

Inson jamiyatda bir vaktning o`zida bir kancha **mavke'larni egallashi** mumkin. Masalan, **ayol xam rafika, xam ona, xam ustoz mavke'larini egallashi** mumkin. xar bir mavke' insonga muayyan talablarni ko`yadi va shu bilan birga unga bir kancha xukuklarni beradi. **Insonning jamiyatdagi muayyan xukuk va majburiyatlar bilan xarakterlanadigan mavke'i ijtimoiy makom deyiladi.** Insonda tugma makomlar bo`lishi mumkin. **Insonning ijtimoiy makomiga** millati, tugilgan joyi, familiyasi va boshka omillar ta'sir ko`rsatishi mumkin. Bunday makomlarga odatda tugma makom deyiladi. Boshkalari esa inson jamiyatda nimalarga mustaqil erishganligiga karab belgilanadi. Masalan, ijtimoiy pedagog makomiga shu soxadagi kasb tayyorlovchi o`quv muassasasida ta'lim olgan va bu soxa bo`yicha diplomga ega bo`lgan shaxs erishishi mumkin. YUkoridagi makomni **ko`lga kiritilgan makom** desak adashmagan bo`lamiz.

Makom insonning jamiyatdagi xulk-atvorini muayyan vaziyatlarda o`zini shu makomdagilar xolatiga ko`ra belgilaydi. Atrofdagilar u shaxsdan nima kutishlari xam muximdir. SHuning uchun inson makomi bilan belgilanadigan xulk-atvor ijtimoiy rol deyiladi. Turli ijtimoiy rollarni o`zlashtirish shaxs ijtimoiylashuvi jarayonining ajralmas kismi xisoblanadi. Uning murakkabligi jixati shundaki, jamiyatda faqat jamiyat tomonidan ma'kullanadigan makomlar bo`lmasdan **ijtimoiy norma va kadriyatlarga mos kelmaydigan makomlar xam mavjud.** SHuning uchun bola shakllanishi va rivojlanishi jarayonida xam ijobiy xam salbiy rollarni o`zlashtirishi mumkin.

**Pozitiv rollarga avvalo oila a'zosining rolini kirtsak bo`ladi. Oilada bola bunday rollarning bir nechtasini o`zlashtiradi: o`gil yoki kiz, aka yoki opa, jiyan, nabira, shuningdek bobokalonlari bilan xam tanishishi mumkin.**

Bola o`z rivojlanishi davomida o`zlashtiradigan yana bir muxim roli bu jamoa a'zosi rolidir. Bolalar bogchasi va matabda sport to`garagida tengurlari bilan muomala kilganda bola jamoa a'zosi, o`rtok, do`st, o`quvchi, etakchi kabi rollarni o`zlashtiradi. Xar bir inson iste'molchi rolini bajaradi. CHunki u xayoti mobaynida zarur bo`lgan narsalarga doim extiyoj sezadi. Bular: ovkat, kiyim-kechak, kitob va boshkalar. Jamiyat insonga takdim etgan xizmatlardan okilona foydalana olishni bola yoshligidayok o`zlashtirishi lozim.

YAna bir muxim ijtimoiy rol-o`z vatani fuqarosi bo`lish, uni sevish, u bilan faxrlanish, vatanparvar bo`lish bilan boglikdir. SHu bilan birga bola o`zlashtirishi

mumkin bo`lgan boshka rollar xam bor. Masalan, mutaxassis roli. Uni bola maktab, litsey yoki boshlangich kasbiy bilim yurtlarida o`zlashtiradi. Salbiy rollarga daydi rolini misol kilsak bo`ladi. Katta shaxarlar ko`chalarida, magazin, bozor, jamoa transportlarida tilanchi bolalarni xam uchratishimiz mumkin. Ular bu rollarga ko`nikishgan. O`tgan-kaytganlardan moxirlik bilan pul undirib olishadi. Ular orasida o`girlik bilan shugullanadiganlari xam uchraydi. Ba`zi xollarda bo`lsa, ularni bu ishga kattalar undashadi.

Bolaning xulk-atvor mexanizmlarini o`zlashtirishi unga ijtimoiy munosabatlarga muvaffakkiyatli moslashuvini ta'minlaydi. ijtimoiy moslashuv deganda shaxsning ijtimoiy muxit sharoitlariga ko`nikishi tushuniladi.

Ijtimoiy moslashuv bolaning muvaffakiyatli ijtimoiylashuvining sharti va natijasi xisoblanadi. Bu asosan uch yo`nalishda olib boriladi: faoliyat, muomala va anglash. Faoliyat soxasida bolada faoliyat turlarining kengayishi, faoliyatning zaruriy shakl va vositalarini ko`lga kiritishi, muomala soxasida muomala doirasining kengayishi, uning mazmunining chukurlashishi, jamiyatda kabul qilingan xulk-atvor me`yorlarini o`zlashtirish sodir bo`ladi. Anglash soxasida o`z “men”i obrazini shakllantirish, o`zining ijtimoiy mansublik va ijtimoiy o`rnini anglash ro`y beradi. Bu jarayonlarning barchasini tarbiya tartibga soladi.

### **Tarbiya ijtimoiylashuv sifatida**

So`nggi o`n yilliklar davomida pedagogika va boshka fanlarda ijtimoiylashuv va tarbiya tushunchalarining o`zaro munosabati keng muxokama qilib kelinmokda. Davlat mafkurasining o`zgarishi sababli bu muammoga alovida e'tibor karatish lozim. SHu bilan birga ba`zi mualliflar tarbiyani ijtimoiylashuv bilan almashtirishga xarakat qilishmokda. Boshkalari tarbiyani bola ijtimoiylashuvining bir kismi sifatida o`rganishadi. Ba`zi olimlar esa ijtimoiylashuv deganda fuqaroviylar axlokiy tarbiyani tushunishadi. To`rtinchı gurux olimlari shaxs ijtimoiylashuvini tarbiyaning asosiy maqsadi deb xisoblashadi. Birok tarbiya bola ijtimoiylashuvining asosiy omillaridan biri ekanligini xamma tan oladi. Tarbiyaning asosida ijtimoiy xarakat bo`lishi, uni ijtimoiylashuvdan farklaydi. Ijtimoiylashuv tushunchasini fanga kiritgan *Maks Veberg uni muammolarni echishga karatilgan xarakat, inson xulk-atvorining taxminiy variantlarini sub'ektiv anglash* sifatida ta'riflagan.

Umuman olganda, ijtimoiylashuv uzluksiz jarayondir, ya`ni inson doimo jamiyat bilan munosabatda bo`ladi. Tarbiya esa diskret (uzlukli) jarayondir. CHunki u muayyan tashkilotlarda amalga oshirilib, zamon va makonda cheklangan bo`ladi. Tarbiya pedagogikaning asosiy kategoriyalardan biridir. SHunga karamay tarbiyaning umume'tirof etilgan ta'rifi mavjud emas. Bunga uning ko`p ma'noliligini sabab qilib ko`rsatsak bo`ladi. Tarbiyani ijtimoiy xodisa, faoliyat, jarayon, kadriyat, tizim, ta'sir, o`zaro munosabat sifatida ko`rib chiksak bo`ladi. Bu tushunchalarning xech kaysisi tarbiya mazmunini to`lik ochib bera olmaydi.


Quyida ijtimoiylashuvning nisbatan ijtimoiy nazorat qilinuvchi jarayonga xos bo`lgan umumiyligini aks etishga xarakat qilingan tarbiyaning ta'rifi keltirilgan. Birok unda oilaviy, diniy, ijtimoiy tarbiyaning xususiyatlari inobatga olinmagan. A.V.Mudrik quyidagi ta'rifni ilgari suradi:

*Tarbiya-insonning jamiyatga ko`nikishiga ko`maklashuvchi va bu ko`nikish sodir etiladigan gurux va tashkilotlarning xususiyatlari mos keluvchi sharoitlar*

*yaratuvchi insonning ongli rivojlanishi. Bu ta'rif to'lik va to'gri xisoblanmaydi.* Bu faqat muallifning nuktai nazarini aks ettiradi.

Borgan sari tashki tarbiyaviy omillarning ta'siri kamayadi. Birok boshka bir jarayon-**o`z-o`zini tarbiyalash** jarayoni rivojlnana boshlaydi. Bolaning o`z shaxsini mukammallashtirish, o`z-o`zini rivojlantirish bo`yicha mustaqil faoliyatini anglashi ortadi. Ma'lumki, o`z-o`zini tarbiyalashga extiyoj shaxs rivojining eng yuksak shakli xisoblanadi. Bizning modelga binoan insonning o`z-o`zini tarbiyalashi exrom bunyod etish bilan barobardir.. SHuning uchun o`z-o`zini tarbiyalash jarayoni bir umrga cho`ziladi.

Bolaga ta'sir etuvchi tarbiya tizimlarini A.V.Mudrik quyidagicha tasniflaydi  
II chizma Cxema II



Bola ijtimoiylashuvi uning jismoniy va ruxiy rivojlanishining salbiy xususiyatlari bilan kiyinlashtirilishi mumkin. Bolaning ijtimoiy me'yor va kadriyatlarni o`zlashtirishi muxitning salbiy ta'siri okibatida noto`gri yo`nalishda ketib kolishi

mumkin. Buning natijasida bola me'yoriy ijtimoiy munosabatlardan chetda kolib ketib, maxsus yordamga muxtoj bo`lib koladi. Bunday bolalarning ijtimoiylashuv jarayoni avvalo tarbiya orkali amalga oshadi. Birok buning uchun xar bir toifa bolalarning ijobiy jixatlarini faollashtiruvchi tarbiya metodlari va texnologiyalarini ishlab chikish lozim.

Umuman olganda **tarbiyachi va mutaxassislarning vazifasi** kiyin vaziyatlarda turgan bolaning ijtimoiy moslashuviga karatilgan, ya'ni jamiyatda kabul qilingan konun va me'yorlarga faol ko`nikishi yoki salbiy omillarning okibatlarini engishdir.

Agar shaxsda ijtimoiy muxit sifatlarining shakllanmagan darajasi bolaga ijtimoiy muxitga ko`nikishga xalakit beradigan xolat bo`lsa, bolaning ijtimoiy moslasha olmasligi sodir bo`ladi. Bu xolatda bola tomonidan yo`kotilgan ijtimoiy alokalar va munosabatlarni tiklashga karatilgan maxsus chora-tadbirlarni ko`llash tavsiya etiladi.

SHunday qilib, bolaning jamiyatda rivojlanish jarayonida uning ijtimoiylashuvi sodir bo`ladi. Agar bu jarayon sodir bo`lmasa, uning aksi-dezadaptatsiya kuzatiladi. Bunday xolatda bolaning ijtimoiy reabilitatsiyasiga extiyoj tugiladi.

### **Tarbiya ijtimoiy institut sifatida.**

Zamonaviy jamiyatlarda ijtimoiy institutlarning butun boshli bir tizimi mavjud. Ijtimoiy institut jamiyat a'zolarining o`zlarining u yoki bu extiyojlarini (iktisodiy, siyosiy, madaniy, diniy va boshka) kondirish uchun ijtimoiy resurslardan foydalananishda birgalikdagi faoliyatlarining tarixan shakllangan shaklidir. Tarbiya ijtimoiy institut sifatida jamiyat a'zolarining ijtimoiylashuvini amalga oshirish, madaniy va ijtimoiy kadriyatlarini etkazish, umuman olganda, ijtimoiy extiyojlarni kondirishni tashkil qilish uchun paydo bo`lgan. Tarbiya ijtimoiy institut sifatida muayyan jamiyatning muayyan rivojlanish boskichida paydo bo`ladigan fenomen xisoblanadi.

Xar bir jamiyat faoliyat va tuzilmasining murakkablashuvi uning tarixiy rivojlanishining muayyan boskichlarida quydagilarning sodir bo`lishiga olib keladi:

- 1.Tarbiya oilaviy, diniy, ijtimoiy turlarga ajraladi, ularning o`rni, axamiyati va o`zaro munosabati o`zgarmas xisoblanadi.

2. Ijtimoiy tarbiya jarayonida uning tarkibiy kismlari sifatida ta'limni, keyinchalik ma'lumotli bo`lishni ajratsak bo`ladi.

- 3.Korreksion tarbiya paydo bo`ladi.

- 4.Totalitar, siyosiy va kvazidiniy jamiyatlarda amalga oshiriladigan **gayri-ijtimoiy** tarbiya shakllanadi.

- 5.Tarbiyaning vazifa, shakl, usul va vositalari o`zgaradi.

- 6.Tarbiyaning axamiyati ortadi. U jamiyat va davlatning aloxida funktsiyasi bo`lib koladi va ijtimoiy institutga aylanadi.

Tarbiya ijtimoiy institut sifatida o`z tarkibiga quydagilarni kamrab oladi: **oilaviy, diniy, ijtimoiy, korreksion va gayri- ijtimoiy tarbiyalar majmuasi; ijtimoiy rollar yigindisi; tarbiyachilar, tarbiyalanuvchilar, oila a'zolari, ruxoniylar, mintakaviy, xududiy tarbiya tashkilotlari raxbarlari, jinoiy va totalitar guruxlar etakchilari; turli xildagi tarbiya muassasalari; ijobiy va salbiy sanktsiyalar yigindisi;** tarbiyachilarning ta'limi va professional tayyorgarligi darajasi.

Tarbiya ijtimoiy institut sifatida ijtimoiy xayotda muayyan vazifalarga ega. Tarbiyaning eng umumiy vazifalari quyidagilar:

- jamiyat a'zolarining bir maqsad sari karatilgan rivojlanishi va ular tomonidan tarbiya jarayonida amalga oshirilishi mumkin bo`lgan bir kator extiyojlarning kondirilishi uchun sharoitlar yaratish;
- jamiyatda faoliyat yuritish va uni rivojlantirishga kodir bo`lgan kadrlarni tayyorlash;
- ijtimoiy xayot barqarorligini madaniyatning avlodlarga meros koldirish orkali ta'minlash;
- jamiyat a'zolarining ijtimoiy va ma'naviy rivojlanishi;
- o`zgaruvchan ijtimoiy xolatlarga jamiyat a'zolarini ko`nktirish;
- jamiyat a'zolarining intilishlari, maqsadlarining birlashishini va ijtimoiy kasbiy, etnokonfessial gruxlar manfaatlarining uygunlashuvini ta'minlash.

Ijtimoiy pedagogning bu yo`nalishlar bo`yicha faoliyati zamonaviy tarbiya tamoyillari asosida karaladi.

### **Tarbiya tamoyillari.**

**Tarbiya tamoyillari**-tarbiyani amalga oshirish koidalari bo`lib, ular asosida nazariyalar ishlab chikiladi va tarbiyaning metod, shakl va vositalari amalga oshiriladi.

### **Tarbiyaning insonparvarlashuvi yo`naltirilganligi tamoyili.**

Tarbiyani insoniyashtirish zarurati xaqidagi g`oya dastlab chex pedagogi YAn Amos Komenskiyning asarlarida yakkol ifodasini topgan, Ma'rifikatparvarlik davri (XVIII asr)dan boshlab u turli davlatlar pedagoglari ishlarida\_keng tarkalmokda. Bu g`oya XVIII asrda frantsuz mutafakkiri Jan Jak Russo va L.Tolstoyning erkin tarbiya nazariyalarida; XX asrda gumanistik psixologiyada va gumanistik pedagogikada o`z aksini topgan.

Ijtimoiy pedagogikada insonparvarlashuv tamoyili pedagogning tarbiyalanuvchiga o`z rivojlanishining mas`ul va mustaqil sub'ektiga nisbatan munosabatda bo`lishni ko`zda tutadi. Tarbiyaning insonparvarlashuv tamoyilini amalga oshirish bolalar, o`smirlar, yoshlarning shakllanishiga ijobiy ta'sir ko`rsatadi.

Tarbiyaning insonparvarlashuv tamoyilini amaliyotda amalga oshirish tarbiyalanuvchida refleksiya va o`z-o`zini tartibga solishni rivojlantirishga, uning olam bilan munosabatlarining shakllanishiga, gurur xissining oshishiga, jamiyatda demokratik va gumanistik munosabatlarning tashuvchisi bo`lgan insonning shakllanishiga ijobiy ta'sir ko`rsatadi.

YAnada kengrok ma'no insonparvarlashuv tamoyilining amalga oshishi insonlar orasidagi alokalarning yaxshilanishi, ijtimoiy progress uchun kurashda insonlarning birlashishiga ko`maklashadi.

Tarbiyaning tabiat bilan uygunligi. Tarbiyaning tabiat bilan uygunligi zarurligi xaqidagi g`oya antik davrlarda paydo bo`lgan va bizgacha Demokrit, Aflatun, Arastu asarlari orkali etib kelgan.

Tarbiyaning tabiat bilan uygunligi xaqidagi tamoyilni XVII asrda YAn Amos Komenskiy ta'riflagan va u XVIII-XIX asrlarda pedagogikada keng rivojlangan.

XX asrda tabiat va inson xaqidagi fanlarning rivojlanishi tarbiyaning tabiat bilan uygunligi tamoyilini ancha boyitdi. Bunda rus olimi V.I.Vernadskiy tomonidan **noosfera xaqidagi ta'limotning yaratilishi** xam muxim rol o`ynadi.

**Noosfera-** noosfera rivojlanishning shunday boskichini aks etadigan tushunchaki, u boskichda insonning ongli faoliyati global muammolarning paydo bo`lishi va xal etilishiga ta'sir kiladi.

Tarbiyaning tabiat bilan uygunligi tamoyilining zamonaviy ta'rifi u tabiiy va ijtimoiy jarayonlarning o`zaro alokasini ilmiy tushunishda asoslanishi inson va tabiat taraqqiyotining umumiyligi konunlari bilan mos kelishi, insonni yoshi va jinsiga mos qilib tarbiyalashi, shuningdek o`z xolati va noosfera taraqqiyotining kelajagi uchun mas'uliyatni shakllantirishni ko`zda tutadi.

Tarbiya tabiat bilag uygunligi tamoyiliga ko`ra insonda tabiat, planeta va biosferaga nisbatan ijobiy munosabatni shakllantirish kerak. SHuningdek tarbiya inson:

- o`zini borlik fuqarosi deb sezishini;
- ro`y berayotgan planetar jarayonlarni va unda mavjud global muammolarni tushunishini;
- o`zida noosfera uchun mas'uliyatni sezishini;
- o`zini noosferani yaratgan sub'ekt sifatida bilishni ko`zda tutadi.

### **Tarbiyaning madaniylashuvi tamoyili**

Tarbiyaning madaniylashuvi zaruriyati g`oyasi ingliz pedagogi Jon Lok (XVIIIasr), frantsuz mutafakkiri Klod Gelvetsiy (XVIIIasr) va ulug pedagog Iogann Pestalotsi asarlarida yakkol namoyon bo`ladi.

Tarbiyaning madaniylashuvi tamoyiliga asosan uning oldida bolalar, o`smirlarni, xalk, jamiyat madaniyatining turli **yo`nalishlariga** o`rgatish maqsadi turadi. Bunda madaniyatning maishiy, jismoniy, ma`naviy, akliy, moddiy, iktisodiy, siyosiy, axlokiy yo`nalishlari nazarda tutilmokda.

Tarbiyaning madaniylashuvi tamoyilining amalga oshirilishi umuminsoniy xarakterdagi madaniy kadriyatlar turli jamiyatlarda farklanishi sababli kiyinchiliklarga duchor bo`lmokda.

Bizning davlatda SHaxar va kishlok axolisi o`rtasida, shaxarda turli ijtimoiy-kasbiy guruxlar orasida farklar mavjud. SHu bilan bir vaktda turli madaniyat va submadaniyatlar kadriyatlarining darajasini topish tarbiya samaradorligining shartlaridan biridir.

### **Tarbiyaning variativligi tamoyili.**

Zamonaviy jamiyatlarda ijtimoiy tarbiyaning variativligi shaxs extiyojlarining xilmalligi bilan aniklanadi.

Tarbiya variativligi tamoyili insonning federal, mintakaviy, munitsipial va lokal darajada umuminsoniy kadriyatlarga asoslanib, tarbiya muassasalarida insoniy, yosh, differentsiyal va individual yondashuvlar asosida manaviy-kadriyat jixatidan tarbiyalashni amalga oshirish uchun sharoitlar yaratish uchun ishlab chikilgan..

Ijtimoiy tarbiyaning variativligi tamoyilini ta'rifini milliy pedagogikada XX asrning 80-yillari oxiridan boshlab ro`y bergan ijtimoiy-siyosiy o`zgarishlar sababli ishlab chikish imkoniyati yaratildi. Ijtimoiy tarbiyaning variativligi tamoyilini amalga oshirish uchun quyidagilar zarurdir:

- shaxs manfaatlarini va extiyojlari, turli yosh, ijtimoiy-kasbiy, etnik katamlarning talablari, xududiy va mintakaviy tashkilotlarning extiyojlarini kondirish uchun turli xildagi tarbiya tashkilotlarini tuzish;

- ijtimoiy tarbiyaning mintakaviy va munitsipial tizimlarni tashkil qilish;
- maxalliy tarbiya tizimlarini tashkil qilish.

Ijtimoiy tarbiyaning variativlik tamoilini amalga oshirish:

- insonning turli xildagi xayotiy va shaxsiy masalalarini echishga, kobiliyatini shakllantirishga;
- inson tomonidan o`zining rivojlanish strategiyalari, xayotiy va kasbiy yo`llarini tanlashga imkoniyatlarini kengaytirish uchun sharoitlar yaratadi.

### **Ijtimoiy tarbiyaning jamoaviyligi tamoyili.**

Jamoa tarbiyaning eng muxim vositasi ekanligi xaqidagi g`oya juda kadimda paydo bo`lgan va XIX asrdan boshlab pedagogika tomonidan jadallik uning nazariy asoslari bilanishlab chikilgan. Zamonaviy jamiyat xayotining realliklari, inson ijtimoiylashuvi muammolari va insonni o`zgarib turuvchi dunyoga kirishi jamoaviy tamoyilni ijtimoiy tarbiyaning etakchi tashqiliy asosi deb xisoblashga zamin yaratadi.

Jamoaviylik tamoyilining zamonaviy ta`rifiga ko`ra ijtimoiy tarbiya turli jamoalarda amalga oshirilib, insonga xayot tajribasi, umuman olganda esa jamiyatga ko`nikish tajribasini ko`lga kiritish imkonini beradi.

### **Tarbiyaning shaxs rivojlanishiga markazlashuvi tamoyili**

Tarbiyaning vazifasi insonni rivojlantirish ekanligi g`oyasi kadimda paydo bo`lib, ko`pgina mutafakkirlar asarlaridan joy olgan.

Bu tamoyilga ko`ra ijtimoiy tarbiyaning strategiya va maqsadi yosh avlod, o`smirlarni komil inson bo`lib etishlariga yordam berishdir. Ijtimoiy tarbiya jarayoni, tarbiya muassasalari faqatgina shaxs rivojlanishining vositasi bo`lishlari mumkin.

Rivojlanishni inson tomonidan uch turdagи vazifalarni (tabiiy-madaniy, ijtimoiy-madaniy, ijtimoiy-psixologik xal qilish jarayoni deb karashimiz mumkin. SHu vazifalara ko`ra, tarbiya muassasalarida ijtimoiy tarbiyani markazlashtirish lozim bo`lgan shaxs rivojining jixatlarini aniklashtirsa bo`ladi.

### **Ijtimoiy tarbiyaning birgalikdagi faoliyat**

Tarbiyachi va tarbiyalanuvchi orasidagi suxbatning zarurligi g`oyasi kadimgi Elladada paydo bo`lib, o`rta asrlar ta`lim metodlarida, keyinchalik esa yangi davrning bir kator pedagoglari asarlarida o`ziga xos rivojlanishiga erishdi.

So`nggi o`n yilliklarda tarbiyaga sub`ekt-ob`ekt jarayoni sifatida karash, keyinchalik esa, bu yondashuvni pedagogik amaliyotda tarkatish bu tamoyilni pedagogika uchun eng muxim tamoyilga aylanishiga olib keldi.

Ijtimoiy tarbiyaning birgalikdagi faoliyat tamoyiliga ko`ra bolalar, o`sprinlar, o`smirlarning ma`naviy-ma`rifiy rivojlanishii tarbiyachi va tarbiyalanuvchi orasidagi kadriyatlar (akliy, ijtimoiy) almashuvi jarayonida amalga oshiriladi.

## **Tarbiyaning tugallanmasligi tamoyili.**

Bu tamoyil ijtimoiylashuvning merosiylik xarakteridan kelib chikadi. Tarbiyaning tugallanmasligi tamoyili inson rivojlanishining xar bir boskichini individual va ijtimoiy kadriyat deb biladi. Bu tamoyilga ko`ra xar bir bola, o`smirda doimo tugallanmagan va aslida tugallanmaydigan bir narsa bo`ladi. CHunki dunyo va o`zi bilan o`zaro munosabatda bo`la turib, ular doimo o`zgarish potentsialini saklab kolishadi

Tarbiyaning tugallanmasligi tamoyiliga ko`ra tarbiyani shunday tashkil qilish kerakki, xar bir yosh boskichida inson “kayta shakllanish” imkoniyatiga ega bo`lishi lozim.

Sanab o`tilgan tarbiya tamoyillarini inobatga olish va ularning ta'minlanishi ijobiy pedagogik natijaga erishishning shartlaridan biri xisoblanadi.

## **Mavzu- 6**

### **Mavzu: Odob-axloq xayotiy me'yorlar sifatida.**

- 1.Me'yorlar va me'yorlardan chekinish (ogish) tushunchasi.
- 2.Cnekinish (ogish) turlari.
- 3.Tibbiy-ijtimoiy va ijtimoiy –pedagogik tiklash (tuzatish).
- 4.Yosh bolalar va o'smirlar dezadaptatsiyalashuvining asosiy tiplari.
- 5.Dezadaptatsiyalashgan o'quvchilarni ijtimoiy-pedagogik reabilitatsiya qilishnipng shakl va uslublari.

## **Tayanch tushunchalar**

Hayotiy me'yor, hayotiy me'yorlardan chekinish, og'ish, negativ va pozitiv chekinish, kamchilik, jismoniy, psixik, ijtimoiy, murakkab kamchilik, imkoniyati cheklangan, kasallar, ishga layoqatsiz, ogir kamchilik, oligofrenik, aqli zaif, universal

## **Nazorat uchun savollar**

- 1.Me'yor tushunchasiga izox berihg
- 2.Tibbiyotda me'yor tushunchasiga nechta izox berilgan?
- 3.Me'yorlardan chekinishnihg (og'ishnihg) turlarini sanab berihg?
4. “Kamchilik” tushunchasiga izox berihg?
- 5.Insonlarda qanday “kamchiliklar” bo'lishi mumkin?
- 6.Ijtimoiy chekinish tushunchasinihg ijtimoiy me'yor tushunchasi bilan bog'liqligi bormi?
- 7.Ijtimoiy me'yor nechta guruxga ajratiladi?
- 8.Odob-axloq me'yorlari va ulardan chekinish yoki og'ishni nechta guruxga ajratish mumkin?
- 9.XX asrnihg 60-yillarida imkoniyati cheklangan insonlarga yordam berishnihg qanday modeli vujudga keldi?

## **Foydalilanigan adabiyotlar**

- 1.Qurbaniyazova va boshqalar. Biz o'z uyimizdamiz.(metodik tavsiya).T.2003 y.
- 2.Deti s otkloneniyami v razvitii. –M.,1997.

3.Kleyberg Yu.A. Sotsialniye normy i otkloneniya

4.Zaxarov A.I. Kak predupredit otkloneniye v povedenii rebyonka. –M., 1986 y.

## IJTIMOIY PEDAGOGIKADA NORMA VA NORMADAN

### **chetga chikish koidalari**

Xar kanday jamiyatda, u jamiyat kaysi rivojlanish boskichida bo`lishidan kat’iy nazar, doimiy e’tiborga muxtoj odamlar bor. Bular o`z jismoniy, ruxiy va ijtimoiy rivojlanishida chetga chikish, ogishi bor bo`lgan odamlardir. Bunaka odamlar doim bir gurux bo`lib ajralishgan, jamiyat va davlatda ularga nisbatan aloxida munosabat shakllangan.

Zamonaviy AKSH va Evropa davlatlarida u yoki bu ogishlarga ega odamlarning jamiyatga integratsiyalashuv kontseptsiyasi amalga oshirilmokda. Ushbu kontseptsiyaga ko`ra bu odamlar xam jamiyatning teng xukukli, birok ba’zi bir muammo yoki cheklangan imkoniyatlarga ega a’zosi sifatida ko`riladi.

Xozirda cheklangan imkoniyatlari shaxslar soni butun dunyoda shu jumladan, O`zbekistonda xam ortib borayotgani sababli, bu muammo yanada jiddiy lashmokda. SHuning uchun bunaka odamlar, avalambor, bolalarning ko`payishini rejali ijtimoiy xal qilishni talab kiluvchi doimiy omil sifatida karash lozim.

### **Tibbiyot, psixologiya, sotsiologiyada “norma”ning o`z ko`rsatgichlari, o`z me’yorlari mavjud. Normaga mos kelmaydigan jixatni-“ogish”, “chetga chikish” deyishadi.**

Ijtimoiy pedagogika uchun “norma” va “normadan ogish” tushunchalari nixoyatda axamiyatlidir. Ular bola xulk-atvori va rivojlanish jarayonini xarakterlash uchun ko`llanadi.

Ogish xam ijobjiy va xam salbiy xarakterga ega bo`lishi mumkin. Masalan, bola rivojlanishida akliy koloklik xam, kobiliyatilik xam normadan ogish xisoblanadi. Xulk-atvordagi jinoyatchilik, arokxo`rlik, giyoxvandlik va boshka salbiy ogishlar xam shaxsning ijtimoiy shakllanish jarayoniga xam, jamiyat rivojlanishiga xam salbiy ta’sir ko`rsatadi.

Normadan jismoniy ogish avvalambor inson sogligiga boglik. Soglikdagi ogish yoki irsiy omillar yoki biror-bir tashki xolatlar: ogir ekologik xolat, ichimlik suvining konikarsiz sifati, oila xayoti darajasining pasayishi va boshkalar asosida yuzaga kelishi mumkin.

Sogligida va rivojlanishida ogishga moyillarning ko`p tasniflari mavjud. Umumjaxon soglikni saklash tashkiloti 1980 yilda cheklangan imkoniyatlarning uch zvenosi shkalasining britancha variantini kabul kildi:

-kasallik, xastalik- ruxiy yoki fiziologik funktsiyalar, anatomik struktura elementlarini xar kanday yo`kotish yoki ularning anomaliyasi;

**-cheklangan imkoniyat**-inson uchun norma xisoblangan chegarada biror-bir faoliyatni bajarish kobiliyatini yukotish yoki cheklab ko`yish;

**-nogironlik**-yosh, jins yoki ijtimoiy omillardan kelib chikib insonning biro-bir faoliyatni bajarishini cheklovchi yoki unga to`skinlik kiluvchi cheklangan imkoniyat.

Garb davlatlarida “**sogligida cheklangan imkoniyatlarga ega shaxs**” tushunchasi mavjud. Ularga ta’lim standartlarini o`zlashtirishga to`skinlik kiluvchi

jismoniy yoki ruxiy kamchiliklarga ega bolalar kiradi. SHuningdek, **nuksun tushunchasi** xam mavjuddir.

Bola jismoniy rivojlanishidagi ogishlarga kasallik, ko`rish, eshitish kobiliyatlarining buzilishlari kiradi. Normadan ruxiy ogishlar avvalambor bolaning akliy rivojlanishi, uning ruxiy nuksunlariga boglikdir. Bu turdag'i ogishlarga avvalambor ruxiy rivojlanishning to`xtab kolishi, bolalarning akliy jixatdan ortda kolishi kiradi. Akliy koloklik asab tizimining tugma nuksonlari yoki jaroxat asosida paydo bo`ladi. Bolalarda akliy koloklik turli darajada- engil akliy zaiflikdan, chukur-tentaklikkacha namoyon bo`ladi.

Ruxiy ogishlarga turli darajadagi nutk buzilishlari xam kiradi. Ruxiy ogishlarning yana bir turi emotsion faoliyatining buzilishidir. Bu ogish turining eng ogir shakllari deb **autizm-mulokotga extiyoj sezmaslik** va suitsid (o`z-o`zini o`ldirish)larni keltirsak bo`ladi.

Bolalarning iktidorliligi aloxida ogish turi xisoblanadi. Bu biror-bir faoliyatni muvaffakiyatli bajarilishini ta'minlab beruvchi kobiliyatlarning o`ziga xos uygunligidir. Iktidorlilik darajasi nafaqat kobiliyatlarga karab, balki faoliyat maxsullari xarakteriga karab xam belgilanadi.

Pedagogik ogishlar tushunchasi pedagogika va ijtimoiy pedagogikada xozircha kam ko`llaniladigan tushunchadir. Vaxolanki, pedagogik faoliyatda pedagogik maqsadlarni amalga oshirish, shaxs rivojlanishi uchun sharoitlar yaratib berish uchun ta'lim olayotganlar faoliyatini tartibga **solistida** turli normalar ko`llanmokda. Avvalambor, bu ta'lim darajasini belgilaydigan standartlarga, shuningdek o`quvchi intilayotgan maqsadlarga tegishli. Bularga yana ta'lim olishda yukori natijalarni ta'minlab beruvchi bola rivojlanishining normalarini xam kirlitsak bo`ladi.

Ta'lim olinishi yoki olinmasligi normalari xaqida nixoyatda aniklik bilan gapirsa bo`ladi. So`nggi yillarda turli sabablarga ko`ra ta'lim ololmagan bolalar xam paydo bo`ldilar. Normadan bunaka ogishlarni pedagogik ogish desak bo`ladi. Umumiyligi ta'lim olmagan bolalarni aloxida toifaga kiritamiz. Bular mакtabga bormaydigan, faqatgina boshlangich maktabni tugatgan, umumiyligi o`rta ta'lim olmagan bolalardir. Bunaka xolatlarni yuzaga kelishi uchun bizning davlatda sabablar talaygina: dars koldirish o`kishga intilishni susaytiradi, oiladagi notinch vaziyat bolani pul topish uchun ko`chaga chikaradi, ekologik va ijtimoiy **kataklizmlar** bolalarning ota-onalaridan judo bo`lishlariga olib keladi. Daydilikka moyilligi bo`lgan bolalar soni xam ko`paymokda. Bolalar maktablarda taxsil olishmayotganining yana bir kancha sabablarini keltirsak bo`ladi.

Ruxiy va jismoniy rivojlanishda ogishga ega bo`lgan bolalarning ta'lim olishlaridagi katta kiyinchiliklarni xam ta'kidlab o'tish joiz. YUkorida aytilganidek, bunday bolalar uchun aloxida maktablar bo`lib, u erda ular professional mutaxassislar ko`li ostida ta'lim olishadi. Birok ko`p narsa bola kaerda yashashiga -kishlokdami yoki shaxardami, kanaka oiladan ekanligiga boglik. Ba`zi sogligida muammosi bor bolalar ta'lim uyda, individual tarzda o'tiladi.

Bu bolalarning jamiyatga integratsiyalashuvining asosiy muammosi ularning keyinchalik professional ta'lim olishlari bilan boglik.

O`z ijtimoiy rivojlanishi buzilib bo`lganligi sababli biror-bir kasbiy faoliyatni tanlay olmaydigan bolalarni xam nazardan chetda koldirmaslik kerak. Bu bolalarni

biror-bir ijtimoiy axamiyatga ega faoliyat soxasida o`zlarini sinab ko`rishga xoxishi yo`kligi birlashtiradi. Bu xolatdagi ogishni engib o`tish uchun mutaxassisning ijtimoiy pedagogik yordami juda xam zarurdir.

Bu bolalarga yordam ko`rsatish uchun ixtisoslashgan ijtimoiy xizmatlar tuzilmokda. Ijtimoiy xavfli xatti-xarakat sodir etgan va 11 yoshga to`lgan bolalarni sud tibbiy-pedagogik komissiyasi xulosasini inobatga olgan xolda maxsus maktablar yoki maxsus kasbiy bilim yurtlariga yuborilishlari mumkin.

M. A. Galaguzova tomonidan turli ogish turlarining tasnifi quyidagicha berilgan:

Jismoniy	Ruxiy	Pedagogik	ijtimoiy
-kasallik, -ko`rish kobiliyatining buzilishi, -eshitish kobiliyatining buzilishi.	-ruxiy rivojlanish- ning to`xtab kolishi, -akliy koloklik, -nutk buzilishi, -iktidorlilik.	-umumiyo`rta ta`lim olishdan chetga chikish, -kasbiy ta`lim olishdan chetga chikish.	-etimlik, -xulk-atvor normasidan ogish: arokxo`rlik; norkamaniya; taksikomaniya; foxishabozlik; daydilik va b.

**Me`yor tushunchasi** tibbiyot, psixologiya, pedagogika va sotsiologiya fanlarida keng qo`llaniladi. Unga aniq bir ta`rif berish qiyin. Masalan, bitta tibbiyotning o`zidagina me`yor tushunchasiga 200 dan ortiq ta`rif berilgan. Umumiyl holda me`yor-bu ob`ektiv voqelikni belgilovchi ideal bilim, real voqelikni tavsiflovchi o`rtacha statistik ko`rsatkichdir.

Tibbietda, psixologiyada, sotsiologiyada me`yorlarning o`z tasnifi, parametrlari, ko`rsatkichlari mavjud. Belgilangan, jamiyat tomonidan qabul qilingan va tan olingan me`yorlarga mos kelmaslik jarayoni 2-chi bir tushuncha - chekinish yoki og`ish bilan belgilanadi.

Ijtimoiy pedagogikada «me`yor» hamda «me`yorlardan chekinish» masalalari muxim ahamiyat kasb etadi. Ular bolalarning ijtimoiy xulqi va rivojlanish jarayonini tavsiflashda katta yordam beradi.

CHekinishlar asosan, negativ va pozitiv xarakterga ega. Negativ chekinishlarga aqli zaiflik, shuningdek, narkomaniya, alkogolizm, jinoyatchilik singari insonning ijtimoiylashuviga, umuman jamiyatga salbiy ta`sir ko`rsatadigan xarakatlar kiradi.

### CHekinishning (og`ishning) turlari.

Me`yorlardan chekinishning to`rtta turi mavjud. Bular:

**JISMONIY CHEKINISH-** birinchi navbatda insonning sog`ligi bilan bog`liq bo`lib, tibbiy ko`rsatkichlar bilan belgilanadi. Bularga insonning bo`yi, vazni kabilar kirishi mumkin. Bundan tashqari biron bir faoliyat yuritishda imkoniyatlari cheklangan, ya`ni sog`ligi tufayli o`z qobiliyatini yo`kotgan, defekti bor insonlar hamda nogironlar shular jumlasidandir. Sog`ligi va rivojlanishi jihatidan chekinishlarga duch kelgan insonlar turli klassifikatsiyalarga ajratiladi. SHunday imkoniyatlari cheklangan insonlar guruxiga quyidagilar kiradi:

**1.KASALLAR VA BETOBLAR.** Bular faoliyat yuritishda kiyinchiliklarni vujudga keltiruvchi anatomik elementlar, psixik yoki fiziologik anomaliyalar yoki yo`qotishlarga duch kelgan insonlardir.

**2.İMKONIYATLARI CHEKLANGAN INSONLAR.** Bular qabul qilingan me`yorlardan chyokingan yoki o`z qobiliyatlarini yo`kotgan insonlardir.

**3. ISHGA LAYOQATSIZ, NOGIRON INSONLAR.** Bu yoshi, jinsi va turli ijtimoiy faktorlardan kelib chiqqan holda insonning jamiyatdagi ijtimoiy rolini bajarishdagi imkoniyatlarining cheklanishidir.

Bunda «kamchilik» tushunchasi qo`llaniladi. Insonlarda jismoniy, psixik, murakkab hamda og`ir kamchiliklar bo`lishi mumkin.

Jismoniy kamchilikka insonning rivojlanishidagi bir umrlik yoki davriy kamchiliklar kiradi. YA`ni xronologik, somatik yoki davriy kamchiliklar shular jumlasidandir.

Psixik kasallik insonning psixik rivojlanishidagi bir umrlik yoki davriy kamchiliklar bo`lib, u ta`lim olishda ma`lum qiyinchiliklarni vujudga keltirishi mumkin. Unga nutqning buzilishi, miyaning zararlanishi kabilar kiradi.

Murakkab kamchilik ham jismoniy va psixik kamchiliklarni o`z ichiga oladi.

**1. OG`IR KAMCHILIK** – bu Davlat Ta`lim Standartlari asosida ta`lim olishga layoqatsiz jismoniy va psixik kamchiliklarning yuqori darajasidir.

**2. PSIXIK CHEKINISH** 1-chi navbatda bolaning aqliy rivojlanganlik darjasini hamda ularning psixik kamchiliklari bilan bog`liq. Bu gurux insonlarga: a). psixik rivojlanishda turli xil to`siflar mavjud insonlar. b). Aqli zaiflar. v). Oligofreniklar kiradi.

**3. PEDAGOGIK CHEKINISH** – bu pedagogika va ijtimoiy pedagogika fanida kam qo`llanib kelingan tushunchadir. Pedagogik chekinish deganimizda ob`ektiv va sub`ektiv sabablarga ko`ra ta`lim-tarbiya ola olmagan o`quvchilar tushuniladi. Bunga DTS talablari darajasida bilim ola olmagan yoki o`z istiqboli, kelajagi uchun harakat qilmagan o`quvchilar, ularning individual rivojlanish me`yorlari kiradi. Pedagogik chekinishga birinchi navbatda o`quvchilarning umumiyligi ta`limga ega bula olmasligi kiradi. Bunday bolalar kategoriyasiga ma`lum sabablarga ko`ra o`qishga bormagan, faqat boshlang`ich ta`lim olish bilan cheklangan bolalar kiradi. Bunday xislatlarni ko`plab (ob`ektiv va sub`ektiv) sabablari mavjud. Masalan, o`quvchilar yoki talabalarning darslardan qochishi, materialni o`zlashtira olmaslik, o`qishdan bezishi, dangasalik, oiladagi nosog`lam muhit, bolalarning pul topish ilinjiga tushib ketishi, ekologik yoki ijtimoiy kataklizmalar natijasida bolalarning ota-onalaridan ayrilishi va boshqalar. Bunday sabablarni ko`plab keltirish mumkin. Ko`pchilik holatda pedagogik chekinish bolalarning qanday sharoitda yashashiga bog`liq: o`qish bilan qiziqadigan oiladanmi yoki aksincha, o`qishni ikkinchi darajada deb xisoblaydigan oiladanmi va hokazo.

**4. İJTIMOY CHEKINISH.** Ijtimoiy chekinish tushunchasi ijtimoiy me`yor tushunchasi bilan bog`liq. Ijtimoiy me`yor – bu jamiyat rivojining ma`lum boskichida insonlar yoki ijtimoiy guruxlar faoliyati va xulk-atvoridagi yo`l qo`yilgan yoki mumkin bo`lgan qoidalar, hatti-xarakatlar andozasidir. Ijtimoiy chekinish yoki og`ishlarning oldini olish va tartibga solib borish uchun qadimda turli afsonalar, an'analar va diniy marosimlar yaratilgan.

Ijtimoiy me'yor ikkita guruxga ajratiladi:

1. Universal, ya'ni jamiyatdagi barcha insonlarga xos.
2. Xususiy, ya'ni jamiyatdagi ma'lum gurux yoki ma'lum kasb egalariga xos me'yorlardir.

Ijtimoiy me'yorlarni, shuningdek, huquqiy, ma'naviy, siyosiy, diniy va xokazo deb ham guruxlarga ajratish mumkin.

Ijtimoiy me'yorlar va insonlarning ulardan ogishi yoki chekinishi ular yashab turgan jamiyatning ajralmas faktori bulib xisoblanadi. Bolalar orasidagi ijtimoiy ogish esa uning usha jamiyatda salbiy sifatlar ta'sirida tarbiyalanishi, salbiy ijtimoiy guruxga kirishi, ijtimoiy rolni egallab, ijtimoiy tajribalarni o'rganishi sifatida xarakterlanadi. Pedagogikada buni «Tarbiyasi og`ir bolalar» deb yuritishadi. YA'ni, bu bolalarning hatti-xarakatlari, hulq-atvorlari jamiyat tan olgan me'yorlarga ziddir. Ijtimoiy pedagogning ish faoliyati esa shunday og`ishlarni profilaktika hamda reabilitatsiya qilishga qaratilgandir.

### **CHekinish (og`ish) nazariyasi.**

Odob-axlok me'yorlari va ulardan chekinish yoki ogish xillari borasidagi to`plangan bilimlar ularning sabablarini belgilovchi faktorlar mavjud ekanligidan dalolat beradi. Bu faktorlarni uchta guruxga ajratish mumkin: **1. BIOGEN. 2. SOTSIOGEN. 3. PSIXOGEN.**

Insonlarning hayotdagisi xar qanday «og`ish» hollari ularning potentsial imkoniyatlarining cheklanishiga, tashqi muhit bilan muloqotga kirishishiga o`zining salbiy ta'sirini ko`rsatadi. Insonda ro`y beradigan bunday holatlarni sotsiologiya, psixologiya, ijtimoiy pedagogika, tibbiyot kabi ko`plab fanlar sohalari o`zlarining spetsifik xususiyatlaridan kelib chiqib o`rganadi, bu borada o`z nazariyalarini boyitib boradi. Masalan, tibbiyot fani me'yorlardan chekinish holatini bolalarning patologik sog`ligini buzilishi bilan bog`liq deb hisoblaydi. XIX-XX asrlarda chet mamlakatlarda imkoniyatlari cheklangan insonlarning TIBBIY MODELI hukmronlik qildi. Bu model imkoniyatlari cheklangan odamlarning xech bo`lmaganda elementar ijtimoiy faoliyat yuritishlarini nazarda tutdi. Bunday insonlar ma'lum tayyorgarlikdan o`tib, o`zlarini uchun o`zlarini harakat qilsalar bu ularning kimgadir ortiqcha yuk bo`lmasligini ta'minlar edi.

Keyinchalik, chekinish (og`ish) holatiga tushgan insonlarga nogiron (lotincha- invalidus- kuchsiz, ojiz)sifatida karash vujudga keldi. Bu nazariyaga ko`ra imkoniyatlari cheklangan odamlar mutloq sog`lom insonlar nazorati ostida bo`lishi kerak. Bunday odamlarga yordam berish xam tashkil etildi va bu tibbiyot modeli davlatning ijtimoiy siyosatiga o`z ta'sirini o`tkazdi.

XX asrning 60-yillariga kelib imkoniyatlari cheklangan insonlarga yordam berishning tibbiy modelining o`rniga **IJTIMOY MODEL** vujudga keldi va uning rivojlanishida psixologiyaga suyanildi. Bu modelga ko`ra imkoniyatlari cheklangan insonlar assotsiatsiyalarga birlashib, o`z haq-huquqlarini talab etishdi va bu talab o`z sog`liqlarini tiklashdan ko`ra jamiyat a'zolari bilan o`zaro munosabatni yaxshilashga nisbatan bo`ldi.

«Reabilitatsiya» (tuzatish) tushunchasi tibbiy- ijtimoiy ma'noda ham, psixologo -pedagogik va ijtimoiy – pedagogik aspektlarda ham ishlataladi. Tibbiy – ijtimoiy tuzatish – bu kasallanish va jaroxatlanish natijasida yuzaga kelgan hamda

boshqa jismoniy va ruxiy jihatdan kamchiliklarga ega bo`lgan shaxslarni kompleks tarzda, ya`ni, tibbiy, pedagogik, psixologik va professional tadbirlarni qo`llash oqibatida sog`ligini tiklash demakdir.

Psixologo –pedagogik va ijtimoiy –pedagogik reabilitatsiya qilish esa yosh bolalar va o`smirlar dezadaptatsiyalashuvining turli shakllarini tuzatish bo`yicha ijtimoiy qo`llab – quvvatlash hamda diagnostikalash – to`g`rilash dasturlari yuzasidan bir qator tadbirni amalga oshirib, bolani ijtimoiy hayotga qaytarish, ijtimoiylashtirish vazifalarini bajaruvchi institutlar harakatlarini o`zaro birlashtirishdir. (oila, maktab, muloqat, o`rtoqlar, tengdoshlar va hak).

Hozirgi vaqtida psixologo – pedagogik va ijtimoiy – pedagogik reabilitatsiyalashning shakl va metodlari turli – tuman bo`lib, u yosh bolalar va o`smirlar dezadaptatsiyalashganining xarakteriga bog`liq bo`ladi. Uning xarakteri va tabiatiga bog`liq tarzda yosh bolalar va o`smirlar dezadaptatsiyalashuvining uchta asosiy xili ajratib ko`rsatiladi. Ular: patogen (kasallik qo`zgatuvchi), psixoiijtimoiy va ijtimoiyidir. Ular ham o`z navbatida turli darajada namoyon bo`ladi.

Patogen dezadaptatsiya nerv tizimini funksional – organik shikastlanishi natijasida yuzaga keladigan ruxiy kasallikdir. Ba`zi hollarda patogen dezadaptatsiya turli darajadagi ruxiy –psixik kasalliklarda namoyon bo`lsa, boshqa xollarda turli darajada ifodalanadigan oligofrenoda – aqliy jihatdan orqada qolish ko`rinishida bo`ladi.

Asabiy ruxiy kasallikning og`ir shakllari bilan xastalangan bolalar statsionar tarzda, psixologo – pedagogik reabilitatsiyalash dasturlarini ham ko`shgan xolda davolanmoqlari lozim. Unchalik og`ir bo`lmagan kasalliklarga chalingan bolalar o`quv –tarbiya muassasalari (bolalar boqchasi, maktab, bolalar uylari va boshq.) sharoitida tibbiy –pedagogik sog`lamlashtirish xarakteridagi tadbirlarni qo`llagan holda davolanadilar.

Keyingi yillarda davolash pedagogikasini rivojlantirish masalasi o`rtaga qo`yilmoqda. Bunga tuzatish (to`g`irlash) didaktik dasturlari bilan bir qatorda davolash pedagogikasi hamda psixologik tuzatish (korreksiya qilish)ning o`yin terapiya, ertak terapiya, tuzatish – rivojlantirish fizkulturasi, barmoqchalar terapiyasi va boshq. kabi samarali shakllaridan keng foydalanilmoqda.

Kasallik qo`zg`atuvchi, patogen dezadaptatsiyalanish shakllari orasida oligofreno muammolari, ya`ni, aqliy jihatdan orqada qolgan bolalarni ijtimoiy adaptatsiyalash, normal xolatga keltirish masalasi alohida ajratib ko`rsatilmoqda. Maxsus o`tkazilgan tadqiqot natijalari shuni ko`rsatmoqdaki, oligofren bolalarda azaliy, tug`ma, jinoyat qilishga moyillik hissi yo`q ekan. Ularning psixik rivojlanishiga loyiq bo`lgan metodlar yordamida o`qitilib, tarbiyalansa, bu bolalar ma`lum bir ijtimoiy dasturlarni o`zlashtira oladilar va uncha murakkab bo`lmagan kasb egasi bo`lib, jamiyatga foydali fuqoraga aylanishlari mumkin.

Ammo, bu bolalarning aqliy jihatdan orqada qolishi ularni ijtimoiy adaptatsiyalashuvini qiyinlashtiradi va bu xol mutaxassislar tomonidan maxsus tuzatish, normal xolatga keltirish dasturlarini qo`llashni, buni uchun maxsus ijtimoiy – pedagogik sharoitlarni yaratishni talab etadi.

Aqliy jihatdan kusuri bo`lgan bolalarni ijtimoiy adaptatsiyalash dasturini amalga oshirishga yordam beruvchi maxsus ijtimoiy – pedagogik sharoitlarga quyidagilarni kiritish mumkin:

- kasallikni o`z vaqtida aniqlash va bolaning imkoniyatlariga mos keladigan tuzatish–rivojlantirish bo`yicha ta’lim va tarbiya dasturlarini tanlash;
- bolaning kuchi etadigan mehnat faoliyatiga jalb etish, mehnat ko`nikmalarini yaratish va ularni avtomatik tarzda (g`ayri ixtiyoriy ravishda) bajarilishiga erishish, bironqa kasbga yo`naltirish;
- oligofren bolalarni o`quv va mehnat jarayonida hamda jamoa faoliyatida, ularning shaxsiy va jamoa hayotini tashkil etish borasida va maxsus mashg`ulotlar o`tkazish va metodlarni qo`llash yo`li bilan ularni ijtimoiy –maishiy jihatdan adaptatsiyalash (ko`niktirish, moslashtirish).

Oligofren bolalarni o`qitish va ijtimoiy jihatdan moslashtirish ayniqsa maxsus yordamchi maktablarda amalga oshirilsagina yaxshi samara beradi. O`zbekistonda xozircha bunday maktablar soni oz va kelgusida bunday maxsus ta’lim – tarbiya muassasalarining sonini oshirish hamda ularni maxsus tayyorlangan kadrlar bilan ta’minlash xususida ish olib borilmoqda. SHuningdek, biz ilg`or mamlakatlarning asabiy ruxiy xarakterdagi muammolarga ega bo`lgan kishilar, shu jumladan, oligofrenoga va ruxiy kasalliklar hamda patologik hastalikka chalingan odamlar uchun maxsus uylar (honse – communication) qurish tajribasini ham o`rganishimiz lozim. Bunday ochiq tipdagi uy – internatlarda ijtimoiy xodim (mutaxassis) qarovida ruxiy asabiy xarakterdagi muammolari bo`lgan kishilar turishadi. Bunday uylarda ularning ijtimoiy adaptatsiyalanishlari uchun zarur shart – sharoitlar yaratiladi.

Psixojitmoiy dezadaptatsiya bolaning yoshi – jinsiy va shaxsiy – ruxiy o`ziga xos xususiyatlariga bog`liq tarzda yuzaga keladi. Bunday bolalar odatdagি normal bolalardan farq qilib, ularni tarbiyalash jarayoni og`ir kechadi va ularning har biriga individual yondashish talab etiladi. Ayrim xollarda esa ularni tarbiyalash uchun maxsus ruxiy – ijtimoiy va ruxiy – pedagogik tuzatish dasturlaridan foydalanmoq kerak bo`ladi. Aslini olganda, gap yosh bolalar va o`smirlarni ijtimoiy moslashishini qiyinlashtiruvchi ba`zibir shaxsiy psixologik o`ziga xos xususiyatlar haqida boradi. Bularga: boladagi turli xil xarakter belgilari, o`z – o`ziga baho berishda boshqalarga o`xshamaslik ko`rinishlari, emotsional –irodaviy va muloqat –munosabat sohasidagi buzilishlar, xulq – atvor va xatti – harakatlarning ongsiz ravishda boshqarilishi, ong ostiga surib chikarilgan uyg`un birlidagi salbiy odatlar, xavfsirash, yotsirash, tajavvuzkorlik va boshqalar kiradi. Bunday o`smirlarda qadriyat normalari (o`z qadr – qimmatini bilish) soxasida sezilarli o`zgarish odatda ko`zga tashlanmaydi va ularning xulq – atvor muammolari psixologik xarakterga ega bo`ladi. Mana shunday xollarda individual pedagogik yondashuv bilan bir qatorda ularga oilada va muktabda yaxshi samara beruvchi psixokorrektzion texnikani hamda psixo – ijtimoiy texnologiyalarni qo`llash lozim.

Ijtimoiy dezadaptatsiya –axloq va huquq normalarini buzilishida, ijtimoiy xulq – atvorning salbiy ko`rinishlari va ichki boshqaruv tizimining izdan chiqishida, ijtimoiy ko`rsatma, dasturlarning, qadriyatlarning noto`g`ri yo`naltirilganligida namayon

bo`ladi. Ijtimoiylashuv jarayonining emirilishi qanchalik darajada ekanligi va chuqurlashganligiga bog`liq ravishda ijtimoiy dezaptatsiyalashishning ikkita bosqichini ajratib ko`rsatish mumkin.

Maktab ijtimoiy dezadaptatsiyasi bosqichi pedagogik jihatdan qarovsiz qolgan o`quvchilardan iborat bo`lib, ular maktab dasturidagi bir qator fanlarni doimo o`zlashtira olmaydilar, pedagogik ta`sirlarga qattiq qarshilik ko`rsatadilar, o`qituvchilarga nisbatan dag`al munosabatda bo`ladilar va turlicha noma`qul ko`rinishdagi qiliqlarni (yomon so`zlar bilan so`kinish, chekish, be`zorilik qilish, darslarni muntazam qoldirish kabi) qiladilar.

SHuning bilan birga pedagogik jihatdan qarovsiz qolgan o`quvchilarning aksariyat qismi bironta kasbga ega bo`lishga, iqtisodiy tomondan mustaqil bo`lishga intilib, ishlashga va mehnat qilishga xohishlari bo`ladi. Ularning qadriyatli – normativ sohadagi buzilishlari hozircha unchalik katta bo`lmaydi. SHu sababli ularni o`quv–tarbiya muassasalari, umumo`rta ta`lim maktablari va kasb – hunar o`quv yurtlari doirasida xulq – atvorlarini tuzatsa bo`ladi. Buning uchun ularning har biriga yakka tarzda yondashish, psixologik va ijtimoiy yordam ko`rsatish, maktabdan va sinfdan tashqaridagi qiziqish doiralarini kengaytirish, kasbiy rejalarini va kelajak istikbollarini aniqrok shakllantirmoq zarur bo`ladi. Bunda ularga o`smirlar uchun ijtimoiy muassasalar, yoshlar uchun mehnat birjalari, har xil klublar hamda ekstremal ijtimoiy–psixologik yordam ko`rsatish markazlari katta yordam berishlari mumkin.

Ijtimoiy jihatdan qarovsiz qolgan o`smirlarning o`z oilasidan va maktabdan begonalashishi ancha chuqur xarakter kasb etadi. Ularning shakllanishi asosan antijtimoiy va kriminal guruhlar ta`siri ostida kechadi. Ular uchun salbiy ijtimoiy xarakterlar, qonunga qarshi bo`lgan faoliyatlar (daydilik, narkomaniya, mastlik – mayxo`rlik, tajavvuzkorlik, tovlamagarchilik, yulg`ichlik) xarakterlidir. Odatda ular kasbiy yo`nalmagan, mehnat qilishga mutloqo hohishlari bo`lmay, parazitik xayot kechirishga moyillik juda kuchli bo`ladi. Bunday o`smirlar bilan o`quv – tarbiya muassasalari sharoitida ish olib borish, ularni tuzatish qiyin. SHu sababli ularni voyaga etmagan o`smirlar bilan ish olib boruvchi militsiya bo`limida hisobga qo`yish va mahsus, yopiq tipdagisi o`quv – tarbiya muassalariga o`tkazish lozim.

Dezadaptatsiyalashuvning xarakteriga qarab shaxsni tuzatish, reabilitatsiya qilishda odam psixikasidagi salbiy tomonlarni aniqlovchi, psixologo –pedagogik jihatdan tuzatuvchi dasturlar yoki ijtimoiy –pedagogik jihatdan shaxsni ijtimoiylashtirish dasturlari ko`proq qo`llaniladi.

Reabilitatsiyalish jarayonining qiyin kechishi ham mumkin. Bunda bir bola – o`smirning o`zida dezadaptatsiyalishning turli shakllari, ya`ni, patogen, ruxiy – ijtimoiy va ijtimoiy xillari qo`shilib ketgan bo`ladi. Demak, diagnostika –korreksiya qilish dasturlari ham shunga yarasha yuqorida sanab o`tilgan dezadaptatsiyalish shakllarini tuzatishga qarata yo`naltirilmog`i lozim.

Yosh bolalar va o`smirlarni ijtimoiy reabilitatsiyalash muassasalari xozirgi davrda Ta`lim vazirligida, mehnat va ijtimoiy rivojlanish vazirligi, sog`liqni saqlash vazirligi va boshqa turdagisi ko`mitalarda, jamiyatlarda tuzilmoqda.

Yosh bolalar va o`smirlar dezadaptatsiyalishining eng murakkab va chuqur shakllarini ijtimoiy jihatdan reabilitatsiyalash (sog`lamlashtirish) muassasalarida

kuzatiladi. Bunday muassasalarga bolalar uylari (etimxonalar) kiradi. Bolalar uylarida «ko`cha bolalari», daydi bolalar, ijtimoiy etim bolalar, ota yoki onalik huquqidan mahrum etilgan kishilarning bolalari tarbiyalanadi.

Bolalar bilan olib boriladigan ijtimoiy reabilitatsiya ishi qoida bo`yicha ijtimoiy –maishiy va tibbiy –ijtimoiy reabilitatsiyalashdan boshlanadi. Bunda bolalarni vannadan qanday foydalanish kerakligiga, issik ovqat eyishga, choyshabli yostiqda qanday uqlash lozimligiga va boshqa ishlarga o`rgatishadi. SHuningdek, ruxiy – emotsiyonal reabilitatsiyalash ishlariga ham katta ahamiyat beriladi. 1 – chi navbatda shinam uyda bekami ko`sht yashash sharoitlari yaratib beriladi, xizmatchilar va tarbiyachilarning xayrihoxligi hamda maxsus ruxiy muolaja usullari, ya`ni, eng avvalo, o`yin terapiyasi, ertak terapiya, ruxiy terapiya qilish teatridir. Kattaroq yoshdagagi bolalar va o`smirlar turli shakldagi mehnatga, masalan, o`yinchoqlar, yodgorlik buyumlari va boshqa narsalarni tayyorlaydigan tikuv va duradgorlik kabi ustaxonalarda ishlashga tortiladi. Bolalar uylarida tarbiyalanayotgan bolalarga nisbatan qo`llanilayotgan reabilitatsion tadbirlar qatorida bolaning oilasi bilan olib boriladigan ijtimoiy –pedagogik ishlarga katta o`rin beriladi. Agarda bolaning oilasi bo`lmasa yoki uning oilasidagi sharoit mutlaqo yaroqsiz bo`lsa, bolani qabul qilib (saqlab oladigan) olishga rozi bo`ladigan oila tanlanadi. Agar bola o`sha oilada yashashga moslashib, o`rganib ketsa, oila va bolaning roziligi bilan vasiylik qilish to`g`risidagi xujjat yoki o`g`il qilib olish xujjati rasmiylashtiriladi.

Bolalarning ijtimoiy –reabilitatsiyalash muassasalarida bo`lish vaqtini uni bo`lg`usi doimiy yashash joyiga o`rnashtirishgacha ketadigan vaqt bilan chegaralangan. Bola yoki o`z oilasiga (agar yashash sharoiti yaxshilansa) qaytariladi yoki uni o`g`il qilib olgan oilaga, yo bo`lmasa, davlat tarbiya muassasalari – bolalar uylariga va maktab – internatlarga beriladi.

Boshlang`ich mактаб o`quvchilari uchun reabilitatsiya qilish tadbirlari ichida birinchi o`ringa psixologo –pedagogik diagnostika va tuzatish dasturlari chiqadi. Bunda, boladagi bilish, idrok etish soxasidagi illatlar aniqlanadi. Bu illatlar tuzatish – rivojlantirish orqali ta`lim – tarbiya berish jarayonida yo`qotila boriladi va bu tibbiy – ijtimoiy reabilitatsiyalash va harakatlantiruvchi korrektsiya qilish ishlari bilan qo`shib olib boriladi.

O`smirlilik yoshidagi dezadaptatsiyalangan o`quvchilar uchun kasbiy yo`naltirilganlik, ishchi kasblarga ularni tayyorlash, shaxsni ruxiy jihatdan tuzatish va shaxslararo munosabatlarni ijtimoiy – psixologik korrektsiya qilish 1 – chi o`rinda turadi. Bunday o`smirlarning oilalariga ijtimoiy –pedagogik va psixologik jihatdan yordam berish ham katta ahamiyatga ega. Ko`p bolalik oilalarni tadqiq etish shuni ko`rsatmoqdaki, ularga moddiy yordam ko`rsatish bilan bir qatorda bunday oilalarni psixologo–pedagogik jihatdan qo`llab–quvvatlash ham katta rol o`ynaydi. Dezadaptatsiyalashgan yosh bolalar va o`smirlarni reabilitatsiya qilish markazlarining faoliyati, uning mazmuni va printsiplari quyidagicha bo`lishi mumkin:

Diagnostikaga (kasallikni aniklash usuliga) kompleks yondashish va bolalarni o`qitish va tarbiyalashda ularning potentsial imkoniyatlarini to`la ishga solish;

Ta`lim va tarbiya berishda muammolarga ega bo`lgan bolalarga yakka holda va shuning bilan birga differentsial ravishda yondashish;

Ushbu toifaga kiruvchi bolalarni o'qitish va tarbiyalash ishlarini tashkil etishda turli xildagi usullardan, o'qitishni tashkil etish shakllaridan foydalanish;

Psixofiziologik funktsiyalari buzilgan bolalarni dastlabki kunlardayoq tibbiy psixologo-pedagogik tashxizdan o'tkazib, ta'lif olishlariga to'sqinlik qiladigan asosiy ijtimoiy dezadaptatsiyalashuv sabablarini aniqlash.

O'qitish va tarbiyalashning korrektsion yo'naltirilganligi.

O'qitish va tarbiyalash tizimining bolalarni sog'ligini asrash va rivojlantirishga qarata yo'naltirilganligi.

YOsh bolalar va o'smirlar huquqlariga rioya etib, alohida diqqat-e'tiborga muhtoj bo'lgan bolalarga ijtimoiy patronaj (tibbiy-profilaktik yordam) xizmatini yo`lga qo'yish.

## **Ma'ruza- 7**

### **Mavzu: Markaziy Osiyo xalqlarining ijtimoiy-pedagogik an'analari**

- 1.Milliy xarakterning shakllanishi-ijtimoiy-pedagogik jarayon sifatida
- 2.Milliy istiqlol g'oyasi va ijtimoiy pedagogika
- 3.Oila va mahalla-bolaning norasmiy muloqot muxiti
- 4.Ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar jamiyatda fuqoralarning ongini yuksaltirish va ijtimoiylashtirishning asosi sifatida

### **Tayanch tushunchalar**

Fuqarolik jamiyati, «Avesto», SHarq mutafakkirlari, Gerodot, «Vandidod», «Xot», Ilohiy Nizom, Forobiy, Beruniy, Konfutsiy, ijtimoiy nizolar, hirs-xavas, tug`ma qusurlar, ijtimoiy mavjudot.

### **Nazorat uchun savollar**

- 1.Markaziy Osiyo halqlarida tartibga, xaqiqatga signish qachondan beri shakllanib kelgan?
- 2.Inson faoliyatining barcha yo'naliishlari ezgulik ruxi bilan sug'orilgan bo'lishi kerak,- degan goya qaysi muqaddas kitobda bayon etilgan?
3. Markaziy Osiyo halqlarida milliq xarakter, milliy mentalitet ijtimoiy ptdagogik jarayonda qanday o'z aksini topgan?
- 4.Sharq mutazakkirlarinihg ijtimoiy pedagogik qarashlarini izoxlab berihg?
- 5.O'zbek oilalarida bolalarga qanday ijtimoiy-pedagogik tarbiya beriladi?
- 6.Mahallanihg yoshlarni norasmiy muloqoti va ijtimoiylashuvidagi o'rmini izoxlab berihg?

### **Foydalilanigan adabiyotlar:**

1. Karimov I. A. Adolatli jamiyat sari. T. , O'zbekiston. 1998. 160 b.
2. Karimov I. A. O'zbekiston buyuk kelajak sari. T. O'zbekiston. 1999y. 384 b.
3. Xomidiy X. X. , Duschanov B. «Avesto» va tibbiet. Abu Ali Ibn Sino nomidagi tibbiet nashrieti. 2001y. 44 b.
4. Quronov M. Biz ko`zlagan manzillar: yoki fuqarolik jamiyati haqida o`ylar. «Halq so`zi». 2002y. 64 b.
5. Bekmuradov M. Fuqarolik jamiyati va o'zbek mentaliteti. «Xurriyat». 2002y. 9. x. 3 b.
- 6.Xoshimov K. va boshq. Pedagogika tarixi. T. O'qituvchi. 1996 y.

Fuqarolik jamiyatini shakllantirishda rostgo`ylik, haqiqat, demokratiya, o`z huquqini bilish va talab etish doimo muhim ijtimoiy masalalardan biri bo`lib kelgan. SHu ma`noda «Avesto»dek nodir yodgorlik ayniqsa ijtimoiy-pedagogik masalalarni tarixiy nuqtai nazardan eritganligi bilan alohida axamiyat kasb etadi.

Grek tarixchisi Gerodotning ta`kidlashicha Markaziy Osiyoda haqiqatga, tartibga siginish zardushtiylik dini shakllangunga qadar ham mavjud bo`lgan. Haqiqatga sajda qilish - do`stga bo`yin egish buyuk qonun hisoblangan. «Avesto»da jamiyat bir butun ijtimoiy tuzum sifatida tasvirlanadi. Bunda davlat muassasalari bilan birga jamoat tashkilotlari bahamjihat faoliyat ko`rsatishlari kerakligi ta`kidlanadi. Ijtimoiy hayotda jamiyatni boshqarish masalasi aloxida ahamiyat kasb etadi. Jamiyatni boshqarish uchun **Ilohiy Nizom** va **Oliy Nizom** zarurligi aytilib, davlat mahkamalari va jamiyat tashkilotlaridagi barcha yo`nalishlar shu Nizomlar doirasida faoliyat ko`rsatishlari kerak bo`ladi. Ilohiy Nizom talablari «Avesto»ning **«Vandidod»** va **«Xot»** qismlarida bayon etilgan. Ilohiy Nizomga ko`ra inson faoliyatining barcha yo`nalishlari ezgulik ruxi bilan sug`orilgan bo`lishi kerak.

Podshoh va vazirlar muxim davlat ahamiyatiga molik ishlar bilan band bo`lganlar. Maxalliy o`z-o`zini boshkarish mahkamalari samarali ishlashi uchun unga yordam bergenlar, ammo ularning ichki ishlariga bekordan bekorga aralashmaganlar. Bu hol maxalliy mahkamalar va «erkaklar uylari» kabi (xozirgi choyxonalar) jamoat muassasalari mas`uliyatini oshirishga imkon tug`dirgan. Xar bir odamning fe'l – atvori, hatti-xarakati, butun faoliyati jamoatchilik nazorati ostida bo`lib, ularning ijobiy va salbiy jihatlarini belgilashning aniq mezonlari bo`lgan.

Atrof muhit tozaligi va jamoat joylari pokizaligini maxsus kishilar nazorat qilib borganlar. Kimda kim ozodalik va tozalikka rioya qilmasa ularni tartibga chaqirishgan, nojuya ishlari uchun javobgarlikka tortishgan. Daraxtning bir shoxini sindirgan ham, noplak ko`zani xovuzga solgan ham 25 qamchi kaltak bilan jazolangan.

Er-xotinning bir-biri bilan kelisha olmasligi, qaynona- kelin o`rtasida janjal, bir-biriga yoqmaslik, fitna, bo`xton, chaqimchilik tufayli oilalarning buzilib ketishiga mahalla - ko`y va jamoatchilik sira yo`l qo`ymagan. Zinokorlik qattiq jazolangan. Xar bir sog`lom inson diniy talab va Nizomni bekamu-kust bajarish bilan birga ijtimoiy foydali mexnat bilan shugullanishi shart bo`lgan.

«Avesto»da ana shu kabi ko`plagan ijtimoiy pedagogik muammolar o`z ifodasini topgan.

Jamiyat manfaati yo`lida o`zidagi barcha bilim, qobiliyat va iste'dodini o`z Vatani uchun baxshida etishga tayyor turadigan etuk insonlar, uddaburon yoshlari, fidoiylar bulmasa, O`zbekistonni dunyodagi ilg`or davlatlar safiga qo`shish qiyin bo`ladi. YOshlarni tarbiyalashda birinchi navbatda SHarq va G`arb mutafakkirlarining ma`naviy va madaniy meroslari katta ahamiyat kasb etadi.

Forobiy, Beruniy, A. YAssaviy, B. Nakshband, Ismoil al-Buxoriy, Ibn Sino, Al-Xorazmiy, Zamaxshariy, N. Kubro, Navoiy, Ulug`bek, Bobur kabi alloma va mutafakkirlarimizning, shuningdek, G`arb olimlarining xam ijtimoiy-siyosiy va falsafiy ta`limotlariga tayanib ish ko`rilsa tarbiya ta`sirchanligi yanada samaraliroq

bo`ladi. Ular ijtimoiy hayotimizning barcha soxalariga doir o`z fikrlarini bayon etib o`tganlar. Ijtimoiy hayot, atrof-muxitning insonlarga, ularning ma`naviy dunyosiga katta ta`siri borligini atroflicha yoritib bergenlar.

Masalan, Konfutsiy va uning izdoshlari shaxsnинг paydo bo`lishi, uning jamiyatdagi o`rni va mohiyati kabi muammolarni o`rganishgan. Jumladan, Syan-TSzi tug`ma xususiyatlar – bu samoviy munosabatlar hosili bo`lib, ularga ta`lim berish bilan erishib bo`lmasligini ta`kidlaydi. Inson tug`ilishidan boshlab xar bir narsadan foyda olishga intiladi. Bu esa kishilarning o`zaro raqobatlashishlariga olib keladi. SHuning uchun xam tarbiya yo`li bilan inson tabiatini o`zgartirish, yaratilgan qoidalar asosida ularni adolatlilik va mas`uliyatlilik kabi qator fazilatlarga o`rgatish lozim. Xam SHarq ham G`arb mamlakatlari allomalarining faoliyatida shu kabi ijtimoiy pedagogika muammolariga doir juda ko`plab g`oyalarni uchratish mumkin. Buni biz Abu Nasr Forobiyning qarashlari misolida ham ko`rishimiz mumkin.

Forobiy (873-930 yy.) yunon olimlari falsafasining targ`ibotchisi, faylasuf, qomusiy olim, falsafada Aristoteldan keyingi «Ikkinchi muallim», o`z davrida ijtimoiy-siyosiy masalalar bo`yicha birinchi bo`lib yirik asarlar yaratgan buyuk allomadir. Olim ijtimoiy hayotning turli masalalariga oid o`z asarlarida insonlarning birgalikda yashashlarining sabablarini, ahil va xamjihatlikda yashashda ta`lim va tarbiyaning rolini tushuntirib berar ekan, quyidagi muammolarga xam oydinlik kiritadi, ya`ni:

Davlat tuzilishi va uni boshqarish.

Ijtimoiy nizolarning oldini olish.

Kamolotga erishgan ijtimoiy jamoani yaratish, ya`ni etuk jamoaga erishish.  
Hirs-xavaslardan tozalanish.

Ijtimoiy – pedagogik ish O`zbekistonda davlat va jamoat tashkilotlari faoliyatida alovida urinni egallaydi. «**Milliy g`oya – bizning g`oya**», «**Istikbolimiz – istiklolimiz**», «**Tafakkurimizni o`zgartirgan un yil**» mavzularidagi tadbirlar bunga misol bula oladi. Jamoat tashkilotlari, madaniyat, maorif, san`at muassasalarini faoliyatiga tegishli bo`lgan ma`naviy – ma'rifiy shakldagi ishlar xam shular jumlasiga kiradi. Ularning faoliyati targibot va tashqiliy ishlarning kulamini kengaytiradi, usayotgan yosh avlod tarbiyasida yangi imkoniyatlar ochadi.

Ma`naviy muassasalar yana bir muxim vazifa bajaradi. Gap odamlarning jamoa bo`lib ma`naviy xayot kechirishni tashkil etish ustida bormokda. Bu vazifa inson va jamiyatning bilish extiyojini kondirish, ularning faoliyatida uchraydigan xodisalarini, mexnatini, turmushini, bush vaktini chukur mushoxada qilish bilan uzviy boglikdir.

Kadim antik davrlardayok bolani ximoya qilish maqsadida o`zlarining ijtimoiy pedagogik tarbiyaga oid muammolarni oldingga surganlar. Eramizdan avvalgi 7-6 asrlar Markaziy Osiyo xududida jaxon dinlari orasida eng kadimgi din- zardushtiylik dini xukumronlik kildi.

Bu din insoniyatga katta ta`sir kildi, yani insonni birinchi uringa olib chikdi. Zardushtiylarning mukaddas kitobi “Avesto”ni (olovga siginish) o`z davrining o`ziga xos komusiy asari deb xisoblash mumkin. Zardushtiylar dinida axlokiy meyorlar asosi (axlokiy mezonlar) uchlikka tayangan edi. “Avesto”da- Inson yaxshi fikrlarga

ega bulishi, faqat yaxshi so`zlar va savobli ishlar qilishi lozim,- deb yozilgan (xulk-atvor)1.

“Avesto”ning katta kismi bulgan «YAsna»larda inson kamolotini kursatuvchi axlok – odob mezoni ana shu uchlikda xumata (gumata) – yaxshi fikr, xukta (gukta) – yaxshi soz va xvarsha (gvarshta) – yaxshi ishlarda ifodalanadi. “Men yaxshi fikr, yaxshi so`z, yaxshi ishga shon shavkat baxsh etaman. Men yaxshilikdan iborat konunga shon- shavkat baxsh etaman” (“yasna”, 14), deyiladi.

“Avesto”ning tadqiqot chisi A.O.Makovelskiy inson fikri, so`zlari va ishlariga ikki karama karshi kuch: Voxu Mana (“Ezgu fijr”) va Apo Mana (“YOvo`z fikr”) ta’sir kursatadi deydi. Barcha fikrlar, so`zlar va ishlar ichida aslida ezgulik va yovuzlik yotadi. “YAxshi fikr” deganda iloxiy-konun: kishiga mexribon bulish, muxtojlarga kumaklashishga, yovuzlikka karshi kurashishga tayyor turish, kishilarni baxt-saodati uchun xarakat qilish, axillik va dustlik, totuvlikda yashashga intilish ruxidagi niyatlar va fikrlarning musaffoligi tushunilgan. Inson o`z fikri xayolida boshkalarga xasad kilmasligi lozim. YAxshi niyatli kishi dargazab bulmaydi va boshka jixatlarga berilmaydi. CHunki bunday xolatda inson yaxshi niyatini yukotadi, burch vaadolat xaqida unitadi va nojuya xaraktalar kiladi.

Zardushtiylik dinida uchlik asosiga tayangan xolda axlokiy  
meyorlar:**YAXSHI SUZ, YAXSHI ISH, YAXSHI FIKR (XULK ATVOR)  
mavjud.**

Kadimgi davrlardanok ana shunday insoniy xislatlar kadrlangan.Inson bilimlarga ega bulishi (yani, kasb xunarga ega bulishi), adolatli bulishi (yani, insoniy bulishi), shunday axlokiy xususiyatlarga ega bulishi lozim ediki- u mexribon, kamtarin, jasur, chiroyli nutkga ega, vatanparvar, kuchli iroda va bilim soxibi bulishi zarur edi.

Kadimgi zamonlardan buyon olamda insonning urni va roli, shaxsning axlokiy shakillanishida madaniyat va dinning axamiyati, barkamol shaxs rivojlanishi masalalari va shu kabilarga katta e’tibor berilgan. Sharq Uyg`on ish davri (9 – 11asrlar) komusiy olimlari Abu Nasr al- Forobiy (873 –1037) shunday ijtimoiy pedagogik g`oyalarni aytib utganlarki, bolani ayni gudaklik chogidanok tarbiyalay boshlashning zarurati, shuningdek bolaning tarbiyasiga tabiat, atrof muxitning ta’siri va boshka shu kabilalar. 15 –16 asrlarda Markaziy Osiyoning tabiatshunos-faylasuflari, tarixchi, shoir va rassomu-musavvirlari o`z ijodlarida ijtimoiy fanlarga alovida e’tibor bilan karab, tabiat sirlarini urganishga intilganlar. Bular katorida Nuriddin Abduraxmon Jomiy (1414 –1492), Jaloliddin Davoniy( 1427 –1502), Alisher Navoiy (1441 –1501), Xusayn Boiz Koshifiy (1440 –1505) o`z asarlarida inson akli, tafakkuri, uning kobiliyati, insonning alovida axlokiy xislatlari, insoniylik g`oyalari, bolalar tarbiyasida umuminsoniy kadriyatlarga rioya etish xaqida jiddiy fikr yuritganlar. SHu jumladan, o`zbek tilining asoschisi, buyuk alloma, musikachi, davlat arbobi, Alisher Navoiyning ijtimoiy- pedagogik g`oyalari, yuksak darajada insonparvarligi bilan ajralib turadi. U insonni butun koinotda, bu olamda eng oliv mavjudod deb xisoblagan. Bolani esa oilaga kuvonch va baxt keltiruvchi mukaddas in’om sifatida uyni yoritib yuboradi,- deb xisoblaydi. Inson o`z farzandinigina emas, balki kelajak avlod bulgan barcha bolalarni sevmogi shart,- deb yozadi shoir.

Ijtimoiy pedagogika oid fikrlarni bizning olim va allomalarimiz, marifatparvarlarimiz, jadidchilik xarakatining etakchilari, 20 asr boshlarida yashab

ijod kilgan allomalar Maxmudxuja Bexbudiy (1874 –1919), Munavvar Kori Abdurashidov (1878 –1931), Abdulla Avloniy (1878 – 1934), X.X.Niyoziy (1839 – 1929) va boshkalarning asarlarida xam kuplab keltirish mumkin.

Ijtimoiy pedagogikaning fan sifatida vujudga kelishi 20 asr 20-30 yillarda alovida urin tutadi. Bu davrda A.Avloniy, A.Shakuriy, M.Kori Abdurashidov, X.X.Niyoziy, V.F.Lubensov, N.P. Arxangelskiy, O.SHarofiddinov kabi pedagoglarning faoliyati muxim axamiyatga molikdir. Ular avvalo ijtimoiy izdan chikib ketayotgan bolalarga yordam kursatish xaqida fikr bildirganlar. YAni, bu allomalar ijtimoiy pedagoglar bulib, ular yangi maktablar tashkil etganlar. A.Avloniy nomidagi bolalar tajriba maktablari va boshka muassasalar ijtimoiy pedagogikaning amaliy manbai bulib xisoblanadilar.

“Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”, «Ta’lim tugrisida»gi Konun”ning (29.08. 1997yil) kabul qilinishi bilan ma’naviy-axlokiy tarbiyaning samarali yullarini izlab topish, ma’naviy madaniyatni rivojlantirish, shaxsni fuqaro sifatida, erkin tafakkurga ega insonni shakllantirishning eng samarali yullarini yaratish maqsadida pedagogika fani oldiga ta’lim tizimini demokratlashtirish va insonparvarlashtirish kabi vazifalar xam quyildi. Respublikamizda ijtimoiy pedagogikaning ilmiy va amaliy soxasi endigina shakllanmokda. Mazkur soxada ilmiy-tadqiqot ishlari shunchalik dolzARBKI, bu fan bo`yicha mamlakatimizda: “Manaviyat va marifat markazi”, “Oila” markazi, nodavlat, xukumatga karashli bulmagan xayriya jamgarmasi “Sogлом avlod uchun” O`zbekiston Respublikasi Xalk ta’limi koshidagi TDPU (mafcura) g`oyaviy-siyosiy kafedralar va boshkalar. Respublikamiz xar bir navbatdagi yilni ijtimoiy muammolardan biriga bagishlashi an’ana tusiga kirgan. Masalan: 2001yil – “Onalar va bolalar” yili deb e’lon qilingan edi. SHu munosabat bilan “Usmir va sogлом turmush tarzi” deb nomlangan Respublika metodik seminari utkazilib, maktablarda “Sogлом avlod tarzi” predmeti kiritilib, sogлом turmush tarzini shakllantiruvchi ijtimoiy muammolar masalalari kurib chikildi.

O`zbekistonda keyingi vaktlarda katta muammoga butun bir yilni bagishlash an’anaga aylandi. Masalan; 1998 yil- “Oila yili”, 1999 yil- “Ayollar yili”, 2000 yil- “Sogлом avlod yili”, 2001yil- “Onalar va bolalar yili”, 2002 yil- “Kariyalar yili”, 2003 yil- “Obod va sogлом maxalla yili”, 2004 yil- «Mexr va Muruvat yili» deb belgilab, ijtimoiy pedagogik muammoni amaliyotda xal etish yullari izlanmokda.

SHunday xalk gipotezasi mavjudki, xar bir xalk nerv tizimi va axlining tugma xususiyatlarining faoliyat yuritishida o`z xususiyatlariga ega. Bu esa milliy xarakterning emotsiyonal-irodaviy va akliy soxalarining o`ziga xosligini keltirib chikaradi.

Milliy psixologik xususiyatlar ko`nikma va stereotiplar mexanizmlari orkali namoyon bo`ladi. kurilmalar insonning muayyan shaklda u yoki bu xodisani kabul qilishidir, ya’ni kurilma muayyan faoliyat yuritishga tayyorlik, biror bir milliy jamoa vaqili o`z etnik sharoitlaridan kelib chikib milliy mentaliteti shaxsning ijtimoiylashuvi jarayonida milliy axlokiy me’yorlari va kadriyatlar, shaxsiy va ijtimoiy rivojlanish yo`nalishlarini mustxkamlash, atrof-muxitdagi odamlarga baxo berish, o`z millati nuktai nazariga mos kelmaydigan g`oyalarni korlash vazifasini bajaradi.

Ijtimoiy va pedagogik amaliyot, bir kator tadqiqot lar insonning milliy majburiyatini shakllantiruvchi asosiy ijtimoiy institutlar sifatida oilani e'tirof etadi. Oila:

- milliy axlokiy normalarni o`zlashtirish, milliy madaniy muxitga va uning kadriyatlariga ko`nikishning eng bevosita va abadiy manbasi xisoblanadi.
- millat psixologiyasi jixatlarining taklid yo`li orkali aloxida shaxslar ongi va ruxiy olamiga kirishini ta'kidlaydi.
- milliy kadriyatlarga amal kiladi, ularni saklaydi.
- o`zining milliy tarbiyaviy axamiyati inson xayoti davomida saklab koladi.
- milliy odatlar, urf va an'analarning asosiy tashuvchisi xisoblanadi.

Oilaning barcha sanab o`tilgan xususiyatlari o`zbek oilasida o`zining yorin ifodasini topadi.

O`zbek xalki vakillarining shaxsiy xislatlarida ifodalangan milliy xususiyatlari, oilada milliy va diniy kadriyatlar asosida shakllanlgan va avloddan-avlodga o`tib ta'lim-tarbiya, odat, marosimlar, koidalar shaklida mustaxkamlangan. Bunday kadriyatlarga avvalom o`z yurtining o`tmishiga xurmat, milliy an'analarga sodiklik va ularni xayotga tadbik etish kiradi. Milliy xususiyatlarning shakllanishiga mexnat faoliyatining xarakteri va yo`naltirilganligi, ijtimoiy jarayonlarda katnashish darjasи, madaniy ta'lim darjasи ta'sir kiladi.

Milliy xislatlarning shakllanishining asosi milliy, tarixiy, madaniy, diniy, axlokiy kadriyatlar xisoblanadi. Ularning shakllanishi, saklanishi va boshka avlodlarga uzatilishi vositasi- milliy odat va an'analar xisoblanadi.

Axlokiy kadriyatlar asosida o`zbek oilasida rostgo`ylik, vazminlik kabi xislatlar shakllanadi. O`zbek oilasining pedagogik va psixologik xususiyatlari aloxida e'tiborga loyik. CHunki ular xayot tarzi, ma'naviy axlokiy muxit, tarbiyaviy tamoyillarni belgilab berishadi. Bularga milliy kadriyatlarga sodiklik, diniy amallarga xurmat, bolalarni yaxshi, xayrli ishlarni qilishga undash, o`z so`zida turish, kattalarning yoshlarga namuna bo`lishi, sabr-tokatl bo`lish, yosh xususiyatlarining inobatga olinishi, munosabatlarning xamkorlik, o`zaro xurmat tamoyillari asosida kurilishi kiradi.

Xozirgi kunda o`zbek xalkining mentaliteti milliy istiklol g`oyasiga asoslanadi. Prezident I.A.Karimovning fikricha quyidagilar milliy mentalitetning asosiy tushunchalari xisoblanadi:

- Vatanga muxabbat:
- ona tiliga muxabbat:
- milliy axlokiy, madaniy, ma'naviy kadriyatlar:
- oila:
- maxalla:
- islom dini:
- ta'lim va ma'rifatning o'rni:
- umuminsoniy kadriyatlarga tayanish.

Bola to`g`risida hukm chiqarish uchun uning ichki dunyosiga, ruxiyatiga kira bilish lozim. Bola o`zi yaratgan, o`zi o`ylab chiqargan dunyosida yashaydi va o`sha dunyo qoidalariga bo`ysunadi. Mana shuning uchun ham tarbiya bolani o`z dunyosidan ajratib, biz yashayotgan dunyo qonun -qoidalariga qo`shishga shoshilmasligi kerak.

Ota – onalar va tarbiyachilarining eng muhim vazifalaridan biri – boladagi tug`ma ijobiy hislatlarni har tomonlama rivojlantirishdan iborat. Bunda, kattalarda ham, bolalarda ham daxlsiz bo`lgan shaxs erkinligiga tajavvuz qilinmasligi kerak.

Odamni o`z qadr – qimmati, obro` – e`tibori hamda kamchiliklaridan esankirab qolishi oson. SHuning uchun bolada yoshlik paytidan o`z – o`zini anglashni, vijdon, insof va diyonat kabi tuyg`ularni uyg`otish va takomillashtira borish lozim.

Qadimgi dunyo faylasufi Platondan boshlab to bizning kunlarimizgacha bolani oiladan tashqarida tarbiyalash mumkinligi va hatto shunday qilish kerakligi haqida fikrlar ko`p martalab aytilgan. Ammo, pedagogik amaliyotning ko`rsatishicha bu g`oya real hayotga to`g`ri kelmaydi. Ha, bola oilasiz yashay olmaydi. Uning kelgusida kamol topishi, rivojlanishi uchun ona suti, onaning o`z bolasini emizish davri judayam katta ahamiyatga ega.

Bunda jismoniy bog`liqlikdan tashqari onaning o`z farzandi bilan ruxiy jihatdan yaqinlashishi ham sodir bo`ladi.

Bola tashqi dunyoni o`z oilasi orqali kuzatadi, o`rganadi. Oila eng qudratli tarbiya vositasidir. Sog`lom oilaning tarbiyaviy kuchi katta bo`lganligidan, maboda u ba`zi sabablarga ko`ra buzilsa, yoki chuqur o`zgarishlarga uchrasa, bu bola qalbida chuqur iz qoldiradi.

Agarda odamlar o`z shaxsining axloqiy jihatdan kamol topishi haqida qayg`urmasalar, unda ular shubhasiz o`zlarining jismoniy ehtiyojlarini qondirish istagida bo`lib, faqat roxat –farog`atlikka, xuzur va halovat ko`rishga intiladilar. Mana shunday istak va xohishlar qanchalik tez amalga oshsa, bu odam shunchalik baxtsiz va xudbin, haqir odamga aylanadi. –“**Maboda siz odamni haqiqatdan ham baxtsiz qilmoqchi bo`lsangiz, unda uning o`z oldiga qo`yan, hayotdan ko`zlagan maqsad murodidan ayiring va barcha istaklarini qondiring**”, – deydi **ulug` pedagoglardan biri**. SHu sababli ham oilaviy tarbiyaning eng birinchi va asosiy vazifasi, bu odamni hayotga tayyorlashdan iboratdir. Bola tarbiyasida onaning roli ayniqla kattadir. Bola hali beshikda yotganida, birinchi marta o`ynayotganida, birinchi so`zlarni aytishga o`rganayotganida onalar tarbiyaning poydevor toshini qo`yadilar. **Ular jamiyatning bosh me`moridirlar.**

Inson jamiyatida oila bir nechta vazifalarni bajaradi:

**reproduktiv-** xomilani davom ettirish bilan boglik O`zbekistonda ko`p bolali oilalarning mavjudligi bilan bir katorda oila a`zolari sonining kiskarishi xam kuzatilmokda. Bu xodisalar asosan moddiy-iktisodiy kiyinchiliklar, ma`naviy inkiroz, yosh oilalarning ota ona uyidan ajralib chikishi, tibbiy xizmatning past darajasi, nokulay ekologik xolat bilan izoxlanadi.

**Iktisodiy-** oilaning bir a`zosi tomonidan boshkalar uchun moddiy mablaglar topilishi, voyaga etmaganlar va kariyalarni moddiy ta`minlash, pul mablaglarini to`plash. Zamonaviy bozor munosabatlari mulk to`plash, mulkka ega bo`lish, meros masalalarida oilaning iktisodiy vazifasini faollashuvini talab kiladi.

**Ijtimoiylashuv vazifikasi-** oila bola shakllanishiga ta`sir kiluvchi birinchi va asosiy ijtimoiy gurux xisoblanadi. Oilada ota-onalar va bolalarning tabiiy-biologik va ijtimoiy alokalari uzviy boglanib keladi. Oila mikromuxit sifatida bolaning ruxiy,

jismoniy va ijtimoiy rivojlanishiga o'z ta'sirini ko`rsatadi. Oilaning vazifasi bolani asta-sekinlik bilan jamiyatga tayyorlashdir. Oilada insonga ta'lim va tarbiya beriladi, uning akliy, ijodiy kobiliyatlarining rivoji sodir bo`ladi. Aynan oilada bola mexnat va mustaqil likka o`rganadi.

**Xo`jalik-maishiy-** oila jamiyatning asosiy va doimiy xo`jalik negizidir. Unda oila a'zolarining jismoniy xolatini bir maromda ushlab turish, kasallar va kariyalarga gamxo`rlik qilish amalga oshiriladi.

**Tarbiyaviy vazifa-** biz bu funktsiyani aloxida ajratib ko`rsatamiz, chunki u bolaning ilk ijtimoiylashuvi jarayonida muxim rol o`ynaydi. Bola shakllanishiga shuningdek, atmosfera va iklimning ta'siri xam bor. Tarbiyaning eng muxim vositalaridan biri shaxsiy namunadir.

**Rekreatsion va psixoterapevt funktsiyasi** - bu funktsiya shunda namoyon bo`ladiki, oilada xamma o`zini kulay sezishi lozim. Ruxshunoslar, sotsiologlar, pedagoglarning kuzatishlariga ko`ra inson kuchlari oila sharoitida jadal tiklanadi.

### **Maxalla ijtimoiylashuvning an'anaviy omili sifatida.**

O`zbek mentalitetining muxim xususiyatlaridan biri-maxsus ijtimoiy tuzilma maxallanening mavjudligidir.

Toshkent shaxrida XIX asrdan boshlab maxalla mavjud. Ularning tashkil topishi va faoliyat yuritishi bir tomonidan milliy- psixologik xususiyatlari, boshka tomonidan esa axoliga yoshligidanok ijtimoiy munosabatlarga gark bo`lishlariga imkon yaratish bilan boglikdir. Boshkacha aytganda, maxalla mikrotsizm bo`lib, unda axlokiy tamoyil va koidalarga amal qilish, marosim va jamoat faoliyatining boshka turlarida ishtirok etish orkali shaxsning yanada kattarok xamjamiyatda ijtimoiylashuvi usullari shakllanadi. Maxallaning demokratiyalashuv, ijtimoiylashuv, insoniylashuv va mukammallahuv jarayonlariga faol ta'sir kila- di.

**Mexribonlik, raxmdillik** kabi kadrii insoniy xislatlar aynan maxallada shakllanadi. Bu ma'noda maxallani o`z-o`zini boshkarish maktabi, kerak bo`lsa demokratiya maktabi desa bo`ladi<sup>5</sup>.

Ijtimoiylashuv nafaqat shaxsning jamiyatda kulayliklarga ega bo`lishini ko`zda tutadi, balki shaxsning muayyan axlokiy va etnik koidalarni egallashini xam ko`zda tutadi. SHu borada maxalla ijtimoiylashuvining unikal mexanizmi xisoblanadi. CHunki unda:

- xar bir inson amal qilishi kerak bo`lgan muayyan axlokiy konunlar ishlab turadi;
- muomala bir kator axlokiy tamoyillarga asoslanadi;
- xokimiyatga ishonch va xizmat, shaxsiy namuna kuchi kattalarga xurmat, bolalar xaqida gamxo`rlik;
- axlok va jamoatchilik tarbiyasini amaliy faoliyatga kiritish orkali amalga oshiriladi;
- ommaviy ong kadriyatları maxalladan oila va shaxsga uzaytiriladi;
- aloxida shaxs xayotining asosiy boskichlari jamoaning barcha a'zolari tomonidan kuzatuvda bo`ladi.

Aloxida tarixiy davrlarda an'anaviy xayotiy muammolarning buzilishiga urinishlar amalga oshirilishiga karamay, maxalla bunga karshilik ko`rsatdi va an'ana, odatlarning saklanib kolishiga yordam beradi.

Maxallanening ijtimoiy o`rni shunda namoyon bo`ladiki, u doimo jiddiy ijtimoiy o`zgarishlarga o`z munosabatini bildirgan va oliy insoniy va axlokiy tamoyillarga tayanadi.

Xammaga maxalla axolisining Rossiya, Ukraina, Belorusiyadan evakuatsiya qilinganlarni kabul kilganliklari dalili yaxshi ma'lumdir. Maxalliy axoli vakillari ko`chib kelganlarga o`z uylarining bir kismini berishgan, moddiy yordam ko`rsatishgan. Maxalla jamoalari nixoyatda yukori axlokiy va ijtimoiy saloxiyatga ega, ular odamlarga yaxshi niyatilik, o`zaro xurmat, o`zaro tushunish kabi xislatlarni tarbiyalashadi.

Maxallanening an'analarini saklab kolish va ularni yoshlarga etkazish jamiyatni demokratiyalashning ilk davrlarida milliy kadriyatlarning tiklanishiga katta yordam bergen. YAngi sharoitlarda maxalla o`z-o`zini boshkarish organi sifatida yangi mazmun va axamiyatga ega bo`ldi. Ushbu faktlar O`zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov<sup>6</sup> tomonidan xam ta'kidlangan.

Maxalla maktablarining yukori sinf o`quvchilarning ijtimoiy va ma'naviy kiyofalari xam ancha o`zgarib koldi. Ularning aksariyati muassasa, maktablarda tashqiliy ish tajribasiga egalar. Oksokollarning aksariyat kismi savodxon, ularning ba'zilari ilmiy darajaga egadirlar. Maxalla insonlarning axlokiy birlashuvi markazi bo`lishni davom ettirmokda. Bu avvalambor, maxalla ko`mitalari faoliyatlarining asosiy yo`nalishlaridan biri ijtimoiy mexnatlarni, shu jumladan obodonlashtirish bo`yicha ishlarni tashkil qilishda namoyon bo`ladi. Bunaka ishlarning asosiy turlari-ariklarni tozalash, daraxtlarni kesish, axlatni chikarish bo`yicha xasharlardir. Bunaka tadbirlar asosan Navro`z, Ramazon, kurbon xayitlari, Mustaqil lik kunlari oldidan o`tkaziladi. Xashar yo`li bilan uylar, klublar, oshxona, masjidlar bunyod etilmokda.

Eng muxim an'analdan biri **mexr-muruvvat** bo`lib, u quyidagi kiyofalarda namoyon bo`ladi:

- jamoaning gamxo`rligi, ko`shnilarning kasal, keksa va kam ta'minlanganlariga yordam ko`rsatishadi;
- o`ziga to`k kishilarlarning kam ta'minlangan karindoshlariga va ko`shnilarga moddiy yordam berishlari;
- oksokol va maxalla ko`mitasi tomonidan bokuvchisini yo`kotgan va kariyalarga yordam ko`rsatishi va boshkalar.

Bularga misol qilib, 50-yillarda “YAngiobod” maxallasida axolining yordami bilan klub bunyod etilib, unda ma'ruza, kontsert, kechalar o`tkazilgan. Bu ishlarda o'kituvchilar, san'atkorlar faol ishtirok etishgan<sup>7</sup>.

Jamoada yordam ko`rsatish an'anasi xozir yangi shakllarga ega bo`ldi va xokimiylar, maxalla ko`mitalarning asosiy vazifasiga aylandi. Respublika Prezidentining (1994 yil 23 avgust) **“Axolining kam ta'minlangan katlamlarini ijtimoiy ximoyasini kuchaytirish chora-tadbirlari”**<sup>8</sup> xaqidagi farmoni bilan axolini ijtimoiy ximoya qilishning yangi turi joriy qilindi: kam ta'minlangan oilalarga xar oy

<sup>6</sup> “Махалла” хайрия жамгармасини тузиш тугрисидаги 1992- йил 12 сентябрдаги хамда “Махалла” хайрия жамгармасига маблаг ажратиш тугрисидаги 1992- йил 8-октябрдаги фармонлари, 1993-йил 2 сенябрдаги “Фукароларнинг гни-узини бошкариш органлари тугрисидаги “Узбекистон Республикасининг Конунининг кабул килиниши ёркин мисол булади”.

<sup>7</sup> <sup>8</sup> тилдир

ko`rsatiladigan yordam. Bu yordamning yangiligi shundaki oilalar taksimotini maxalla xal kiladi. Fuqarolarning o`zini-o`zi boshkarish organlari 1999 yil yanvarda O`zbekiston Prezidentining xamda Vazirlar Maxkamasining 2002- yil yanvardagi “Axolining ijtimoiy ximoyaga muxtoj katlamlarini anik yo`naltirilgan tarzda ko`llab-kuvvatlashining 2002-2003 yillarda mo`ljallangan dasturini amalga oshirish chora-tadbirlari to`grisida”gi karori talablarini amalga oshirmokdalar. “Fuqarolarni o`z-o`zini boshkarish organlarining axolining ijtimoiy ko`llab-kuvvatlanishini ta`minlash” to`grisidagi farmoni chickdi

Xozirgi kunda maxalla jamiyatda etnomadaniy kadriyatlarni tiklash jarayonida muxim rol o`ynamokda. Nikox, janoza, akika to`yi, sunnat to`yi, muchal to`yi kabi marosimlar xam o`tkazilmokda.

Bozor munosabatlarini shakllantirishning murakkab xolatida maxallaning ijtimoiylashtiruv roli oshib ketadi. Bu avvalambor oila kadriyatlarini saklab kolishda namoyon bo`ladi. Nizoli xolatlar paydo bo`lganda xotin-kizlar ko`mitasi yoki maxalla oila vakillari bilan suxbat o`tkazadi va odatda vaziyatga oydinlik kiritadi. Bundan tashkari maxalla ishsizlarga ishga joylashishlariga, militsiya xodimlariga tartibni saklashda yordam beradi, xizmatga chakirilganlar bilan tushuntirish ishlari olib boradi. Avvalgiday jamoa o`sib kelayotgan avlodni tarbiyalashda muxim o`rin tutmokda. Xozirda maxalla bolalar bogchalari va maktablari bilan yakin xamkorlik olib borib, ularga ta`mirlash ishlarini olib borishda, tarbiya ishlarida yordam ko`rsatadi. Maxalla ko`mitasi majlislarida maktab intizomining jiddiy buzilishlari xam ko`rib chikiladi. YOshlarga ta`sir ko`rsatishning bu rasmiy tarmoklaridan tashkari jamoani nazorat qilishning an'anaviy usuli xam saklanib kolgan. Xar kanday maxallada boy xayotiy tajribaga ega odamlar mavjud. Ularning asosiy vazifasi axolining an'anaviy axlok-odob koidalariga rioya qilishlarini, bolalarning ko`chadagi yurish-turishini nazorat qilishdir. Ular xar kanday odamga tanbex berishlari mumkin, birok bu ishni doimo ularning xurmatini saklagan xolda amalga oshiriladi. Ota-onalarning bunday munosabatni kadrlashi taxsinga sazovor. SHuning uchun “maxalla sening xam otang xam, onang” degan makol mavjud. Boshka soxalarda namoyon bo`ladigan milliy tiklanish, xalkning milliy o`z-o`zini anglashni faollashtirish orkali bo`ladi. U sobik Sovet ittifoki davrida bu kabi an'analar tulik yo`kolib ketmagan, balki ayrim oilalarda o`zigi xos tarzda saklanib kolgan va yoshlarga berilgan. Bu ayniksa, xayotning an'anaviy turmush tarzini saklab kelayotgan eski shaxar maxallalarida yashovchilar orasida yakkol namoyon bo`lgan. Maxalla fuqarolarining yukori savodxonlik va madaniy darajasi (yosh va o`rta avlod, o`rta yoki oliy ma'lumotga ega) badiiy ijodning keng rivojlanishi, turli marosimlar o`tkazishda ma'naviy o`z-o`zini ifodalashning keng imkoniyatlarini ko`zda tutadi.

SHuni ta`kidlash joizki, etnik an'analar va marosimlarning tiklanishida avvalo, oiladagi katta avlod, shuningdek ommaviy axborot vositalari, ayniksa televidenie katta o`rin tutadi.

Xozirgi kunda maxallaning axamiyati oshib bormokda. Birok yoshlar tarbiyasida muammolar kam emas. Bozor iktisodiyoti sharoitida yoshlarning axlokiy tarbiyasiga xalakit beradigan bir kancha xolatlar xam kelib chikmokda. YOshlarni yoshligidanok savdo-sotikni bilishga va boshka tijorat ishlariga sho`ngib ketishi ularning o`kishiga, bilim olishga bo`lgan intilishlariga, ijtimoiy munosabatlarga kirishishga, salbiy ta`sir

ko`rsatmokda. Ba`zi xollarda muallimlar o`quvchilarni to`lik tarbiyalash imkoniyatidan maxrumdirlar, ya`ni ular boshka faoliyat bilan xam shugullanadilar. Jamiyatni demokratiyalashtirishning mazkur boskichida yoshlari katta imkoniyatlarga, faoliyat turini tanlashda keng imkoniyatlarga ega bo`lishdi. Birok ular bulardan to`lik foydalana olmaydilar. So`ngi yillarda yoshlari orasida siyosiy-tarbiyaviy ishlarni olib borish susaydi, din ta`siri kuchaydi va bu natijada yoshlari mafkuraviy soxada o`z mo`ljallarini yo`kotishlariga olib keldi. Maxalla oldida tarbiyaning an'anaviy usullaridan foydalanib yosh avlod bilan yanada faol ish olib borish, ularda xozirgi jamiyat talablariga muvofik keladigan dunyokarash va axlokiy tamoyillar xosil qilishdan iborat.

Maxalla azaldan nafaqat o`sib kelayotgan avlodning tarbiyachisi vazifasini bajargan, balki ijtimoiy fikrni shakllantirgan xam, ko`shnilar o`rtasidagi barcha nizoli xolatlar, shuningdek esa oilaviy janjallar maxalla ko`mitalari faollari tomonidan muxokama qilinadi. Bular orasida ko`pincha kaynona-kelin, yosh kelin-kuyovlar orasida janjallar ko`p uchraydi. Bunaka xolatlarda xotin-kizlar ko`mitasi suxbat o`tkazadi. Agar ikki tomonni yarashtirib bo`lmasa, bu xolat bilan maxalla ko`mitasi shugullanadi. Odatda o`sha joyning o`zida muammo xal qilinadi. SHuning uchun ajralishlar soni ko`p emas. So`ngi paytlarda uy xo`jaligi bilan band ayollar, yosh oilalar bilan ishslash faollahdi, ularni an'anaviy kasb-xunarlargacha o`rgatish ishlari olib borilmokda. Maxalla ishsizlarning ishga joylashishlariga xam ko`maklashmokda. Xarbiy ko`mitalar askarlikka olishga tanlov bo`lganda maxalla faolligiga tayanishadi.

1999 yil 14 aprelda O`zbekiston Respublikasining “Fuqarolarning o`z-o`zini boshkarish organlari xaqida”gi konuni yangi taxrirda kabul qilindi. Unda yana bir marta fuqarolarning o`z-o`zini boshkarishi asosida tarixiy tarakkiy xususiyatlari, milliy va ma`naviy kadriyatlar, maxalliy odat va an'analar etishi ta`kidlandi. Konunda maxallaning vazifalari belgilab ko`yilgan. YUkorida sanab o`tilgan funktsiyalardan tashkari maxallaga yangi vazifalar-tijorat va maishiy xizmat ko`rsatishni, xududning tozalik xolatini, axolidan soliklarning o`z vaktida topshirilishini nazorat qilish xam yuklatildi. Davlat maxallaga avval maxalliy kengashlar bajargan vazifalarni yuklamokda. Bu esa maxalla ko`mitalari davlat tuzilmalariga aylanayotganligidan guvoxlik beradi.

Maxallaning ijtimoiy xayotida so`nggi o`n yillarda katta o`zgarishlarni boshdan kechirgan ko`shnichilik munosabatlari muxim o`rin tutmokda. Oilaviy muxitning individualashuv jarayoni ketsmokda. SHu bilan birga yakin ko`shnichilik munosabatlari o`zbek oilasining kadriyatlaridan biri bo`lib kolaveradi. Bu avvalombor xo`jalik yordamida, bolalar tarbiyasida, kiyin vaziyatlarda yordam ko`rsatishda namoyon bo`lmokda. SHuning asosida ma`naviy yakinlik paydo bo`ladi, ya`ni kundalik axborot almashinuvi, maxalladagi vokealar muxokamasi bo`lib o`tadi. SHu tarzda maxalladagi eng kichik guruxlardan biri-ko`shnichilik guruxi paydo bo`ladi.

Mana shu gurux bilan bir katorda karindoshlik alokalari xam mavjud. Ular xozirda avvalgidan ko`ra kamrok bo`lsada, uning a`zolarining faol o`zaro yordami bilan xarakterlidir. Karindoshlik munosabatlari o`zbeklarning oilaviy kadriyatlarini tizimida xali xam birinchi o`rinda turadi.

O`zbeklarning ijtimoiy xayotidagi muxim xodisalardan biri erkaklar birlashmalari- gap, gashtak, ziyofatdir va ularning maqsadi bo`sh vaktni mazmunli o`tkazishdir. Xar bir yosh gurux o`zining muomala shakliga ega: kadimda Toshkentda gaplar ommaviy xarakterga ega bo`lgan. Ular xosil yigim- terimi yakunlangan kuzgi-kishki davrda o`tkazilgan. Erkaklar xar kuni bir-birlarining uyida to`planishgan va xar kim ko`lidan kelganini olib kelgan. Buning xammasi “umumiylar”ga solingan. O`zlari taom tayyorlashgan, o`zlari uy yigishtirishgan, namoz o`kishgan, suxbatlashishgan, axborot almashishgan.

Maxalla xozirda zamonaviy jamiyat xayotining ijtimoiy tizimida o`z o`rnini topgan. Milliy va etnik an`analarni xar tomonlama rivojlantirishga karatilgan O`zbekiston siyosati bu an`anaviy institutning yanada faoliyat yuritishiga yangi zaminlar yaratdi.

## **Ma’ruza-8**

### **Mavzu: Ijtimoiy-pedagog ta’lim tizimida**

1. Ijtimoiy pedagog ta’lim tizimida
2. Ijtimoiy pedagog kasbiy faoliyatining xususiyatlari
3. Ijtimoiy pedagogik faoliyat
4. Ijtimoiy pedagog vazifalari
5. Ijtimoiy pedagoglarning "Kasbiy majburiyatlar"

#### ***Tayanch tushunchalar***

Jamiyatga moslashish, ruxiy, ijtimoiy nukson, akliy shakllanishi buzilgan, BMT konventsiyasi, ijtimoiy loyixilar, tashxis, ximoyalash, evristika, kasbiy mentallik, «Men obrazi», muruvvat, xayriya, mexribonlik, kasbiy majburiyatlar, taxlil, insonparvarlik, loyixalashtira bilish, sub’ekt, ob’ekt, maqsad

#### ***Nazorat uchun savollar***

- 1 Ijtimoiy pedagogning kasbiy sifatlarini kursatib bering?
- 2.Ta’limni insonparvarlashtirishdan kuzlangan asosiy maqsad nimalardan iborat?
- 3.Ijtimoiy pedagoglarning kasbiy tayyorgarligi kanday amalga oshiriladi?
- 4.Ijtimoiy pedagogik faoliyat kanday faoliyat turi xisoblanadi?
- 5.Ijtimoiy pedagogik faoliyat komponentlarini aytib bering?
- 6.Ijtimoiy pedagog faoliyatidagi muxim yunalish nima?
- 7.Psixologiyada «Kasbiy mentallik» deb nimaga aytildi?
- 8.Mutaxassis-pedagogning kasbiy majburiyatlarini sanab bering?

#### ***Foydalanilgan adabiyotlar***

1. Bola huquqlari to’grisidagi Konventsiya. T. «O’zbekiston». Bolalar jamg`armasi. 1993 y.
2. Kurbanov SH. «Mustaqillik poydevori». Halq ta’limi. 5-son. 2003y. 14-18b.
3. Ovcharova N. Spravochnik sotsialnogo pedagoga. M. Sfera. 2001g.
4. S. Fauntin. Noyob huquqlar. YUNISEF. 1993 y.
5. Quronov M., Kurbanniyyazova Z. «Ijtimoiy pedagogika». Ma’ruza matnlari to`plami. T. 2003 y.
6. V.Gurov, N.SHinkarenko. “Ochik” mакtab va bolalar bilan ijtimoiy pedagogik faoliyat. O`quvchi tarbiyasi. 1994 №2.
- 7.B.Z.Vulfov. Ijtimoiy tarbiya tizimida ijtimoiy pedagogning o`rni. Pedagogika, 1992, № 5, 6.
- 8.V.N.Gurov. Ijtimoiy pedagogik ishni tashkil qilish tajribasi. Pedagogika, 1993, № 3.
- 9.V.G.Bajenov. Pedagogik karovsiz bolalar tarbiyasi.-Kiev, 1986.

## *Ijtimoiy pedagog va uning kasbiy sifati*

Ijtimoiy pedagoglarni kasbiy tayyorlash uzlusnz ta'lim tizimda amalga oshiriladi. Ijtimoiy pedagoglarni kasbiy tayyorlash ikki turdag'i o'quv yurthalida olib boriladi: **o'rta kasbiy ta'lim muassasalari** (litsey va kollejlar) va **oliy kasbiy ta'lim maktablari** (Institut va universitetlar).

O'rta kasbiy ta'lim muassasalarida kichik sinflar va maktabgacha tarbiya muassasalarida tarbiyalanuvchi bolalar bilan ishlovchi pedagoglar tayyorlanadi. O'rta ma'lumotli pedagoglarning asosiy vazifasi bolalarga kiyin vaziyatlarni engib o'tishga yordam beradi, bolalarning ishonishiga ko'maklashuvchi faoliyat turlarini tashkillashtiradi. Bolalarning rivojlanishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratish, ularning ota—onalari bilan xamkorlik qilish, o'z malakasini oshirish maqsadida mustaqil ravishda o'kib borishdan iboratdir. O'rta kasbiy ta'lim bilim yurtini tugatgach ular oliy ta'lim muassasida o'z o'kishini davom ettirishi mumkin.

Ijtimoiy pedagog - faqat o'qituvchigina emas, u bola kanday ukiyotganini va rivojlanayotganini tushunadigan va xis etadigan shaxsdir. U bola xayotini, kechinmalarini xuddi o'zinikidek tushunadigan va uning ma'naviy, madaniy, axlokiy rivojlanishiga yullanmalar bera oladigan mutaxassis bulmogi kerak. SHuning uchun xakikiy pedagog faqat o'z fanini bilibgina kolmay, ayni vaktda bolalar va kattalar bilan ijodiy mulokot kila oladigan, o'z ustida ishlaydigan inson bulishi muxim axamiyatga ega.

Ta'lim jarayonini ijtimoiylashtirish natijasida o'quvchi inson moxiyatini anglaydi. O'z xayoti dovomida inson to'grisida xosil qilingan tushunchalar asosida mukammal shaxs va xakikiy fuqaro bo'lib etishadi.

**Insonparvarlikka asoslangan ta'lim** – ijtimoiy fanlar va yondosh fanlarning funktsiyalarini kengaytiradi, ta'lim jarayonini, mutaxassis shaxsi va uning dunyokarashi yaxlitligini ta'minlaydi.

Ta'limni insonparvarlashtirishdan ko'zlangan asosiy maqsad yoshlarga tegishli bilim, kunikma va malaka, ularning insoniy dunyokarashini shakllantirishdan iborat. U bulajak fuqarolar tomonidan insonlar faoliyatining turli soxalarida insonparvarlik g'oyasi va kadriyatlarini amalga oshirishning asosi bo'lib xizmat kilsin.

Ta'limda xayot tajribasiga ega bulish ziddiyatli xolatlarda ijtimoiy moslashuv modelini ishlab chikishni takozo etadi:

- ijtimoiy – shaxsiy xayot tajribasiga asoslangan muntazam davom etadigan jarayon xisoblanadi;
- real vaziyatdan kelib chikib, ziddiyatli xolatlarda ijtimoiy moslashuv modelini ishlab chikishni takozo etadi;
- mavjud amaldagi xolatga doim moslashish jarayoni xisoblanadi;
- shaxslararo alokalarni kamrab oladi;
- shaxsning shakllanish jarayonini yunaltiradi.

Ijtimoiy pedagog kasbiy faoliyatining xususiyatlari — "Ijtimoiy pedagog" mutaxassis "pedagog" so'zidan olingan bo'lib, avvalo o'qituvchi ma'nosini anglatadi. SHu bois mazkur lavozimning joriy etilganidan sung aynan o'qituvchilarining birinchi ijtimoiy pedagoglar bo'lgani ajablanarli emas. Ijtimoiy pedagoglarni kayta tayyorlash buyicha kurslar tinglovchilarinipg aksariyat kismini xam o'qituvchilar tashkil etadi.

Yana shuni ta'kidlamok joizki, ijtimoiy pedagoglarning kasbiy tayyorgarligi xam pedagogik oliy o'quv yurtlarida amalga oshiriladi. Darxakikat, pedagog va o'qituvchining kasbiy faoliyatida kupgina umumiylilar mavjud. Bu ikkala kasbning xam ob'ekti bola, uning rivojlanishi va ijtimoiy shakllanishidir. Bu narsa ularning yakinligini yana bir bor tasdiklaydi.

O'z navbatida mazkur mutaxassiliklarning kasbiy faoliyati ularning o'ziga xos xususiyatlarini aniklashga imkon beruvchi bir kator tafovutlarga xam ega. O'qituvchi o'zining asosiy ta'lif berish vazifasini bajarar ekan, yosh avlodga bilim va jamiyat tomonidan orttirilgan ijtimoiy madaniyat tajribasini o'rgatadi. Ushbu jarayonda bola tarbiyalanadi va shakllantiriladi. Ijtimoiy pedagogning dikkat markazida esa bolani jamiyatga moslashib ketishiga yordam berish turadi.

### Ijtimoiy pedagogik faoliyat

Pedagogik faoliyat-ta'lif va tarbiya orkali ijtimoiy-madaniy tajribani berishga yunaltirilgan kasbiy faoliyat turidir. Bu faoliyat ta'lif standartlari, o'quv rejalar, dasturlari bilan belgilanadi.

Ijtimoiy pedagogik faoliyat-bolaga ijtimoiylashuvi jarayonida (bolaning jamiyatga kirishi) yordam kursatishga karatilgan kasbiy faoliyat turidir. Bola bilan ish olib borishi mumkin bulgan turli xil ta'lif muassasalari, tashkilotlari, birlashmalari uz ishlarini ijtimoiy pedagoglar orkali amalga oshiradilar.

Ijtimoiy pedagogik faoliyat xar doim anik bir bolaga va uning ijtimoilashuviga, uni jamiyatga integratsiyalash jarayonida yuzaga keladigan muamolarini xal etishga yunaltirilgan bo'ladi.

Kasbiy faoliyat tuzilmasi — xar kanday faoliyat o'z tuzilmasiga egadir. Ular faoliyat elementlarining o'zaro boglikligini va o'zaro shartlarini aniklaydi. **Ijtimoiy pedagog faoliyati tuzilmasi** quyidagi komponentlardan iborat: sub'ekt (faoliyatni amalga oshiruvchi tomon), ob'ekt (faoliyat yunaltirilgan tomon), maqsad (faoliyat orkali nimaga intilinadi), vazifa (faoliyat orkali nimalar amalga oshiriladi), vositalar (faoliyat kaysi usul yoki texnika yordamida amalga oshiriladi).

Ijtimoiy pedagog faoliyatining ob'ekti jamiyatga moslashish jarayonidagi yordamga muxtoj bolalar va yoshlardir. Bu toifaga intellektual, ruxiy, ijtimoiy nuksoni bor bolalar, shuningdek, jismoniy, ruxiy yoki akliy shakllanishi buzilgan bolalarining katta kismi (ko'zi ojiz, kar—sokov, akliy ojiz va bolalar tserebral falajligiga chalinganlar) kiritiladi. Ular jamiyatning aloxida mexriga muxtojdir.

Agar bolaning jamiyatdagi shakllanishi normal kechsa unda ijtimoiy pedagog yordami zarur bulmaydi. Bordiyu, ota—onalar va maktab uning shakllanishi, tarbiyalanishi va ta'lif olishini ta'minlay olmasa u xolda ijtimoiy pedagog xizmati kerak bo'ladi.

Ijtimoiy pedagog faoliyatining maqsadi bolaning ruxiy sogligi va xavfsizligi uchun sharoit yaratish, uning oilasi, maktabi va atrofidagi unga salbiy ta'sir kursatuvchi omillardan ogoxlantiruvchi va ularni engib utuvchi ijtimoiy, xuquqiy, ruxiy, tibbiy va pedagogik muammolarini kompleks ravishda xal etish maqsadida turli mutaxassislar (ruxiyatshunoslar, tibbiy xodimlar, ijtimoiy xodimlar va yuristlar) xamda ma'muriy organlar va idoralarning (ta'lif, soglikni saklash, ijtimoiy ximoya

soxasidagi) mazkur masalaga yunaltirilgan sa'y—xarakatlarni muvofiklashtirib turishda vositachi bula olishi kerak.

Ijtimoi pedagog faoliyatidagi muxim yunalish — bu BMT Konventsiyasida e'lon qilingan bolaning yashashga, soglom shakllanishiga, ta'lim olishiga, o'z karashlarini erkin ifoda etishiga, kamsitishning xar kanday turidan ximoyalashga karatilagan xukuklarini ximoya qilishdir.

Ijtimoi pedagog faoliyatidagi yana bir yunalish—bu bolani shakllanishiga kumaklashuvchi ijtimoi loyixalar va dasturlar, xususiy tashabbuslarni ishlab chikishda ishtirot etishdir.

SHunday qilib, ijtimoiy pedagog faoliyatiga quyidagi vazifalarni biriktirish mumkin: .

- *tashxis quyish*
- *bashoratchilik*
- *vositachilik*
- *tugirlash va kayta tiklash*
- *ximoyalash*
- *ogoxlantirish va profilaktika*
- *evristika (ijodiy fikrlash)*

Pedagogning barcha faoliyati vositalar yordamida amalga oshiriladi. Bular safiga maqsadga erishishda zarur bo'ladigan barcha xarakatlar, predmetlar, kurollar, usullar va texnologiyalarni kiritish mumkin.

Ijtimoiy pedagogning kasbiy faoliyati sub'ekti sifatida: shaxsiy tavsif va kasbiy omilkorligi.

Ijtimoiy pedagogning shaxsiy tavfsifnomasi kurib chikiladigan bulsa, avvalo mazkur faoliyat sub'ektini — o'z soxasini mukammal biluvchi mutaxassisni belgilab olishimiz zarur bo'ladi. U bola xaqidagi ijtimoiy va boshka kiyinchiliklarni chukur farklay biladi va unga yordamga kela oladi. U umum nazariy va maxsus bilimlarga, malaka va kunikmalarga, ma'lum darajadagi kobiliyatlarga ega bo'ladi.

Xush ijtimoiy pedagog kim? Uning ruxiy surati va shaxsiy tavsifnomasi kanday, kaysi soxalar uning faoliyat doirasiga tegishli? U boshka kasb egalaridan nimasi bilan fark kiladi?

Kundalik xayotda biz kasb inson ongida, uning xatti— xarakatlarida va dunyokarashida o'ziga xos iz koldirishiga guvox bulamiz. Psixologiyada bu narsa "**kasbiy mentallik**" deb ataladi. Mentallik — bu insonning olamga munosabatini va uning kundalik xatti —xarakatlarini aks ettiruvchi ma'lum ijtimoiy—ruxiy karashlar va kadriyatlar majmuidir. Mentallik o'zida individning ijtimoiy va madaniy tajribasini mujassamlashtirgan bo'lib, insonning kaysi ijtimoiy katlamga, yoshga, jinsga, millatga va kasbga mansubligi bilan aniklanadi.

Psixologik tadqiqot larda kasbiy mentallik ma'lum bir kasb egalariga xos bo'lган xususiyat sifatida e'tirof etiladi.

Xozirgi pedagogning muxim vazifalaridan biri milliy istiklol g'oyasini bolalar va o'quvchilar ongida shakllantirish tadbirlari va mexanizmlarini ishlab chikib, uni amalga oshirishdan iboratdir. Mamlakatimiz Prezidenti I.A.Karimov shunday degan edi: **"Endigi vazifamiz shundan iboratki, milliy istiklol g'oyasi tushunchalari asosida keng jamoatchilik, ziyoliylar, ilm – fan va madaniyat namoyandaları,**

**avvalo, ma'naviy – ma'rifiy soxa xodimlari milliy mafkurasini takomillashtirish, uning asosiy tamoyillarini odamlar kalbiga va ongiga singdirishga karatilgan ishlarni yangi boskichga kutarish zarur".** Mana shuning uchun xam yaratiladigan ko'llanmalar mazmunida milliy istiklol g'oyasi asosiy o'rinni olishi lozim.

Oliy ta'lim muassasalarida pedagoglar ikki boskichda o'kitiladi. Birinchi boskichda, ya'ni bakalavriyatda mutaxassis o'zi tanlagan soxa bo'yicha 4 yil davomida ta'lim oladi. Ikkinci boskich magistraturada davom ettiriladi. "Ijtimoiy pedagog" soxasiga tegishli barcha mutaxassilarning xam umumiyo o'ziga xos xususiyatlari mavjud bo'ladi. Bir kator tadqiqot chilar ularning shaxsiy tavsifnomasi sifatida individual—ruxiy xususiyatlar va maxsus kobiliyatlarni ko'rsatmokda.

Kuzatuvchanlik, murakkab vaziyatda tez yo'lga tusha bilish, faxm— farosat bilan sezal olish, o'zini boshka odam o'rniga ko'ya olish va uning xissiyotlarini tushuna bilish, o'zini boshkara olish va refleksiya (fikr yuritib uni taxlil qilish) maxsus kobiliyatlar jumlasidandir. SHuningdek, ijtimoiy pedagog dilkashlik, odamlar bilan ishlay olish, kizikkonlik, o'z fikrini o'tkaza olish, baxsli vaziyatlarda yo'l topa bilish, tirishkoklik kabi ijtimoiy soxaning barcha xodimlariga xos xususiyatlarga xam ega bo'lmogi darkor.

Xorijiy tadqiqot chilar xam pedagogning individual— ruxiy xususiyatlari to'grisida o'z fikrlarini bildirganlar. Masalai, Buyuk Britaniyalik olimlar bunday xususiyatlar katoriga yukori darajadagi akliy saloxiyatga egalik, tartiblilik va o'z— o'zini boshkara bilish, jismonan kuchlilik, odamlarga kiyin vaziyatlarda yordam bera olish, chidamlilik, sezgirlik kabilarni kiritadilar.

AKSH ning mashxur psixologlaridan sanalgan J. Xoland o'zining "**o'ziga yo'naltirilgap kidiruv**" metodikasida ijtimoiy soxa kasbi egasiga xos xususiyatlarni ko'rsatgan. Bular: realistik (xakkoniylilik), tadqiqot chilik, artistlik, ijtimoiy, tadbirkorlik, konventional xususiyatlardir. U ijtimoiy pedagogga xos insonparvarlik, ideallik, mas'uliyatlilik, axlokllilik, xushmuomalalik, iliklik, odoblilik, o'zgalarni do'st tuta olish kabi xususiyatlarni xam ko'rsatadi.

Ijtimoiy pedagog kasbi insonlar o'rtasidagi munosabatlar tizimida faoliyat yurituvchi ko'pkirrali soxa bo'lib, pedagogning kayssi ishda ishlashidan kat'iy nazar odamlar bilan va avvalo bolalar bilan ishlashga yo'naltirilganligidadir. Mulokot jarayonida pedagog ko'plab ruxiy zurikish va charchokni o'zida sinashiga to'g'ri keladi. SHu bois uning asab tizimi xam mustaxkam bo'lishi darkor. Bu narsa unga ijtimoiy—pedagogik, ruxiy—terapeutik jarayonlarda emotsional kiyinchiliklar bilan to'knashuvida yordam beradi.

Ijtimoiy pedagogga xos yana bir xarakter xususiyati, bu "**Men — obrazidir**" Bu narsa pedagogning o'ziga nisbatan ijobjiy munosabatda bo'lishini xamda boshkalar tomonidan o'ziga yukori baxo berilishini ifodalaydi. Mazkur xarakter pedagogga boshka odamlar bilan erkin mulokot qilish va ularni oson kabul qilish imkonini beradi.

Ijtimoiy pedagognipg quyidagi shaxsiy fazilatlarini alovida ajratishimiz mumkin:

-Insoniylik xususiyatlari (mexribonlik, boshkalar manfaatini ustun ko'yish, o'z shaxsiy kadr—kimmati xissi)

- Ruxiy barqarorlik, yukori darajadagi xissiy va irodaviy xususiyatlar)
- Ruxiy taxlilchilik xususiyatlari ( o'zini idora kila olish, o'ziga tankidiy karash, o'zini baxolay olish)
- ruxiy—pedagogik xususiyatlar ( kirishuvchanlik, gappa chechanlik.)

Yukorida keltirilgan xususiyatlar bilan tanishar ekanmiz, xar kanday odam xam ijtimoiy—pedagogik faoliyatni olib borish kobiliyatiga ega bo'lavermasligiga ishonch xosil kilamiz.

Xar bir pedagogning kasbiy omilkorligi, ya'ni uning o'z faoliyatini olib borishga amaliy va nazariy tomonidan tayyorligi me'yoriy—xuquqiy xujjatlar yordamida tartibga solinadi. Mazkur xujjatlar o'z ichiga mutaxassis- pedagogning kasbiy majburiyatlarini, mexnat tavsifnomasini, bilim va malakasini oladi.

**IJTIMOIY ISH** – axolining ijtimoiy ximoyalanmagan katlamlariga yordam kursatish xisoblanadi. Ijtimoiy ishlarning obekti inson xisoblanadi, lekin xamma emas, balki faqatgina muammolari bulganlari (ekalogik, ijtimoiy, texnogen, millatlararo keskin o'zgarishlar, buzilishlar natijasida) yoki soglon bulmagan, jismoniy yoki psixik nuksonlari bulganlar xisoblanadi.

**MURUVVAT KO`RSATISH** – muxtojlarga yordam, xayriya-saxovat – aloxida shaxslar yoki tashkilotlar tomonidan muxtojlarga yoki axoli guruxlariga beminnat yordam berish. Raxim-shavkat, marxamat, raximdillik – barchaga yordam berish, yoki o'zgalarni kechirish, gamxurlik qilish.

**XAYRIYA** – (muxtojlarga yordam, xayr-saxovat) – muxtoj odamlarga yoki axolining ijtimoiy guruxlariga xususiy shaxslar, yoki tashkilotlar tomonidan bepul yordam kursatish.

**MEXRIBONLIK (MILOSERDIE)** – raxmdillik, odamiylik, insonparvarlik yuzasidan kimgadir yordam kursatish, yoki kimnidir kechirish, avf etish.

"Kasbiy majburiyatlar" — Bolalarni ijtimoiy ximoya, kullab—kuvvatlash xamda bu borada xizmat kursatuvchi muassasalar to`grisida zarur axborotlar bilan ta'minlanadi.

— Inson va bola xukuklarini ximoya qilishga karatilgan, turli toifadagi bolalarning xak-xukuklarini ta'minlashga, bolalarni xuquqiy jixatdan tarbiyalashga yunaltirilgan ijtimoiy—xuquqiy yordamni kursatilishi

— Ruxiy va emotsional yordamga muxtoj bolalarga ijtimoiy—reabilitatsion yordam kursatish

— Kam ta'milangan oilalarda yashovchi bolalarning maishiy xayotini yaxshilash maqsadida ularga ijtimoiy yordam kursatish.

— Bemor bolalarga zarur tibbiy—ijtimoiy yordamni kursatish. Alkogolizm, giyoxvandlik bilan shugullanuvchi voyaga etmaganlarni davolash.

Ijtimoiy pedagogdan quyidgicha kasbiy bilimlar talab etiladi :

O'z faoliyatining me'eriy—xuquqiy asosini (konunlar, farmonlar, karorlar va yuriknomalar), ijtimoiy pedagogika nazariyasi va tarixini, turli muxitlarda turli toifa bolalari bilan ishslash metodikasi va texnologiyasini, bola shaxsini, uning jismoniy, ma'naviy va ijtimoiy shakllanishini urganuvchi psixologiyani , odamlarning uyushma va guruxlari (Oila, mакtab va mexnat jamoasi) ni urganuvchi sotsiologiyani; o'z kasbiy tadqiqot faoliyatini ijtimoiy boshkarish va rejalashtirish metodini bilish.

Ijtimoiy pedagogdan quyidagi kasbiy malakalar talab etiladi: Taxlil kila olish kobiliyati. Bolaning shakllanishida unga muxitning salbiy va ijobjiy ta'sir kursatuvchi xarakatlarini aniklab taxlil kila bilish;

Bashoratchilik kobiliyati: faoliyat olib borish usullarini belgilab olib uni anik maqsad tomon yunaltirish, duch kelishi mukin bo'lgan muammolarni oldindan kura bilish va xisobga olib, vaktni to`gri taksimlash;

Loyixalashtira bilish—faoliyatni anik bir loyixa asosida, tarbiyalanuvchining shart—sharoitlari va mavjud muxit talablarini xisobga olib, anik bir tartibda olib borish, o`z faoliyatining xar bir boskichida ijobjiy va salbiy natijalarini to`gri taxlil kila olish; kirishuvchanlik— ya'ni bolani eshitish va tinglay olish, bola bilan mulokot jarayonini osonlashtirish, bola muammosini to`gri tushunish uchuy zarur axborot va ma'lumotlarni tuplash.

**Ijtimoiy pedagog faoliyati soxalari.** Ijtimoiy pedagog lavozimi bugungi kunda ikkita idorada — ta'lim muassalarida va yoshlar ishi buyicha muassasalarda joriy etilgan.

YOshlar ishi buyicha idoralarda mazkur lavozim 8 xil muassasada ruyxatga kiritilgan. Bular: bolalar klublari, bolalar ijodiy markazlari, yoshlar yotokxonasi, usmirlar dam olish maskanlari, yoshlar ta'lim markazlari, kasbiy yunaltirish markazlari, bandlik markazlari, bolalar va yoshlar mexnat birjalaridir.

Ta'lim soxasida esa pedagog 6 xil muassasada ruyxatiga kiritilgan. Bular: maktabgacha tarbiya tashkilotlari, umumta'lim muassalari, umumta'lim internatlari, bokuvchisini yukotgan bolalar uchun umumta'lim idoralari, maxsus ta'lim muassasalari, boshlangich kasbiy ta'lim muassasalaridir.

Ijtimoiy pedagog lavozimi mazkur ikki idorada joriy etilgan bulsada, aslida ularga bo'lgan talab yana xam kengrok. Bunday lavozim deyarli barcha ijtimoiy soxalarda joriy etilgan. Ular soglikni saklash muassalarida (ruxiy nosoglom, giyoxvand bolalar uchun), axolini ijtimoiy ximoyalash muassasalarida (imkoniyati cheklangap usmirlar reabilitatsiya markazlarida, voyaga etmaganlarni reabilitatsiya qilish markazlarida), ichki ishlar organlari tarmogidagi muassasalarda

Ijtimoiy pedagogik ishlar faol g'oyaviy – axlokiy imkoniyatlarga ega. U shaxs xulkida paydo bo'lgan salbiy elementlarga karshi kurashda muxim omilga aylanadi. U ijtimoiy fikrni shakllantirish yuli bilan jamoada soglom ma'naviy – axlokiy muxit xosil qilishga ta'sir kursatadi, ilgor ijtimoiy kadriyatlarni mustaxkamlaydi, shaxs kadr – kimmatini ta'minlaydi, konunni xurmat qilishga o'rgatadi. Bu ayniksa bugungi kunda, jamiyat ma'naviy yangilanish jarayonini boshidan kechirayotgan bir davrda muxim axamiyatga ega.

Tarbiyaviy faoliyatning muxim zaxiralaridan yana biri – ommaviy targibot bilan boglik bo'lib, g'oyaviy – tarbiyaviy ishlarning barcha shakllarida gayrat va tashabbus talab etiladi. Bunda davlat va jamoat tashkilotlari tomonidan ommaviy – tashqiliy tadbirlar utkazish, kechalar, bayramlar, rasm – rusmlar, urf – odatlar, jumladan «Navro`z », «Xotira va kadrlash kuni» va boshka tadbirlar muxim axamiyatga ega. Ommaviy ishlarda ijtimoiy – tarbiyaviy muvaffakiyatlarga ommanning ijtimoiy – madaniy faoliyat yunalishini chukur anglagan xoldagina erishish mumkin. Bu, birinchi navbatda. Pedagogik tamoyillar asosida ma'rifiy

muassasa ishlarini tashkil etishda va metodikasida o`z ifodasini topadi. Tadbirlarni faqat g`oyaviy yunalishini emas, ayni chogda ijtimoiy – pedagogik, ijtimoiy – psixologik moxiyatini anglash, tashqiliy ishlarda uning mexanizmlarga tayanish zarur.

Milliy ongni uygotish va shakllantirish o`zini anglashdan boshlanadi. Milliy gurur – bu o`z yurtining tarixini bilish, xalkning madaniy merosini ximoya qilish, millliy kadriyatlarni tiklash, o`zligini anglash va namoyon etish kabilarni bildiradi.

Ma’naviy – ma’rifatchilik ishlarini yangi boskichga kutarish uchun barcha ta’lim muassasalarida targibot va tashvikot ishlarni amalga oshirish zarur. Afsuski, bugungi kunda xamma o`quvchi davlat ramzlari ularning ma’nosи biladi, deb bulmaydi. Prezidentimiz ta’kidlaganidek, «Milliy ramzlarimiz bizning milliy gururimizni kutarishga xizmat kiladi. Ularning xar biri ulkan darslik, tarbiyaning kuchli vositasidir». Mana shuning uchun xam joylarda davlat ramzlari asosida kurik – tanlovlar, munozaralar utkazish maqsadga muvofik. Xar bir odam davlat ramzlarini butunlay yoki kisman bilmay turib, uylab kursin, shu davlatning munosib fuqarosiman, shu xalkning ugliman yoki kiziman deya oladimi? Milliy ongni shakllantirishda davlat ramzlarining buyuk axamiyati borligini tushuna oladimi?

## **Ma’ruza-9**

### **Mavzu: Ijtimoiy pedagogning bolalar va usmirlar orasidagi reabilitatsion xizmati modeli va mexanizmi**

1. Bolalar va usmirlarga yordam kursatish majmuasining umumiy kontseptsiyasi.
2. Bolalar va usmirlarga yordam kursatish xizmati strukturasi va tuzilish tamoyillari.
3. Ta’lim tizimidagi xududiy reabilitatsion xizmat.
4. Reabilitatsion xizmatni boshkarish modeli va uni amalga oshirish mexanizmi.

### **Tayanch tushunchalar**

Psixologik krizis, jamiyatni soglomlashtirish, konstitutsion haq-huquqlar, ekstremal xolatlar, kaltis gurix, xududiy reabilitatsion xizmat, psixosomatik, asabiy, pedagogik yordam,

### **Nazorat uchun savollar**

1. Bolalar va o’smirlarga yordam ko’rsatishnihg umumiy kontseptsiyasiga izox berihg?
2. Yordam ko’rsatish xizmati strukturasi va tuzilish tamoyillarini aytib berihg?
3. Bolalar va o’smirlarga yordam ko’rsatish tuman xizmat bo’limlari strukturasiga izox berihg?

4. Reabilitatsion xizmatni boshqarish modelini chizib berihg?

5. Bolalar va o`smirlarga yordam ko`rsatishning umumiyligi kontseptsiyasiga izox bering.

6. YOrdam ko`rsatish xizmati strukturasi va tuzilish tamoyillarini aytib bering.

7. Bolalar va o`smirlarga yordam ko`rsatish tuman xizmat bo`limlari strukturasini ko`rsating.

8. Reabilitatsion xizmatni boshqarish modelini chizib bering.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Kurbanov SH. «Mustaqillik poydevori». Halq ta'limi. 5-son. 2003y. 14-18b.
2. Ovcharova N. Spravochnik sotsialnogo pedagoga. M. Sfera. 2001g.
3. S. Fauntin. Noyob huquqlar. YUNISEF. 1993 y.
4. Quronov M., Kurbanniyazova Z. «Ijtimoiy pedagogika». Ma'ruza matnlari to`plami. T. 2003 y.
5. Bola huquqlari tugrisidagi Konventsya. T. «O`zbekiston». Bolalar jamg`armasi. 1993 y.

### **Bolalar va o`smirlarga yordam ko`rsatish majmuasining umumiyligi kontseptsiyasи.**

Maxsus statistika va sotsiologik tadqiqotlar shuni ko`rsatadiki, ko`plagan mamlakatlarda bolalar va o`smirlar og`ir axvolda yashayotgan bo`lib, bunday og`ir ahvol, nochorlik ularning: - psixologik va fiziologik sog`ligining pasayib ketishida, haq-huquqlarining buzilishida, ularga nisbatan kuch, zo`ravonlik ishlatilishida, alohida pedagogik faoliyat, xizmat ko`rsatish talab etiladigan, shuningdek, ijtimoiy kelib chiqishi past tabaqa oilalarning farzandlarini maktablardan siqib chiqarilishida, bunday bolalar va o`smirlarni ish bilan ta'minlash, joylashtirishda umum davlat tizimining yo`lga qo`yilmaganida, aqliy jihatdan orqada kolgan, jismonan ojiz va zaif bolalar hamda o`smirlarni o`qitish, ular bilan korreksion ish olib borish, ish bilan ta'minlash muammolarining davlat organlari, progressiv jamoatchilik tomonidan nazardan chetda qoldirilganligida namoyon bo`lmoqda.

Mana shu kabi dolzarb muammolarning davlat miqyosida hal etilmaganligi balog`atga etmagan etim, qarovsiz, aqliy jihatdan orqada kolgan bolalar va o`smirlar o`rtasida jinoyatchilikning ortib borishiga sabab bo`lmoqda. SHu sababli: - Bolalar va o`smir yoshlarning ijtimoiy hayotini, ularning ichki ma`naviy dunyosini sogqlamashtirishga oid chora va tadbirlarni zudlik bilan amalga oshirmoq kerak. Buning uchun esa: 1. bolalar va o`smirlar rivojlanishining buzilish sabablarini aniqlash, ularga pedagogik, psixologik, tibbiy yordam berishning usul va vositalarini belgilab olib, amalda bajarilishini yo`lga qo`yish. 2. Normal bola va o`smir shaxsini rivojlantirishga qaratilgan tarbiya va ta`lim jarayonini adekvat taxlil etish lozim.

Voyaga etmagan yoshlarning aqliy, jismoniy va psixologik jihatdan orqada kolishini bartaraf etish faqatgina jamiyatni (iqtisodiy, ma`naviy va siesiy) sog`lomlashtirish va umuminsoniy qadriyatlar asosida shaxsni rivojlantirishni ta'minlaydigan tarbiya va ta`lim berish tizimini yaratish asosida amalga oshiriladi. Bunda eng asosiy vazifalardan biri bolalar va o`smirlarga yordam ko`rsatish tizimini tubdan isloq qilishdir. Bu tizim bolalar va o`smirlarning ma`naviy-axlokiy sogligini,

konstitutsion haq-huquqlarini ximoya qilishga qaratiladi. Bulardan biri bolalar huquqini ximoya qilish haqidagi Konventsiyadir.

### **Bolalar va o`smirlarga yordam ko`rsatish xizmati strukturasi va tuzilishining tamoyillari.**

YOrdam ko`rsatishning reabilitatsion xizmati bolalar va o`smirlarga ijtimoiy - huquqiy, psixologik, tibbiy va pedagogik jihatdan qo`llab quvvatlashni ta'minlashga qaratilgandir. Bu xizmat ularning : a) turmush sharoiti va tarbiyasini jadallashtirishga ko`mak berishi orqali, b). shaxsiy mol mulkka egalik huquqlarini himoya qilish orqali, v). voyaga etmagan yoki estremal holatlarga tushgan, sharoiti og`ir oila farzandlariga turli xilda yordam berish orqali, g). qaltis guruxdagi oilalar va voyaga etmaganlarga yordam berish orqali, d). kashandachilikka ruju qo`ygan oilalarning, ekstremal holatlarning qurbanini bo`lgan yoki ota-onasiz qolgan voyaga etmagan bolalarga turli xil yordam berish orqali amalga oshiriladi.

Ijtimoiy-huquqiy, psixologo-tibbiy va pedagogik yordam quyidagi tamoyillarga asoslanadi:

1. qonunga muvofiqlik, 2. insonparvarlik. 3. adolatparvarlik. 4. demokratiya. 5. tashkilotchilik va nazorat. 6. differential va individual yondashish. 7. o`z vaqtida yordam berish. 8. yordamning etarli va kompleksli bo`lishi. 9. ilmiy asoslanganganlik va xizmat ko`rsatishda hududni xisobga olish.

Hududiy tamoyildan kelib chiqqan holda xizmat ko`rsatish ma'lum davlat organlari tomonidan amalga oshiriladi. Xizmat tajribalarini umumlashtirish, ilmiy-metodik tavsiyalar berish, xizmat ko`rsatish xodimlarining malakasini oshirish uchun shaxar, viloyat, tuman va Respublika ilmiy metodik markazlari tashkil etiladi. Ularning eng asosiysi tuman ijtimoiy xizmat ko`rsatish tashkilotidir. Bolalar va o`smirlarga yordam ko`rsatishning tuman xizmat bo`limlari quyidagi strukturada tashkil topadi:

1. Psixologo-tibbiy, pedagogik yordam ko`rsatish.
2. Kasb tanlash buyicha maslahat berish bo`limi.
3. Tashqiliy axborot bo`limi.
4. Oilaviy hayotning uygunligini ta'minlash va jinsiy tarbiya bo`limi.
5. Metodik ishlar bo`limi.
6. O`qituvchi va tarbiyachilar bilan maslaxat berish ishlarini olib borish bo`limi.

### **Ta'lim tizimidagi hududiy reabilitatsiya xizmati.**

Xar bir hududda bolalar va o`smirlarga ijtimoiy yordam ko`rsatish xizmati ma'lum kontingent asosida hududni inobatga olish tamoyilidan kelib chiqib amalga oshiriladi. Ta'lim tizimining reabilitatsiya xizmati – bu har bir bolaning yaxshi rivojlanishini va ijtimoiylashuvini ta'minlovchi, ularni kompleks xolda reabilitatsiya qilishga qaratilgan elitar, adaptiv tashkilotlar (muktablar), profilli (kesim) tashkilotlarning umumiyligi xizmatidir.

Reabilitatsiya qilish xizmatining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

1. Bolalar va o`smirlarning rivojlanishidagi o`zgarishlarning (deformatsiyalanish) sabablarini aniqlash.
2. Ularni bartaraf etishning vosita va usullarini topish.
3. Ta'lim-tarbiya va yashash sharoitini jadallashtirish.

4. Normal shaxsning shakllanishiga qaratilgan adekvat (bir xil) pedagogik jarayonni vujudga keltirish.

5. Maxsus rehabilitatsion xizmatga muxtoj bolalarga korreksion rivojlantiruvchi maxsus dasturlar asosida xar tomonlama yordam berish va xokazo.

### **Reabilitatsiya qilish tamoyillari:**

1. Hududdagi iqtisodiy, ijtimoiy, hududiy uziga xosliklarni inobatga olish.
2. Reabilitatsion tadbirlarning xilma-xilligi.
3. Pedagogik, ijtimoiy-psixologik va biologik metodlarning birligi.
4. Boskichlilik.
- 5 Individuallik, gumanistik yondashish.

### **Reabilitatsion xizmat ko`rsatishning axamiyati:**

- a). Bolaning sog`ligini, qiziqishi va huquqlarini himoyalash.
- b). Deviatsiya xolatidagi rivojlanishni oldindan profilaktika qilish.
- v). Pedagogik jarayonni insonparvarlashtirishni tashkil etishdan iborat.

### **Reabilitatsiya qilish ob`ektlari va sub`ektlari:**

1. Ijtimoiy-pedagogik jihatdan karovsiz kolgan bolalar.
2. Voyaga etmagan huquqbuzarlar, deviant, dezadaptatsiyalangan bolalar va etimlar.
3. Psixosomatik va asabiy, ruxiy kasallangan bolalar.

### **Reabilitatsion xizmatni boshqarish modeli va uni amalga oshirish mexanizmi.**

Hududdagi ijtimoiy madaniy vaziyatlarning uziga xosligi reabilitatsion xizmatning ma'lum modelini yaratish imkonini beradi. Bu model bola va o`smirlarning:


1. Umumorganizmini reabilitatsiya qilish (tibbiy).
2. SHaxs sifatida reabilitatsiya qilish (psixologik).
3. Ijtimoiy sub`ekt sifatida (ijtimoiy).
- 4.Faoliyat sub`ekti darajasiga ko`tarishga qaratilgan reabilitatsion xizmatnihg bo`lishi kerak. Bu quyidagi ko`rinishga ega bo`ladi:

**Ijtimoiy reabilitatsion vazifa-** nogiron, jismoniy va ruxiy nuksnlarga ega bolalar bilan tarbiyaviy va o`quv ishlarini olib borishdir. Bunda asosiy ijtimoiy vazifalarni pedagog bajaradi.

*SHu bilan birga u vazifalarning yanada kengrok tavsiflarini xam beradi:*

- 1.falokatga uchragan bola(o`smir)larga yordam ko`rsatish. Inkirozdan chikish yo`llarini topish, kiyin vaktda ko`llab-kuvvatlash xam muximdir;*
- 2.bola(o`smir)ni, uning xolatini, oila va maktabdagi munosabatlarini o`rganish;*
- 3.bolani o`rab turgan va unga ta'sir kiluvchi turli ijtimoiy soxalardagi ijtimoiy tarbiya xolatining taxlili;*
- 4. ijtimoiy pedagog dikkatini ijobiy tajribani taxlil qilishga, tarkatishga va tarkib qilishga karatishi;*

- 5.u bola(o`smir) faoliyatini o`z-o`zini tarbiyalash, o`z-o`zini o`kitish va o`z xayotini mustaqil tashkil kila bilishga karatishi ;
- 6.ijtimoiy pedagog bola (o`smir) muammolarini xal kiluvchi, uning inkirozi, xukuklariga alokador tashkilotlar xamda mutaxassislarni birlashtirish bilan xam shugullanishi;
7. ijtimoiy pedagogning vazifalaridan biri ijtimoiy tarbiyaning turli muammolarini o`rganishni tashkil qilish, ijtimoiy pedagoglar faoliyatini taxlil qilishdan iboratdir.



Hududiy reabilitatsion xizmati xodimlarining faoliyati ular agarda quyidagi mexanizm asosida faoliyat yuritsalar samarali bo`ladi, ya`ni:

1. Reabilitatsion xizmat ko`rsatishda muassasalararo umumhamkorlik.
2. Reabilitatsion xizmat ko`rsatishni ilmiy metodik ta'minlash.
3. Reabilitatsion xizmatda kadrlar masalasi yo`lga qo`yilgan bo`lsa.
4. Reabilitatsiya qilish ob'ektlarini tanlash va diagnostika qilish.
5. Reabilitatsiya sub'ektlarining kelishuvi asosida faoliyat yuritilsa.

## Ta’lim muassasalarida reabilitatsion faoliyat tizimi

Reabilitatsion faoliyat vazifalari, ob'ektlari va yo`nalishlari	Bu yo`nalishda faoliyat yuritadigan muassasalar	Reabilitatsion dasturlarni amalga oshiruvchi ishchilar toifalari
<p><b>1) Ruxiy-pedagogik reabilitatsiya.</b>          Ob'ekt- ijtimoiy va pedagogik karovsiz bolalar.          Vazifalari:          -maktab va oilaviy kamsitishlarni engish          -etakchi faoliyatda muvafakkiyatga erishish          -rukij va shaxsiy rivojlantirishning uygunlashuvi          -ijobiy “men” obrazini shakllantirish          - ijtimoiy adovat profilaktikasi</p>	Umumta’lim muktabgacha muassasalari maktablar, oddiy gurux (sinf) korreksion sinf, individual o`kitish maktablari, o`smirlar va bolalarga psixologik yordam ko`rsatish markazlari.	Pedagoglar. psixologlar. Logopedlar. Korreksion o`kituvchilari. Amaliy ta’lim
<p><b>2) ijtimoiy pedagogik reabilitatsiya.</b>          Ob'ekti-nizoli tarbiviyl vaziyatda kolib ketgan dezadaptatsiya bo`lgan bolalar, voyaga etmagan xukukbuzarlar vazifalari:          -xukuklarni ximoya qilish, vasiylik          -nazoratsizlikni oldini olish          - ijtimoiy zararli omillar profilaktikasi          - ijtimoiy makomning tiklanishi          -psixofizik va shaxsiy rivojlanish sur'atlarini ushlab kolish</p>	Go`daklar uyi. Bolalar uyi. Maktab internati. Maxsus maktablar, xospislar. Ijtimoiy yordam va ijtimoiy reabilitatsiya markazlari	ijtimoiy pedagoglar. ijtimoiy ishchilar. Amaliy psixologik tarbiyachilar. Bolalar xukuklarini ximoya kiluvchi inspektorlar. Psixoterapevtlar. Psixonervologlar.
<p><b>3) tibbiy pedagogik reabilitatsiya.</b>          Ob'ekt-nogiron bolalar surunkali kasalliklarga chalinuvchi bolalar, akliy imkoniyatlari cheklangan bolalar          Vazifalar:          -tarbiyaviy mikromuxit gigienasi          -sogolomlashtirish va davolash          -tibbiy profilaktika          -soglikni saklash          - ijtimoiy adaptatsiya va reabilitatsiya          -zaxiradagi imkoniyatlardan foydalanish          -kompensatorlik rivojlantirish funktsiyalarini</p>	Korreksion muktab nogironlar uylari, soglik markazlari, davolash markazlari, terapevrt pedagog, muktabgacha muassasalar va logopedik guruxlar, raebilitatsiya markazlari	Pedagog-defektolog. O`kituvchi-defektolog. Tarbiyachilar. Valeologlar, ijtimoiy ishchilar. ijtimoiy pedagoglar, tibbiy xodimlar. Psixolog-defektologlar.

Ijtimoiy jihatdan qarovsiz qolgan o`smirlarning o`z oilasidan va maktabdan begonalashishi ancha chuqur xarakter kasb etadi. Ularning shakllanishi asosan antiijtimoiy va kriminal guruqlar ta'siri ostida kechadi. Ular uchun salbiy ijtimoiy xarakterlar, qonunga qarshi bo`lgan faoliyatlar (daydilik, narkomaniya, mastlik – mayxo`rlik, tajavvuzkorlik, tovlamagarchilik, yulg`ichlik) xarakterlidir. Odatda ular

kasbiy yo`nalmagan, mehnat qilishga mutloqo hohishlari bo`lmay, parazitik xayot kechirishga moyillik juda kuchli bo`ladi. Bunday o`smirlar bilan o`quv – tarbiya muassasalari sharoitida ish olib borish, ularni tuzatish qiyin. SHu sababli ularni voyaga etmagan o`smirlar bilan ish olib boruvchi militsiya bo`limida hisobga qo`yish va mahsus, yopiq tipdagi o`quv – tarbiya muassalariga o`tkazish lozim.

Dezadaptatsiyalashuvning xarakteriga qarab shaxsni tuzatish, reabilitatsiya qilishda odam psixikasidagi salbiy tomonlarni aniqlovchi, psixologo –pedagogik jihatdan tuzatuvchi dasturlar yoki ijtimoiy –pedagogik jihatdan shaxsni ijtimoiylashtirish dasturlari ko`proq qo`llaniladi.

Reabilitatsiyalanish jarayonining qiyin kechishi ham mumkin. Bunda bir bola – o`smirning o`zida dezadaptatsiyalanishning turli shakllari, ya`ni, patogen, ruxiy – ijtimoiy va ijtimoiy xillari qo`shilib ketgan bo`ladi. Demak, diagnostika –korreksiya qilish dasturlari ham shunga yarasha yuqorida sanab o`tilgan dezadaptatsiyalanish shakllarini tuzatishga qarata yo`naltirilmog`i lozim.

YOsh bolalar va o`smirlarni ijtimoiy reabilitatsiyalash muassasalari xozirgi davrda Ta`lim vazirligida, mehnat va ijtimoiy rivojlanish vazirligi, sog`liqni saqlash vazirligi va boshqa turdag'i ko`mitalarda, jamiyatlarda tuzilmoqda.

YOsh bolalar va o`smirlar dezadaptatsiyalanishining eng murakkab va chuqur shakllarini ijtimoiy jihatdan reabilitatsiyalash (sog`lamlashtirish) muassasalarida kuzatiladi. Bunday muassasalarga bolalar uylari (etimxonalar) kiradi. Bolalar uylarida «ko`cha bolalari», daydi bolalar, ijtimoiy etim bolalar, ota yoki onalik huquqidan mahrum etilgan kishilarning bolalari tarbiyalanadi.

Bolalar bilan olib boriladigan ijtimoiy reabilitatsiya ishi qoida bo`yicha ijtimoiy –maishiy va tibbiy –ijtimoiy reabilitatsiyalashdan boshlanadi. Bunda bolalarni vannadan qanday foydalanish kerakligiga, issik ovqat eyishga, choyshabli yostiqda qanday uqlash lozimligiga va boshqa ishlarga o`rgatishadi. SHuningdek, ruxiy – emotsiyonal reabilitatsiyalash ishlariga ham katta ahamiyat beriladi. 1 – chi navbatda shinam uyda bekami ko`st yashash sharoitlari yaratib beriladi, xizmatchilar va tarbiyachilarning xayrihoxligi hamda maxsus ruxiy muolaja usullari, ya`ni, eng avvalo, o`yin terapiysi, ertak terapiya, ruxiy terapiya qilish teatridir. Kattaroq yoshdagi bolalar va o`smirlar turli shakldagi mehnatga, masalan, o`yinchoqlar, yodgorlik buyumlari va boshqa narsalarni tayyorlaydigan tikuv va duradgorlik kabi ustaxonalarda ishlashga tortiladi. Bolalar uylarida tarbiyalanayotgan bolalarga nisbatan qo`llanilayotgan reabilitatsion tadbirlar qatorida bolaning oilasi bilan olib boriladigan ijtimoiy –pedagogik ishlarga katta o`rin beriladi. Agarda bolaning oilasi bo`lmasa yoki uning oilasidagi sharoit mutlaqo yaroqsiz bo`lsa, bolani qabul qilib (saqlab oladigan) olishga rozi bo`ladigan oila tanlanadi. Agar bola o`sha oilada yashashga moslashib, o`rganib ketsa, oila va bolaning roziligi bilan vasiylik qilish to`g`risidagi xujjat yoki o`g`il qilib olish xujjati rasmiylashtiriladi.

Bolalarning ijtimoiy –reabilitatsiyalash muassasalarida bo`lish vaqtı uni bo`lg`usi doimiy yashash joyiga o`rnashtirishgacha ketadigan vaqt bilan chegaralangan. Bola yoki o`z oilasiga (agar yashash sharoiti yaxshilansa) qaytariladi yoki uni o`g`il qilib olgan oilaga, yo bo`lmasa, davlat tarbiya muassasalari – bolalar uylariga va maktab – internatlarga beriladi.

Boshlang`ich maktab o`quvchilari uchun reabilitatsiya qilish tadbirlari ichida birinchi o`ringa psixologo –pedagogik diagnostika va tuzatish dasturlari chiqadi. Bunda, boladagi bilish, idrok etish soxasidagi illatlar aniqlanadi. Bu illatlar tuzatish – rivojlantirish orqali ta`lim – tarbiya berish jarayonida yo`qotila boriladi va bu tibbiy – ijtimoiy reabilitatsiyalash va harakatlantiruvchi korrektsiya qilish ishlari bilan qo`sib olib boriladi.

O`smirlar yoshidagi dezadaptatsiyalangan o`quvchilar uchun kasbiy yo`naltirilganlik, ishchi kasblarga ularni tayyorlash, shaxsni ruxiy jihatdan tuzatish va shaxslararo munosabatlarni ijtimoiy – psixologik korrektsiya qilish 1 – chi o`rinda turadi. Bunday o`smirlarning oilalariga ijtimoiy –pedagogik va psixologik jihatdan yordam berish ham katta ahamiyatga ega. Ko`p bolalik oilalarni tadqiq etish shuni ko`rsatmoqdaki, ularga moddiy yordam ko`rsatish bilan bir qatorda bunday oilalarni psixologo–pedagogik jihatdan qo`llab–quvvatlash ham katta rol o`ynaydi. Dezadaptatsiyalashgan yosh bolalar va o`smirlarni reabilitatsiya qilish markazlarining faoliyati, uning mazmuni va printsiplari quyidagicha bo`lishi mumkin:

- 1.Diagnostikaga (kasallikni aniklash usuliga) kompleks yondashish va bolalarni o`qitish va tarbiyalashda ularning potentsial imkoniyatlarini to`la ishga solish;
- 2.Ta`lim va tarbiya berishda muammolarga ega bo`lgan bolalarga yakka holda va shuning bilan birga differentsial ravishda yondashish;
- 3.Ushbu toifaga kiruvchi bolalarni o`qitish va tarbiyalash ishlarini tashkil etishda turli xildagi usullardan, o`qitishni tashkil etish shakllaridan foydalanish;
- 4.Psixofiziologik funktsiyalari buzilgan bolalarni dastlabki kunlardayoq tibbiy psixologo–pedagogik tashxizdan o`tkazib, ta`lim olishlariga to`sinqinlik qiladigan asosiy ijtimoiy dezadaptatsiyalashuv sabablarini aniqlash.
- 5.O`qitish va tarbiyalashning korreksion yo`naltirilganligi.
- 6.O`qitish va tarbiyalash tizimining bolalarni sog`ligini asrash va rivojlantirishga qarata yo`naltirilganligi.
- 7.YOsh bolalar va o`smirlar huquqlariga rioya etib, alohida diqqat–e'tiborga muhtoj bo`lgan bolalarga ijtimoiy patronaj (tibbiy–profilaktik yordam) xizmatini yo`lga qo`yish.

### **Markaz faoliyatidan ko`zlangan maqsad quyidagicha:**

- 1.«Tavakkal guruxi»ga kiruvchi bolalarga amaliy jihatdan psixologo – pedagogik reabilitatsiyalash yordamini ko`rsatish;
- 2.Maktabda o`qitishni xush ko`rmaslik va ijtimoiy dezadaptatsiyalashuv ko`rinishlarini yo`qotib, ularda o`qish, bilishga qiziqish hamda xohish – istak uyg`otish;
- 3.O`quv–tarbiya jarayoniga yangicha yondashish usul va vositalarini ishlab chiqib, amalda sinab ko`rish;
- 4.Bolalardagi mavjud qobiliyatlarni rivojlantirish, ularni ruxiy rivojlanishining o`ziga xos xususiyatlarini o`rganish, bola shaxsidagi aqliy va jismoniy qusurlarning ruxiy–ijtimoiy sabablarini aniqlash;
- 5.YOsh bolalar va o`smirlarning ijtimoiy–huquqiy ximoyasini ta`min etish;
- 6.Maxsus ixtisoslashtirilgan umumta`lim muassasalari sharoitda «Tavakkal guruxi»dagi bolalarga amaliy jihatdan ko`rsatilgan psixologo–pedagogik reabilitatsiyalash ishlari tajribasidan ilmiy asoslangan umumlashmalar chiqarish.



## **Psixologo – pedagogik reabilitatsiyalash jarayonida Markaz tomonidan echilishi lozim bo`lgan asosiy masalalar:**

- 1.Ta’lim olishda, muloqat qilishda va boshqa xollarda muammolarni kelib chiqish sabablarini aniqlash maqsadida tibbiy –psixologo–pedagogik kompleks diagnostika qilishni amalga oshirish;
- 2.Har bir bola uchun o’qitishning uning optimal usulini va uning shaxsiga psixokorreksion ta’sir etish chora – tadbirlarini tanlash;
- 3.«Tavakkal guruhi»dagi yosh bolalar va o’smirlarning har biriga ayrim xolda pedagogik, psixologik, ijtimoiy huquqiy va tibbiy yordam ko’rsatish;
- 4.Bolalarning ota – onalari yoki ota – onasi o’rnidagi kishilarga **bolaning ta’lim va tarbiyasi, uni davolash yo’llari haqida maslaxatlar berish;**
- 5.Reabilitatsion – korrektsiya qilish faoliyati masalalari bilan shug’ullanuvchi mutaxassislarga uslubiy va amaliy jihatdan yordam berish;

### **Markaz faoliyatining asosiy yo`nalishlari:**

- 1.Diagnostika (tashxis etish).
- 2.Psixokorreksiya.
- 3.Sog`lomlashtirish.
- 4.O`quv – tarbiyaviy.
- 5.Ijtimoiy – huquqiy.
- 6.Maslahat (konsultatsiya berish).
- 7.Ilmiy – uslubiy.
- 8.Ijtimoiy – tahliliy.
- 9.Ijtimoiy – tahliliy va ma’rifiy.

Diagnostika yo`nalishi yosh bolalar va o’smirlarning psixik va jismoniy rivojlanish darajasini kompleks tarzda psixologik – tibbiy – pedagogik jihatdan diagnostika qilishni nazarda tutadi. SHuningdek, bunda –shaxs rivojlanishida har bir boladagi, ularning xulq – atvorigagi chetga chikishlar; ayrim psixik jarayonlar; o`quvchilarning ta’lim va tarbiya muassasadagi sharoitga ko’nikishlaridagi (adaptatsiyalashuvi) qiyinchiliklar ham o`rganiladi.

Diagnostika (kasallikni aniqlash usullari) o’tkaziladi:

- Individual, ya’ni yakkama yakka, psixologga birinchi marta murojaat etilganda, psixokorreksion ta’sir etish natijalarini bilish uchun olib borilgan psixokorreksion ishlar jarayonida;

- Guruhiy–ijtimoiy – psixologik so’rovlar o’tkazilganda.

- Psixologlar–diagnostlar xarakter xususiyatlarida turli muammolari mavjud bo`lgan bolalar bilan ish olib boradilar. SHuningdek, o’z bolalaridagi psixofiziologik rivojlanishlarida turli xildagi salbiy ko’rinishlardan tashvishga tushgan, xavotirlangan ota – onalar bilan ham shug’ullanadilar.

**Psixokorreksion yo`nalish** psixoprofilaktika va korrektsiya qilish ishlarini ko’zda tutadi, ya’ni:

- yosh bolalar va o’smirlar psixikasida dastlabki salbiy ko’rinishdagi xolatlar kuzatilganda;

- voyaga etmagan bolalar jinoyat, qonunbuzarlik, ijtimoiy, texnologik va tabiiy ofatlarning yoki boshqa ko'ngilsiz voqealarning qurboni bo'lib, ularning psixikasi shikast topganida;
- shaxsning o'z rivojlanishidan chetga og'ishini to'ldirish maqsadida va xulq-atvor normalariiga to`g'ri kelmaydigan xatti – harakatlar qilinganda;
- shaxslararo munosabatlarni korrektsiya qilish, to`g`irlash maqsadida;
- shaxs xarakteriga oid turlicha salbiy ko`rinishdagi odatlarni yo`qotish maqsadida;
- bolani ma'lum sotsiumda moslashtirish, adaptatsiyalantirish uchun. Sog`lamlashtirish –yo`nalishi quyidagicha ishlar olib borilishini nazarda tutadi:
- bolaning rivojlanishidagi chetga og'ishlarning sabablarini va xarakterini chuqur diagnostika qilish uchun;
- ruxiy-psixik va jismoniy kasalliklarni oldini olishga yo`naltirilgan bir qator davolash–sog`lamlashtirish tadbirlarini ishlab chiqish va o`tkazishni;
- har bir bolaning sog`ligini tiklash uchun individual dasturlarning ishlab chiqilishini;
- «**tavakkal guruxi**»dagi yosh bolalar va o'smirlar o'quv faoliyati uchun zarur shart – sharoitlarni yaratishni.

Ijtimoiy–huquqiy yo`nalish balog`atga etmagan yoshlarga ijtimoiy hayotga va mehnatga ko`nikishlarida, kasb–kor tanlashlarida, ishga o`rnashishlarida yordam berishni ko`zda tutadi. Bunday bolalarning huquqlari qonun bo'yicha himoya qilinadi; huquqiy masalalar bo'yicha ular va ota – onalarga konsultatsiyalar beriladi; ularning xulq – atvor normalarini buzishlarini oldi olinadi, daydilik qilishlariga, qarovsiz, boshpanasiz qolishlariga o'z – o`ziga suiqast qilishlariga yo`l qo`ymaslik choralarini ko`rildi.

**O`quv–tarbiyaviy yo`nalishi** deganda, psixofiziologik rivojlanishda nuqsoni bo`lgan, ijtimoiy hayot sharoiti yomon bo`lgan bolalarni ta'lim dasturlarini o`zlashtirishlarida qiyinchilikka uchrashi sababli, ularni o`qitishni ta'lim olishini amalga oshirishni ta'minlash tushuniladi.

#### **Markazning ilmiy – uslubiy ishiga quyidagilar kiradi:**

- bola shaxsi rivojlanishida chetga og'ishlarni korrektsiya qilish va yo`qotishda umumta'lim muassasalari olib boradigan profilaktika ishlarida yordam berish;
- «**tavakkal guruhi**»dagi bolalar bilan markaz mutaxassislari ish olib borishlari uchun ularga tadqiqot ishlarini rejalashtirish va o`tkazishga oid o`quv rejalarini, dasturlarini va uslubiy materiallarni ishlab chiqish;
- tadqiqot materiallarini va ulardan korreksion – rivojlanuvchi ta'lim tizimida amalda foydalanish to`g`risidagi ma'lumotlarni chop qildirish;
- yurtimizdagagi va chet ellardagi diagnostika va korrektsiya qilishga doir psixologik – tibbiy – pedagogik metodlarni «**tavakkal guruhi**» bolalarining ta'lim muassasalari ishida qo'llash, sinab ko`rish;
- «**tavakkal guruhi**» bolalari bilan ishlaydigan mutaxassislar uchun doimo ilmiy–amaliy seminarlarni tashkil etish va ta'lim muassasalari xodimlarining malakasini oshirib borish;

#### **Markazning sotsial – analistik va ma'rifiy yo`nalishdagi ishlari:**

- ta'lim va tarbiya oluvchilarning ijtimoiy – pedagogik monitoringi;
- viloyat bo'yicha «tavakkal guruhi»dagi bolalar haqida axborotlarni yig'ish va ular bilan olib borilayotgan ishlar analizi hamda ish tajribalarini umumlashtirish;
- «tavakkal guruhi» dagi bolalar va ularning oilalari xususidagi muammolar haqida axborot bankini tashkil etish;
- «tavakkal guruhi» dagi bolalar va ularning oilalari to'g'risida ommabob materiallarini chop ettirish;

Markazda tarbiyalanayotgan muammoli bolalar bilan ish olib borish tibbiy – psixologo –pedagogik komissiya faoliyatidan boshlanadi. Mutaxassislar tomonidan (psixolog, psixonevrolog, psixoterapevt, pediator, psixiator, logoped va o'qituvchilar) olib borilgan kuzatuv–tekshiruv va tadqiqot asosida bolaning intellektual rivojlanish darajasi va uni Markazda o'quv tarbiya olish istiqbollari aniqlanadi.

Markaz «tavakkal guruhi»dagi turli xildagi muammolarga ega bo'lgan bolalarga psixo – pedagogik, tibbiy – ijtimoiy va huquqiy yordamlar, ya'ni:

### **1. Ta'lim oishlari jarayonida paydo bo'ladigan muammolar:**

- ta'lim oishga etarli darajada tayyor emasligi;
- umumta'lim dasturlarini o'zlashtirishda qiyinchiliklarga uchrashi;
- mакtabga borishdan qat'iy bosh tortishi (maktab fobiysi);
- pedagogik jihatdan mutlaqo tarbiya olmaganligi.

### **2. Sog`ligi bilan bog`liq bo`lgan muammolar:**

- jismoniy kasallik (somatik jihatdan) tufayli bola organizmining umuman kuchsizlanib qolishi;
- turli xildagi xronik kasalliklarga uchraganligi sababli bolalarning umumta'lim maktabida o'qishiga to'sqinlik qilishi, nogironlik;
- jarohatlanish, shikastlanish tufayli paydo bo'lgan sindrom (biror kasallik uchun xarakterli alomatlar majmui);
- logonevroz;
- kasallanish oqibatlarini zudlik bilan bartaraf etilishi oqibatida paydo bo'lgan ruxiy zo'riqishlar;

### **3. Psixofiziologik muammolar:**

- SHaxs xususiyatlarining hamda intellektning rivojlanishida chetga og'ishi;
- Mehnat qilishga deyarlik yaroqsizligi va oliy ruxiy funktsiyalarning rivojlanishida qisman orqada qolishlik;
- SHaxsnинг emotsiонал – irodaviy jihatdan noto'g'ri rivojlanishi;
- Kommunikativlikka xos bo'lgan muammolar (begonalashish, yotsirash sindromi, darg'azablik, janjal chiqarishga kuchli moyillik va boshqa).
- Ruxiy yoki jismoniy zo'rovonlikka uchragani tufayli paydo bo'lgan kasallik oqibatlari;

### **4. Ijtimoiy – huquqiy muammolar.**

- oilaviy muammolar, murakkab hayot sharoitlari.
- bolalar haq – huquqlarining buzulishi, bolaga ruxiy yoki jismoniy jihatdan zo'ravonlik, jabr, zulm qilinishi;
- nobop yoki kam ta'minlangan oilada yashaganligi, ijtimoiy jihatdan ximoyalanmaganligi, etimlik;

- ijtimoiy tomondan noto`g`ri yo`nalganligi, dezadaptatsiya, huquqbuzarlikka bo`lgan moyillik.

Ushbu Markazda «tavakkal guruhi»dagi bola shaxsiga tibbiy – psixologo-pedagogik ko`p vazifali tizim orqali ta`sir etish bolaning individual ruxiy va jismoniy xususiyatlarini hamda sotsiumda yashash sharoitlarini hisobga olgan holda amalga oshiriladi.

YOshlar bilan ish olib boruvchi tashkilotlar tizimida ijtimoiy reabilitatsiyalash muassasalarining roli katta. Ayniqsa o`smirlar klublari va yoshlar birlashmalari ishida ijtimoiy dezadaptatsiyalangan o`smirlarni muvaffaqiyatli tarzda reabilitatsiyalashning muhim shartlaridan biri, bu o`sha bolalarni yangi shaxslararo munosabatlar tizimiga qo`shish, ijtimoiy foydali mehnat jarayoniga jalb qilib, ular uchun tarbiyalovchi muxit yaratishdir.

Bu muassasalar ijtimoiylashtirish institutlarining vazifalarini bajarishlari, ya`ni, o`smirning yo`qotgan oldingi yaxshi xulq – atvorini, uni ijtimoiy mavqeini tiklashga yordam bermog`i lozim. Ijtimoiylashtirishning asosiy institutlari hisoblanmish oila va maktabdan begonalashish tuyg`usini yo`qota borib, asta – sekin ichki qadriyatlar tizimini to`g`ri, normal tomonga yo`naltirmog`i kerak bo`ladi. Bunday qayta ijtimoiylashtirish vazifalarini turli xildagi vaqtinchalik jamoalar: o`smirlar klublari, bo`sh vaqtini o`tkazish markazlari, yozgi mehnat va dam olish oromgohlari bajarishlari mumkin. Bunday muassasalar faoliyatining asosini quyidagi printsiplar asosida tuzish mumkin:

1. Birgalikdagi faoliyat, umumiy maqsadlar, jipslashtiruvchi jamoa.
2. Rivojlanish istiqbollarining (yaqin, o`rta va uzoq kelajak) mavjudligi. U jamoa va uning a`zolari faolligini oshirmog`i kerak.
3. Estetika, intizom va bolalarni o`z – o`zini boshqaruvi.
4. Himoya qilinganligidan ishonch va quvonch, xursandchilik tuyg`usi.
5. Vorislik va uning urf – odat, an`ana va o`yin elementlari kabi shakllari.
6. Boshqa bolalar va kattalar jamoalari bilan yaqin aloqalar.
7. Butun jamoaviy munosabatlar tizimining markazi va asosiy tashkilotchisi bo`lgan tarbiyachi – pedagogning faoliyati.

Bo`sh vaqtini o`tkazish markazi o`z ishini ixtiyoriylik asosida tashkil etganligi sababli uning o`ziga xos bo`lgan xususiyatlari mavjud. Bu ushbu klublarga bolalar qiziqib katnashishlariga yordam beradi. Bunday tarbiya muassasalarida ijtimoiy pedagogik ishning o`ziga xos xususiyatlari, uning juda katta tarbiyaviy imkoniyatlari haqida Rossiyada 1 – chi ijtimoiy – pedagogik markazlarni tashkil etgan mashxur pedagog S. T. Hatskiy shunday deb yozgan edi:

- «Bolalarga ko`chaning juda kuchli ta`sir etishining sababi – bu bolalarning o`sha ko`cha muhiti, sharoitida yashashidir. Bolalarning o`zlari ko`chada yaratgan o`sha muhitni endi klubning o`zi tashkil etmog`i lozim. Binobarin, klub juda hayotiy, jo`shqin, epchil, dasturlanmagan bo`lishi va ushbu klubda ishlovchi kishilar ham juda serg`ayrat, topqir hamda tadbirkorliklari bilan ajralib turmog`i kerak . . . » «...Bolalar hayoti – bu instinctlar o`yinidir. SHu sababli, bolalar klubida ishlovchi kishilar o`sha bolalar hayotini tashkil etuvchi instinctlarni yaxshi tushunib etgan bo`lishlari kerak».

Hatskiy S. T. «Tanlangan pedagogik to`plamlar». 2 to`mlik M., 1980 y.

SHunday qilib, klub jamoasini tashkil etishda bir tomondan bolalar instinktlariga suyanilsa, 2 – chidan – bu erda jo’shqin, tabiiy va sog’lom muhit yaratilgan bo’lishi kerak.

Hozirgi zamondagi ijtimoiy–iqtisodiy vaziyatni hisobga olgan xolda, shuning bilan birga dezadaptatsiyalashgan o’smirlar asosan kam ta’minlangan oilalarda yashashlari tufayli ular hali juda yosh paytlaridan boshlab kun ko’rish uchun ishlashga, pul topishga majbur ekanliklarini e’tiborga olish kerak. Bunda klubning reabilitatsiya etish dasturida eng muhim bo’g’in bolalarni ishchi kasblariga o’rgatish va unumli mehnatga jalb etish hisoblanadi.

O’smirlar klublari va bo’sh vaqtini o’tkazish markazlari o’zining ijtimoiy va psixologik xizmatlariga ega. Psixologik xizmat ko’rsatish xodimlari individual diagnostikalash–korrektsiya qilish dasturlari bilan bir qatorda guruhiy ijtimoiy–psixologik treninglar, o’smirlarni emotsiyal–irodaviy va kommunikativ tomondan korrektsiya qiluvchi psixoterapevtik o’yinlarni tashkil etish bilan ham shug`ullanadilar.

Ijtimoiy pedagoglar va ijtimoiy xizmat ko’rsatish xodimlari yosh bolalar va o’smirlarni ijtimoiy qo’llab – quvvatlash va himoya etish bilan bog’liq bo’lgan turli tuman masalalar bilan shug`ullanishadi. Bular ko’pincha bolaning oilada, mакtabda va ko’chadagi hayot faoliyati bilan bog’liq bo’ladi. Ko’pincha tajavvuz etish, berahmlik, shafqatsizlik va oiladagi kuchli ijtimoiy noxushlikning namoyon bo’lishi shu darajada kattalashib ketadiki, natijada bolani vaqtincha bolalar uyida saqlab turishga to’g’ri keladi.

O’smirlar bilan ishlashda tarbiyasi og’ir o’quvchilar mакtabda ko’pgina ziddiyatli vaziyatlarni yuzaga keltiradilar. Bunda ularga nisbatan olib boriladigan korrektsion tadbirlar kamlik qiladi. Binobarin o’qituvchilar ham bunday o’quvchilarga nisbatan o’z munosabatlarini o’zgartirishlari va o’quvchi shaxsiga baho berishda oldingi noto’g’ri tasavvurlarini o’zgartirmoqlari kerak.

SHuningdek, dezadaptatsiyalangan bolaning ko’chadagi do’stlari ham katta muammo tug`diradi. Ular bolani reabilitatsiyalanish jarayoniga, klublarga qatnashi, bo’sh vaqtini o’tkazish markazlariga borishiga to’sqinlik qilishadi. Bunga yo’l qo’ymaslik uchun ko’cha guruhidagi bolalarning barchasini klub faoliyatiga jalb etib, ularni oldingi xulq – atvor normalari va an’analardan voz kechishlari borasida ish olib bormoq kerak.

Sog’liqni saqlash tizimidagi reabilitatsiya qilish markazlari o’ziga xos xususiyatlari bilan ajralib turadi. Odatda, statsionar davolanishda bo’lgan, ruxiy asabiy kasallangan yosh bolalar va o’smirlar psixologo – pedagogik reabilitatsiya qilishga muxtojdirlar.

## 10—MA’RUZA

### **MAVZU: Deviant bolalar va o’smirlar. Ularni reabilitatsiya qilish yo’llari**

- 1.Fe’l-atvori buzilayotgan hamda ijtimoiy-salbiy xulqli (deviant) toifadagi odamlar shakllanishining asosiy sabablari
- 2.Ijtimoiy fe’l- atvori buzuq kishilar xatti-xarakatlarining tasnifi.
- 3.YOsh bolalar va o’smirlar ijtimoiy-salbiy fe’l-atvori shakllanishini yuzaga keltiruvchi asosiy omillar.

- 4.YOsh bolalar va o'smirlarda salbiy fe'l-atvor ko'rinishlarining shakllanishida oilaning roli.
5. YOsh bolalar va o'smirlar deviant fe'l-atvorini oldini olish va yo'qotish maqsadida olib boriladigan pedagogik faoliyatning asosiy yo'nalishlari.
6. Fe'l-atvori salbiy xarakter kasb etayotgan bolalar xatti-xarakatlarini oldini olish va yo'qotishda oilaning tarbiyalovchilik rolini oshirishga qaratilgan pedagogik faoliyatning mazmuni.

### **Tayanch tushunchalar**

Deviant fe'l-atvor, «ijtimoiy normalar», sotsium, delikvent, preventiv pedagogika, Dyurkgeym, Merton Miller, ruhiy va jismoniy chetga og'ish, korrektsion ta'sir, o'smirlik, o'spirinlik yoshi 11-13, 14- 15 yosh, yigitlik davri, uchinchi dunyo, oilaviy muammolar, tashabbuskorlik, zo'ravonlik, papalab o'stirish, notinch oila, assotsial yo'nalishdagi birlashmalar, tasodifiy guruhlar, retrist guruhi, suitsid, «to'da», ekzekutsiya, umumta'lim muassasalar, maxsus muassasalar, viktimologiya, pedagogik korreksiya markazlari, OAV.

### **Nazorat uchun savollar.**

- 1.CHetga og'ayotgan hamda salbiy (deviant) fe'l- atvorli odam deganda nimalar nazarda tutiladi?
- 2.Preventiv pedagogika nima bilan shug`ullanadi?
- 3.Deviant fe'l-atvorli odam qanday sharoitlarda paydo bo`ladi?
- 4.O'smirlik, o'spirinlik, yigitlik davriga qaysi yoshlar to`g`ri keladi?
- 5.SHaxs shakllanaetgan muhitdagi salbiy omillarni aytib bering?
- 6.Bola o'smirda deviantlikni shakllanishida oilaning roli qanday?
- 7.Deviant fe'l-atvorni oldini olish va yo'q qilishda umumta'lim muassasalarining tarbiyaviy roli qanday?
- 8.Ommaviy axborot vositalarining bolalar va o'smirlar tarbiyasiga ta'siri haqida nimalarni bilasiz?
- 9.Odamning o'zidagi salbiy xulq-atvor ko'rinishlarini yo'qotishda o'z-o'zini tarbiyalashning roli qanday?

### **Foydalilanigan adabiyotlar.**

1. V.A.Nikitin tahriri ostida .«Ijtimoiy pedagogika». Oliy o'quv yurtlari talabalari uchun o'quv qo'llanmasi.M.2002.(ruscha)
2. T.M.Afanaseva. «Oila». T. «O'qituvchi». 1986 y.
3. S.SHamsieva. «Oila go'zalligi». T. «YOsh gvardiya». 1966 y.
4. Teoriya i metodika sotsialnoy raboty. v 2-x t. M., 1994g .

Ijtimoiy-salbiy (deviant) fe'l-atvordagi shaxslar bilan pedagogik ishlarni olib borish muammosini ko'rib chiqish uchun avvalambor, ushbu toifaga kiruvchi kishilarning o'zi kim ekanligini, ularning deviant shaxs bo'lib shakllanishlarining aniq sabablarini aniqlab olmoq zarur.

Norma deganda (lotincha-norma) qonun tusiga kirgan, umumiylajburiy tartib, qoida, qat'iy belgilangan o'lcham, me'yor, marom tushuniladi.

«Ijtimoiy normalar» ifodasi –bu ramziy tarzda belgilangan yoki ijtimoiy amaliyot ta'siri ostida yuzaga kelgan ijtimoiy xulq- atvor qoidalari va kishining

jamiyat hayotida, konkret – tarixiy sharoitlarda o`zini namayon etishidir. Bular shaxsning guruhda (ruxsat etilgan yoki majburiy) tashkil topgan, yoki belgilangan fe'l-atvor, yurish-turish standartlarni belgilaydi va ularga rioya etish individ uchun o`zaro xarakat qilishning zaruriy sharti hisoblanadi.

Ijtimoiy fe'l-atvor normalari qonuniy aktlarda, xizmat vazifasi bilan bog'liq ko`rsatmalarda, qonun-qoidalarda, nizomlarda, boshqa tashqiliy xujjalarda mustahkamlanadi va shu bilan birga muhitning yozilmagan shaklida namoyon bo`ladi. Ular huquqiy, ahloqiy, diniy va boshqalarga bo`linadi. Ushbu normalar odamning istalgan konkret daqiqada ijtimoiy roliga baho berish mezoni sifatida xizmat qiladi va shaxsning kundalik hayoti va faoliyatida o`zini ko`rsatadi.

Insonning hayotdagagi ijtimoiy roli uni ma'lum bir ijtimoiy vazifani umumiylar tarzda bajarishida (uni baholashida) ko`rinadi. U kishi shaxsini jamiyatdagagi huquqiy xolati (statusi) bilan aniqlanadi va shu bilan birga u o`z navbatida kishining muhitdagi (sotsiumdagi) o`rni, huquqlari va majburiyatları bilan aniqlab olinadi. Kishining ijtimoiy muhitdagi yurish-turishi, muomalasi, uni jamiyatda o`z rolini tushunishi, unga bo`lgan munosabati, unga bo`lgan intilishi va uni bajarishga bo`lgan xoxish –istagiga bog`liqdir.

Inson jamiyat hayotida bir vaqtning o`zida bir qator: fuqarolik, mutaxassis, o`g'il, ota, aka, o`zaro faoliyat ishtirokchisi, jamoa a`zosi va boshqa shu kabi ijtimoiy rollarni bajaradi. Ijtimoiy rivojlanish va tarbiyalanish jarayonida inson o`zi bajarishi lozim bo`lgan va o`z-o`zini shaxs sifatida namoyon etish uchun lozim bo`lgan tajribalarni egallab oladi.

Salbiy tomonga o`zgarayotgan yurish-turish, muomala – bu jamiyatda qabul qilingan fe'l-atvor normalari va mo`ljallab qo`yilgan rollarga to`g`ri kelmaslikni anglatadi. Qabul qilingan normadan chetga chiqishni so`nggi paytlarda **deviant** – (lotincha –deviatio-chetga og`ish) deb, yoki **delinkvent** – (lotincha – delin-guens-qonunni buzuvchi) deb atashadi. Deviant yurish-turishi, muomala deganda odamning ayrim xatti-xarakatlari eki xatti-xarakatlar tizimi, faoliyati tushunilib, ular jamiyatda qabul qilingan normalardan chetga og`ish xarakteriga egadir.

Ko`pincha deviant ahloq, xulq – bu kishining fe'l-atvori, yurish-turishi salbiy xarakter kasb etganini bildiradi. Ular jamiyatda hamma tomonidan qabul etilgan normalarga qarama - qarshidir. Odamning delikvent ahloqi, yurish-turishi shundan guvohlik beradiki - uni chetga og`ayotgan xatti-xarakatlari qonundan chetga chiqmoqda, uning xatti-xarakatlari jinoiy jazoga tortilishiga va unga ma'muriy ta'sirlar o'tkazilishiga loyiqidir.

Odamning va bir guruh odamlarning deviant fe'l-atvorini oldini olish va bartaraf etish bilan shug`ullanuvchi faoliyat bilan bog'liq muammolar bilan ijtimoiy pedagogikaning yana bir tarmog'i – **preventiv pedagogika** (oldini oluvchi, ogohlantiruvchi) ish olib boradi.

Deviant fe'l-atvorli odam qanday sharoitlarda paydo bo`lishi (shakllanishi) haqida turli xil nazariyalar mavjud. SHulardan: **biologik** – odamning o`ziga xos tashqi ko`rinishi uni jinoyat sodir etishga, qonunni buzishga moyil ekanligini oldindan bildirib turadi. (Lombrozo, SHeldon); **psixologik** – odamning o`ziga xos psixik xususiyatlari uni janjal, nizo chiqarishga, qonunni buzishga tez chalinuvchan, moyil ekanligiga asos bo`lib hisoblanadi (Freyd); **ijtimoiy** – odamning deviant fe'l-

atvori, yurish – turishi uning olgan tarbiyasi va ijtimoiy muhit o`rtasida kelib chiqqan qarama-qarshilik, ziddiyat natijasida shakllanib bo`lgan, u shaxs tomonidan salbiy ijtimoiy tajribani o`zlashtirishning oqibatidir (Dyurkgeym, Merton Miller va boshq.).

Biologik hamda psixologik nazariyalar shaxsdagi shunday o`ziga xos xususiyatlarni alohida ajratib ko`rsatadiki, ular shaxsni deviant tarzda rivojlanishiga olib keladi, ya`ni odam tug`ilganidanoq ma'lum bir deviantlikka beriluvchan bo`ladi. Ammo, bunday salbiy ko`rinishlar faqat odam uchun nomuvofiq, yomon tarbiya va hayot sharoitlari mavjud bo`lsagina ro`yobga chiqadi va keyinchalik uning salbiy (deviant yoki delikvent) fe'l-atvorini belgilab beradi.

**Odamning ijtimoiy - salbiy jihatdan fe'l-atvorining chetga og`ishining asosida u tomonidan olingan ijtimoiy tarbiya oqibatlari, shaxsning salbiy ijtimoiy fe'l-atvor tajribalarni o`zlashtirib oлганлиги etadi.** Bu shaxsning salbiy yo`nalganligida (qiziqishlari, extiyojlari, motivlari, maqsadlari, ideallari), salbiy odatlari va shular yuzaga keltiradigan, uning uchun ijobjiy bo`lgan sezgilarda (ichki xuzur-xalovat) namoyon bo`ladi. Mana shunday salbiy odatlar shaxsni muntazam tarzda antisotsial, badahloq qiliqlarni takrorlashga undaydi.

Ijtimoiy -salbiy (deviant) fe'l-atvorga ega bo`lgan shaxslar bilan bog`liq masalalarni samarali tarzda echish uchun ularning shakllanishiga olib keluvchi asosiy omillarni aniqlab olmok zarur. Turli xil tadqiqotlarning natijalari shuni ko`rsatadiki, bunday omillar etarli darajada ko`p va shu sababli har xil avtorlar ularning turlicha asoslarga binoan guruholashtiradilar.

Mana shunday omillar guruhlariga quyidagilarni kiritish mumkin:

#### **Ruhiy va jismoniy (fiziologik) rivojlanishda chetga og`ishlar:**

A) Bola tug`ilishidan aqliy jihatdan juda past rivojlangan yoki bosh suyagi – miya jaroxatining oqibati;

B) Faol-irodaviy tomondan emotsiyonallik bilan bog`liq bo`lgan chetga og`ishlar. Bularga tez ta`sirlanish, jazava, qattiq xayajon, g`ayri ixtiyoriy xarakatlar, rohatlanish, huzur qilishga ishtiyoq, o`z atrofidagi odamlar ustidan kulish, mazax qilish, ichiqoralik, zulm o`tkazish, daydilik va boshqalar kiradi;

V) SHaxs sifatida shakllanish jarayonining tugallanmanganligi natijasida bolaning o`z tengdoshlari bilan o`zaro munosabatlari murakkablashadi, ziddiyatlar keltirib chiqaradi.

Bolaning rivojlanishidagi o`ziga xos xususiyatlar va shu bilan bog`liq tarzda kelib chiqish extimoli bo`lgan chetga og`ishlar quyidagi omillar guruhini keltirib chiqaradi.

**II. Tanlab olingan tarbiya uslublari va sharoitining bolaning individual, o`ziga xos xususiyatlariga to`g`ri kelmasligi.** Bolaning rivojlanish davridagi turli xildagi chetga og`ishlarni tarbiya jarayonida hisobga olib borishni talab etadi. Tarbiya jarayonida bolaning ba`zi bir salbiy xususiyatlarini oldini olish, tormozlantirish yoki ba`zi ijobjiy imkoniyatlarini (bilish, sezgi va irodaviy sohadagi) rivojlantirib borish lozim.

**III. Korrektsion ta`sir qilishning bolani (o`smirning) o`ziga xos rivojlanishiga to`g`ri kelmasligi.** O`smirlik davridagi rivojlanishning murakkabligi va o`ziga xosligi maqsadga muvofiq keluvchi, eng maqbul va optimal tarbiyaviy ta`sirlarni xuddi shu yosh davridagi muammolar xarakterini hisobga olgan xolda

qo`llashni talab etadi. Mana shu sababli ham tarbiya berishda eng murakkab davr bu - o`s米尔lik, o`spirinlik yoshi, ya`ni balog`atga o`tish davri (11-13, 14-15 yoshlar) hisoblanadi.

Ijtimoiy rejada o`s米尔k, o`spirinlik fazasi – bu dastlabki ijtimoiylashuvning davomidir. Odadta bu yoshdagi o`s米尔lar mакtabda o`qishadi va ota-onasi qaramog`ida (yoki davlat qaramog`ida) bo`lishadi. Bu davr bolalikning tugayotgan va undan “o`sib chiqib kelayotgan” eng murakkab davrdir.

Yoshlik (o`spirinlik, yigitlik) davri (14 yoshdan 18 yoshgacha) xech bir mubolag`asiz, bolalik va ulg`ayish, balog`atga etish oraligidagi “uchinchi dunyo” hisoblanadi.

Biologik jihatdan – bu jismoniy tomondan voyaga etishning tugallanish davridir. Ko`pchilik qizlar va o`spirinlarning aksariyat qismi bu davrga jinsiy tomondan to`la etilgan holda kirib keladi. Ammo ushbu davr yoshi davomida ko`plagan “chala qolgan” masalalar oxirigacha etkaziladi, balog`atga notejis etishish sababli yuzaga kelgan nomutanosiblik bartaraf etiladi.

O`s米尔lik, o`spirinlik yoshi muammolarini hisobga olmaslik quyidagicha chetga og`ish turlarini yuzaga keltirishi mumkin:

A) o`s米尔lik yoshidagi psixofiziologik rivojlanishning borishini xarakterlovchi krizisli ko`rinishlari;

- jinsiy etilish davrida juda tez eki notejis tarzda organizmning rivojlanishi;
- yurak-qon tizimining etarli darajada rivojlanmasligi natijasida o`s米尔ning jismoniy va ruhiy ahvoliga ta`sir etishi;
- jinsiy etilish davrida endokrin tizimida “garmonal bo`ron”ning paydo bo`lishi oqibatida o`sirda ortiq darajada xayajonlanish, ta`sirlanish va o`zgaruvchan emotsiyonallikni vujudga kelishi

B) katta yoshdagilar, eng avvalo, ota-onalar, o`qituvchilar bilan o`zaro munosabatlarning keskinlashuvi. Bunday xolatlar kattalar va kichik yoshdagilar o`rtasidagi ahloqiy tuknashuv, ixtiloflarda namoyon bo`ladi, bola o`ziga qo`yilgan talabalarni qabul qilmaydi, ulg`ayganlik noadekvat tarzda his qilinadi.

V) munosabatlarni “ahloqiy bo`ysunish” pozitsiyasidan “ahloqiy tenglik” pozitsiyasiga o`zgartirishga intilish;

G) kattalar fe'l-atvori va ularning fikr-mulohazalariga nisbatan ortiq darajada tankidiy munosabatda bo`lish;

D) o`z tengdoshlari bilan bladigan o`zaro munosabatlar xarakterining o`zgarishi, muloqot qilishga extiyojning ko`chayishi, o`z shaxsiyatini namoyon qilish, ahamiyatini ko`rsatisha o`ta darajada intilishi ba`zan salbiy ko`rinishlar tusini olishi va boshqalar.

#### **IV.SHaxs shakllanayotgan muhitdagi salbiy omillar:**

A) Oiladagi muammolar: to`liq bo`lmagan oilalar, faqat bir bolali oilalar, ko`p bolali oilalar, distant oilalar va boshqa shu kabi xolatlar bolaga etarlicha pedagogik ta`sir qilinmasligida, bola shaxsining shakllanishida faqatgina ota yoki onaning ta`siri bo`lishida yoki tarbiya jarayonida bir bolaga juda katta e'tibor berish va aksincha, tarbiya jarayoniga beparvo qarashda ko`rinadi.

B) Oiladagi salbiy omillar, salbiy vaziyatlar bolada, o`sirda o`z uyiga, oilasiga, ota-onasiga nisbatan salbiy munosabatda bo`lishi tuyg`usini shakllanishiga sabab

bo`ladi. SHu sababli bola o`z uyidan, oilasidan bezadi va uyidan ketishga, ko`p vaqtini uyidan tashqarida o`tkazishga xarakat qiladi. Mana shunday xollarda «ko`cha bolalari», qarovsiz, boqimsiz, ko`chada qolgan bolalar kategoriyasi shakllanadi.

SHuningdek, bunday bolalarning paydo bo`lishiga yana:

- uydagi tajovuzkorona, zo`ravonlikka asoslangan sharoit, bolaga nisbatan juda qo`pol muomalada bo`lish;
- bolaning qiziqishlariga, muammolariga mutlaqo e`tibor bermaslik;
- uzoq vaqt mobaynida ota-onan o`zlarining shaxsiy muammolari bilan bo`lib, bolaning o`z xoliga tashlab qo`yishi, tarbiyasi bilan shug`ullanmasligi;
- bola tarbiyasini buvasi va buvisining zimmasiga yuklashi va ularni qo`llab-quvvatlanmasligi. YOshlari o`tib, qarib qolgan buva va buvilar o`z nabiralariga zarur tarbiyaviy ta`sirni o`tkazishga ojizlik qilishadi va natijada nabiradar nazoratsiz qoladilar. Ko`pincha, xali juda yosh paytlaridanoq qariyalar nabiralarning nojo`ya qiliqlariga beparvo qarab, salbiy odatlariiga yo`l qo`yadilar. Natijada bora-bora o`sha nabiralar endi kattalarni «boshqara» boshlaydilar.
- Tarbiyadagi kamchiliklar, bolada sog`lom qiziqishlar, ishtiyoq, sabr-toqat, serxafsala, sabotlilikning yo`qligi.

G) Bola shaxsining rivojlanish jarayonida muhitning salbiy ta`siri (uy sharoitida salbiy qiziqishlar, ko`chaning salbiy ta`siri, bola rivojlanishida o`yin imkoniyatlaridan pedagogikaga zid ravishda foydalanish va boshqalar).

D) Bolaga yaqin kishilarning bolaga nisbatan salbiy ta`siri. Eng avvalo kattalarning, ota-onasining antipedagogik fe'l-atvori, tengdoshlarining salbiy yurish-turishi, muomalasi va xakozo.

E) Ommaviy axborot vositalarining, ayniqsa televideenie va video mahsulotlarining salbiy ta`siri.

#### **V.Bola, o`smir tarbiyasidagi kamchiliklar:**

A) Oilaviy tarbiyada yo`l qo`yiladigan kamchiliklar.

B) Nozik nihol qilib, papalab o`stirish, bolani murakkab hayotiy muammolardan, xar qanday faol faoliyatidan chetlantirish. Oqibatda bola bag`ritosh, qahri qattiq, etilmagan, bachkana bo`lib o`sadi, hayotda qiyinchiliklarni engib o`tishda irodasizlik qiladi.

V) Umumta`lim muassasalarida, ayniqsa bolalar bog`chasida, mакtabda ta`lim-tarbiya olish jarayonida yo`l qo`yilgan kamchilik va nuqsonlar.

G) Tarbiyada salbiy-ahloqiy yo`nalganlik.

D) Bola, o`smir ongiga ma'lum bir salbiy ko`rinishdagi hayot modelini va faoliyatini (hayotda o`z-o`zini namoyon qilishi, o`z shaxsini mavqeini amalga oshirishda) singdirish. Bunday xollarda shaxs o`zini turli xil sarguzasht kahramonlari bilan tenglashtiradi, o`zini ularning o`rniga qo`ya boshlaydi, kino kahramonlarini faoliyat turlarini, fe'l-atvorlarini «o`ziga o`lchab» ko`ra boshladi. Bunda ayniqsa, televideenie, video va kinoning salbiy roli juda katta.

E) Notinch oiladan chiqqan bola, o`smirdan (tartibni buzuvchi, yomon ahloqli odamlarga yaqin bo`lgan) salbiy odatlar, qonunbuzarlik qilinishini kutish, Ularga

ishonchisizlik bilan qarash. Mana shunday «kutish», taxmin qilish aksariyat xollarda bolani to`g`ridan to`g`ri yoki bilvosita qonunni buzishga undaydi.

J) Bolani, o`smyrni spirtli ichimliklarga, giyohvand moddalarga, chekishga, qimor o`yinlarga o`rgatish.

Z) Bolaga tarbiya berishda ota-onada o`rtasida birlik, hamfikrlikning yo`qligi, oilaning maktab bilan aloqasidagi nuqsonlar hamda oila, maktab va ma'muriy organlarning bolalar va o`smyrlar bilan ish olib borishida o`zaro hamkorlikning yo`qligi va boshqalar.

I) Qayta tarbiyalash tizimida yo`l qo`yilgan kamchiliklar, qonunbuzarlarni to`g`ri yo`lga solish, tuzatish va keyinchalik ularni ijtimoiy muhit sharoitida adaptatsiya kildirishdagi nuqsonlar.

#### **VI. Bola, o`smyr egallagan shaxsiy salbiy hayotiy pozitsiya:**

A) O`smyrning o`z-o`ziga baho berishida chetga chiqishi:

- o`z shaxsiga yuqori baho berishi – o`zini-o`zi yuqori darajada safarbar etishga, odatlantirishga olib keladi va o`z fikrini badahloqlik bilan ifodalash bilan qo`shilgan xolda u qonunbuzarlikka yo`llaydi.
- o`z shaxsiga past baho berishi - o`ziga ishonsizlikni, xardamxayollikni, ikkilanishni yuzaga keltiradi. Bu shaxs uchun jamoada muammolarni keltirib chiqaradi, o`z fikrini erkin ifoda etishiga to`sinqinlik qiladi.

B) SHaxsiy da`vo, talablarini izhor etishda chetga og`ish. Bular odatda o`z-o`ziga baho berishda chetga og`ish oqibatida kelib chiqadi. Da`vo talablar xususan, o`smyrning shaxsiy pozitsiyasini belgilab beradi, o`z maqsadiga erishishda ularning faolligini oldindan aniqlaydi.

V) Ahloqiy jihatdan o`z-o`zini shakllantirishga intilmaslik.

G) Fe'l-atvordagi chetga og`ishlar mavjud bo`lgan o`smyrlarda o`z shaxsini ahamiyatini ko`rsatish, tan oldirishda salbiy yo`l to`tish, nosog`lom raqobat, baxslashish.

D) Bola, o`smyr va o`smyrlarning shaxs sifatida shakllanishlarida murakkabliklar va o`z-o`zini tuzatishga bo`lgan extiyoj va unga faol ravishda intilish.

E) o`smyrning muloqot qilishga, yoshlар davrasida qatnashishga intilishi, shu jumladan asotsial yo`nalishdagi birlashmalarda ishtirok etishga xarakat qilishi. Bunday birlashmalarda deviant fe'l-atvorli yoshlар bo`lib, ular jamiyat o`rnatgan tartib-qoidalarga zid harakat qiladilar.

Bular:

- Tasodifiy guruuhlar. Masalan, diskotekalarda, stadionlarda va boshqa jamoat joylarida mushtlashuvlarni boshlaydigan yoshlар. Ular o`zlarining yozilmagan guruhiy norma va qadriyatlariga ega bo`lishadi. Bunda o`sha tasodifiy guruhgа kirish xuddi ijtimoiy nazoratdan ozod etilganlik belgisi sifatida qabul qilinadi va ushbu o`smyr uchun xuddi «tormozni bo`shatib yuborish» imkoniyati tug'ilgandek bo`lib tuyuladi. Bundan tashqari, individning olomon ichida sodir etgan xarakatlarini xech kim bilmagan, sezmagandek va bu beboslikni hamma sodir etgandek bo`lib tuyulishi juda yaxshi ma'lum.

- Retrist guruuhlar. (retrizm deganda sotsiologiya va psixologiyada odamning hayot qiyinchiliklaridan qochishi, real xaqiqat, voqelikdan ketishi, uzoqlashishi

tushuniladi. Voqelikdan ketishning eng oxirgi varianti – bu suitsiddir). Retrist guruhlarning odatdagи mashg`uloti – ma`nisiz, maqsadsiz vaqt o`tkazish, shubhali ermaklar, o`yin – kulgilar, toksikomaniya va giyohvandlik(narkomaniya)dir.

-**Tajovuzkor guruh** – birovning boshqa birovga bo`ysunishi to`g`risidagi eng ibtidoiy tasavvurlarga asoslanadi va ularda madaniyat deyarlik bo`lmaydi. Bunday tipdagi guruhlar ibtidoiy jamoa davridan to xozirgi kungacha deyarlik xech o`zgarishsiz etib keldi. Bunda qattiq ierarxik tizim, guruh a`zolariga ko`pchilikning zo`ravonlik bilan o`z xukmini utkazish, guruh qoidalarini buzganligi uchun qattiq jazo choralarini ko`rilishi va shularning psixologik asosi, negizi bo`lib, «bizlar-ular» degan keskin qarama – qarshi shiorning qo`yilishi agressiv guruhning o`zga xos xarakterli xususiyatlari hisoblanadi. Bu «to`da» a`zolari asosan janjalkash, chalasavod va madaniyatsiz oilalardan chiqqani sababli ularda fikrlash darajasi ham juda ibtidoiy bo`ladi. O`smir guruhda o`ziga xos soxta jamoatchilik maktabini bosib o`tadi. Tavakkal qilish, «romantiqa», zolimlik, shafqatsizlik va razillik hamda pastkashlikni o`rganadi. Guruhda uni moddiy tomonidan ta`minlashadi va u hamma narsani bajara olishi, qilishi mumkin ekanligi uqtiriladi. Bunday «to`dalar»ni asosli ravishda yoshlar bandalari (ugri va kotillar tudasi) deb ataladi.

SHuni alohida ta`kidlash joizki, kishini shakllanish jarayonida eng nozik, zaif davri, bu boshlang`ich va o`s米尔lik davri bo`lib, ushbu bosqichda salbiy fe'l - atvor stereotipi paydo bo`lishi mumkin. Bola, o`smirda deviantlikni shakllanishida oila eng muhim omil sifatida tan olinadi. Bolalar va o`smirlarning deviant fe'l-atvorining ijtimoiy-salbiy shakllarini oldini olish va bartaraf etishda pedagogik faoliyatning asosiy yo`nalishlaridan quyidagilari ajratib ko`rsatiladi:

### **1.Bolalar fe'l-atvori, yurish-turishi, muomalasini ijtimoiy jihatdan chetga og`ishini oldini olishda oilaning rolini oshirish.**

Barcha illat, kusurlarning ildizi oilada ekanligi qadim zamonlardan beri hammaga ma'lum. Oila hayoti uchun zarur bo`lgan qulay sharoitlar yaratib berilsa ko`pchilik muammolar, shu jumladan, oilada bola tarbiyasi ham muvaffaqiyatli xal qilingan bular edi. Ushbu yo`nalishdagi masalani amalga oshirish oiladan tashqari va oila ichidagi xarakterga ega bo`lgan bir qator muammolarni xal etishni talab etadi.

*Eng avvalo, bo`lg`usi ota-onalarni oilaviy hayotga hamda o`z farzandlarini tarbiyalashga tayyorlash muammosini xal etish lozim.*

Oilaviy tarbiya masalalari juda qadim davrlardan beri zbek halqining diqqat markazida bo`lgan. SHarq mutaffakirlari Al- Xorazmiy, Al-Beruniy, Ibn Sino, Alisher Navoiylar ham yoshlarni bo`lg`usi ota-ona sifatida yoshligidan tarbiyalash haqida o`z fikrlarini bildirishgan. Buyuk sarkarda va davlat arbobi Amir Temur ham ushbu masalaga juda katta e'tibor bergen.

Xozirgi davrda yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash va bola tarbiyasiga o`rgatish quyidagi bo`limlarni o`rganishni lozim deb topadi:

- Oilada o`zaro munosabatlarning asosi;
- Sharq mutafakkirlarining oilaviy tarbiya haqidagi fikrlari;
- Oila ichidagi ziddiyatlar, kelishmovchiliklar, ularning kelib chiqish sabablari, kelishmovchiliklarning oldini olish va bartaraf etish;
- Oila xo`jaligini yuritish asoslari, oila iqtisodi;

- Bolani, o`smirni turli yosh davrlarida oilaviy tarbiyaning asoslari (ushbu yo`nalish ko`pincha maktab yoki bola o`sib borishi jarayonida oila bilan ish olib borish markazlari orqali hal etiladi) va boshq.

Bevosita, ota-onalarni bola tarbiyasiga o`rgatishga tayyorlash masalasi anchagina keng pedagogik muammodir. Bu xususda ham o`zbek halqi qadimdan boy tajriba to`plangan. Onalar o`z qizlarini doimo oilaviy hayotga, bolaga qanday tarbiya berishga ularning bo`yi etgan sari tarbiyalab borishgan. Qiz bolalarga alohida, o`g`il bolalarga alohida bo`lg`usi ota-onsa sifatida pand-nasihatlar qilingan. Ular doimo o`z ota-onalaridan ham namuna olishgan. SHu sababli ham «onasini ko`rib qizini ol» maqoli bekordan aytilmagan.

### **Ikkinchidan: oilada va oila ichidagi o`zaro munosabatlarda eng maqbul ruhiy – ma’naviy vaziyatni yaratish.**

Oiladagi sharoit-bu usib kelayotgan odamning dunyoqarash asoslari shakllanadigan muhitdir. Bola eng kichik paytlardan boshlab muhitda o`sadi, tarbiyalanadi, odamlar o`rtasida munosabatlar qanday bo`lishini o`zlashtiradi (erkakning ayolga, kattalarning bolalarga, bolalarning kattalarga nisbatan), madaniy fe'l-atvor va yurish-turishining, muloqotda bo`lishining, xordiq chiqarish va shu kabilar. Asoslari bilan tanishadi.

SHuning bilan birga oilada bo`lg`usi oila boshlig`i, oilani yaratuvchi, mustahkamlovchi va oila imkoniyatlarini amalga oshiruvchi odam shakllanib boradi.

SHuni ta'kidlash kerakki, oiladagi ahloq normalariga to`g`ri kelmaydigan sharoit (ichqilikbozlik, urush-to`polon, baqiriq-chaqiriqlar, qo`pollik va zo`ravonlik, so`kinishlar) bolaga salbiy ta'sir ko`rsatishi bilan birga, uni ruhiy jarohat olishiga ham olib keladiki, keyinchalik uni tuzatish juda og`ir kechadi. Oilaning asosiy muammolari yoki yomon tarbiya olish o`sib borayotgan odamning ma’naviy, ruhiy va jismoniy rivojlanishiga yomon ta'sir etadi.

**Uchinchidan, oilaviy tarbiyada xatoga yo`l qo`yishni oldini olish.** Odatda xar bir normal oilada o`z bolalarini to`g`ri tarbiyalashga intilishadi. Ammo ota-onalarning pedagogik jihatdan tayyor emasliklari ko`pincha bir xil xatoliklarga yo`l qo`yilishiga olib keladi. Ular ichida eng xarakterlilarini aytib o`tamiz. Masalan: ota-onaning antipedagogik xulq-atvori bolalarga namuna bo`lib xizmat etadi. SHuningdek, ota-onani oilada o`z xukmini zo`ravonlik bilan o`rnatishi, bo`ysundirish, gerdayish, maydakashlik, ezmalanish, tinmay nasihat qilish, pora berib o`z tomoniga og`dirib olish va shu kabilar «qalbaki obro» orttirishga kiradi.

Ota-onalar bilan bolalar o`rtasidagi o`zaro aloqaning yo`qolganligi, bolalar bilan o`zaro normal munosabatlarni o`rnatishga hamma oilalar ham erishavermaydi. Oilada bolalar bilan ichki insoniy munosabatning yukolishi ota-onalarga o`z farzandlariga maqsadga muvofiq pedagogik ta'sir etish imkoniyatlarini pasaytiradi. Bu ayniqsa o`smirlik yoshidagi bolalar bilan bo`ladigan munosabatlarda juda katta ahamiyat kasb etadi.

Tarbiya jarayonida ota-onalar tomonidan yo`l qo`yiladigan tipik xatolar: beparvolik-takabburlik bilan, mensimasdan muomala qilish; to`rt tomondan ximoyaga o`tib olish, ya`ni «meni bolam hamma vaqt haq» - deydi; namoyishkorlik-bola xuzurida uning fazilatlarini faol maqtash; maydakashlik bilan doimo boladan shubhalanish; tarbiyada qattiq avtoritar usulni tanlash; tinmay pand-nasihat qilish,

befarq bo`lish; «oila ko`rki, piri, sanami» tipida tarbiya berib, unga sig`inish; ota-onal o`rtasida tarbiya borasida birdamlik, hamjihatlikning yo`qligi, tuturuqsizlik va boshq.

### **To`rtinchidan, bolada mustahkam ahloqiy qadriyatlarni, ahloqiy pozitsiyani shakllantirish.**

Gap bolani o`z shaxsini baholashida o`zining kelgusi pozitsiyasini aniqlab beruvchi bosh mohiyatini, negizni shakllantirish haqida boradi. SHunda bola o`z atrofidagi odamlarga, bo`laetgan xodisalarga, o`z xatti-xarakatlariga, fe'l-atvoriga to`g`ri baho beradi, o`z ustida faol va maqsadli ravishda ishlaydi. Ahloqiy tarbiyani bola eng kichik paytlardayoq boshlamoq zarur. Bunga e'tibor bermaslik, o`zi bulariga tashlab qo`yish kelgusida yomon oqibatlarga olib keladi.

**Beshinchidan, bolada eng kichik yoshlaridan boshlab irodaviy sifatlarini va o`z qadr qimmatini bilish sifatlarini tarbiyalash.** Bu kishida ahloqiy-irodaviy sifatlarni shakllantirishga yordam beradi.

Irodaviy sifatlar – bu shunday muhim vosita, quroqliki, u yordamida kishi o`z imkoniyatlarini to`la ishga soladi, o`z nuqtai nazarini ximoya etadi, o`zligini saqlab qoladi. Irodaviy sifatlarni yo`qligi kishini podadagi ongsiz molga aylantiradi va ko`pincha ijtimoiy salbiy etakchi ta`sirga tushib kolishiga sababchi bo`ladi. Aksariyat xollarda u ijtimoiy havfli guruh xarakatlarining katnashchisiga aylanadi.

**Oltinchidan, bolaning irodasini bukib qo`yuvchi zo`ravonlik, kuch, jabr-zulmni ishlatmaslik.** Bunday qilish bola irodasini bukadi yoki aksincha, unda kuchga sig`inish hissini shakllantiradi. O`zidan kuchsizlarga, ojizlarga nisbatan tajovvuzkorlik, zo`ravonlik qilishga rag`batlantiradi.

Mutaxassis - psixologlar tarbiyada majbur qilish usulini amalgalashishlarida juda ehtiyyot bo`lishni maslahat qilib, quyidagilarni hisobga olishni ta`kidlashadi:

- Uch yoshdan kichik bolalarga jismoni jazo bermaslik kerak, chunki bu ularning faolligiga ta`sir etadi;
- Bolalarni va ayniqsa o`smirlarni ularning tengdoshlari yonida jazolamaslik. Odamlar xuzurida bolani kamsitish, xo`rlash irodani bukadi, psixikani jaroxatlaydi.
- 10 yoshdan katta bo`lgan kizlar va 14 yoshdan katta o`g`il bolalarni, ular qanday ayb qilgan bo`lsalarda kuch ishlatib jazolash mumkin emas. O`tish yoshidagi davrda ayniqsa bunday qilish yaramaydi, chunki bunda bola jiddiy psixik jarohat oladi va uni o`z ota-onasidan bezishiga, begonalashuviga olib keladi.
- Bolani sovuqqonlik bilan shafqatsiz jazolash, o`ziga xos ekzekutsiya uyuşhtirish mutlaqo to`g`ri kelmaydi.
- Ota-onalar tomonidan doimo bolalarni jazolash bilan qo`rqizish ham tarbiyaga salbiy ta`sir etadi. Bolalar bunga o`rganib kolishadi va keyinchalik e'tibor berishmaydi. Ota-ona, tarbiyachi bolaga jazo berayotib uning shaxsini doimo xurmat qilish kerakligini esdan chiqarmasliklari kerak.

### **Ettinchidan, bolalar va o`smirlarni spirtli ichimliklarni iste'mol qilishlariga, chekishlariga, qimor o`yinlariga yo`l quymaslik.**

Xozirgi zamondan sharoitida o`smirlar va o`spirinlar tomonidan sodir etilayotgan jinoyatlarning ko`pchiligin ular mast xolda, narkotik moddalarni iste'mol etishlari natijasida sodir etayotganlari hammaga ma'lum. SHu sababli bola yosh paytidanoq

unga oldin oilada, keyin esa bog`cha va maktabda alkogol va narkotik moddalarning kishi organizmi, psixikasi uchun o`ta havfli ekanligi tushuntirib borilishi kerak.

### **Sakkizinchidan, bolani o`zini o`zi tarbiyalashga, o`z ustida ishlash metodikasiga o`rgatish.**

Tarbiyaning eng muhim vazifalaridan biri- odamni o`zini o`zi tarbiyalashiga tayyorlashdan iborat ekanligi kadim zamonlardan beri ma'lum.Odam ulg`aygan sari uni o`zini o`zi takomillashtirishdagi roli ortib boraveradi. Bu sohada ham oilaning ta'siri juda kuchlidir.

### **II.Bolalar va o`smirlarning deviant fe'l-atvorlarini oldini olish va bartaraf etishda umumta'lim muassasalarining tarbiyaviy rolini oshirish.**

Maktabda maxsus tayyorlangan pedagoglar ishlamog`i kerak. Pedagogik faoliyatda yo'l qo`yiladigan xatolar tarbiya ishida qimmatga tushishi mumkin. Umumta'lim muassasida bola yana bir tarbiyachi – tarbiyachilar jamoasi bilan to`qnash keladi. U turli guruhlarga kiradi va ularning ta'sirini o`zida sezadi. O`qituvchi, tarbiyachi tarbiyalanuvchiga bevosita ta'sir qilish imkoniyatiga ega bo`libgina qolmasdan, balki bevosita, ya`ni o`zi o`qiyotgan fani, sinf jamoasi, o`rtoqlari va mikroguruh orqali ham ta'sir o`tkazadi.

Umumta'lim muassasasining tarbiyaviy rolini oshirish yo`llari quyidagilardir:

- o`qituvchi, tarbiyachilar tayyorlashning sifatini oshirish, ularda yuqori pedagogik madaniyatni shakllantirish;
- umumta'lim muassasasi sharoitida pedagogik faoliyat uchun eng qulay shart-sharoitlarni yaratish;
- O`qituvchilar tarkibi o`z-o`zini takomillashtirishga intilishi, o`zining pedagogik mahoratini tinmay oshirib borishi;
- Umumta'lim muassasalarida deviant fe'l-atvorli bolalar va o`smirlar bilan individual ish olib borish maqsadida ijtimoiy xizmat ko`rsatishni yo`lga qo`yish, ular o`qituvchilar va ota-onalarga deviant bola bilan yakkama – yakka ish olib borganda yordam beradi.
- Umumta'lim muassasalari sharoitida o`qishdan tashqari bolalar va o`smirlar bilan tarbiyaviy ishlarni olib borish tizimini yaratish.

### **III. Oila va maktab o`rtasidagi maqsadga muvofiq o`zaro aloqani rivojlantirish.**

Bu deviant bolalar va o`smirlar fe'l-avtorini oldini olish va bartarf etish uchun oila, maktab va ma'muriy organlar o`rtasida yo`lga qo`yiladi. Oila va maktabning o`zaro yaqin aloqasi, birligi bolalar va o`smirlarga tarbiyaviy ta'sir o`tkazishni yanada ko`chaytiradi, shu sababli:

- ota-onalar uchun mакtab koshida metodik seminarlarni (ota-onalar lektoriylari, seminarlari) tashkil etish;
- ota-onalar kumitalari rolini oshirish, ota-onalar va o`qituvchilar o`rtasida aloqani ko`chaytirish;
- vasiylik qiluvchi ota-onalar tashkilotlarini tuzish;
- ota-onalarni sinfda, maktabda o`tkaziladigan tadbirlarga faol qatnashishlarini ta'minlash;

- o'qituvchilar tomonidan bolaning uyiga borib, o'qish, dam olish sharoiti bilan tanishishlarini yo'lga qo'yish va boshqa shu kabi tadbirlar juda katta ahamiyatga egadir.

#### **IV. Bolaning rivojlanishi, tarbiyalanishi jarayonida uning muloqot qilish doirasi, o'zaro xarakatiga maqsadga muvofiq tarzda ta'sir etish va boshqarib borish.**

Bolaning rivojlanishi va tarbiya olishida uning bilan bevosita aloqada bo'ladigan kishilarning ta'siri juda kuchli bo'ladi. Bu kishilarning obro'si, ta'sir kuchi, inontirish mahorati, bola irodasini o'ziga bo'ysundirish qobiliyati, ularning bolaga, o'smirga qay darajada ta'sir etishlariga, bu ta'sirni qaysi yo'nalishda olib borishlari bilan belgilanadi. Afsuski hamma jamoalar, hamjamiyatlar ham tarbiyaviy jihatdan ijobjiy xarakterda deb bo`lmaydi. Mana shu faktning o'zi ham ota-onalar, tarbiyachilardan bolaga tarbiyaviy ta'sir o'tkazishlarida, boshqalar orqali, guruh va jamoalar orqali ta'sir o'tkazishda ehtiyyot bo'lishni talab etadi. Ular o'z tarbiyalanuvchisini deviant, kriminogen shaxslar, guruhlar, hamjamiyatlar ta'siriga tushib qolishdan saqlashlari va aksincha, unga ijobjiy, progressiv shaxslar, guruh hamda jamoalar ko'prok ta'sir o'tkazishlariga erishmoklari kerak.

#### **V.Maktabdan tashqari oilaga maslahat berish va unga yordam ko`rsatish tizimini rivojlantirish orqali boladagi deviant fe'l-atvorni bartaraf etish.**

Xozirgi kunlarda zbekistonda oila bilan ishslash, unga moddiy va ma'naviy yordam berish buyicha davlat hamda nodavlat markazlari tuzilgan va tuzilmoqda. Muhimi shundaki, bunday oilalar, deviant bolalar bilan ishlovchi kishilar maxsus tayyorlangan, malakali mutaxassislardan iborat bo`lmog'i kerak. Ular bolaning diagnostik ko'rikdan o'tkazishi va uy sharoitida ular bilan ish olib borishi uchun tavsiyalar bermoqlari lozim.

Bunday markazlarda bolalarni qaraydigan kunduzgi bo'limlar bo'lishi maqsadga muvofiqli. CHunki, bu bo'limda bolalar qulay sharoitda o'z shaxsiy imkoniyatlarini namoyish etishlari, maslahat olishlari, o'quv mashg'ulotlariga tayyorlanishlari, ya'ni do'stlar orttirishlari, madaniyatga oshno bo'lishlari mumkin.

Afsuski, xozircha bepul ishlovchi va kam ta'minlangan oilalarga mo'ljallangan markazlar va kunduzgi bo'limlar juda oz va ular ham ota-onalar va bolalar bilan ish olib borish tajribasini endi o'rgana boshladilar.

#### **VI. Deviant bolalar va o'smirlar fe'l-atvorining oldini olish va bartaraf qilish, ularni qayta tarbiyalash bo'yicha maxsus muassasalar rolini oshirish.**

Dezadaptatsiyalashgan bolalar va o'smirlar uchun maxsus umumta'lim muassasalari bo'lib, unda qayta tarbiyalash va reabilitatsiyalash ishlari olib boriladi. Bunday muassasalar asosan yopiq yoki yarim yopik tipda bo'ladi. Bu muassasalarga bolalar sud xukmi bilan yoki balog' atga etmagan bolalar ishi bilan shug'ullanuvchi bo'lim yo'llanmasiga binoan topshiriladi. Ularni qayta tarbiyalash uchun turli imkoniyatlardan, xususan mehnat tarbiyasidan, o'qitish, ta'lim jarayonidan, madaniy dam olish faoliyatidan, jamoaning tarbiyaviy ta'sirlaridan va yakkama-yakka ish olib borish usullaridan foydalilanadi. Qayta tarbiyalovchi markazlarga bolalarni maxsus komissiyalar yuboradi eki markaz mutaxassislari maktab, balog' atga etmagan yoshlar

bilan ish olib boruvchi bo`limlarning tavsiyalari bilan shunday muammoli oilalarga kelib, bolalarni o`sha maxsus muassasalarga taklif etadilar.

## **VII. Ijtimoiy pedagogik muammoli bolalar, o`smirlar va o`siprinlar deviant fe'l – atvorini tuzatish markazlari tarmog`ini rivojlantirish.**

Bunday markazlarda bolalar: pedagogik korrektsiya, pedagogik reabilitatsiya qilinadi. Bolalar va o`smirlar alkogolizmi, giyohvandlik kasalliklari tibbiy-ijtimoiy, pedagogik tarzda tuzatiladi hamda zo`ravonlik va ijtimoiy viktimologiya qurbanlari reabilitatsiya qilinadi.

Viktimologiya- (lotincha – *victima* –qurban + *logos-fan*, ta'limot) ya'ni zo`ravonlik qurbanlarining xulq-atvori, yurish- turishi haqida ta'limot.

Pedagogik korrektsiya qilish markazlari yosh bolalar bilan ish olib boradi. Bolaning yosh paytidanok pedagogik korrektsiya qilish (to`g`rilash, tuzatish) uni to`laqonli rivojlanishiga, keyinchalik esa uni jamiyatda o`z o`rnini topib olishiga, rivojlanishida chetga og`ishlar sodir bo`lmasligiga yordam beradi.

Pedagogik reabilitatsiya markazlari. Bular pedagogik reabilitatsiyaga muhtoj bo`lgan turli toifadagi, yoshdagi odamlarga muljallangan. Bu erda ular yo`qotilgan muloqot qilish tajribasini, yurish-turishni, kasbiy faoliyatları va boshqalarni qaytdan tiklab, egallab olinadi. Ayniqsa zo`ravonlik qurbanlari bilan ish olib borishning pedagogik muammolari alohida e'tibor berishni talab etadi. Xozirgi zamon sharoitida, afsuski, bunday kishilar soni tobora ko`payib bormokda. Halqaro amaliyotda zo`ravonlik qurbanlari bilan reabilitatsion ish olib borish tajribasi bor. Bizning mamlakatimizda esa bunday tajriba endi paydo bo`lmoqda. U maxsus nazariy ishlar olib borilishini va turli kategoriyadagi zo`ravonlik qurbanlari bilan amaliy ish olib borish tajribalarini tadqiq etishni talab qiladi.

Yoshlar o`rtasida alkogolizm va giyohvandlikning oshib borishi ham tibbiy-ijtimoiy-pedagogik xarakterdagи maxsus markazlarni tezroq ochishni talab etmoqda. Bunday markazlarda vrachlar, psixologlar va ijtimoiy pedagoglar o`z kuch va bilimlarini birlashtirib ishlashlariga to`g`ri keladi. SHuningdek maxsus umumta`lim muassasalari, qamoqxonalardan jazo muddatini o`tab, ozodlikka chiqqan shaxslar adaptatsiyalanishi uchun ham maxsus reabilitatsion markazlarni tashkil etish zarurligini zamonaviy amaliyotning o`zi ko`rsatib turibdi. Ular ham adaptatsiyadan o`tishi, ishga joylashishda yordam olishlari shart, aks xolda o`s米尔 juda murakkab vaziyatga duchor bo`ladi va u avvalgi yurish-turishiga, qisqasi jinoyat yo`liga yana qaytadi.

**Tarbiyasi «kiyin» usmirlar anomalligi ukishda (ukishi kiyin, yomon kechali, dangasa) va xulkida (intizom va tarbiyaga rioya kilmaydi) namoyon bo`ladi. «**Kiyin bolalar**» - jamiyatga zid yunalishdagi, bekaror axlokli, irodasi bush, pedagogik ta'siriga doim karshilik kursatib keluvchi yoshlardir. Maktab mikyosida ular kup uchramaydi (bir sinfda ikki – uchtadan). Ammo sinf, maktab xayotiga, uning axlokiy muxitiga jiddiy ta'sir kursatadi. «Kiyin» bolalar o`quvchilarning kam kismini tashkil etsa xam ular o`quv – tarbiyaviy ishlarda barqarorlikka jiddiy tusik bo`ladilar. Ular mакtabda va undan tashkarida (oilada, kuchada, dam olish joylarida va x.k.) tartibsizlikni vujudga keltiruvchilar xisoblanadi. SHuning uchun xam «kiyin» bolalar**

maktabda xam, undan tashkarida xam o`qituvchi va barcha jamoatning e'tiborida turishi kerak.

Tarbiyasi kiyin bo`lganlarning kelib chikishining ijtimoiy – psixologik va psixologik – pedagogik sabab va omillarni besh guruxga ajratish mumkin:

1. Nokulay oilaviy muxit, ota – onalari urtasidagi ziddiyatli vaziyatlar.
2. Ukishga bo`lgan kizikishning pasayib ketishi va shu munosabat bilan ukishdan sovib ketishi (60 – 70 % voyaga etmagan jinoyatchilar bir sinfda ikki yil ukigan).
3. Ijtimoiy faolligi past va mакtab jamoasida nokulay xolat mavjud.
4. Mikromuxitning salbiy ta'siri, salbiy referent gurux ta'siri.
5. Biror faoliyat yuzasidan o`z moyilligini, kizikishini namoyon qilish imkoniyati bulmasligi.

Psixolog – pedagogik nuktai nazaridan usmirlar bilan ishlaydigan katta yoshdagilar quyidagi koidaga rioya qilishlari lozim: kup nasixat kilavermang; usmir xis – tuygularini xurmat qiling; xayotda mustaqil bulishga o`rgating; kup dakki beravermang; duk – pupisa kilmang.

Ijtimoiy – pedagogik boshkaruv va ijtimoiy jarayonlarni nazorat qilish ob'ekti sifatida yoshlar jinoyatchiligining oldini olish maktab, ichki ishlar bulimi, voyaga etmaganlar jinoyatchiliga karshi kurash organlarining bирgalikdagi tadbirleri tizimi doirasida amalga oshirilishi kerak. SHundan kelib chikib dastlabki talablar olga suriladi: mazkur faoliyat samaradorligi uchun xizmat kiladigan ob'ektiv jarayonlar va xodisalarni xisobga olib borish; tarbiyaning nokulay sharoitiga va shaxsni noto`gri yulga kirishning boshlanishiga o`z vaktida e'tibor berish maqsadida ijtimoiy – pedagogik istikbol metodlaridan foydalanish; usmir shaxsning individual – psixologik va ijtimoiy sifatlarini xisobga olish.

O`zbekiston Respublikasi ichki ishlar vazirligining 1994 yil 29 dekabrdagi 332 – sonli buyrugining ilovasida keltirilgan metodik tavsiyalar mazkur ishlarni amalga oshirishda muayyan yordam beradi.

### ***Deviant xulk –atvorli bolalarni reabilitatsiya qilish yo`llari***

Tarbiyalovchi funksiya bolani atrof muxitga kirishishi ta'lim tarbiya jarayonida addaptatsiya, ijtimoiylashtirish jarayonini amalga oshrishni ko`z da tutudi.

Ijtimoiy reabilitatsiya bolalar uchun davlatni bolalarga ramxurligi

Ijtimoiy-reabilitatsion funksiya. Ruxiy jismoniy nuksonga ega bolalar ta'lim- tarbiya bolalarni tarbiyalash funksiysi pedagog tomonidan amalga oshiriladi.

1. Bola ongida barcha jonli mavjudotga muxabbat ijodiy tushunish, vijdoniylik tuygusipi tarbiyalash lozim

2. Atrofdagi odamlar bilan mulokotga kirishishga urganish xayot maqsadida va mazmunini anglatadi.

### ***VIII. Ommaviy axborot vositalari ijobiy imkoniyatlaridan foydalanish va bolalar hamda o`smirlarni ularning salbiy ta'siridan muxofaza etish.***

Ommaviy axborot vositalarining bolalar va o`smirlar dunyoqarashining shakllanishida roli juda katta. Zamonaviy OAV tinglovchilar tarkibini hisobga olmasdan turli-tuman axborotlarni efirga o`zatishadi. Xozirgi zamon oilalarining aksariyati, ayniqsa bolalar va o`smirlar videotexnika mahsulotlaridan nazoratsiz qolib

juda ko`p foydalanadilar. Videomahsulotlari esa zo`ravonlikni, erkin seks va oson biznes qilish kabi yaramas, ahloqsiz ko`rsatuvlar namoyish qiladi. Bunday axborotlar ba`zi televidenie kanallarida ham tinmay ko`rsatiladi. Mana shularning barchasi mustahkam ahloqiy asoslarga ega bo`lmagan o`smirlarda asta-sekin noto`g`ri, o`zbek millatiga xos bo`lmagan fe`l-atvor normalarini, dunyoqarashni shakllantiradi. Albatta, o`zbek televideniesi, radio to`lqinlarida bunday salbiy va ko`rsatuv va axborotlar berilmasada, zamonaviy o`ziga to`q oilalarda ko`plab televizion stantsiyalarning kanallarini bemalol olib, tomosha qilayotgan yoshlarni hisobga olmay bo`lmaydi. Mana shunday xollarda ota-onalarning roli, nazoratlari juda kattadir. Maqsadga muvofiq bolalar tarbiyasiga rahbarlik qilish ularning xar tomonlama rivojlanishiga yordam berib, ahloqiy jihatdan buzilishlaridan saqlab qoladi. SHuningdek, zamonaviy bosma mahsulotlar (jurnallar, gazetalar, kitoblar va boshq.) ta`sirini ham hisobga olish zarur. Ular ham bir tomondan bolalar tarbiyasida faol foydalanishi mumkin bo`lsa, ota-onsa, tarbiyachilar nazoratisiz o`qiladigan, xar xil fohishabozlik, qotillik, giyohvandlik, oson yo`l bilan pul topib, maishat qilib yashashga oid g`arb davlatlariga xos bo`lgan hayot tarzini targ`ib etuvchi kitob va jurnallar bizning millatimiz yoshlari tarbiyasiga juda katta zarar etkazadi.

Har bir odamning o`z axborot extiyojlari bo`ladi. Axborot olishga bo`lgan extiyoj odamning ijtimoiy etuklik omili, uning faolligi, o`zini namoyon qilishi, o`z mavqeini, o`rnini belgilab olishi sifatida namoyon bo`ladi. Odamning informatsion-pedagogik madaniyati degan tushuncha mavjud. Bu kishining tarbiyalanganligining ko`rsatkichi, uning turli xildagi OAV ga, ularning mazmuni, sifati va axborotlar xajmiga, ulardan maqsadga muvofiq o`z bilimlarini oshirishda hamda o`zini-o`zi tarbiyalashda foydalanishiga bo`lgan munosabatidir. Demak, xar bir ota-onsa o`z farzandlarini bosma nashrlardan ham eppasiga ukimasdan, aksincha, tanlab o`qishga, OAV taklif etayotgan ko`rsatuv va axborotlarga ham tanqidiy tarzda yondashib, ularni tanlab (saralab) ko`rishga va eshitishga o`rgatmoklari kerak.

#### **IX.Bolalar va o`smirlarni ijobiy (pozitiv) ijtimoiy markazlar, tashkilotlar (sport, madaniy xordik chiqarish, turistik, teatr va boshq.)da qatnashishga jalb etish.**

Bunday markazlar ko`pincha katta shaxarlarda tashkil etiladi. Ular odatda ijtimoiy nodavlat eki tijorat xolida bo`ladi. Ularga yoshlar o`qishdan keyin jalb qilinib, sog`lom qiziqishlar targ`ib etiladi. Markazga turli toifadagi, shu jumladan, fe`l-atvori chetga og`uvchi yoshlar ham tortiladi. Ammo, tijorat maqsadida tashkil etilgan markazlarda bolalar va o`smirlarning o`ziga xos xususiyatlari hisobga olinishi tarbiyasiga mos keladigan tadbirlar tashkil etilishi ehtimol uzoqdir.

#### **X. O`z-o`zini tarbiyalashni, o`zidagi salbiy sifatlar va odatlarni tuzatish va bartaraf etish buyicha mustaqil faoliyatini faollashtirish, yosh o`smirga o`zi ustida ishlashida yordam berishi.**

YOshlarni o`z-o`zini tarbiyalashlarini faollashtirish, faqatgina oilaning ishi bo`libgina qolmasdan, balki umumta`lim muassasalarining, ijtimoiy pedagoglarning, pedagogik korreksiysi bilan shug`ullanuvchi ixtisoslashtirilgan markazlarning pedagogik jihatdan reabilitasiyalash, qayta tarbiyalash va tuzatish kabi muassasalarining ham kundalik ishi bo`lmog`i lozim. Ijtimoiy pedagogika ob`ekti o`z ustida maqsadli ravishda ishlashga jalb etish, o`sha shaxs tarbiyalanayotgan

muassasadagi pedagogik muhitning ijobiliyididan darak beradi. Deviant shaxs bilan ish olib boruvchi tarbiyasi o`smirni o`z ustida ishlab, kamchilik va fe'l-atvordagi qusurlarni mustaqil tuzatishga ishontira olsa, ijtimoiy tarbiya ob'ekti endi o`z-o`zini takomillashtirish sub'ektiga aylanadi.

Odamning o`zidagi salbiy xulq-atvor ko`rinishlarini yo`qotish maqsadida o`zini o`zi tarbiyalay boshlashida eng muhimi - u o`ziga tankidiy ruxda bo`lishi, o`z xattixarakatlarini o`ylab ko`rib, taxlil etishida , o`z-o`zini bilish, o`zini boshqara bilish, o`z ustida maqsadli tarzda ishlay bilish metodikasidan xabardor bo`lishidadir. Bunda, ayniqsa kishi qaltis vaziyatlarda boshqa odamlar bilan o`zaro xarakatda bo`lgan xolda o`zini boshqara bilishi, o`ziga buyruq bera olishidadir.

SHunday qilib, deviant fe'l-atvorning mohiyati, mazmuni va ularning paydo bo`lish sabablari hamda bolalar va o`smirlar fe'l-atvorining chetga og`ishini oldini olish va yo`qotishdan ijtimoiy pedagog faoliyatining asosiy yo`nalishlari ko`rib chiqildi.

## **Ma’ruza- 11**

### **Mavzu: Ijtimoiy pedagog faoliyat metodikasi va texnologiyasi**

1. Metodlar haqida tushuncha
- 2.Ijtimoiy pedagogikanihg metodlari
- 3.Ijtimoiy pedagogikada usul va vositalar tushunchalari
- 4.Ijtimooiy pedagog tomonidan qo’llaniladigan asosiy metodlar
- 5.”Ijtimoiy pedagogik texnologiyalar” tushunchasi
- 6.Ijtimoiy pedagogikada ishontirish va mashq qilish metodlari

#### **Tayanch tushunchalar**

Ijtimoiy pedagogik faoliyat, metod, usul, vosita, texnologiya, ishontirish, mashq qildirish, ijtimoiy diagnostika, psixotashxis, ijtimoiy profilaktika, ijtimoiy so’rov, Ijtimoiy vasiylilik, ijtimoiy xizmat, ijtimoiy reabilitatsiya, ijtimoiy patronaj, ijtimoiy Nazorat, normalashtirish, psixokorreksion

#### **Nazorat uchun savollar**

- 1.Ijtimoiy pedagogik faoliyat metodlarini bilish ijtimoiy pedagog va psixologga nima uchun zarur?
- 2.Ijtimoiy pedagognihg u yoki bu usulni qo’llashi nimaga bog’liq?
- 3.Ijtimoiy pedagogika metodlarini umumiy pedagogika metodlariga mos qilib qanday tasniflashadi?
- 4.Ijtimoiy pedagog tomonidan qo’llaniladigan asosiy metodlarni ko’rsatib berihg?
5. «Ijtimoiy pedagogik texnologiyalar” tushunchasiga izox berihg?
- 6.Ijtimoiy texnologiyalnihg turlarini aytib berihg?

#### **Foydalilanilgan adabiyotlar**

1. Ijtimoiy pedagogika. Ma’ruzalar kursi. M.A.Galoguzova taxriri ostida. M.Vlados.2003.
- 2.A.Mudrik. Ijtimoiy pedagogika-M.Akademiya.2003.
- 3.I.P.Padlsiy. Pedagogika, (yangi kurs)-M.Vlados.
- 4.I.P.Padlsiy. Pedagogika.1000.M.2001.
- 5.Pedagogika. Ma’ruzalar matni T.TGPU, 2001.
- 6.YU.V.Vasilkova, T.A.Vasilkova. Ijtimoiy pedagogika.-M.,2003.
- 7.Quronov M., Qurbaniyazova Z. «Ijtimoiy redagogika».(Ma’ruza matnlari to’rlami). T. 2003 y.

O’z kasbining xususiyatlarini o`rganib chikkan ijtimoiy pedagog oldida bu bilimlarni bolalar ijtimoiylashuvida, ularni deviant xulk-atvorini oldini olishda ularga ularga yordam berish jarayonida amaliy tadbik etish muammosi ko`riladi. Bu muammoni xal qilish uchun ijtimoiy pedagogik faoliyat metodlari va texnologiyalarini bilish zarur. Avvalambor bu tushunchalarning ta’rifini aniklab olish lozim. Olimlarning fikricha ijtimoiy pedagogik amaliyatdagi metodlar- bola ijtimoiylashuvi yoki reabilitatsiyasiga yordam beruvchi ijobiy ijtimoiy tajriba

to`planishini ta'minlovchi ijtimoiy pedagogik va bolaning o`zaro boglik faoliyati bo`lganligi uchun ijtimoiy pedagogika metodlari xaqida gapirishga xali erta. Ular xozir shakllanish boskichidalar. SHuning uchun ijtimoiy pedagog o`z amaliy faoliyatida pedagogika, psixologiya va ijtimoiy ishda ko`llanayotgan metodlardan foydalanadi.

Metoddan tashkari ijtimoiy pedagogikada **“usul” va “vositalar”** tushunchalari ko`llaniladi. Usul metodning ifodasi sifatida tushunilib, metodga nisbatan xususiy, bo`ysunuvchan xarakterga ega. Aslida xar bir metod amaliyot tomonidan to`plangan, nazariya tomonidan umumlashtirilgan usullar majmuasi orkali amalga oshiriladi.

Ijtimoiy pedagogning u yoki bu usulni ko`llashi anik ijtimoiy pedagogik vaziyatga, bola xulk-atvoriga, zaxiradagi usullarga boglik. Vosita usul va metoddan ko`ra kengrok tushuncha xisoblanadi. CHunki usul va metod faqatgina muayyan xolatlarda vosita vazifasini bajarishlari mumkin. Vositalar-ijtimoiy pedagog tomonidan oldiga ko`yilgan maqsadga erishishi uchun ko`llanadigan moddiy, emotsiional, akliy va boshka shartlar majmuasidir. Vositalar o`z moxiyatiga ko`ra faoliyat usullari xisoblanishmaydi, faqatgina biror-bir pedagogik maqsad (masalan, o`yin, suxbat, disput, konferentsiya, trening va boshkalar)ga etishishi uchun ko`llanilganida faoliyat usuliga aylanishadi.

Ba`zi olimlar ijtimoiy pedagogika metodlarini umumiyligi pedagogika metodlariga mos qilib tasniflashadi:

- ishontirish
- talab qilish
- xikoya
- suxbat va baxs
- jazolash va maktash

Birok ijtimoiy pedagogika xususiyatlarini kamrab oluvchi metodlar tasnifi quyidagi ko`rinishga ega:

#### **Ijtimoiy pedagog tomonidan ko`llaniladigan asosiy metodlar tasnifi**

<b>Metodlar</b>		
<b>Ijtimoiy ish</b>	<b>Psixologik</b>	<b>pedagogik</b>
<b>Ijtimoiy diagnostika Metodlari</b>	<b>Psixotashxisli</b> Intellekt va kobiliyatlar testlari SHaxsiy so`rovnomalari Loixaviy testlar Rasmiy testlar Sotsimetriya	<b>Tashqiliy</b> Pedagogik eksperiment <b>Pedagogik tashxis metodlari</b> Pedagogik kuzatuv Tabiiy eksperiment <b>Ta'lim metodlari</b>
Intervyu Monitoring Ijtimoiy so`rov Ekspertiza Biografik metod		
<b>Ijtimoiy profilaktika metodlari</b>	<b>Psixokorreksion metodlar</b> O`yin terapiyasi Tajriba ijtimoiy psixologik trening Xulk-atvor treningi	Ogzaki (xikoya, suxbat, baxs, ma`ruza) Ko`rgazmali (namoyish, darslik bilan ishlash) Amaliy (mashklar, laboratoriya ishlari, didaktik o`yinlar, ijodiy topshiriqlar, muammoli)
Preventiv metod Ijtimoiy davolash Sotsiodrama Ko`llab-kuvvatlash		
<b>Ijtimoiy nazorat metodlari</b>	<b>Psixologik maslaxat berish metodlari</b> Empatik tinglash	
Ijtimoiy nazorat		

Ijtimoiy vasiylik	SHarxlash	vaziyatlar)
Ijtimoiy tibbiy gamxo'rlik	Identifikatsiya	Tarbiya metodlari
Ijtimoiy xizmat ko'rsatish	Fasilitatsiya	Namuna
<b>Ijtimoiy reabilitatsiya metodlari</b>	Gipotezalarni ilgari surish	Ishontirish
Mexnat terapiyasi	<b>Psixoterapiya metodlari</b>	O'kitish
Gurux terapiyasi	Suggestil	Jazolash
Makom o'zgarishi	O`z-o`zini ishontirish	Maktash
Inkiroz kelishi	Ratsionallashuv	Mashk
<b>Ijtimoiy iktisodiy metodlar</b>	Psixotaxlil	Istikbol
Imtiyoz metodlari	Tranzakt taxlil	O`yin
Kompensatsiya metodlari	Gurux terapiyasi	Ishonch
Ijtimoiy patronaj	Xulk-atvor terapiyasi	Muvaffakiyat
Tibbiy patronaj	Oilaviy psixoterapiya	O`z-o`zini tarbiyalash
Ijtimoiy iktisodiy choralar		
<b>Tashqiliy metodlar</b>		
Reglamentlashtirish		
Normalashtirish		
Tankid		
Ijro nazorati		

SHunday qilib ijtimoiy pedagogik faoliyat metodikasi ijtimoiy pedagogik faoliyat shakllari, metodlari, vositalari va nazorati mazmunining majmuasi xisoblanadi. Turli metodlarning maqsadga muvofik birikishi ijtimoiy pedagogik texnologiyaning moxiyatini tashkil kiladi.

**“Ijtimoiy pedagogik texnologiyalar”** tushunchasi “Pedagogik texnologiya” va “Ijtimoiy texnologiya” tushunchalaridan kelib chikkan.

Pedagogik-texnologiya ikki soxada o`z ildizlariga ega. Birinchisi, texnik fanlar-o`quv jarayonining samaradorligini oshirishga yordam beruvchi texnik vositalarni ko`llash va ishlab chikish. Ikkinchisi, ijtimoiy fanlar xisoblanadi.

80-yillar o`rtalarida pedagogik amaliyotda **SH.A.Amonashvili** (ijtimoiy-shaxsiy texnologiya), **V.P.Bespalko** (dasturlashtirilgan ta’lim texnologiyasi), **S.N.Лысенкова** (istikbolli ta’lim) va boshkalarning pedagogik texnologiyalari, **V.A.Karakovskiy**, **N.E.Selivanova**, **N.I.Turkova** va boshkalarning pedagogik tarbiya tizimlari tan olingan. “Pedagogik texnologiyalar” o`quv fani professional pedagoglarni tayyorlash dasturiga kiritildi.

Xozirgi kunda pedagogik texnologiyalar deganda insoniyat texnik zaxiralardan foydalanishi orkali o`quvchilarning ta’lim-tarbiya jarayonlarini rejalashtirish, baxslashish metodlari tushuniladi. Pedagogikada texnologik yondoshuvning maqsadi maqsadga erishilishi kafolatlangan ta’lim-tarbiya jarayonini tashkil qilishdir.

Pedagogik texnologiyalar pedagogik jarayonning barcha boshkariladigan tarkibiy kismlarini tizimli taxlil qilish, nazorat qilishni ko`zda tutadi.

“Ijtimoiy texnologiyalar” tushunchasi sotsiologiyada vujudga kelgan va ijtimoiy jarayonlarning rivojlanishi asosi bo`lgan natijalarni dasturlash imkoniyati bilan boglik.


Ijtimoiy texnologiyalarning turlaridan biri ijtimoiy ish texnologiyalari bo`lib ular ijtimoiy pedagogik texnologiyalarga juda yakin, chunki yukorida ta’kidlagandek ijtimoiy pedagog va ijtimoiy ishchi faoliyatining jixatlari ko`p.

Ijtimoiy pedagogik texnologiya ijtimoiy va pedagogik texnologiyalarni birlashtiruvchi texnologiya xisoblanadi.

Ijtimoiy pedagogik texnologiyalarni ishlab chikish imkoni ijtimoiy pedagogik faoliyatning o`z tuzilishiga ega ekanligiga boglik. Ijtimoiy pedagogik faoliyat maqsad va vazifalarni aniklashdan boshlanadi. Bularni mutaxassislar echishlari lozim, ya’ni bolada muomala ko`nikmalarini shakllantirish, unga yangi muxitga ko`nikishga yordam berishdir va boshka maqsadlar o`z navbatida faoliyat mazmuni, uning amalga oshirish metodlari va uni tashkillashtirish shakllarini aniklab beradi.

Ijtimoiy pedagogik faoliyat maqsadi, uning natijalari va mazmuni kanchalik to`gri aniklanganligi, unga erishish uchun kanday metodlar tanlanganligiga boglik bo`ladi.

SHunday qilib ijtimoiy pedagogik texnologiya ijtimoiy pedagogik faoliyat metodlari va usullari majmuasidir.



Ijtimoiy pedagogning aralashishini talab kiluvchi xar kanday muammoni xal qilish unga tashxis ko`yishdan boshlanadi. Tashxis ko`yish axborot taxlili, to`plash va tizimlashtirishdan iborat.

Keyingi boskich bu muammoni xal qilish yo’llarini kidirish. Buning uchun tashxis asosida maqsad ko`yiladi va unga muvofik faoliyatning anik vazifalari belgilanadi.

Ijtimoiy pedagog kanday texnologiyani ko`llashiga ko`ra shunga mos tushuvchi faoliyat metodlari va shakllarini tanlaydi. Ish yakunlanganidan so`ng ijtimoiy pedagog bola muammosi kanchalik to`gri xal qilinganiga baxo berishi lozim.

### ijtimoiy texnologiyalar tasnifi

Tasnif asosi	<b>IJTIMOIY TEXNOLOGIYALAR TURLARI</b>
1.Ko`llanish soxasi	Global Universal Mintakaviy Gurux Jamoa Individual
2.Ob'ektlar	Tashqiliy Informatsion Innovatsion
1.Xal qilinayotgan vazifalar xarakteri	Ijtimoiy modellashtirish ijtimoiy bashorat berish
2.Metodlarni o`zlashtirish soxasi	Sotsial-tibbiy Ijtimoiypsicologik ijtimoiy pedagogik ijtimoiy pedagogik profilaktika ijtimoiy pedagogik ko`llab-kuvvatlash ijtimoiy rivojlanishi vaziyatini ijtimoiy pedagogik to`girlash Bolalikni ijtimoiy ximoyasi Bolalar va o`smlarning ijtimoiy pedagogik reabilitatsiyasi ijtimoiy tashxiz ko`yish Ijtimoiyprofilaktika Ijtimoiynazorat Ijtimoiyreabilitatsiya Ijtimoiyadaptatsiya Ijtimoiypatronaj Ijtimoiyta'minot Ijtimoiyterapiya Ijtimoiy maslaxat berish
1) Ijtimoiy ish yo`nalishlari	

**Ijtimoiy pedagogik texnologiyani ko`llashning misoli sifatida muammoli o`smir bilan ishlash texnologiyasini keltirsa bo`ladi.**

Maslaxatga tayyorgarlik	Aloka o`rnatish	Vaziyatni o`rganish	Maqsad ko`yish	Xal qilishni izlash	Xulosa
Professional pozitsiyani ishlab chikish, ichki diolog-konsultatsiyaga ko`ndirish, o`smirlar bilan ishlayotgan psixologlar talablarini taxlil qilish	Ishonchli munosabat, ko`llab-kuvvatlash, in'iko, sinonim savollar, rezyume (umumlashtirilgan savol), mavzuni o`zgartirish, o`zgaruvchan savollar, mijoz xissiyotlarini tushunish, mijoz va psixolog xis-tuy gularining verballashuvi, xolatlar tavsiyi. Metafora	Nima? Kiyinchiliklar va ularning sabablarini taxlil qilish. Kanday? a) taxlilning informatixon -kognitiv parametrlari b) motivatsion parametrlari v) operatsion (malaka, kobiliyatlar) g) emotsional energetik (xis-tuygu, temperament) d) xarakter va xulk-atvor jixatlari	Sen nimaga erishmokchisan? Sen nimani olmokchisan? Bu senga nima uchun kerak? Sen o`zingni kelajakda kanday xis qilishni xoxlaysan? Kabi savollarni berish. Maqsadni shakllantiris h: reallik, jalb etishlik, aniklik, tekshirish	Axborot berish, onologiya metodi, Anik istak. Parodoksa 1 instruktsiy a. Emotsiona 1 zararlanish . Relaksatsiya. Vaziyat taxlili. Ichki muzokaral ar. SHaxsiy tarix transformatsiya si. Ijtimoiy muammol ar. Maqsadga intilish. Rolli ijro. Ijobiy kayfiyat.	Savol: bizda kanday o`zgarishlar bo`ldi? Mijoz tomonidan natijalar sarxisobi, o`zgarishlar ni parametrlar iga karab taxlil qilish inson nimaga erishmokchi, u kanday munosabat da bo`ladi (keskinlik darajasinin g o`zgarishi, energiya paydo bo`lishi). Unima biladi? (tasavvur, fikr o`zgarishi)

**Metodlar-** o`rganilayotgan ob`ektning moxiyati va konuniyatlaridan kelib chikib, borlikni amaliy va nazariy o`zlashtirish usullaridir ijtimoiy pedagogika esa pedagogikaning bir soxasi bo`lib, uning metodlari ni pedagogikada ko`llanadigan tarbiyalash va o`kitishning an'anaviy metodlariga tayanamiz, boshka tomonidan ijtimoiy ta`lim va ijtimoiy tarbiyaning ijtimoiy pedagogika va ijtimoiy faoliyat bilan

o'zarib bormokda. Yana shuni yodda tutish kerakki , buning dikkat markazimizda bola va uni o'rab turgan ijtimoiy muxit turadi ijtimoiy pedagog esa bolaga muammolarni uni ijtimoiylashish jarayon xal qilishga yordam beradi. Ijtimoiy pedagog bolaga bevosiga yoki bilvosit -oila, do'stlari, bolalar jamoasi orkali ta'sir o'tkazadi. U kandaydir kiska muddatli vazifalarni bajarishi yoki bola bilan uzok vakt davomida ishlashi mumkinligini xisobga olamiz.

Ijtimoiy pedagog metodlar orkali bolaning ongi, xulki xis-tuygulariga maqsadga muvofik ta'sir o'tkazishi xamda uni o'rab turgan ijtimoiy muxitga ta'sir o'tkazishi mumkin .

Metodlar - bolaning ijtimoiylashishi va uni tiklashda xamkorlik kiluvchi, pozitiv ijtimoiy tajriba toplashida yordam beruvchi ijtimoiy pedagog va bolaning o'zaro xatti- xarakat usullaridir. Ijtimoiy pedagogika xam pedagogikaning eng yangi soxalaridan biri bo'lib „**ijtimoiy - pedagogik faoliyat**” yangi shakllanayotgani uchun uning metodlari tizimi xaqida gapirishga xali vakt bor.

SHuning uchun ijtimoiy pedagog o'z amaliy faoliyatida pedagogika, psixologiya va ijtimoiy ishdagi metodlardan keng foydalanadi. Bola shakllanishi boskichida u o'z kasbiy faoliyatini bajarishi uchun ijtimoiy pedagogikaning aloxida usullaridan tashkil topgan metodlarni xam egallashi kerak. Metodlar, usullar va vositalar shu tarika bir - birlari bilan boglik.

Ijtimoiy pedagogik faoliyatda ishontirish va mashk qilish metodlari xam keng ko'llaniladi. Bu metodni ko'llashning xususiyati shundan iboratki, ijtimoiy pedagog kaysidir sabablarga ko'ra odob - axlokning umum kabul kilgan meyorlari shakllanmagan yoki noto'gri shakllangan bola bilan ish olib borishga majbur buladi.

SHu jamiyatda kabul qilingan xayot meyorlari, ular to'grisidagi to'gri va anik tasavvurning yuzaga kelishi, oxir - okibatda shaxsning ishonchini, uning xayotdagi o'rnini shakllantiradi. Bular bilim va ular xaqidagi tasavvurlar bilan boglik.

Ishontirish metodi jamiyatda kabul qilingan meyorlarni bola xulki va faoliyoti motivlariga ko'chirishga yordam berib, e'tikodni shakllantiradi.

E'tikod - bu bolaning ma'naviy bilimlarining xakikiyligi va adolatliliga kat'iy ishonch bo'lib, u shaxsning axlokiy faoliyatga va xarakatga ichki xoxishidir. E'tikod - bu muayyan xarakatning zarurligi va to'griligin tushuntirish va isbotlashdir. Ishontirish jarayonida ijtimoiy pedagog bolaning ongi, xis - tuygulari va irodasiga ta'sir o'tkazadi. Ishontirish metodi maqsadga erishishi uchun bolalarning psixologik xususiyatlarini, ularning xulki va kizikishlarini, shaxsiy tojribasini xisobga olishi zarur.

Ishontirishning asosiy kismi talab qilishdir. Uning asosiy vazifasi shundan iboratki, bolalar oldiga vazifa ko'yilib, axlok - odob koidalarining mazmuni ularning ongiga etkazilishi va kelgusi faoliyatları mazmuni aniklanmogi kerak.

Ishontirish quyidagi pedagogikaga ma'lum bo'lgan metodlar orkali amalga oshiriladi: Bular - xikoya, ma'ruza, suxbat, disput (munozara)

Xikoya va ma'ruza - ijtimoiy pedagog tomonidan olib boriladigan metodning monologik shakli.

Xikoya kichik yoshdagи bolalar bilan ishslashda ko'llaniladi, u uzokka cho'zilmaydi, anik va ravshan faktlarga asoslanadi.

Ma’ruza katta yoshdagi bolalarga nisbatan ko’llaniladi, vakti uzokrok bo’lib, murakkab axlokiy tushunchalar ( gumanizm, dustlik, yaxshilik) ni ochib beradi.

Suxbat va disput - dialogik shakldagi usul. Suxbat - bu savol- javob metodi. Ijtimoiy pedagog suxbatni shunday olib borishi kerakki, savollarni nafaqat u, balki bolalar xam bersin.

O`smirlar uchun disput metodi ko’llanadi, bu metod fikrlarni shakllantiradi.

SHunday qilib ishontirish - bu ma’lum axlokning to`griligi va zarurligini tushuntirish va isbotlashdir.

Agar ishontirish bola ongini «**dasturlashtirsa**», mashk qilish bilim - ko`nikma va malakalarini shakllantiradi. Mashk qilish oxir - okibatda bolalarda odob- axlokni shakllantirish uchun zarur. Axlokiy mashklar deganda, bolalarda zarur bo`lgan ko`nikma va odatlar xosil bo`lib mustaxkamlanishiga kadar bo`lgan, ko`p marta takrorlanuvchi xarakatga aytildi. Ko`nikma va odatlarning shakllanishi quyidagi usullardan iborat: vazifani ko`yish, uning bajarilish koidalarini tushuntirish va talab qilish, amalda qilib kursatish, amaliy mashkni tashkil qilishi, talab quyishi, talabni bajarishni zslatish va uniig bajarilishini kuzatib borish. Malaka va odat o`rtasida ma’lum masofa bor. Biz malakani shakllantiramiz, keyin ma’lum vakt muntazam mustaxkamlab borib, uni odatga aylantiramiz.

Mashk qilish metodining unumliligi ijtimoiy pedagogning mashk qilishni o`yin shaklida tashkil qilishi orkali oshadi.

Mashk qilish va ishontirish metodlari o`zaro chambarchas boglik.

Ijtimoiy pedagogik metodlar orasida muxim guruxni korrektsiya metodlari tashkil kiladi, unga ragbatlantirish va jazolash metodlari kiradi. Ijtimoiy -pedagogogika tarixinning guvoxlik berishicha, ragbatlantirishi va jazolash - bola shaxsiga ta’sir qilishning murakkab usullari xisoblanadi. Ragbatlantirish va jazolash bir maqsadga yo`naltirilgan - ya’ni ma’lum axlokiy sifatlarni bola xarakterida shakllantiradi. Lekin bu maqsad turli yo`llar bilan amalga oshiriladi: ragbatlantirish xarakat va xolatni ma’kullaydi, jazolash - notugri xarakat va faoliyatni koralaydi, unga yomon baxo beradi. Jazolash va ragbatlantirish bola xarakati va uning okibati orasidagi mukarrar bogliklikni eslatadi (ragbatlantirish - konikish, jazo - norozilik ).

Ijtimoiy pedagogning amaliy faoliyatida bu metodlarning turli xil turlari ko’llanishi mumkin. Modomiki bolalarga adashish va xato qilish xos ekan, kayta ishontirish, ogoxlantirish, kizikishlarini o`zgartirish va jazolash metodlarini ko`llash mumkin.

Kayta ishontirish bola ongidan noto`gri tasavvurlar, xato xayotiy rejalarini akliy tasavvurlar va karashlar orkali surib chikarishdir. Bu ishontirish metodiniig bir turidir .

Ogoxlantirish ijtimoiy pedagog va pedagog faoliyatida keng ko’llaniladn va u bolaning noto`gri xarakatini oldini oladi va noto`gri faoliyatga yo`l ko`ymaydi.

## **MA”RUZA-12**

### **Mavzu: Jamiyatnihg mafkuraviy ongliligi - ijtimoiy-pedagogik xodisa sifatida**

- 1.Ma'rifiy siyosat va siyosiy ma'rifat
- 2.Ma'naviyat-millat kiyofasi
- 3.Prezident I.A.Karimovnihg ohg tarbiyasi haqidagi goyalari
4. O'zbekistonda zamonaviy boskichda ijtimoiy pedagogika rivojlanishining ijtimoiy-siyosiy va xuquqiy asoslari
5. 3.Siyosiy partiylar va nodavlat tashkilotlar hamda jamgarmalarnihg ijtimoiy-pedagogik faoliyati

#### **Tayanch tushunchalar**

Mafkura, ohg, ma'naviyat, siyosat, xuquqiy asoslар, jaholat, maslak, goya, milliy istiqlol mafkurasi, ijtimoiy ximoya, Sharq demokratiyasi, mahalla, jamoatchilik markazi, ijtimoiy kelishuv, ximoya, xayriya fondi, mexr-muruvvat, tibbiy-ijtimoiy patronaj...

#### **Nazorat uchun savollar**

- 1.Prezident I.A.Karimov siyosatinihg asosiy bo'ginlaridan biri nima?
- 2.Milliy mustaqillik mafkurasini ta'riflab berihg?
- 3.Prezident I.Karimovnihg ong tarbiyasi haqidagi fikrlarini izoxlab berihg?
- 4.Zamonaviy bosqichda ijtimoiy pedagogika rivojlanishinihg ijtimoiy-siyosiy va xuquqiy asoslari haqida o'z fikrlarihgizni aytihg?
- 5.Nodavlat tashkilotlar va jamgarmalarnihg ijtimoiy-pedagogik faoliyati haqida gapirib berihg?

#### **Foydalilanigan adabiyotlar.**

1. V.A.Nikitin tahriri ostida. «Ijtimoiy pedagogika». Oliy o`quv yurtlari talabalari uchun o`quv qo'llanmasi. M.2002.(ruscha).
2. M.G.Davletshin. «Zamonaviy maktab o`qituvchisining psixologiyasi» .T. O'zbekiston. 1999y.
- 3.I.A.Zyazyun. «Osnovы pedagogicheskogo masterstva» M.1989g.  
“Просвещение”.(ruscha).
- 4.N.Juraev. «Agar ogox sen...».T. «YOzuvchi».1998 y.
5. Ijtimoiy pedagogika. Ma'ruzalar kursi. M.A.Galoguzova taxriri ostida. M.Vlados.2003.
- 6.Pedagogika. Ma'ruzalar matni T.TGPU, 2001.

Ma'rifikat va madaniyat Prezident I.Karimov siyosatining asosiy buginlaridan biridir.SHuning uchun xam u iktisodiy, siyosiy, xuquqiy isloxoxtlar bilan birga, ma'rifiy xayotimizda xam tub uzgarishlar qilish tarafdoi bulib chikmokda.Aks xolda ma'rifikat bulmagan joyda mustaqil likning mazmun- moxiyati xam bulmaydi.Jamiyat taraqqiyotining turli xolatini, ijtimoiy-siyosiy jarayonlarning borishini inson

xayotining mazmunini anglash uchun, eng avvalo ma'rifat zarur. Ma'rifatsizlik tufayli uzok yillar mustamlakachilik iskanjasida yashaganimizning uzi katta sabok bulmogi kerak. Ma'rifat-tafakkur va ong sarchashmasidir! U kishiga ragbat, yomonlikka nafrat, yaxshilikka muxabbat tuygusini baxshida etadi. Ulug pedagog Abdulla Avloniy aytganidek: - «...**Jaxolat eng kurkinch, fakir va muxtojlikdan ziyoda, daxshatlirok bir musibatdir**». Uz kadirimizni bilmaganimiz, inson sifatidagi kadriyatlarimizni tushunmaganimiz, anikrogi, ma'rifatsiz- basir va sukirligimiz uchun xam 130 yil tobelikda yashadik. Muteligimizni anglab ololmadik.

Prezident I.A.Karimov milliy mustaqil lik mafkurasini yaratishni muxim masala sifatida kutardi. Kommunistik mafkuradan voz kechildi. Endi ana shu mafkura urnini bosadigan insonparvar maslak, g'oya zarur edi. CHunki ulkan akliv bushlikda muallak xayot kechirish mamlakat ijtimoiy-siyosiy muxitini xam, ruxiy-ma'naviy iklimini xam, odamlarning turmush tarzini xam izdan chikarib yuborishi mukarrar. Mamlakat axolisi xar kanday sharoitda xam insonparvar g'oya uchun kurashishi, uning atrofida jipslashishi, anik bir maqsadning ruyobiga intilishi zarur. SHuning uchun xam I.A.Karimov tomonidan milliy istiklol mafkurasini yaratish g'oyasi urtaga tashlandi. CHunki konunga muxabbat, yuksak axlok va barkamol akl, nogiron, etim va muxtojlarga ijtimoiy yordam, ularni xam teng xukukli fuqaro sifatida tan olinishi soglom va xar tomonlama asosli mafkura mavjud joydagina tantana kiladi. SHuning uchun xam Prezidentimiz I.A.Karimov keng kulamli isloxoqlar davrida milliy istiklol mafkurasining asosiy bugini sifatida ma'naviy va xuquqiy tarbiyaga, ijtimoiy ximoyaga aloxida e'tibor berdi.

Iktisod moddiy tushuncha, axlokiylik esa ma'naviy kategoriya bulsa -da, ana shu ikki xolatni uygunlashtirish-kamolot mezonidir. Iktisodning ma'naviyatdan ajralib kolishi, ma'naviyatni poymol etilishi borlik bilan ma'naviyat, inson bilan olam urtasida jarlik paydo bulishiga olib keladi. Insonning ma'naviy tanazzuliga zamin yaratadi. Natijada odamlar xar kanday sharoitda xam Vatanni sotib, yurtini poymol etib, millatini badnom, milliy kadriyatlarini oyok osti qilib bulsada, osonlikcha yashash yuliga utib oladilar. Axolisi axloksiz, ma'naviy kashshok mamlakatning istikboli esa xamisha ayanchli bulgan. SHu sababli Prezident I.A.Karimovning ma'naviyat va madaniyat ravnakiga berayotgan e'tibori g'oyatda ibratlidir.

Milliy iftixor tuygusi-uz milliy mansubligidan faxrlanish imkoniyati. Millatga mansublik uta nozik va ayni paytda juda murakkab xolat. Kishi zarur bulganda uz xayotidagi jamiki ne'matlardan xech ogrinmasdan voz kechishi mumkin. Bu nimalarningdir ta'sirida yuz beradigan murakkab va ziddiyatli ma'naviy-ruxiy fofja. Birok xech kim, xech kachon milliy mansubligidan tonolmaydi. Uni xoxlagan paytda xoxlagancha uzgartira olmaydi. CHunki millatga mansublik xislari tiriklik va mavjudlik bilan boglanib ketganki, vujud bilan birga yashaydi va vujud bilan birga yuk buladi Buni xis kilolmaganlar kalbi sunik, ma'naviy kemtik kishilardir. Uzbekistonda mavjud barqarorlikning asosida fuqarolar yashab turgan zamin mamlakat tarixi, uning asrlar mobaynida tuplagen kadriyatları barcha millatlarning gururiga, ularning turmush tarziga va ma'naviy -axlokiy mezoniga aylanganligidadir. «SHu aziz Vatan – barchamizniki», «Bizdan ozod va obod Vatan kolsin», «Xar kim savob ish kilsin, xar kun savob ish kilsin» shiorlarining katta ma'naviy kudrati, nixoyatda ulkan umuminsoniy moxiyati ana shunda.

Sharq demokratiyasi oiladagi munosabatlardan boshlanadi.Ota-onaning mukaddasligi, kichikning kattalarga xurmati, xar kanday sharoitda katta oldida uzini tuta bilishi, odamlarning uzaro munosabati, turli xolatlarda xam xurmat va e'tirofning saklanib turishi bilan belgilanadi.SHu fazilatlar turli siyosiy rejimlar va turli mafkuraviy tazyiklar ostida xam uz kiymatini, mazmun-moxiyatini yukotmadi.Uzbeklarda jamoa bulib yashash, turli marosimlarda bir-birlarining ogirini engil qilish, xashar kabi an'analar yukolmadi.Masalan, xozir xam maxalla oksokolining aytgani- aytgan, degani- degan.Lekin bu oksokolga buyrukbozlik, ortikcha xukmronlik qilish xukmini utkazish xuquqini bermaydi.Oksokol – uzi raxbarlik kilayotgan xududda kiynalgalnarga, etimlarga, ijtimoiy nochor kishilarga yordam berish, ularni ijtimoiy ximoyalash, boshiga musibat tushgan odamning gamiga sherik bulish kabi kator insoniy fazilatlarni chukurlashtirishga, maxalla axlini jipslashib, uyushib yashashiga da'vat etuvchi shaxsga aylandi.Mana shuning uchun xam Prezident – «Xozirga vaktda oilalarning xakikiy moddiy axvolini, ularning ma'naviy va madaniy kizikishlari doirasini maxalladan kura yaxshirok biladigan tuzilma yuk».- deb bejiz aytmagan.

### **Ma'naviyat – millat kiyofasi**

Mamlakatimizda yuksak ma'rifiy-madaniy jamiyat kurish, xar tomonlama barkamol Vatanni shakllantirish siyosati yurgizilmokda. Bu ezgu niyatga etish uchun esa eng avvalo mamlakat axolisi ma'rifiy-madaniy saviyasini oshirish, turmush darajasini kutarish, ongli xayotni karor toptirish isloxoatlar davrining eng muxim vazifalaridan biri qilib quyildi.Jamiyatni tubdan yangilash yulidan borilar ekan, barcha isloxoatlarni amalga oshirishda xalk milliy extiyojlari, karashlari, ma'naviy-ruxiy olami, ya'ni mentalitetidan kelib chikib ish tutildi.

1994 yil 23 aprelda mamlakatimiz ma'naviy xayotida muxim vokea yuz berdi: Prezident I.Karimovning farmoni bilan **«Respublika ma'naviyat va ma'rifikat jamoatchilik markazi»** tashkil etildi.O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida **«Xech kaysi mafkura davlat mafkurasi sifatida urnatilishi mumkin emas»**,-deb yozib quyildi.SHunday qili, jamiyatimizda xech kachon mafkura yakkaxokimligi ruy bermasligi uchun zarur bulgan xuquqiy poydevor yaratildi.Milliy ma'naviyatni ravnok toptirish, xalk ma'rifikatini yuksaltirish xamda jaxon xalklari tafakkuri maxsulidan xalkimizni baxramand etish, mamlakatdagi ma'naviy muxitni yanada soglomlashtirishga kumaklashish- ushbu tashkilotning asosiy vazifasi qilib quyildi.Ma'naviyat va ma'rifikat masalalarini bevosita jamoatchilik yuli bilan rivojlantirishga katta e'tibor berilmokda. Bu mazkur soxa ravnakida ommaviy xalk xarakatini kuchaytirish bilan birga, mamlakatning xar bir fuqarosi ongi va tafakkurini amaliy faoliyat asosida kengaytirishdek eng samarali usul xam kullaniladi.SHuning uchun xam bu masalaga daxldor bulgan bir kator jamoat tashkilotlari xukumatning doimiy e'tiborida turadi.Ular axoli turli tabakasining intellektual saloxiyatini oshirish, ularni uz vaktida ragbatlantirib turish, ma'naviy jixatdan kullab – kuvvatlash va ijtimoiy ximoyalash borasida kator tadbirlarni amalga oshirib kelmokdalar.Mamlakat istikboli va millat kelajagini ta'minlash, xar tomonlama etuk yoshlarni tarbiyalash, iktidorli yoshlarni ragbatlantirish uchun Ulugbek nomidagi O'zbekiston YOshlar jamgarmasi tashkil etildi.Uning maqsadi yoshlarning intellektual imkoniyatlarini yanada kengaytirish,

saloxiyatli yoshlar kuchini birlashtirish, ularni asrab-avaylash, ilm-fan va madaniyatni rivojlantirishga bulgan intilishlarini moddiy va ma'naviy jixatdan kullab-kuvvatlashdan iboratdir.Jamgarma «Iste'dodlarni izlaymiz», «CHet ellarda ilm olamiz», «CHet tillarni urganamiz», «Xalkaro xamkorlikni mustaxkamlaymiz», «Telekursatuvarlar – ilmiy taraqqiyot kumakchisi», «YOsh ishbilarmonlarni kullab – kuvvatlaymiz» dasturi asosida faoliyat kursatmokda.

Ijtimoiy pedagogika va ijtimoiy-pedagogik faoliyat rivojining metodologik asoslari quyidagilar xisoblanadi:

- 1.Bozor munosabatlarini shakllantirish va jamiyatni demokratiyalashtirish sharoitida davlatning kuchli ijtimoiy siyosati. Bu siyosatning asosiy yo'nalishlari I.A.Karimov asarlarida va davlat dasturiy xujjalarda ko'rsatilgan.
- 2.Axolining eng kam ta'minlangan katlamlarini ijtimoiy ximoya qilish choralari to`grisidagi xukumat farmoyishlari, konun, farmonlarni xayotga tatbik etish.
- 3.O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy pedagogik kontseptsiyasi.
4. Ijtimoiy muammolarga nixoyatda katta e'tibor karatilishining sababi milliy davlatchilikni shakllantirish jarayonidir. Bu davrda ayniksa ijtimoiy muammolar nixoyatda keskinlashadi, ijtimoiy karama-karshiliklarning yuzaga kelishi milliy xavfsizlikka taxdid omili bo'lib xizmat qilishi mumkin. SHuning uchun vaktida choralar kabul qilish nixoyatda muximdir.

Iktisodning liberallashuvi turli ijtimoiy kiyinchiliklarni –ilmsizlar sonini ortishi, turli tengsizliklar paydo bo'lishi, xayot tarzining buzilishini keltirib chikardi.SHuning uchun O'zbekiston taraqqiyotining o'z yo'li, asoslanadigan etakchi tamoyillaridan biri- kuchli ijtimoiy siyosat olib borish xisoblanadi. Bu siyosatning maqsadi quyidagilardir:

- 1.Bozor isloxoxtarining xamma boskichlarida axolining ijtimoiy ximoyasini ta'minlash;
  - 2.Axoli turli katlamlarini paydo kilmaslik orkali ijtimoiy kelishuvni ta'minlash.
- Mustaqil lik yillarda ko'rsatilgan maqsadlarga axolining ijtimoiy ximoyasining yangi mexanizmi shakllangan va u quyidagilarda namoyon bo'ladi:  
-ishlab chikarishni barqarorlashtirish;  
-davlat mablaglaridan tashkari, mexnat jamoalari, ijtimoiy va mexribonlik fond va tashkilotlarining mablaglarini yo'naltirish;  
-axoli daromadlarining yukori tabakalashuviga yo'l ko'ymaslik;  
-kambagallikka karshi kurashish, nogiron, etim va kariyalarni ko'llab-kuvvatlashni kuchaytirish.

Milliy mentalitet va xayot tarzining xususiyatlarini inobatga olib, eng kam ta'minlangan oilalarni aniklash va ularga maxalla ko'mitalari orkali yordam ko'rsatish kabi ijtimoiy ko'llab-kuvvatlash shakli tarkalmokda. Bunday yondashuv bizning xalkimizda ko'p asrli ildizlarga ega va amaliy axamiyati esa mablaglarning xayotda anik tarkatilishini ta'minlaydi.

Respublikada olib borilayotgan ijtimoiy siyosatning xuquqiy asosi bo'lib quyidagi yo'nalishlarga doir xujjalalar xizmat kilmokda:

- 1.Xayriya-O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 2000 yil 4 martdag'i "Soglon avlod uchun xalkaro noxukumat xayriya fondining faoliyatini ta'minlash choralari to`grisida"gi farmoni. Unda fondning asosiy vazifalari belgilangan:

- mablaglarni “Soglon avlod” davlat dasturiga karatish;
- oila va jamiyatda soglon xayot tarzini targib qilish;
- xorij va milliy xomiyarning xayriya yordami vosita va mablaglarini jalg qilish;
- ko`p farzandli oilalar, nogiron bolalar, bolalar uylari tarbiyalanuvchilariga insonparvarlik yordami ko`rsatish.

1.Mexr-muruvvatga oid O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 2004 yil 27 yanvardagi **“Mexr-muruvvat to`grisida”**gi farmoyishi. Uning maqsadi jamiyatda do`stlik, bagrikenglik, xalklararo totuvlik fuqarolar, ayniksa yoshlarning yaxshi axlokiy xislatlarini rivojlantirishdir.

2.Soglon avlod tarbiyasiga oid O`zbekiston Respublikasining **“Fuqarolar sogligini saklash to`grisida”**gi konuni xaqida axolining malakali tibbiy yordam va ijtimoiy ximoya olishdagi konstitutsiyaviy xukuklarni amalga oshirishi, soglikni saklash tizimini mamlakatda amalga oshirilayotgan isloxoatlarga moslashtirish maqsadida quyidagi farmon va farmoyishlar kabul qilindi. O`zbekiston Respublikasi prezidentining 1998 yil 10 noyabrdagi **“O`zbekiston Respublikasida soglikni saklash tizimini islox qilish davlat dasturi to`grisida”**gi farmoni, Vazirlar Maxkamasining 1993 yil 3 dekabrdagi **“O`sib kelayotgan avlodni soglomlashtirish muammolarini kompleks xal qilish to`grisida”**gi farmoyishi, 2000 yil 15 fevraldagi **“Soglon avlod davlat dasturi to`grisida”**gi, 2002 yil 31 oktabrdagi **“O`zbekiston bolalar sportini rivojlantirish fondi faoliyatini tashkil qilish to`grisida”**gi, 2002 yil 25 yanvardagi **“Ayollar va o`sib kelayotgan avlodning sogligini mustaxkamlash to`grisida”**gi farmoni.

1.Ayollarning ijtimoiy ximoyasiga oid O`zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining **“Ayollarga ko`shimcha imtiyozlar to`grisida”**gi 1989 yil 14 apreldagi konuni, O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 1989 yil 17 martdagи **“Ayollarning maxsus ximoyasini kuchaytirish to`grisida”**gi farmoni, Vazirlar Maxkamasining 1999 yil 17 martdagи **“Zararli va sharoiti ogir ishlarda band ayollarning daromadlariga solik solinayotganidagi imtiyozlar to`grisida”**gi farmoni.

1.Oilani ko`llab-kuvvatlashga oid O`zbekiston Respublikasi prezidentining 1994 yil 16 iyundagi **“Ko`p bolali oilalarga ijtimoiy yordam tizimini mukammallashtirish to`grisida”**gi farmoni, Vazirlar Maxkamasining 1986 yil 10 dekabrdagi **“Ko`p bolali oilalarga yordam ko`rsatish to`grisida”**gi **farmoyishi. “Voyaga etmagan bolali oilalarga nafaka to`lash to`grisida”**gi Nizomida bu nafakalarni olish xuquqiga quyidagilar ega:

- nogiron bolali oilalar;
- ota-onasi yo`k bo`lgan va bolalarning tarbiyasi bilan karindoshlari shugullanuvchi oilalar;
- ota-onadan biri yoki ikkalasi xam nogiron bo`lgan oilalar;
- ota-onadan biri yoki ikkalasi xam ishsiz bo`lsa.

2.Nogironlarga yordam berishga oid 1991 yil 18 noyabrdagi **“O`zbekiston Respublikasida nogironlarning ijtimoiy ximoyasi to`grisida”**, Vazirlar Maxkamasining **“YOshligidan nogiron bo`lganlarga, kariyalarga va mexnat qilishga layokatsiz shaxslarga nafaka to`lash to`grisida”**gi 1994 yil 24

iyundagi № 319 farmoyishi. Ularda nazarda tutilgan choralar nogironlar uchun individual rivojlanishlari, ularning ta’limlari va ishlab chikarishda katnashishlari, soglikni saklash dasturini amalga oshirishga karatilgan.

3.Axolining kam ta’minlangan katlamlarini ximoyalashga oid O’zbekiston Respublikasining axolining kam ta’minlangan oilalarini ximoyasi to`grisidagi farmon, farmoyishlari. SHuningdek, ijtimoiy ximoyaga muxtoj axolini ishga joylashtirishda ish o`rinlarining minimal soni o`rnataladi.

4.Maxallaning ijtimoiy makomini mustaxkamlashga oid Maxalla ko`mitalariga fuqarolarni o`z-o`zini boshkarish organiga aylanishi munosabati bilan 1999 yil 14 apreldagi “**Fuqarolarni o`z-o`zini boshkarish organlari to`grisida**”gi konun, shuningdek 1999 yil 13 yanvardagi “**Axolining ijtimoiy ko`llab-kuvvatlanishini ta’minlashda o`z-o`zini boshkarish organlari rolini oshirish to`grisida**”gi farmon kabul qilindi. Ular shaxar, kishloq, maxalla oksokollari yigilishlarining vakolatlarini belgilab berishadi. Ulardan asosiylari davlatning oilalarni ijtimoiy ta’minalash uchun ajratilgan mablaglarini to`gri taksimlash, ayollar manfaatlarini ximoya qilish, oilada ma’naviy-axlokiy muxitni shakllantirish, ijtimoiy tartibni ta’minalashda ishtirok etish, xukubuzarliklarning oldini olish, voyaga etmaganlarning xukuklarini ximoya qilish, axoli markazlarining tozalik va ekologik xolatini nazorat qilish.

Zamonaviy sharoitlarda ijtimoiy siyosatni o`tkazish xayotning barcha soxalarini ijtimoiylashtiruv ijtimoiy ishlarning anik belgilangan yangi shakllarini joriy qilish zarurligini tugdiradi. Bu borada quyidagi ishlar amalga oshirildi:

1) 1996 yil 23 fevralda Vazirlar Maxkamasining “**O’zbekistonda tibbiy- ijtimoiy patronaj tizimini tuzish**” xaqidagi buyrugi chikdi. Unda “Sogлом avlod” fondining taklifi bilan viloyatlar, Toshkent shaxri, Korakalpogiston Respublikasida 15 ta tez tibbiy yordam guruxilarini tuzilishiga mablag ajratildi. Bu buyruk tibbiy- ijtimoiy yordam ko`chma guruxlarini mutaxassislar bilan ta’minalash vazifasini amalga oshirishga karatilgan. Unda shuningdek, tibbiy- ijtimoiy patronaj ishchilarini tayyorlash tashkiloti zarurligi xam aytilgan. O’zbekiston Respublikasi mexnat vazirligiga bir oy muddat ichida kasb-xunarlarni tasniflash Respublika markaziga yangi kasb- “**tibbiy- ijtimoiy ishchi**” kasbini kiritish vazifasi yuklatildi. Tibbiy- ijtimoiy patronaj funktsiyalari tarkibiga quyidagilar kiradi:

1.Tibbiy- ijtimoiy patronaj ijtimoiy soxada faoliyat yurituvchi turli tashkilot, muassasalar intilishlarini birlashtiradi.

2.Tibbiy- ijtimoiy patronaj o`z faoliyatida O’zbekistonda yashovchi xalklarning asriy an’analariiga, fan yutuklariga asoslanadi va O’zbekistonda yuritilayotgan samarali ijtimoiy siyosatni xar bir oilaga etkazishga majburdir.

3.Tibbiy- ijtimoiy patronaj xar bir oilaning tibbiy ijtimoiy xolati monitoringini o`tkazadi.

Tibbiy- ijtimoiy patronaj maqsadlari quyidagilardan iborat:

-Soglikni saklash vazirligi, Axolini ijtimoiy ta’minoti vazirligi va Sogлом avlod uchun fondi ko`rsatkichlari yordamida maxalliy organlar bilan yakin alokada bo`lib yashashning tozalik, gigienik sharoitlarini, oilaning psixologik iklimini, uning a’zolarining sogligi xolatini aniklash

-tibbiy, ijtimoiy va psixologik yordamga muxtoj ayollar va bolalarni o`z vaktida aniklash;

-oilada soglom turmush tarzining shakllanishi.

### **1.Ko`rsatilgan maqsadlarga muvofik tibbiy ijtimoiy patronajga quyidagilar yuklatiladi:**

-oilalarga tibbiy, ijtimoiy va xuquqiy yordam ko`rsatish;

-ayol va bolalarni sogolomlashtirishda yordam ko`rsatish, oilani rivojlantirish bo`yicha keng tushuntirish ishlarini olib borish.

2. 1998 yil 1 aprelda Vazirlar Maxkamasining **“Ona va bola skiringi dasturini tasdiklash to`grisida”**gi farmoyishi chikdi. Bu dastur xomilador ayollarda nogiron bolalarning tugilishini oldini olish uchun tugma va boshka patalogiyasini aniklashga karatilgan. Bu farmoyishga binoan “Ona va bola skiringi” dasturini ko`llab-kuvvatlash mas’uliyati “Soglom avlod uchun”, “Maxalla” fondi, O`zbekiston Respublikasi xotin-kizlar ko`mitasiga yuklatildi.

1998-2001 yillar orasidagi davrda “Soglom avlod uchun” fondining **“Villak”** (Finlandiya) va Bristol Monteds Skvibb (AKSH) kompaniyalari bilan tuzilgan shartnomalariga muvofik skrining markazlari agrotexnika va boshka texnik jixozlari bilan ta’mindilar.

3. 1997 yil 31 dekabrda Vazirlar Maxkamasining **“SOS-O`zbekiston bolalar kishloklari assotsiatsiyasini ta’sis etish to`grisida”**gi farmoyishi chop etildi. Bu assosatsiatsiya bolalar kishloklarini tashkil qilish jamiyat- SOS- Kinderford xalkaro jamiyati (Avstriya) tomonidan ta’sis etildi.

Assosatsiatsiya faoliyatining asosiy maqsad va yo`nalishlari quyidagilardan iborat:

-jamoatchilik va davlat tuzilmalarining etim bolalarning jismoniy, akliy va axlokiy jixatdan rivojlantirish uchun kulay sharoitlar yaratishdagi xarakatlarini tartibga solish;

-etim bolalarga yordam berishga karatilgan loyixa va dasturlarni amalga oshirishda moliyaviy yordam berish;

-falokatga uchragan barcha bolalarga yordam ko`rsatish;

-O`zbekiston Respublikasida SOS-O`zbekiston bolalar kishloklarini tashkil qilish va ularni jixozlar bilan ta’minalash;

-SOS-Kinderford interneyshnl bilan xamkorlik qilish;

-Assotsiatsiya faoliyatiga davlat, jamoat va xususiy xususiyatlarni jalb kiladimi;

-etim bolalar uchun insonparvarlik dasturlarini tarkatish va ko`llab-kuvvatlash uchun OAVlari bilan xamkorlik qilish, ko`rgazma, seminarlar o`tkazish, axborot materiallarini chop etish.

YUkorida keltirilgan xujjalardan ko`rinib turibdiki, ijtimoiy muammolarga aloxida e’tibor 1996 yildan karatilgan. Bir yil avval 1995 yil O`zbekistonda shaxsni shakllantirishning ijtimoiy pedagogik kontseptsiyasi ishlab chikildi. Uning tuzilishi Kadrlar tayyorlash milliy dasturi, ta’lim tizimini to`gri isloq qilish bilan izoxlanadi. Kontseptsiyaning asosiy koidalari:

1.madaniy-axlokiy tarbiyaning ta’limdan ustuvorligi;

2.insonda ijtimoiy faollik, o`z-o`zini boshkarish ko`nikmalari, muomala va axlok madaniyati, yukori intizomga ega demokratik jamiyat fuqarosini tarbiyalash;

2.ijtimoiy faol shaxsni jamiyat ishlab chikarishning asosiy sharti sifatida shakllantirish xar bir fuqaro xayotining ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy soxalarida ishtirok etishi;

3.shaxsni ijtimoiylashtirish vositalari sifatida demokratiyalashtirish, insonparvarlik tamoyillarini amalga oshirish;

Ta'limdi demokratiyalashtirish-faollik va tashabbusni, xamkorlik, birlik vositalarini rivojlantirishni nazarda tutsa insoniylashtirish- yosh avlodni milliy, ijtimoiy-madaniy kadriyatlar orkali umuminsoniy ma'naviy kadriyatlarga, inson xukuklarini ta'minlashga ko'nikishlari demakdir.

Bu kontseptsiya boy tarixiy, madaniy, ma'naviy, pedagogik, ijtimoiy an'analar bilan birlgilidagi ijtimoiy-pedagogika fanining amaliy faoliyat soxasi sifatidagi rivojida poydevor bo`lishi mumkin.

## MA'RUZA-13

### *MAVZU: Ijtimoiy pedagog va uning kasbiy sifatlari, pedagogik madaniyati.*

1. Ijtimoiy pedagog kasbiy faoliyatining xususiyatlari
2. Ijtimoiy pedagogik faoliyat
3. Ijtimoiy pedagog vazifalari
4. Ijtimoiy pedagoglarning " Kasbiy majburiyatları"
5. Pedagogik madaniyat xaqida umumiylashuv tushunchasi
6. Ijtimoiy pedagogik madaniyat va kasbiy maxorat
7. "Ijtimoiy pertseptsiya" va ijtimoiy pertseptiv kobiliyatlar
8. SHaxsning emotsiyonal sifatlari

### **Tayanch tushunchalar.**

Uzluksiz ta'limga tizimi, kiyin vaziyatlar, isonparvarlikka asoslangan ta'limga, ijtimoiy moslashuv modeliga, tashxis quyish, kayta tiklash, kasbiy mentallik, ijtimoiy-ruxiy karashlar, evristika,

«Pedagogik madaniyat», madaniyat darajasi, individual shaxsiy daraja, ichki ahloqiy madaniyat, amaliy tajriba, «kapital», kommunikativ sifatlar, «suggostopediya», inontirish, uqtirish, ishontirish, «ijtimoiy-pertseptsiya», sezgirlik, refleksiya, emotsiyonal barqarorlik, empatiya, deformatsiyalanish, situativ xarakter

### **Nazorat uchun savollar.**

- 1.Ijtimoiy pedagoglarni kasbiy tayyorlash kaysi o`quv yurtlarida olib boriladi?
- 2.Ta'limdi insonparvarlashtirishdan kuzlangan asosiy maqsad nima?
- 3.Ijtimoiy pedagogik faoliyat kanday komponentlardan tashkil topgan?
- 4.Ijtimoiy pedagog faoliyatidagi eng muxim yunalishlarni kursatib bering?
- 5.Ijtimoiy pedagogik faoliyatga kanday vazifalar kiradi?
- 6.Odamning pedagogik madaniyati deganda nima tushiniladi?
- 7.Ijtimoiy pedagogik madaniyatning kasbiy mahorat bilan o`zaro bog`liqligi nimalarda namoyon bo`ladi?
- 8.Mutaxassisning kasbiy muhim sifatlariga qanday sifatlar kiradi?

9.«Ijtimoiy pertseptsiya» terminiga izoh bering. Ijtimoiy pertseptiv kobiliyatlarga nimalar kiradi?

10.SHaxsnинг emotсional sifatlariga tavsif bering.

### **Foydalanilgan adabiyotlar.**

3. V.A.Nikitin tahriri ostida. «Ijtimoiy pedagogika». Oliy o`quv yurtlari talabalari uchun o`quv qo`llanmasi. M.2002.(ruscha).
4. M.G.Davletshin. «Zamonaviy maktab o`qituvchisining psixologiyasi» .T. O`zbekiston. 1999y.
5. I.A.Zyazyun. «Osnovy pedagogicheskogo masterstva» M.1989g. “Prosvetenie”.(ruscha).

Ijtimoiy pedagoglarni kasbiy tayyorlash uzlusnz ta`lim tizimda amalga oshiriladi. Ijtimoiy pedagoglarni kasbiy tayyorlash ikki turdagи o`quv yurtlarida olib boriladi: o`rta kasbiy ta`lim muassasalari (litsey va kollejlar) va oliy kasbiy ta`lim maktablari (Institut va universitetlar).

O`rta kasbiy ta`lim muassasalarida kichik sinflarlar va maktabgacha tarbiya muassasalarida tarbiyalanuvchi bolalar bilan ishlovchi pedagoglar tayyorlanadi. O`rta ma'lumotli pedagoglarning asosiy vazifasi bolalarga kiyin vaziyatlarni engib o`tishga yordam beradi, bolalarning ishonishiga ko`maklashuvchi faoliyat turlarini tashkillashtiradi. Bolalarning rivojlanishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratish, ularning ota—onalari bilan xamkorlik qilish, o`z malakasini oshirish maqsadida mustaqil ravishda o`kib borishdan iboratdir. O`rta kasbiy ta`lim bilim yurtini tugatgach ular oliy ta`lim muassasida o`z o`kishini davom ettirishi mumkin.

Ijtimoiy pedagog - faqat o`qituvchi emas, bola kanday ukiyotganini va rivojlanayotganini tushunadigan va xis etadigan shaxsdir. U bola xayotini, kechinmalarini xuddi o`zinikidek tushunadigan va uning ma`naviy, madaniy, axlokiy rivojlanishiga yullanmalar bera oladigan mutaxassis bulmogi kerak. SHuning uchun xakikiy pedagog faqat o`z fanini bilibgina kolmay, ayni vaktda bolalar va kattalar bilan ijodiy mulokot kila oladigan, o`z ustida ishlaydigan inson bulishi muxim axamiyatga ega.

Ta`lim jarayonini ijtimoiylashtirish natijasida o`quvchi inson moxiyatini anglaydi. O`z xayoti dovomida inson to`grisida xosil qilingan tushunchalar asosida mukammal shaxs va xakikiy fuqaro bo`lib etishadi.

Insonparvarlikka asoslangan ta`lim – ijtimoiy fanlar va yondosh fanlarning funktsiyalarini kengaytiradi, ta`lim jarayonini, mutaxassis shaxsi va uning dunyokarashi yaxlitligini ta`minlaydi.

Ta`limni insonparvarlashtirishdan ko`zlangan asosiy maqsad yoshlarga tegishli bilim, kunikma va malaka, ularning insoniy dunyokarashini shakllantirishdan iborat. U bulajak fuqarolar tomonidan insonlar faoliyatining turli soxalarida insonparvarlik g`oyasi va kadriyatlarini amalga oshirishning asosi bo`lib xizmat kilsin.

Ta`limda xayot tajribasiga ega bulish ziddiyatli xolatlarda ijtimoiy moslashuv modelini ishlab chikishni takozo etadi:

- ijtimoiy – shaxsiy xayyat tajribasiga asoslangan muntazam davom etadigan jarayon xisoblanadi;

- real vaziyatdan kelib chikib, ziddiyatli xolatlarida ijtimoiy moslashuv modelini ishlab chikishni takozo etadi;

- mavjud amaldagi xolatga doim moslashish jarayoni xisoblanadi;

- shaxslararo alokalarni kamrab oladi;

- shaxsning shakllanish jarayonini yunaltiradi.

Ijtimoiy pedagog kasbiy faoliyatining xususiyatlari — "Ijtimoiy pedagog" mutaxassisi "pedagog" so'zidan olingan bo'lib, avvalo o'qituvchi ma'nosini anglatadi. SHu bois mazkur lavozimning joriy etilganidan sung aynan o'qituvchilarning birinchi ijtimoiy pedagoglar bo'lgani ajablanarli emas. Ijtimoiy pedagoglarni kayta tayyorlash buyicha kurslar tinglovchilarinipg aksariyat kismini xam o'qituvchilar tashkil etadi.

Yana shuni ta'kidlamok joizki, ijtimoiy pedagoglarning kasbiy tayyorgarligi xam pedagogik oliy o'quv yurtlarida amalga oshiriladi. Darxakikat,

pedagog na o'qituvchining kasbiy faoliyatida kupgina umumiyliliklar mavjud. Bu ikkala kasbning xam ob'ekti bola, uning rivojlanishi va ijtimoiy shakllanishidir. Bu narsa ularning yakinligini yana bir bor tasdiklaydi.

O'z navbatida mazkur mutaxassiliklarning kasbiy faoliyati ularning o'ziga xos xususiyatlarini aniklashga imkon beruvchi bir kator tafovutlarga xam ega. O'qituvchi o'zining asosiy ta'lif berish vazifasini bajarar ekan, yosh avlodga bilim va jamiyat tomonidan orttirilgan ijtimoiy madaniyat tajribasini o'rgatadi. Ushbu jarayonda bola tarbiyalanadi va shakllantiriladi. Ijtimoiy pedagogning dikkat markazida esa bolani jamiyatga moslashib ketishiga yordam berishdir.

### **Ijtimoiy pedagogik faoliyat**

Pedagogik faoliyat-ta'lif va tarbiya orkali ijtimoiy-madaniy tajribani berishga yunaltirilgan kasbiy faoliyat turidir. Bu faoliyat ta'lif standartlari, o'quv rejalar, dasturlari bilan belgilanadi.

Ijtimoiy pedagogik faoliyat-bolaga ijtimoiylashuvi jarayonida (bolaning jamiyatga kirishi) yordam kursatishga karatilgan kasbiy faoliyat turidir. Bola bilan ish olib borishi mumkin bulgan turli xil ta'lif muassasalari, tashkilotlari, birlashmalari uz ishlarini ijtimoiy pedagoglar orkali amalga oshiradilar.

Ijtimoiy pedagogik faoliyat xar doim anik bir bolaga va uning ijtimoilashuviga, uni jamiyatga integratsiyalash jarayonida yuzaga keladigan muamolarini xal etishga yunaltirilgan bo'ladi.

Kasbiy faoliyat tuzilmasi — xar kanday faoliyat o'z tuzilmasiga egadir. Ular faoliyat elementlarining o'zaro boglikligini va o'zaro shartlarini aniklaydi. Ijtimoiy pedagog faoliyati tuzilmasi quyidagi komponentlardan iborat: sub'ekt (faoliyatni amalga oshiruvchi tomon), ob'ekt (faoliyat yunaltirilgan tomon), maqsad (faoliyat orkali nimaga intilinadi), vazifa (faoliyat orkali nimalar amalga oshiriladi), vositalar (faoliyat kaysi usul yoki texnika yordamida amalga oshiriladi).

Ijtimoiy pedagog faoliyatining ob'ekti jamiyatga moslashish jarayonidagi yordamga muxtoj bolalar va yoshlardir. Bu toifaga intellektual, ruxiy, ijtimoiy nuksoni bor bolalar, shuningdek, jismoniy, ruxiy yoki akliy shakllanishi buzilgan

bolalarning katta kismi (ko`zi ojiz, kar—sokov, akliy ojiz va bolalar tserebral falajligiga chalinganlar) kiritiladi. Ular jamiyatning aloxida mexriga muxtojdir.

Agar bolaning jamiyatdagi shakllanishi normal kechsa unda ijtimoiy pedagog yordami zarur bulmaydi. Bordiyu, ota—onalar va maktab uning shakllanishi, tarbiyalanishi va ta’lim olishini ta’minlay olmasa u xolda ijtimoiy pedagog xizmati kerak bo’ladi.

Ijtimoiy pedagog faoliyatining maqsadi bolaning ruxiy sogligi va xavfsizligi uchun sharoit yaratish, uning oilasi, maktabi va atrofidagi unga salbiy ta’sir kursatuvchi omillardan ogoxlantiruvchi va ularni engib utuvchi ijtimoiy, xuquqiy, ruxiy, tibbiy va pedagogik muammolarini kompleks ravishda xal etish maqsadida turli mutaxassislar (ruxiyatshunoslar, tibbiy xodimlar, ijtimoiy xodimlar va yuristlar) xamda ma’muriy organlar va idoralarning (ta’lim, soglikni saklash, ijtimoiy ximoya soxasidagi) mazkur masalaga yunaltirilgan sa’y—xarakatlarni muvofiklashtirib turishda vositachi bula olishi kerak.

Ijtimoiy pedagog faoliyatidagi muxim yunalish — bu BMT Konventsiyasida e’lon qilingan bolaning yashashga, sogлом shakllanishiga, ta’lim olishiga, o’z karashlarini erkin ifoda etishiga, kamsitishning xar kanday turidan ximoyalashga karatilagan xukuklarini ximoya qilishdir.

Ijtimoiy pedagog faoliyatidagi yana bir yunalish—bu bolani shakllanishiga kumaklashuvchi ijtimoiy loyixalar va dasturlar, xususiy tashabbuslarni ishlab chikishda ishtirot etishdir.

SHunday qilib, ijtimoiy pedagog faoliyatiga quyidagi vazifalarni biriktirish mumkin: .

- **tashxis quyish**
- **bashoratchilik** ‘.
- **vositachilik** .
- **tugirlash va kayta tiklash**
- **ximoyalash**
- **ogoxlantirish va profilaktik** ;
- **evristika (ijodiy fikrlash)**

Pedagogning barcha faoliyati vositalar yordamida amalga oshiriladi. Bular safiga maqsadga erishishda zarur bo’ladigan barcha xarakatlar, predmetlar, kurollar, usullar va texnologiyalarni kiritish mumkin.

Ijtimoiy pedagogning kasbiy faoliyati sub’ekti sifatida: shaxsiy tavsif va kasbiy omilkorlik.

Ijtimoiy pedagogning shaxsiy tavfsifnomasi kurib chikiladigan bulsa, avvalo mazkur faoliyat sub’ektini — o’z soxasini mukammal biluvchi mutaxassisni belgilab olishimiz zarur bo’ladi. U bola xaqidagi ijtimoiy va boshka kiyinchiliklarni chukur farklay biladi va unga yordamga kela oladi. U umum nazariy va maxsus bilimlarga, malaka va kunikmalarga, ma’lum darajadagi kobiliyatlarga ega bo’ladi.

Xush ijtimoiy pedagog kim? Uning ruxiy surati va shaxsiy tavsifnomasi kanday, kaysi soxalar uning faoliyat doirasiga tegishli? U boshka kasb egalaridan nimasi bilan fark kiladi?

Kundalik xayotda biz kasb inson ongida, uning xatti— xarakatlarida va dunyokarashida o’ziga xos iz koldirishiga guvox bulamiz. Psixologiyada bu narsa

**"kasbiy mentallik"** deb ataladi. Mentallik — bu insonning olamga munosabatini va uning kundalik xatti —xarakatlarini aks ettiruvchi ma'lum ijtimoiy—ruxiy karashlar va kadriyatlar majmuidir. Mentallik o'zida individning ijtimoiy va madaniy tajribasini mujassamlashtirgan bo'lib, insonning kaysi ijtimoiy katlamga, yoshga, jinsga, millatga va kasbga mansubligi bilan aniklanadi.

Psixologik tadqiqot larda kasbiy mentallik ma'lum bir kasb egalariga xos bo'lgan xususiyat sifatida e'tirof etiladi.

Xozirgi pedagogning muxim vazifalaridan biri milliy istiklol g'oyasini bolalar va o'quvchilar ongida shakllantirish tadbirlari va mexanizmlarini ishlab chikib, uni amalga oshirishdan iboratdir. Mamlakatimiz Prezidenti I.A.Karimov shunday degan edi:**"Endigi vazifamiz shundan iboratki, milliy istiklol g'oyasi tushunchalari asosida keng jamoatchilik, ziyoliylar, ilm – fan va madaniyat namoyandalarini, avvalo, ma'naviy – ma'rifiy soxa xodimlari milliy mafkurasini takomillashtirish, uning asosiy tamoyillarini odamlar kalbiga va ongiga singdirishga karatilgan ishlarni yangi boskichga kutarish zarur".**

Mana shuning uchun xam yaratiladigan ko'llanmalar mazmunida milliy istiklol g'oyasi asosiy o'rinni olishi lozim.

Oliy ta'lim muassasalarida pedagoglar ikki boskichda o'kitiladi. Birinchi boskichda, ya'ni bakalavriatda mutaxassis o'zi tanlagan soxa bo'yicha 4 yil davomida ta'lim oladi. Ikkinci boskich magistraturada davom ettiriladi. "Ijtimoiy pedagog" soxasiga tegishli barcha mutaxassilarning xam umumiyligi o'ziga xos xususiyatlari mavjud bo'ladi. Bir kator tadqiqot chilar ularning shaxsiy tavsifnomasi sifatida individual—ruxiy xususiyatlар va maxsus kobiliyatlarni ko'rsatmokda.

Kuzatuvchanlik, murakkab vaziyatda tez yo'lga tusha bilish, faxm— farosat bilan sezal olish, o'zini boshka odam o'miga ko'ya olish va uning xissiyotlarini tushuna bilish, o'zini boshkara olish va refleksiya (fikr yuritib uni taxlil qilish) **maxsus kobiliyatlar jumlasidandir**. SHuningdek, ijtimoiy pedagog dilkashlik, odamlar bilan ishlay olish, kizikkonlik, o'z fikrini o'tkaza olish, baxsli vaziyatlarda yo'l topa bilish, tirishkoklik kabi ijtimoiy soxaning barcha xodimlariga xos xususiyatlarga xam ega bo'lmogi darkor.

Xorijiy tadqiqot chilar xam pedagogning individual— ruxiy xususiyatlari to'grisida o'z fikrlarini bildirganlar. Masalai, Buyuk Britaniyalik olimlar bunday xususiyatlardan katoriga yukori darajadagi akliy saloxiyatga egalik, tartiblilik va o'z— o'zini boshkara bilish, jismonan kuchlilik, odamlarga kiyin vaziyatlarda yordam bera olish, chidamlilik, sezgirlik kabilarni kiritadilar.

AKSH ning mashxur psixologlaridan sanalgan J. Xoland o'zining "**o'ziga yo'naltirilgap kidiruv**" metodikasida ijtimoiy soxa kasbi egasiga xos xususiyatlarni ko'rsatgan. Bular: realistik (xakkoniylilik), tadqiqot chilik, artistlik, ijtimoiy, tadbirkorlik, konventional xususiyatlardir. U ijtimoiy pedagogga xos insonparvarlik, ideallik, mas'uliyatlilik, axloklilik, xushmuomalalik, iliklik, odoblilik, o'zgalarni do'st tuta olish kabi xususiyatlarni xam ko'rsatadi.

Ijtimoiy pedagog kasbi insonlar o'rtasidagi munosabatlar tizimida faoliyat yurituvchi ko'p kirrali soxa bo'lib, pedagogning kaysi ishda ishlashidan kat'iy nazar odamlar bilan va avvalo bolalar bilan ishlashga yo'naltirilganligidadir. Mulokot

jarayonida pedagog ko`plab ruxiy zurikish va charchokni o`zida sinashiga to`gri keladi. SHu bois uning asab tizimi xam mustaxkam bo`lishi darkor. Bu narsa unga ijtimoiy—pedagogik, ruxiy—terapeutik jarayonlarda emotsional kiyinchiliklar bilan to`knashuvida yordam beradi.

Ijtimoiy pedagogga xos yana bir xarakter xususiyati, bu "**Men — obrazidir**" Bu narsa pedagogning o`ziga nisbatan ijobiy munosabatda bo`lishini xamda boshkalar tomonidan o`ziga yukori baxo berilishini ifodalaydi. Mazkur xarakter pedagogga boshka odamlar bilan erkin mulokot qilish va ularni oson kabul qilish imkonini beradi.

Ijtimoiy pedagognipg quyidagi shaxsiy fazilatlarini aloxida ajratishimiz mumkin:

-Insoniylik xususiyatlari (mexribonlik, boshkalar manfaatini ustun ko`yish, o`z shaxsiy kadr—kimmati xissi)

-Ruxiy barqarorlik, yukori darajadagi xissiy va irodaviy xususiyatlar)

-Ruxiy taxlilchilik xususiyatlari (**o`zini idora kila olish, o`ziga tankidiy karash, o`zini baxolay olish**)

-ruxiy—pedagogik xususiyatlar (**kirishuvchanlik, gapga chechanlik.**)

Yukorida keltirilgan xususiyatlar bilan tanishar ekanmiz, xar kanday odam xam ijtimoiy—pedagogik faoliyatni olib borish kobiliyatiga ega bo`lavermasligiga ishonch xosil kilamiz.

Xar bir pedagogning kasbiy omilkorligi, ya`ni uning o`z faoliyatini olib borishga amaliy va nazariy tomonidan tayyorligi me`yoriy—xuquqiy xujjatlar yordamida tartibga solinadi. Mazkur xujjatlar o`z ichiga mutaxassis- pedagogning kasbiy majburiyatlarini, mexnat tavsifnomasini, bilim va malakasini oladi.

**IJTIMOIY ISH** – axolining ijtimoiy ximoyalanmagan katlamlariga yordam kursatish xisoblanadi. Ijtimoiy ishlarning obekti inson xisoblanadi, lekin xamma emas, balki faqatgina muammolari bulganlari (ekalogik, ijtimoiy, texnogen, millatlararo keskin o`zgarishlar, buzilishlar natijasida) yoki soglom bulmagan, jismoniy yoki psixik nuksonlari bulganlar xisoblanadi.

**MURUVVAT KO`RSATISH** – muxtojlarga yordam, xayriya-saxovat – aloxida shaxslar yoki tashkilotlar tomonidan muxtojlarga yoki axoli guruxlariga beminnat yordam berish. Raxim-shavkat, marxamat, raximdillik – barchaga yordam berish, yoki o`zgalarni kechirish, gamxurlik qilish.

**XAYRIYA** – (muxtojlarga yordam, xayr-saxovat) – muxtoj odamlarga yoki axolining ijtimoiy guruxlariga xususiy shaxslar, yoki tashkilotlar tomonidan bepul yordam kursatish.

**MEXRIBONLIK (MILOSERDIE)** – raximdillik, odamiylik, insonparvarlik yuzasidan kimgadir yordam kursatish, yoki kimnidir kechirish, avf etish.

**"Kasbiy majburiyatlar"** — Bolalarni ijtimoiy ximoya, kullab—kuvvatlash xamda bu borada xizmat kursatuvchi muassasalar to`grisida zarur axborotlar bilan ta'minlanadi.

— Inson va bola xukuklarini ximoya qilishga karatilgan, turli toifadagi bolalarning xak-xukuklarini ta'minlashga, bolalarni xuquqiy jixatdan tarbiyalashga yunaltirilgan ijtimoiy—xuquqiy yordamni kursatilishi

— Ruxiy va emotsiyallar yordamga muxtoj bolalarga ijtimoiy—reabilitatsion yordam kursatish

— Kam ta'milangan oilalarda yashovchi bolalarning maishiy xayotini yaxshilash maqsadida ularga ijtimoiy yordam kursatish.

— Bemor bolalarga zarur tibbiy—ijtimoiy yordamni kursatish. Alkogolizm, giyoxvandlik bilan shugullanuvchi voyaga etmaganlarni davolash.

Ijtimoiy pedagogdan quyidgicha kasbiy bilimlar talab etiladi :

O'z faoliyatining me'eriy—xuquqiy asosini (konunlar, farmonlar, karorlar va yuriknomalar), ijtimoiy pedagogika nazariyasi va tarixini, turli muxitlarda turli toifa bolalari bilan ishslash metodikasi va texnologiyasini, bola shaxsini, uning jismoniy, ma'naviy va ijtimoiy shakllanishini urganuvchi psixologiyani, odamlarning uyushma va guruxlari (Oila, maktab va mexnat jamoasi) ni urganuvchi sotsiologiyani; o'z kasbiy tadqiqot faoliyatini ijtimoiy boshkarish va rejalarshirish metodini bilish.

Ijtimoiy pedagogdan quyidagi kasbiy malakalar talab etiladi: **Taxlil kila olish kobiliyati**. Bolaning shakllanishida unga muxitning salbiy va ijobjiy ta'sir kursatuvchi xarakatlarini aniklab taxlil kila bilish;

**Bashoratchilik kobiliyati:** faoliyat olib borish usullarini belgilab olib uni anik maqsad tomon yunaltirish, duch kelishi mukin bo'lgan muammolarni oldindan kura bilish va xisobga olib, vaktni to'gri taksimlash;

**Loyixalashtira bilish**—faoliyatni anik bir loyixa assosida, tarbiyalanuvchining shart—sharoitlari va mavjud muxit talablarini xisobga olib, anik bir tartibda olib borish, o'z faoliyatining xar bir boskichida ijobjiy va salbiy natijalarini to'gri taxlil kila olish; kirishuvchanlik— ya'ni bolani eshitish va tinglay olish, bola bilan mulokot jarayonini osonlashtirish, bola muammosini to'gri tushunish uchuy zarur axborot va ma'lumotlarni tuplash.

Ijtimoiy pedagog faoliyati soxalari. Ijtimoiy pedagog lavozimi bugungi kunda ikkita idorada — ta'lim muassalarida va yoshlar ishi buyicha muassasalarda joriy etilgan.

YOshlar ishi buyicha idoralarda mazkur lavozim 8 xil muassasada ruyxatga kiritilgan. Bular: bolalar klublari, bolalar ijodiy markazlari, yoshlar yotokxonasi, usmirlar dam olish maskanlari, yoshlar ta'lim markazlari, kasbiy yunaltirish markazlari, bandlik markazlari, bolalar va yoshlar mexnat birjalaridir.

Ta'lim soxasida esa pedagog 6 xil muassasada ruyxatiga kiritilgan. Bular: maktabgacha tarbiya tashkilotlari, umumta'lim muassalar, umumta'lim internatlari, bokuvchisini yukotgan bolalar uchun umumta'lim idoralari, maxsus ta'lim muassasalari, boshlangich kasbiy ta'lim muassasalaridir.

Ijtimoiy pedagog lavozimi mazkur ikki idorada joriy etilgan bulsada, aslida ularga bo'lgan talab yana xam kengrok. Bunday lavozim deyarli barcha ijtimoiy soxalarda joriy etilgan. Ular soglikni saklash muassalarida (ruxiy nosogalom, giyoxvand bolalar uchun), axolini ijtimoiy ximoyalash muassasalarida (imkoniyati cheklangap usmirlar reabilitatsiya markazlarida, voyaga etmaganlarni reabilitatsiya qilish markazlarida), ichki ishlar organlari tarmogidagi muassasalarda

Ijtimoiy pedagogik ishlar faol g'oyaviy – axlokiy imkoniyatlarga ega. U shaxs xulkida paydo bo'lgan salbiy elementlarga karshi kurashda muxim omilga aylanadi. U ijtimoiy fikrni shakllantirish yuli bilan jamoada soglom ma'naviy – axlokiy muxit

xosil qilishga ta'sir kursatadi, ilgor ijtimoiy kadriyatlarni mustaxkamlaydi, shaxs kadr – kimmattini ta'minlaydi, konunni xurmat qilishga o'rgatadi. Bu ayniksa bugungi kunda, jamiyat ma'naviy yangilanish jarayonini boshidan kechirayotgan bir davrda muxim axamiyatga ega. Tarbiyaviy faoliyatning muxim zaxiralaridan yana biri – ommaviy targibot bilan boglik bo'lib, g`oyaviy – tarbiyaviy ishlarning barcha shakllarida gayrat va tashabbus talab etiladi. Bunda davlat va jamoat tashkilotlari tomonidan ommaviy – tashqiliy tadbirlar utkazish, kechalar, bayramlar, rasm – rusmlar, urf – odatlar, jumladan «**Navro`z**», «**Xotira va kadrlash kuni**» va boshka tadbirlar muxim axamiyatga ega. Ommaviy ishlarda ijtimoiy – tarbiyaviy muvaffakiyatlarga ommaning ijtimoiy – madaniy faoliyat yunalishini chukur anglagan xoldagina erishish mumkin. Bu, bиринчи navbatda. Pedagogik tamoyillar asosida ma'rifiy muassasa ishlarini tashkil etishda va metodikasida o'z ifodasini topadi. Tadbirlarni faqat g`oyaviy yunalishini emas, ayni chogda ijtimoiy – pedagogik, ijtimoiy – psixologik moxiyatini anglash, tashqiliy ishlarda uning mexanizmlarga tayanish zarur. Milliy ongni uygotish va shakllantirish o'zini anglashdan boshlanadi.

**Milliy gurur** – bu o'z yurtining tarixini bilish, xalkning madaniy merosini ximoya qilish, millliy kadriyatlarni tiklash, o'zligini anglash va namoyon etish kabilarni bildiradi.

Ma'naviy – ma'rifatchilik ishlarini yangi boskichga kutarish uchun barcha ta'lim muassasalarida targibot va tashvikot ishlarni amalga oshirish zarur. Afsuski, bugungi kunda xamma o`quvchi davlat ramzları ularning ma'nosи biladi, deb bulmaydi. Prezidentimiz ta'kidlaganidek, «Milliy ramzlarimiz bizning milliy gururimizni kutarishga xizmat kiladi. Ularning xar biri ulkan darslik, tarbiyaning kuchli vositasidir». Mana shuning uchun xam joylarda davlat ramzları asosida kurik – tanlovlardan, munozaralar utkazish maqsadga muvofikdir.

«Pedagogik madaniyat» iborasi dastlab 1940 yilda L.V.Raskin maqolalarida tilga olindi. O'tgan asrning 50-60 chi yillarda esa u V.A Suxomlinskiyning ilmiy ishlarida tez-tez ishlatiladigan bo'ldi. 70-80 chi yillarda pedagogik madaniyat termini ilmiy-pedagogik nashrlarda va ilmiy-tadqiqot ishlarida ham qo'llanila boshlandi. «Ijtimoiy-pedagogik madaniyat» terminidan oldinlari foydalanilmagan, chunki ijtimoiy pedagogika institutining o'zi ham faqat 90-chi yillarning boshlaridagina vujudga keladi.

Odamning pedagogik madaniyati deganda pedagogning o'ziga, boshqa odamlarga va bolalarga nisbatan xar doim qiladigan muomalasi, madaniyat darajasi tushuniladi.

Odamning pedagogik sifatlari juda keng tarzda namoyon bo'lishini nazarda tutgan xolda, ijtimoiy-pedagogik madaniyatni ayrim xolda, ajratib o'rganish ma'kulroq bo'ladi.

Mana shu ma'noda u odam tomonidan o'zlashtirib olingan pedagogik faoliyatning ijtimoiy tajribasini yoshiga hamda hayot faoliyati sohasiga mos tarzda doimo namoyon etilishidir.

Ijtimoiy soha mutaxassisni kasbiy madaniyatning tarkibiy qismi bo'lgan pedagogik madaniyatni yaxshi egallab olmogi kerak. U mutaxassis tomonidan

pedagogik tajribani o`zlashtirish darajasi va uni o`zining kasbiy faoliyatini jarayonida qanchalik amalga oshirishi bilan xarakterlanadi. Ijtimoiy soha mutaxassisini uchun pedagogik madaniyat alohida ahamiyatiga ega, chunki o`zgacha extiyojlarga, ijtimoiy muammolarga ega bo`lgan odamlar bilan ishlaydi. Ular alohida mexr-muxabbatga va bevosita yordam berilishiga muhtojdirlar.

Mutaxassis pedagogik madaniyatining ichki va tashqi tuzilish tarkiblari ko`rsatadilar

**Pedagogik madaniyatning ichki tuzilish tarkibini** ko`pincha odam tomonidan pedagogika sohasida egallagan bilim va kobiliyatlar darajasi bilan tenglashtiradilar. Masalaga bunday endashuv to`g`ri deb bo`lmaydi. Gap shundaki, odam etarli darajada katta xajmdagi bilim va kobiliyatlarga ega bo`lishi, ammo ularni kundalik hayotida va amaliy faoliyatida hamma vaqt ham namoyon eta olmasligi mumkin. Ushbu dalilning o`zi ham dalil va kobiliyatlarining darajasi odamning atigi ma'lum bir sohadagi omilkorligi, vaqolatligidan guvoxlik beradi. Odamning ichki madaniyati - bu turlicha hayotiy vaziyatlarda, kasbiy faoliyatida uning fe'l-atvorini, xattixarakatini belgilovchi o`zak, asosdir. Demak, gap odamning faqat pedagogika sohasidagi bilim va kobiliyatlarining darajasi haqidagina emas, balki ularning qaysi sohada va qanday sharoitlarda namoyon bo`lishini belgilovchi shakllangan shaxsiy qadriyatlari, maqsadlari, ideallari va extiyojlari haqida boradi. YUqorida baen etilgan muloxazalarning barchasi ijtimoiy soha mutaxassisini ega bo`lishi lozim bo`lgan ichki madaniyatning asosiy tarkibiy qismlarini ajratib ko`rsatishga imkon beradi:

A) mutaxassis shaxsi (ichki o`ziga xosligi) uni individual – psixologik va ijtimoiy –pedagogik fazilatlari hamda kamchiliklari bilan birga individual – shaxsiy darajadir;

B) mutaxassis tomonidan kasbiy faoliyat jarayonida pedagogik tajribani o`zlashtirish xajmi va darajasi – mana shu ichki tuzilish tarkibi qismini pedagogik madaniyatning nazariy (dunyoqarash) darajasi deb ataladi. U maqsadga muvofiq keladigan darajani (tarkibini) belgilaydi va mutaxassis tomonidan qaysi-psixologik-pedagogik bilimlar o`zlashtirilganini, qanday uylashtirilganini ko`rsatadi. Ushbu bilimlardan mutaxassis o`zining kasbiy faoliyatida qaydarajada foydalana olishi mumkinligini ham anglatadi;

V) mutaxassisda ob`ektiga, ijtimoiy ishga uning natijalariga va pedagogik sohada o`z-o`zini takomillashtirishga nisbatan shakllangan xis-tuyg`uli munosabat. Ushbu ichki tuzilish tarkibi qismini pedagogik madaniyatning xis-tuyg`uli (emotsional) darajasi, uning emotsional tarkibi deb ataladi. U ijtimoiy – pedagogik faoliyat tajribasini tuplash jarayonida shakllanadi va mustahkamlanadi.

Bu tarkibiy qism o`ziga: mutaxassis tomonidan xis etiladigan sezgilar (xush ko`rish yoki yoqtirmaslik, xurmat etish, befarqlik yoki mensimaslik va boshq.), ya`ni, ijtimoiy ish ob`ektiga bo`lgan munosabati, uni o`zini faoliyat ko`rsatish jarayonidagi xis-tuyg`ularini hamda erishilayotgan natijalarni baholashini; ya`ni ijtimoiy ish tajribasini egalab olishga extiyoj sezishini qo`shadi. Xissiy daraja ko`pincha mutaxassisning pedagogik faolyaitga bo`lgan ichki munosabatini, pedagogik jihatdan o`z-o`zini takomillashtirishga bo`lgan istagini belgilaydi. Ichki ahloqiy madaniyatini namoyon etadi.

Mutaxassis pedagogik madaniyatining ratsional va emotsiyal komponentlari shaxsning o`zi, uning irodaviy xislatlari orqali amalga oshiriladi. U mutaxassisning o`z shaxsiy ijtimoiy – pedagogik tajribasini kasbiy faoliyatida amalga oshira olish qobiliyatini belgilovchi shakllangan ahloqiy – irodaviy sifatlari bilan tavsiflanadi.

**Pedagogik madaniyatning tashqi tuzilish tarkibi.** Bu mutaxassisning xar doim ob`ektga, ijtimoiy ishga, ijtimoiy-pedagogik faoliyatiga, ularning natijalariga bo`lgan munosabatning ko`rinishi, namoyon bo`lishidir. U o`ziga quyidagilarni kiritadi:

A) mutaxassisning inson sifatida tashqi fazilatlari va kamchiliklarini (tashqi ko`rinishi, odatlari, muomala tarzi va b.) – pedagogik madaniyatning namoyon qilinishining shaxsiy darajasi. U shaxsning mutaxassis sifatida pedagogik tomonini xarakterlaydi.

B) mutaxassisning ijtimoiy ish jarayonida namoyon etaetgan pedagogik jaxatlari (fe'l - atvori, xatti-xarakati, ob`ektga ta'sir o'tkazuvchi muomala va qiliqlari) – ya'ni, pedagogik madaniyatning fe'l-atvor darajasi;

V) pedagogik texnologiyalar, usul va uslublar, vositalardan foydalana bilish darajasini namoyon bo`lishi – mutaxassisning pedagog sifatida amaliy-pedagogik darajasi.

Bu mutaxassisning real pedagogik tajribadan, pedagogik faoliyat san'atidan, mijoz bilan ish olib borishda o`z pedagogik imkoniyatlaridan foydalanish darajasini hamda uning kasbiy faoliyati samaradorligini ko`rsatadi.

G) mutaxassisning ijtimoiy ish ob`ektiga bo`lgan munosabati-tashqi munosabat darajasi. Mutaxassis xar turli ijtimoiy ishlarni yaxshi bajara olishi, uni muvaffaqiyatli amalga oshirishi mumkin. Lekin uning ishga munosabati, erishiladigan natija ko`pincha uning shaxsiy pozitsiyasiga bog`liq bo`ladi. Uning tashqi muomalasi mutaxassisning odamga bo`lgan diqqat-e'tiborini, ijtimoiy ish ob`ektiga bo`lgan munosabatini, o`z faoliyatining natijalariga nisbatan qiziqish bildirishi yoki befarqligini bildiradi. U mutaxassis pedagogik madaniyati namoyon bo`lishini xarakterlaydigan juda muhim jihatidir. Amaliyotning ko`rsatishicha, mutaxassisning tashqi munosabati ko`p jihatdan uning xis-tuyg`usi (emotsional) darjasining-ichki pedagogik madaniyatining namoyon bo`lishidir.

Ijtimoiy ish asosan notijorat sohaga taaluqli bo`lib, ushbu faoliyat bilan ko`pincha davlat va ko`ngilli xizmat kishilari shug`ullanishadi. Mana shu faktning o`zi ham xozirgi kunda, yangi sharoitlarda ijtimoiy pedagog shaxsining ahloqiy jihatlari, egallagan pozitsiyasi uning kasbiy va pedagogik madaniyatining ko`rsatkichi sifatida alohida muhim ahamiyat kasb etadi.

Endi ijtimoiy soha mutaxassis pedagogik madaniyatini tashkil qiluvchi asosiy tuzilish tarkiblari mazmunini ko`rib chiqamiz.

Eng avvalo-real pedagogik madaniyatni eltuvchi sifatida mutaxassis shaxsining o`zidir. Mutaxassis pedagogik madaniyatini baholashda birinchi navbatda, kasbiy faoliyatdagi konkret odamning-ijtimoiy xodimning namoyon bo`lishini ko`radilar.

Mutaxassisning shaxsiy ijtimoiy-pedagogik tajribali pedagogik madaniyatning asosi, o`zagi sifatida ijtimoiy xodimni shaxs sifatida o`zini, uning nazariy va amaliy faoliyatini, shaxsiy ijtimoiy-pedagogik sifatlarini muhim qismlar qatorida o`z tarkibiga kiritadi.

Mutaxassis shaxsi-ijtimoiy-pedagogik tajribasi o`zlashtiradigan va to`playdigan ichki dunyo bo`lib, aynan shaxs ko`zgusi, uning individual-psixologik va ijtimoiy o`ziga xos xususuyatlari orqali nazariy hamda amaliy tajribani o`zlashtirib olish sodir bo`ladi.

Nazariy ijtimoiy-pedagogik tajriba-mutaxassisning malakali faoliyat ko`rsatishi uchun zarur bo`lgan tibbiy, psixologik va pedagogik, ijtimoiy hamda kasbiy bilimlaridir. Bunda pedagogik faoliyat alohida o`rinda turadi. CHunki u ijtimoiy ishning tabiiy tarzda tarkibiy qismini tashkil etadi.

Psixologik-pedagogik bilimlar aynan pedagogik faoliyatning asosini tashkil etadi; tibbiy va ijtimoiy bilimlar- mutaxassis hisobga olishi lozim bo`lgan moyillik, qabul qiluvchanlik va ogoxlantirish kabi zaruriy tarkibiy qismlar; kasbiy bilimlar-namoyon etish sohasi, o`ziga xosligi va boshqalar.

Amaliy tajriba- bu odam tomonidan o`zlashtirilgan bilim, ko`nikma va malakalardir. U ijtimoiy soha mutaxassisni tomonidan kasbiy faoliyatni jarayonida turli toifadagi mijozlari bilan u yoki bu ijtimoiy muammolarni amaliy tarzda xal etishi natijasida mustahkamlanadi. O`z mohiyatiga ko`ra u mutaxassis amaliyotida qo`llanilib, sinovdan o`tgan va shunga uxshash xollarda yana foydalanishi mumkin bo`lgan «kapital»dir.

Pedagogik tajriba o`z mazmuniga ko`ra quyidagilarni o`z ichiga oladi: Mutaxassis tomonidan pedagogik faoliyat sanatini egallash darajasini (pedagogik maxorat);

Kasbiy jihatdan muhim bo`lgan shaxsiy sifatlar (pedagogika nuktai nazaridan) ni rivojlantirish natijasida ijtimoiy ish jarayonida kasbiy faoliyatining samaradorligini yanada oshirishni ko`zlagan xolda pedagogik jihatlarni iloji boricha to`la amalga oshirishni.

### **Pedagogik mahorat quyidagilardan tashkil topadi:**

Mutaxassis tomonidan pedagogik texnologiyalar, usul va uslublar hamda vositalarning egallanganligidan;

Unda pedagogik texnikaning rivojlanganligi: o`z-o`zini boshqarish, odamga ta'sir etishning verbal va noverbal, bevosita hamda biror narsa vositasida bavosita usullarini bilishi, muloqat qilish va nutq madaniyati.

Mutaxassisning kasbiy muhim sifatlariga-pedagogik yo`nalganlik, ahloqiy sifatlar, kommunikativ sifatlar, muloqot qilishda aloqaga kirisha bilish va boshqalar kiradi.

**Pedagogik yo`nalganlik** (pedagogik yo`nalishga egalik) - bu shaxsning pedagogik faoliyatiga moyilligini, shu jumladan, ijtimoiy ish ob'ektlari bo`lgan odamlarga nisbatan ham munosabatini xarakterlovchi, kishining rivojlanishi va tarbiyalanishidagi o`ziga xos tomonlaridir. Bular odamning qiziqishlari, ehtiyojlari, istak va xoxishlari, maqsadlari hamda ideallarida namoyon bo`ladi.

**Ahloqiy sifatlar** - bu odamga nisbatan umuminsoniy qadriyatlarni ifodalovchi, o`zaro muloqotda, ijtimoiy ishda, ijtimoiy-pedagogik faoliyatda namoyon bo`ladigan, kishi tomonidan o`zlashtirib olingan ahloq-odob norma va qoidalaridir; Ahloqiy sezgilar - hamisha, xar doim ahloqli, odobli va imonli bo`lish, ish tutishdan qoniqish xosil qilish, odamni xurmat qilish, qadr-qimmatini joyiga qo`yish, ijtimoiy muammolarni xal etishda o`z mijoziga yordam berishga, qo`llab-quvvatlashga

intilish. Burch, vijdon, iymon, or-nomus kabi sezgilar ahloqiy odatlarning shakllanishiga yordam beradi.

**Kommunikativ sifatlar** (lotincha-kommuniko so`zidan olingan bo`lib - umumiy qilyapman, bog`layapman, muomala qilyapman, degan ma`noni bildiradi)- bu muloqotni tez va to`g`ri o`rnata bilish qobiliyatidir. Ijtimoiy pedagog doimo o`z mijoji bilan o`zaroxarakatda, muloqotda bo`ladi, unga yordam beradi, qo`llab-quvvatlaydi. Uning faoliyati samaradorligi ham o`z mijoji bilan muloqat qila bilish mahoratiga bog`liq bo`ladi. Kommunikativ sifatlarga quyidagilar kiradi:

- muloqot qilishda aloqaga kira bilish (kontaktnost) – mijoz bilan muloqotga kirisha bilish qobiliyati va maqsadga muvofiq o`zaroxarakat, faoliyatni tashkil eta bilishdir. Ijtimoiy pedagogning ushbu kobiliyati ijtimoiy ishda juda katta ahamiyatga ega.
- Xar bir odam u yoki bu darajada boshqa odamga (mijoziga) ta`sir o`tkaza olish kobiliyatiga ega. Bu xususida G.K.Lozanov tomonidan kiritilgan «suggestopediya» degan termin ham mavjud. U o`qish, o`qitish jarayonida inontirishdan (uktirishdan) foydalanishni anglatadi. Buni ijtimoiy pedagogga nisbatan qo`llaydigan bo`lsak, suggestopedlik degani, mutaxassisning ijtimoiy ish jarayonida o`z mijoziga so`zlar vositasida, gap ohangi orqali yoki mimikasi, imo-ishoralari va xatti-xarakatlari yordamida ta`sir qilishidir. Albatta, mijozga (boshqa birovga) ta`sir o`tkazish uchun mutaxassis etarli darajada obro`ga ega bo`lishi, bolaning individual xususiyatlarini hisobga olishi, konkret vaziyatdan kelib chikmogi, uni ishontirish, o`z ketidan ergashtira bilishi, o`z-o`zini tarbiyalay olishi mumkinligi haqidagi fikr bilan zavklantira olish san`atiga ega bulmogi darkor.

**Pertseptiv, ijtimoiy –pertseptiv** (lotincha –perceptio –zexn, idrok va socialis – ijtimoiy ma`nolarini anglatadi) – bu ijtimoiy ob`ektlarni (boshqa odamlarni, o`z-o`zini, guruhlarni va shu kabilarni) idrok qilish, o`qish, tushunish va baholashdir. «Ijtimoiy pertseptsiya» termini amerikalik psixolog J.Bruner tomonidan 1947 yilda idrok etishning ijtimoiy o`zaroxaraktar bilan bog`liqligi faktini belgilash uchun kiritilgan. Ijtimoiy xodimning ijtimoiy-pertseptiv sifatlari uning o`zini ichki xolatini, kechirma va xis-tuyg`ularini, shuningdek, o`zi ish olib borayotgan mijozining ichki xolatini ko`rish va darhol tushunib olish kobiliyatlarini aks ettiradi. Ana shunday qobiliyatlarga tubandagilar kiradi.

**Pedagogik kuzatuvchanlik** - o`zini va mijozining o`ziga xos xususiyatlarini, ularni namoyon bo`lish dinamikasini ko`ra bilishdir. Ijtimoiy xodim uchun o`zida va boshqa shaxsda u nimani qanday kuzatishga kodirligi juda katta ahamiyatga ega.

Pedagogik ichki his, sezgirlik-shaxsning o`ziga xos xususiyatlarining namoyon bo`lishidagi o`zaroxarib bog`liqlarni va uning ichki xolatini, uning individual belgilarini hamda ularning o`zgarib borish istikbollarini, shuningdek, oldida kundalang turgan ijtimoiy muammolarni xal eta olish imkoniyatlarini oldindan ko`ra olish qobiliyatidir. Ushbu qobiliyat turli toifadagi mijozlar bilan amaliy ijtimoiy ish olib borish asosida shakllanadi. Ijtimoiy pedagog va psixolog uchun mijozidagi o`ziga xos xususiyatlarni bir qarashdayoq ko`rish sezhish (aft-basharasini burushtirishi, ovozi, ko`z qarashi,

yurishi va boshqa belgilari), uning ijtimoiy muammolarini va ularni maqsadli tarzda xal etish imkoniyatlarini tezlikda topa bilish juda katta ahamiyatga egadir.

**Refleksiya** (o`z ruhiy xolati haqida uylash)- o`zini boshqa kishining ko`zi bilan ko`ra bilish qobiliyati. Mutaxassis ijtimoiy ish bilan shug`ullanar ekan ko`plagan odamlar bilan muloqotda bo`ladi va ish jarayonida o`zini boshqalarning ko`zi bilan ko`rishi, o`ziga tashqaridan nazar tashlash, unga o`zining yurishi-turishiga, munosabatlariga tanqidiy yondashishga hamda o`z ishiga yanada mas`uliyatliroq bo`lishga yordam beradi.

Refleksiya o`z kamchiliklarini ko`ra bilishga va o`z-o`zini takomillashtirishi uchun maqsadli tarzda o`z ustida ishlashga imkon beradi. SHuningdek u, o`z ruhiy xolatini tushunishga hamda iroda kuchi yordamida kasbiy faoliyati jarayonida, muloqot etishida, o`zoro xarakatda ongli, maqsadli tarzda o`z-o`zini boshqara olishga yordam beradi.

**Pedagogik fikr yurgizish (tafakkur)**- bu ijtimoiy xodimning ongli ravishda o`z kasbiy faoliyati jarayonida psixologik-pedagogik bilimlaridan foydalana bilishi, pedagogik vaziyatlarni tezlikda faxmiga etishi, anglashi va ularni echish yo`llarini topishidir.

**Pedagogik xayol qilish, tasavvur etish** -bu mutaxassisning ijtimoiy ish jarayonida o`zining fel-atvori, xatti-xarakatlarini, shuningdek, mijozining(nogiron bola, o`smirning) ham yurish –turishi, xulqini va ularni o`zgarib borish dinamikasini tassavvur qilishi, o`ylab ko`rishidir. Ushbu qibiliyat unga eng ma`qul muomala usulini aniqlab olishiga va bemorni ijtimoiy muammosini xal etish yo`llarini topishga yordam beradi.

**Pedagogik tafakkur va pedagogik tasavvur etish** bilimlarning to`planishi, ularni anglash, fahmiga etish, turli toifadagi mijozlarga nisbatan pedagogik vaziyatlarni eng ma`qul tarzda xal qilish tajribalarini to`plash jarayonida rivojlanadi.

SHaxsning etotsional sifatlari mutaxassisning ijtimoiy ish jarayonida odamning ijtimoiy muammolari bilan to`qnash kelganida boshidan kechiradigan xis-tuyg`ulari va uning kasbiy faoliyatiga jiddiy ta`sir etuvchi omillar bilan xarakterlanadi.

Bular:

**Emotsional barqarorlik (chidamlilik)**- o`zini tuta bilish, dadillik, o`z-o`zini tartibga solish to`g`rilab borish qobiliyati ijtimoiy xodimga uning kasbiy faoliyatida o`zini tuta bilishga imkon beradi. U ijtimoiy xodim kuchlari, intilishlarining ta`sirchanligining muhim sharti sifatida namoyon bo`ladi, hamda ongli, xar tomonlama o`ylab qurilgan qaror qabul qilishga, oldiga qo`yilgan maqsadga erishishida yordam beradi;

**Empatiya** - mijoz kechinmalarga emotsional tarzda hamdamlik ko`rsatish, o`zaro xarakat va muloqot jarayonida uning bilan birga qayg`udosh bo`lishdir. Ijtimoiy xodim nogiron bolalar bilan ishlar ekan, u boladagi real ijtimoiy muammolarni yaxshi tushunishi, uning ichki kechinmalarini yurakdan xis etishi va u bilan qayg`udosh bo`lmog`i darkordir. Mana shunday xollarda empatiya mutaxassisga aynan mana shu vaziyatda zarur bo`lgan o`zaro xarakat qilish vosita va usullarini to`g`ri tanlab olishi hamda ulardan samarali foydalanishiga yordam beradi.

Ammo, ijtimoiy xodimning ko`p jihatdan murakkab ijtimoiy muammolarga ega bo`lgan odamlar bilan ish olib borishini ham unutmaslik kerak. O`z mijozining

kechinmalariga, chekayotgan azoblariga chuqur qayg`udosh bo`lishi natijasida uning kalbi ham azoblanadi, unda chuqur iz qoladi. Bunday xollar mutaxassisning kasbiy mahoratini pasaytirib yuborishi mumkin. Bemor bilan chuqur qayg`udosh bo`lish mutaxassisning kayfiyatiga ta`sir etadi, kasbiy faoliyatini davom qildirishi va hayot faoliyati muhitida (oilada, boshqa odamlar bilan muloqot qilishida va boshqa) o`zining rejalarini amalga oshirishida o`z aksini topadi. Mutaxassisning aynan xissiy sohasi, uning emotsiyalini barqarorligi deformatsiyalanadi. Bu esa o`z navbatida uning ishdan chiqarishi, sog`ligiga yomon ta`sir etishi va o`z kasbiy imkoniyatlarini samarali amalga oshirishida to`sinqinlik qilishi mumkin.

Ijtimoiy soha mutaxassislarining amaliy ish tajribalari ijtimoiy xodimning emotsiyalini barqarorligi va empatiyasining o`ziga xos tomonlarini hisobga olish zarurligini taqozo etmoqda. Mana shu maqsadda quyidagilarga amal etish lozim, deb hisoblanadi:

-Ijtimoiy sohada ishslash uchun tavsiya qilingan mutaxassislarni kasbiy tanlashni tashkil etish: bu sohada empatiyaga beriluvchan odamlarning ishslashlari mumkin emas. SHuning bilan birga, empatiyasining kay darajada chuqurligiga bog`liq tarzda mutaxassisdan foydalanish mumkin bo`lgan sohani ham aniqlab olish maqsadga muvofiqdir. Juda chuqur empatiyaga moyil bo`lgan kishilarga og`ir axvoldagi va unga nisbatan qattiq qayg`urish tuyg`ularini uyg`otadigan bemorlar bilan ishslashga maslahat berilmaydi. Bunday toifadagi mutaxassislar uchun, ayniqsa ularning ish natijalari fojea bilan tugaydigan bo`lsa, deformatsiyalanish imkoniyatlari katta bo`ladi;

-Mutaxassisning o`z mijozining ahvoliga qaygurishi tashqi-emotsional ko`rinishda bo`lishi, yani ichdan qattiq kaygurib, o`ziga olmasligi kerak, aksincha bo`lsa u o`z ishini davom ettira olmaydi. Bunda kasbiy faoliyatda aktyorlik elementlaridan foydalanmoq zarur;

-O`z xis-tuyg`ularidan faol foydalana bilishga o`rganish, qayg`urish, achinish xislari kuchayganda diqqatni boshqa narsaga ko`chirish va emotsiyalini zo`riqishning ko`chayib borishini yo`qotmoq kerak;

-Hayot qonunlarini qo`llashga xarakat qilish, ya`ni mijoz bilan ishslash paytidagi xolatni boshqa mijoz bilan muloqotga, o`z kasbdoshlari va ayniqsa oilasidagi xulq-atvoriga ko`chirish lozim.

Pedagogik faoliyatning individual usuli - bu ijtimoiy ish jarayonida pedagogik maxorat va texnikaning o`ziga xos individual namoyon blishidir. Ijtimoiy xodim pedagogik faoliyatining individual usuliga:

A) Mutaxassis tomonidan o`zini aynan shu kasbning ustasi-moxir mutaxassis shaxs sifatida namoyon etishi. Avval ta`kidlab aytilganidek, konkret odam faqat faoliyat jarayonidagina namoyon bo`ladi. B) Mutaxassisning kasbiy faoliyatidagi ahloqiy ideali uning ijtimoiy ishga nisbatan shakllangan munosabatlarini belgilaydi. Xar bir mutaxassis o`zining kasbiy faoliyatida uni shaxs sifatida xarakterlovchi ma'lum bir munosabatlarni bildiradi, xarakatlar qiladi. Ana shu, mutaxassisga xos bo`lgan xarakatlar usuli uni shaxsi kasbiy deformatsiyalangandagina o`zgarishi mumkin;

V) Mutaxassisning o`z-o`ziga, mijoziga, mijoz bilan olib boradigan ishiga bo`lgan munosabati;

G) Ijtimoiy xodimning kasbiy faoliyat jarayonida pedagogik mahoratining o`ziga xos tomonlarini quyidagi omillar orqali amalga oshirish:

- pedagogik faoliyatda pedagogik texnologiyalar, usul va uslublar hamda vositalarni qo'llash

- ijtimoiy ishda mutaxassis tomonidan pedagogik texnikani (o`z-o`zini boshqarish, odamga verbal va noverbal tarzda hamda bevosita va bavosita ta'sir etish, muloqot madaniyati, nutq madaniyati) namoyon qilinishi. Mutaxassis ijtimoiy ishda aynan pedagogik texnika orqali o`zining pedagogik potentsialini amalga oshiradi;

d) Ijtimoiy ish jarayonida pedagogik nazokat va etika-mutaxassis tomonidan o`z kasbiy faoliyatida etika norma va qoidalarining bajarilishi;

e) Mutaxassis ishida erishilayotgan natijalar.

Real hayot shuni ko`rsatadiki, odamning pedagogik madaniyatini namoyon etadigan sohalardan biri-bu uning o`ziga nisbatan munosabati, o`zining takomillashuviga, boshqa odamlar bilan o`zaro xarakatiga va eng asosiysi, pedagogik masalalar bevosita xal etiladigan joydagi faoliyatiga bog`liqdir. Bunday sohalar qatoriga:

- o`z-o`ziga munosabati o`zini bilishi, tushunishi, boshqa odamlar doirasida o`zini namoyon etishi (fel-atvoriga) va o`z-o`zini takomillashtirishi;

- boshqa odamlarga nisbatan munosabati –muloqot qilishi, o`zaro xarakati, o`zaro bir-biriga ta'sir o`tkazashi, bir-biriga yordam berishi (odamlarning bevosita madaniy jihatdan o`zaro bir-birlarini boyitishi):

- o`zini urab turgan atrof-muhitga munosabati-u bilan o`zaro xarakati, uni bilish, tushunishga va o`z-o`zini takomillashtirishida undan oqilona hamda maqsadli tarzda foydalana bilishi;

- oilaga baho berishi-uning ijtimoiy roli va unda o`zining rolini baholay bilishi, oilani saqlash va uni ahloqiy jihatdan mustahkamlash, oilaviy o`zaro madaniy munosabatlarni rivojlantirish, bolalar tarbiyasi;

#### - Kasbiy faoliyati.

Ishi bilan, odamlar bilan o`zaro munosabatlari, muloqati , o`z hamkasblari bilan o`zaro xarakati hamda o`z mijozni bilan ijtimoiy ish jarayonida qiladigan o`zaro birqalikdagi xarakati bilan bog`liq bo`lgan faoliyati kiradi.

Kishining turli sharoitlardagi hayot faoliyatini tahlil etish, shu jumladan, ijtimoiy soha mutaxassisi faoliyatini ham shuni ko`rsatadiki, ularning ichidan tashqi pedagogik madaniyatni namoyon bo`lishining eng tipik shakllarini ajratib ko`rsatish mumkin. Bularga tubandagilarni kiritish mumkin:

Ko`pchilik odamlar uchun o`zini tabiiy tarzda tutish, kundalik hayotda xulq-atvori, yurish-turishining shakli normal tarzda bo`ladi. Ular bunday fel-atvorga o`z oilalarida ham, hamkasblari bilan o`zaro muloqot paytida ham, mijozni bilan ish olib borayotganlarida ham og`ishmay rioya etadilar;

- YUzaki, ko`z-ko`z qilinadigan tashqi madaniyat. Bunday odamlar malum bir vaziyatlarda o`zlarini aslidagidan boshqacha qilib ko`rsatishga xarakat qiladilar;

- Fel-atvori situativ (vaziyat, xolat) xarakterga ega bo`lgan kishilarning madaniyati ham situativ bo`ladi. Bunday xildagi kishi muhit, sharoitning o`zgarishi

va ijtimoiy muhitda o`zi egallagan o`ringa bog`liq tarzda o`zgarib turadi. Masalan, oilasida, o`z kasbdoshlari bilan muloqot qilishi paytida, dam olishda, turli xildagi mijozlar bilan ish olib borayotganda va xakozo.

Kundalik hayotda ko`pincha odamning tashqi umumiy madaniyatining namoyon etilishi baholanadi. Mana shu umumiy tashqi madaniyat belgilari ushbu muhitda qabul qilingan (shakllangan) mezonlarga to`g`ri kelmasa, uni-tarbiya ko`rmagan, madaniyatsiz odam, deb hisoblaydilar. Boshqacha qilib aytganda, odamga baho berganda uning avvalgi tarbiyalanganlik darajasi nazarda tutiladi.

Maxsus adabiyotlarda odamga tavsif beruvchi pedagogik madaniyat darajalari ajratib ko`rsatiladi. Agar buni ijtimoiy soha mutaxassislariga nisbatan tadbiq etadigan bo`lsak, ularni quyidagi tarzda ko`rsatish mumkin:

Ijtimoiy pedagogik madaniyatning yuqori darajada rivojlanganligi ijtimoiy-pedagogik faoliyatga qiziqishi, ishtiyobi katta bo`lgan, ijtimoiy ish jarayonida uni amalga oshirish tajribasini chuqur o`zlashtirgan, pedagogik jihatdan o`zining bilim saviyasini yanada oshirishga intiladigan va kundalik kasbiy faoliyatida to`plagan tajribasini faol hamda oqilona qo`llaydigan mutaxassis uchun xarakterlidir. Mana shu xildagi mutaxassis odatda o`z ishida katta muvaffaqiyatlarga erishadi va uning pedagogik-psixologik bilimdonligi uning faoliyatini yanada qiziqarlirok, jozibaliroq qiladi. Bunday mutaxassis bilan muloqotda bo`lgan bolalar va o`smirlar ko`pincha o`zlarida qoniqish va mammunlik his qiladilar.

O`rtacha (etarlik darajada) daraja ijtimoiy-pedagogik faoliyatga berilgan, unda biron bir tajribaga ega bo`lgan, o`zining pedagogik bilimdonligini oshirish, o`z-o`zini takomillashtirish ustida ishlovchi va ushbu sohada orttirgan bilimlarini, tajribalarini kasbiy faoliyatida faol qo`llash bilan xarakterlanadi. Mana shunday toifadagi mutaxassis kasbiy faoliyatining pedagogik aspektlari unga o`z ishida mijoz bilan o`zaro yaqin aloqa o`rnatishiga hamda yuqori natijalarga erishishida yordam beradi.

Ijtimoiy-pedagogik madaniyatning past darajasi:

Ijtimoiy ishda pedagogikaning muhim rol o`ynashini tushunib etmagan va o`zining kasbiy faoliyatiga guyoki bir oddiy kasb sifatida qaraydigan kishilar uchun xarakterlidir. Bunday mutaxassis bilan muloqotda bo`lgan nogiron bola yoki o`smir undan qoniqish hosil qilmaydi. Uning o`z mijoziga haqiqatan ham chin dildan yordam berish xoxish-istagi unchalik sezilmaydi. SHuningdek, mutaxassisning turli xildagi deformatsiyalangan madaniyatlari ham mavjud. Ularning har biri o`ziga xos bo`lib, u ko`pincha odamning ilgari olgan tarbiyasining natijalari hamda uning kasbiy tayyorgarligi bilan belgilanadi. Bunday madaniyatning namoyon bo`lish shakllari ham turli tuman bo`lishi mumkin. Masalan, turli xil shakldagi qo`pollik, dag`allik, qo`rslik hamda mijoziga nisbatan bexurmatlik kabi... Mana shunday mutaxassislar orasida o`z navbatida ikkita kichik guruh: jamiyatda o`zini tutish, namoyon etish, odamlar bilan ishlash uchun (ularning ba`zilari uchun ijtimoiy ish bilan shug`ullanish umuman mumkin emas) elementar tarbiya ham olmaganlar hamda noto`g`ri kasbiy malumot olganlar ajralib turadi.

Mutaxassisning madaniyat darajasi aniqlanganda uning madaniyati, yoshi va ijtimoiy ahvoli, jamiyatda egallagan o`rni bilan baholanadi. Oliy o`quv yurtini bitkazib chiqqan yoshlar faqat endigina o`z ishini boshlagan mutaxassis madaniyatini

o`zlashtirgan bo`ladi va shunga ko`ra baholanadi. Ammo, kasbiy faoliyat tajribasi orta borgan sari uning madaniyatini baholash mezonlari ham orta boradi.

Ijtimoiy soha mutaxassisining ijtimoiy-pedagogik madaniyatini shakllantirishning yo`llari juda ko`p. Ulardan birinchisi – mutaxassisning umumiyligi madaniyatini oshirishga ko`maklashishdan iboratdir. Mutaxassis tomonidan o`zidagi pedagogik madaniyatini namoyon qilinishida aynan ana shu katta rol o`ynaydi.

Ikkinchi yo`l asosida mutaxassisning shaxsiy pedagogik tajribasini chuqurlashtirishi va kengaytirishi, ijtimoiy ishda uni qo`llashi yotadi.

Mutaxassis ijtimoiy – pedagogik madaniyatini shakllantirish yo`llariga quyidagilarni kiritish mumkin:

A) mutaxassisning tibbiy, psixologik, pedagogik va ijtimoiy sohalarda nazariy tayyorgarligini oshirish. Aslini olganda bu mutaxassisning pedagogik tayyorgarligini xarakterlovchi va uning ijtimoiy sohada ijtimoiy muammolarga ega bo`lgan odam ishlashi mumkinligini bildiruvchi bilimlardir;

B) mutaxassisga uning ijtimoiy sohadagi ishida amaliy foydalanishi uchun zarur bo`lgan pedagogik texnologiyalar, usul va uslublarni o`zlashtiri olish.

V) mutaxassisga ijtimoiy ish jarayonida o`zining pedagogik imkoniyatlarini iloji boricha to`la ruebga chiqarishiga imkon beradigan pedagogik texnikasini tinmay rivojlantirib borishi; o`z-o`zini boshqarish; verbal va noverbal muloqot etish; kishiga bevosita va bovosita ta`sir o`tkazish ko`nikma va malakalarini egallab olish, muloqot madaniyati va nuqt madaniyatini rivojlantirish;

G) ijtimoiy sohada o`zining pedagogik bilim, ko`nikma va malakalaridan samarali foydalanish, ushbu soha bo`yicha tajriba to`plashni davom ettirish.

Uchinchi yo`l – ijtimoiy ishda ijtimoiy-pedagogik tayyorgarlikdan imkonli boricha faol foydalanish uchun sharoit yaratilishini o`z tarkibiga kiritadi.

To`rtinchisi – mutaxassis tomonidan ijtimoiy ish jarayonida pedagogik bilim, ko`nikma va malakalalarni hayotga tadbiq etishda mustaqillik ko`rsatilishini nazarda tutadi.

Beshincha yo`l – ijtimoiy ishda ilg`or, tajribali mutaxassislar ish tajribalarini o`rganish va ulardan oqilona foydalanishni ko`zda tutadi.

Oltinchisi – mutaxassisning o`zi tomonidan pedagogik hamda kasbiy jihatdan takomillashishda maqsadga intiluvchanlik, tirishqoqlik va kat`iyatlilik ko`rsatilishi ta`minlanishini o`z tarkibiga kiritadi.

YUqorida bayon etilgan yo`llardan hech biri ayrim xolda ijtimoiy soha mutaxassisining pedagogik madaniyatini oshirish muammosini hal eta olmaydi. Bu ishga faqat kompleks tarzda yondoshilganda va mutaxassisning o`zi ham shaxsan faol ishtiroy etib, ushbu sohaga g`oyat qiziqqandagina, ular haqiqatan ham uning ijtimoiy – pedagogik madaniyatini oshirish muammosini ijobiy hal etilishiga yordam beradi.

## **«IJTIMOIY PEDAGOGIKA» FANIDAN NAZORAT SAVOLLARI.**

- 1.CHet mamlakatlarda ijtimoiy-pedagogik fikrning rivojlanishidagi asosiy tendentsiya va boskichlarni ajratib kursating?
- 2.Garbiy Evropa mamlakatlarida ijtimoiy-pedagogik amaliet kanday rivojlangan?
- 3.Kaysi olimlar ijtimoiy pedagogika nazariyasi va amalieti kontseptsiyalarini ishlab chikishga katta xissa kushdilar?
4. «Anomal bolalar» guruxiga kanday bolalar kiritilgan?
- 5.Ijtimoiy pedagogika nazariyasi va amalietining mazmuni va vositalari nimalardan iborat?
- 6.Ijtimoiy pedagogik nazariya va amalietining ob'ekti va predmeti xaqida tushuncha bering?
- 7.Ijtimoiy tarbiya va ijtimoiy ta'lif tushunchalarini ta'riflab bering?
- 8.Ijtimoiy-pedagogik nazariya va amalieti printsiplariga izox bering?
- 9.Ijtimoiy pedagogik faoliyat metodlari va vositalari kanday kullaniladi?
- 10.Ijtimoiy pedagogik jaraen tushunchasini keng va tor ma'nolarda izoxlab bering?
- 11.Ijtimoiy pedagogik jaraenning kanday boskichlari mavjud?
- 12.Diagnostika va ob'ektning individualligi kanday aniklanadi?
- 13.Modellashtirish, texnologiyani tanlash va amalga oshirish usullarini aytib bering?
- 14.Ijtimoiy pedagogik faoliyat kanday rejalashtiriladi?
- 15.Ijtimoiy pedagogik faoliyat metodikasiga ta'rif berihg?
- 16.Ijtimoiy pedagogik texnologiya mohiyatini ochib berihg?
- 17.Ijtimoiy pedagogik faoliyat metodlari va texnologiyalarini tasniflahg?
- 18.Monitoring kachon utkaziladi?
- 19.Umumiy va maxsus pedagogik kobiliyatlarga kanday kobiliyatlar kiradi?
- 20.Kadimgi kuldorlik davlatlarida (Sparta va Afinada ) tarbiya tizimi kanday bulgan?
- 21.Ijtimoiylashuv nima? Bolanihg ijtimoiylashuviga ta'sir qiluvchi omillar qaysilar?
- 20.Bola tarbiyasi va unihg ijtimoiylashuvi orasidagi bogliqlig qaysilar?
- 22.Ijtimoiy moslashuv nima?
- 23.Tarbiya ijtimoiy institut sifatida qanday o'ziga xoslikka ega?
- 24.Tarbiyanihg ijtimoiy vazifalarini sanab berihg?
- 25.Tarbiya tamoyillarini sanab berihg?
- 26.Ijtimoiy pedagoglarni kasbiy tayyorlash kaysi o'quv yurtlarida olib boriladi?
- 27.Ta'limgi insonparvarlashtirishdan kuzlangan asosiy maqsad nima?
- 28.Ijtimoiy pedagogik faoliyat kanday komponentlardan tashkil topgan?
- 29.Ijtimoiy pedagog faoliyatidagi eng muxim yunalishlarni kursatib bering?
- 30.Ijtimoiy pedagogik faoliyatga kanday vazifalar kiradi?
- 31.Odamning pedagogik madaniyati deganda nima tushiniladi?
- 32.Ijtimoiy pedagogik madaniyatning kasbiy mahorat bilan o'zaro bog'liqligi nimalarda namoyon bo`ladi?
- 33.Oilaviy tarbiyaning eng birinchi va asosiy vazifasi nimadan iborat?
- 34.Oilaviy tarbiyaning izdan chikishi, zaiflashishiga sabab nima?

- 35.Nima uchun oila va maktab bola tarbiyasida bir-birini kullab kuvvatlashi kerak?
- 36.Oilanihg bugungi kundagi muammolari haqida fikr yuritihg
- 37.Demokratik jamiyatda oila funrtsiyalari nimalardan iborat?
- 38.Oila maqomi tushunchasi va unihg darajalari?
- 39.Ijtimoiy pedagognihg gayri ijtivoiy oiladagi faoliyati?
- 40,Oilaga yordam ko'rsatishnihg asosiy shakllari qaysilar?
- 41.Uzbek xalkining bola tarbiyasiga munosabati, uziga xos xususiyatlari kanday?
- 42.Ijtimoiy-pedagogik va tibbiy-ijtimoiy reabilitatsiyalashning bir-biridan farkli tomoni nimada?
- 43.Esh bolalar va usmirlar dezadaptatsiyalashuvining asosiy tiplari va ularni reabilitatsiya etishning uziga xos xususiyatlari nimalardan iborat?
- 44.Reabilitatsion ishlar mazmuni va tavsifi xaqida nimalarni bilasiz?
- 45.Ijtimoiy pedagogik reabilitatsiyalash shakl va usullari xaqida suzlab bering?
- 46.Usmirlar klublari ,markazlar, «tavakkal gurux»larida kanday ijtimoiy-psixologik, pedagogik ishlar olib boriladi?
- 47.Markaz tomonidan echilishi lozim bulgan psixologo-pedagogik ishlar nimalardan iborat?
- 48.Respublikamiz pedagogikasi nazariyasi va amaliyeta karovsiz esh bolalar va usmirlar bilan tarbiyaviy ish olib borishning kanday an'analari mavjud?
- 49.Ijtimoiy reabilitatsiyalovchi maxsus ixtisoslashtirilgan muassasada bolalarning ijtimoiy foydali mexnati kanday tashkil etiladi?
- 50.Bolalar uylarining soni kanday xisob-kitoblarga binoan belgilanadi va ularda bolalar necha eshdan kancha eshgacha bulishadi?
- 51.Bolalar uyi kanday funktsiyalarni bajaradi?
- 52.Bolalar uylarida dezadaptatsiyalashgan bolalarni reabilitatsiyalash ishlari kanday olib boriladi?
- 53.Ochikdan ochik tajavvuzkor ,tarbiyachiga nisbatan oppozitsiyada turadigan bola bilan kontakt urnatish boskichlarini aytib bering?
- 54.CHetga ogaetgan xamda ijtimoiy salbiy fe'l-atvorli odam deganda nimalar nazarda tutiladi?
- 56.Prevantiv pedagogika nima bilan shugullanadi?
- 56.Deviant fe'l atvorli odam kanday sharoitlarda paydo buladi?
- 57.Usmirlik,uspirinlik,yigitlik davriga kanday eshlar tugri keladi?
- 58.SHaxs shakllanaetgan muxitdagい salbiy omillarni aytib bering?
- 59.Bola,usmirda deviantlikni shakllanishida oilaning roli kanday?
- 60.Deviant fe'l atvorni oldini olish va yuk qilishda umumta'lim muassasalarining tarbiyaviy roli kanday?
- 61.Odamning uzidagi salbiy fe'l atvor kurinishlarini yukotishda uz-uzini tarbiyalashning roli kanday?
- 62.Voyaga etmagan bolalar va usmirlarni kayta tarbiyalashning uziga xos tomonlari nimalardan iborat?
- 63.Akli zaif bololar idroki, kurish va eshitish organlarining normadan chetga chikishining xarakterli belgilarini aytинг?
- 64.Daun sindromiga uchragan bolalarga ta'rif bering?

- 65.Akli zaif bolalar bilan ish olib borishda ijtimoiy pedagog bajarishi lozim bulgan asosiy vazifalar nimalardan iborat?
- 66.Adaptatsiya va adaptatsiyalashish tushuechalariga izox bering?
- 67.Etim va nogiron bolalarga ijtimoiy erdam berishda maktab-internat ijtimoiy xizmati va ijtimoiy pedagoglarning vazifalarini aytib bering?
- 68.Maxsus korrektsiya qilish maktabi ijtimoiy pedagogining faoliyati kanday yunalishlarda tashkil etiladi?
- 69.Davlatimiz tomonidan kabul qilingan konunlarda imkoniyati chegaralangan kishilarga mexr-muruvvat kursatilishi tugrisida nimalar deyilgan?
- 70.Rivojlanishda kamchiliklarga ega bulgan bolalarga erdam berish yullari va shakllari tugrisida suzlab bering?
- 71.Ijtimoiy reabilitatsiyalash markazlarida akliy jixatdan koloklikka duchor bulgan bolalarni tarbiyalash dasturi xaqida suzlab bering?
- 72.«Pedagogik madaniyat» tushunchasi ,uning ichki va tashki tuzilish tarkibini aytинг?
- 73.Ijtimoiy soxa mutaxassis pedagogik madaniyati va pedagogik maxoratining tarkibiy kismlarining asosiy mazmuni nimalardan iborat?
- 74.Mutaxassisning kasbiy muxim sifatlariga kanday sifatlar kiradi?
- 75.«Ijtimoiy pertseptsiya» iborasiga izox bering?
- 76.Odamning pedagogik madaniyati deganda nima tushuniladi?
- 77.Ijtimoiy ish jamiyat a'zolarining bir-biriga kanday munosabatda bulishini nazarda tutadi?.
- 78.Kaysi fanni turmush pedagogikasi deb atasa buladi?
- 79.Me'er va me'rlardan chekinish ( ogish ) tushunchasiga izox bering?
- 80.CHekinish (ogish) turlarini aytib bering?
- 81.Imkoniyatlari cheklangan insonlar guruxiga kimlar kiradi?.
- 82.Murakkab kamchilik yana kanday kamchiliklarni uz ichiga oladi?.
- 83.Pedagogik va ijtimoiy chekinish turlariga izox bering?
- 84.XX-asrning 60-yillarida imkoniyatlari cheklangan insonlarga erdam berishning kanday modeli vujudga keldi?
- 85.SHaxsni insonparvarlik g`oyalari asosida ijtimoylashtirish kontseptsiyasi asosida faoliyat yuritaetgan kanday maktablar mavjud?.
- 86.Ochik maktablar faoliyati xaqida gapirib bering?
- 87.Ijtimoiy pedagog faoliyatining valeologik modeliga izox bering?
- 88.Bolalar va usmirlarga erdam kursatishning tuman xizmat bulimlari tashkil topishining tarkibiy kismlarini aytib bering?
- 89.Reabilitatsiya qilish xizmatining asosiy vazifalarini aytib bering?
- 90.Deviatsiya va uning turlariga izox bering?
- 91.Delinkvent xatti-xarakatlarni tavsiflang?
- 92.Ijtimoiy pedagogikaning tadqiqot ob'ekti kim?.

**Ijtimoiy pedagogika va pedagogik sotsiologiya  
fanidan test topshiriqlari**

**Birinchi bo`lib ilmiy adabiyotlarda «Ijtimoiy pedagogika» so`z birikmasini  
ishlatgan mashxur pedagogning nomi...**

Ya.A.Komenskiy.

Lokk.

M.F.Kvintilian.

P.Natorp.

**«Tarbiyalovchi ittifoklar, ya’ni-fuqarolar ittifoqi» ni tuzishini, o’sha faoliyatning barchasini «Ijtimoiy pedagogika» deb atagan mashxur nemis faylasufi...**

G.Kershenshteyner.

A.Disterveg.

P.Natorp.

G.Parafenberg.

**«Tarbiya inson tugilganidan to o’lishiga qadar davom etishini qadimgi yunon faylasuflaridan qaysi biri aytib o’tgan?**

Aristotel

Sokrat

Platon

Demokrit

**«Tarbiya printsipial tarzda avvalgisidan farq qiluvchi yangi kishini shakllantirishga ta’sir etmogi kerak», - degan fikrni ilgari surgan nazariyotchi**

M.Sheler.

X.Plesner.

G.Rot.

E.Fink.

**Embrionol pedagogika qanday muammolar bilan shugullanadi?**

Keksayib qolgan kishilarning pedagogik muammolari bilan.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning pedagogik muammolari bilan.

Bolani ona qornidaligidaeq to`g’ri o’stirish muammolari bilan.

O’smir yoshdagi tarbiyalash nazariyasi va amaliyotiga doir muammolar bilan.

**«Pedagogika» so`zining aynan ma’nosи nimani anglatadi?**

Bola etaklash

Bolashunoslik

Tarbiyachining bolani tarbiyalashi.

O’qituvchilarning o’quvchilarni tarbiyalashi.

**«Pedagogika» so`z atamasi qaysi mamlakatda kelib chiqqan?**

Yunoniston

Angliya

Chexiya

Frantsiya

**Kar va gung bolalar ta’lim – tarbiyasi muammolari bilan shugullanuvchi pedagogika fanining tarmogi...**

Logopediya

Surdopedagogika

Oligofrenopedagogika

Gerontogogika

**Ko`zi ojiz bolalar ta’lim - tarbiyasi muammolari bilan shugullanuvchi pedagogikaning tarmogi...**

Oligofrenopedagogika

Yuentogogika

Surdopedagogika

Tiflopedagogika

**Aqli ojiz bolalar ta'lim - tarbiyasi bilan shugullanuvchi pedagogikaning tarmog'i...**

Logopediya

Tiflopedagogika

Oligofrenopedagogika

Yuentogogika

**O'smir yoshlarni tarbiyalash nazariyasi va amaliyotiga doir muammolarni o'r ganuvchi pedagogikaning tarmogi...**

Pedagogik antropologiya

Yuentogogika

Androgogika

Logopediya

**Katta yoshdagi kishilar ta'lim-tarbiyasi masalalariga doir bo'lgan pedagogikaning tarmog'i...**

Tiflopedagogika

Surdopedagogika

Androgogika

Gerantogogika

**Keksayib qolgan, boshqacha aytganda - uchlamchi yoshdagi kishilarning pedagogik muammolari bilan shug'ullanuvchi pedagogikaning tarmog'i...**

Gerontogogika

Pedagogik antropologiya

Androgogika

Yuentogogika

**Ba'zi tadqiqotchilarning fikriga ko'ra insonning shaxs bo`lib shakllanishiga qancha omillar ta'sir etadi?**

50 dan ortiq

100 ta

200 dan ortiq

400 dan ortiq

**Pedagogikaning birinchi kategoriya - tushunchasi nima?**

O`qituvchi

Tarbiyachi

Tarbiya

Ta'lim

**Pedagogikaning ikkinchi kategoriya - tushunchasi nima?**

Irsiyat

Pedagog

Ta'lim

Tarbiya

**Qaysi fan ijtimoiy pedagogikaning metodologik asosi hisoblanadi?**

Pedagogika

Psixologiya

Falsafa

Etika

**Ijtimoiy pedagogika fani mazmunini boyitish,yangilash nimalar bilan bog`liq?**

Ijtimoiy soxa xodimining mahorati bilan

Ilmiy tadqiqot usullariga

Ijtimoiy pedagog va psixologlarning bilimiga

Ushbu fanning uzlusiz taraqqiy etishiga

**Pedagogik va psixologik maqsadga muvofiq tarzda maxsus tuzilgan shaxslararo munosabatlar tizimi nima deb ataladi?**

Ichqi muhit

O`zaro muloqot, munosabat

Pedagogik muhit

Tarbiyaviy muhit

**Shaxsning rivojlanishi eng avvalo qaysi xislatlarning shakllanishidan boshlanadi?**

Psixik faollik

Psixik xislatlar

Ruxiy xolatlar

Aqliy xislatlar

**Shaxs rivojlanishiga ta'sir etuvchi 2 ta guruxlashtirilgan omillar qaysilar?**

O`z-o`zini tarbiyalash, maqsadli tarbiya.

Ta'lim va tarbiya.

Shaxsning O`z faolligi, ijtimoiy muhit.

Biologik va ijtimoiy muhit.

**Odamning qaddi - qomati, yurishi, ko`z va sochlarining rangi, so`zlashi, fikrlashi va mexnat qilishi kabi qobiliyatlar qaysi qobiliyat turiga kirishi mumkin?**

Tug'ma

Irsiy

Fiziologik

Genetik

**Insonning asosiy shaxsiy sifatlari birinchi navbatda qaerda shakllanadi?.**

Maktabda

Maktabgacha tarbiya muassasalarida

Maktabdan tashqari muassasalarda

Oilada

**Bolaning uyidagi salbiy sharoitni o`zgartirishning imkoni bo'lmasa o'quvchini qanday tipdagi muassasalarga joylashtirish masalasini o'rtaga qo'yish mumkin?**

Mexribonlik uyiga

Maxsus maktablarga

Maxsus korrektsiya qilish maktabiga

Maktab internatlarga

**Bolaning o`zidagi salbiy xatti - harakatlarni anglab etib, ularni yo'qotishi, ijobiy xulq- atvorini rivojlantira borishi qaysi tarbiya natijasi hisoblanadi?**

O`z-o`zini anglash, o`z-o`ziga baho berish

Qayta tarbiyalash

O`z-o`zini tarbiyalash

Psixokorreksion reabilitatsiya

**Ilmiy tadqiqotlarning necha va qaysi turlari farqlanadi?**

3 ta: nazariy, so`rov, kuzatish.

Bitta: Empirik

4 ta: So`rov, kuzatish, anketa, nazariy

2 ta: Empirik, nazariy

**Ilmiy tadqiqotlar bilan odatda kimlar shug'ullanadi?**

O`qituvchilar

Fan nomzodlari

Ta`lim vazirligidagi xodimlar

ilmiy muassasalar xodimlari.

**Empirik tadqiqot olib borishda odatda qaysi metodlardan foydalaniladi?**

So`rovnomalar

Kuzatish

Modellashtirish

Kuzatish, tasvirlash, eksperiment

**Nazariy tadqiqotlarda odatda qanday metodlar qo`llaniladi?**

Tasvirlash, so`rov, abstraktsiyalash

Sintez, kuzatish, diduktsiya

Eksperiment, sintez, abstraktsiyalash

induktsiya –diduktsiya.

**Empirik tadqiqotda bilish metodlaridan 3 ta guruxlashtirilgan to`g`ri metodlarni ko`rsating?**

Kuzatish, tasvirlash, eksperiment

Analiz-sintez, formallashtirish, abstraktsiyalash

Induktsiya-diduktsiya, idealizatsiyalash, aksiomalash

Eksperiment, tahlil-sintez, kuzatish

**Nazariy bilishning 3 ta guruxlashtirilgan metodlaridan qaysi biri to`g`ri yozilgan?**

Kuzatish, induksiya - diduktsiya, tasvirlash

Eksperiment, idealizatsiyalash, tahlil – sintez

Abstraktsiyalash, idealizatsiyalash, formallashtirish

Modellashtirish

**Ilmiy tadqiqot mantiqi to`g`ri belgilab olingach, olim olib borishi lozim bo`lgan ishning eng muxim jixati nimadan iborat?**

Tadqiqot rejasini belgilab olish

Muammoni belgilab olish

Tadqiqot soxasini aniqlash va tanlash

Tadqiqot ob`ektini tanlash

**Tadqiqot mantiqini loyixalashtirishning necha bosqichi farqlanadi?**

2 ta

3 ta

4 ta

5 ta

**Ilmiy tadqiqotlar olib borishda salbiy natijaga erishilsa u ilmiy natija hisoblanadimi?**

Xa

Yo'q

To`g`ri natija chiqquncha ish davom ettiriladi

Mavzu noto`g`ri tanlangan

**Tadqiqotning bиринчи - quyи bosqichi nima bilan yakun topadi?**

Tadqiqot predmetini aniqlash bilan

Tadqiqot muammosini topish bilan

Tadqiqot farazini aniqlab olish bilan

Vazifalarni belgilab olish bilan

**Ilmiy Tadqiqot ishining 2 chi bosqichida nima qilinadi?**

Tajriba-sinov ishlari olib boriladi

Asl tadqiqot ishlarini bajarishga kirishiladi

Ilgari surilgan muammo eksperimental tekshiriladi

Tadqiqot olib borish metodlari tanlanadi

**Asl tadqiqot ishlari nimadan boshlanadi?**

Umumiy metodlarni tanlashdan

Tadqiqot rejasini to`g`ri tuzishdan

Rejaga zaruriy o`zgarishlar kiritishdan

Adabiy manbalarni o`rganish va amaliy faoliyat tajribalari-  
ni umumlashtirishdan.

**Ijtimoiy pedagogikada kuzatish metodlari qanday bo'lishi mumkin?**

Tabiiy

Ilmiy

Uzluksiz va diskret, keng yo'ki tor

Uzoq muddatli

**Anketa ( so'ravnom ) metodi qaysi fandan o`zlashtirib olingan?**

Falsafa fanidan

Tarix fanidan

Sotsiologiya fanidan

Pedagogika fanidan

**Bolani qandaydir sotsiumda o`rganish uchun kimlarning xizmatidan  
foydalilanadi?**

Ota - onalarning

Tarbiyachilar va o`qituvchilarning

Pedagog, psixolog, ota - ona va maxallaning

Psixolog, tibbiyot xodimi, pedagog, boshqa mutaxassislarining

**Ko`rilgan ilmiy bilim tekshirish, eksperimentni talab etadi va shunga ko`ra  
eksperimentning necha turi ajratib ko`rsatiladi?**

Eksperiment turlarga ajratilmaydi

Qayd qiluvchi va shakllantiruvchi

Ilmiy qoidalar ishlab chiquvchi, dubl eksperiment

G`oya va farazlarni shakllantiruvchi

**Tadqiqot ob'ekti xolatini aniqlash maqsadida ijtimoiy pedagogika fan sifatida qachondan beri shakllana boshlagan?**

X1X asrning 2-chi yarmidan

X1X asr oxirida

XX asr boshlarida

XX asrning 2-chi yarmida

**Qadimgi yunon faylasuflaridan qaysi biri jismoniy, aqliy va ahloqiy rivojlanishni birga qo'shib olib borish zarurligini aytib o'tgan?**

Platon

Aristotel

Sokrat

Demokrit

**«Notiqni tarbiyalash» nomli asarning muallifi kim?**

J.J.Russo

T.Mor

A.Disterveg

M.F.Kvintilian

**Mashxur «Utopiya» nomli asarning muallifi kim bo`ladi?**

T.Mor

M.F.Kvintilian

J.J.Russo

G.Kershenshteyner

**Odamga «Beshikdan – qabrgacha ta'lim berish kerak», - degan g'oyani birinchi bo`lib qaysi faylasuf olim ilgari surgan?**

Al-Beruniy

Platon

Aristotel

Al-Xorazmiy

**PANSOFIYANI egallashi lozimligi haqidagi kontseptsiya qaysi mashxur pedagog tomonidan rivojlantirilgan?**

Ya.A.Komenskiy

J.J.Russo

I.G.Pestalotsi

Lokk

**Erkin tarbiya kontseptsiyasi g'oyasi Frantsiyada qachon ilgari surilgan?**

XU111 asr o'rtalarida

XU111 asr oxirida

X1X asrning boshlarida

X1X asrning o'rtalarida

**Yoshlarning ijtimoiylashuvi muammosi Evropada qachondan boshlab xalqaro xarakterga ega bo'la boshladi?**

X1X asr boshlarida

X1X asr o'rtalarida

X1X asrning oxirida

XX asrda

**Jamiyatda xulq - atvori salbiy xarakterda bo'lgan shaxslarni hartomonlama o'rGANISH g`oyasi Garbiy Evropa mamlakatlarida qachon paydo bo`lgan?**

XIX asr o'rtalarida

XIX asr oxirida

XX asr boshlarida

XX asr o'rtalarida

**XX asrning ikkinchi yarmigacha «Anomal bolalar» toifosiga qanday bolalar kiritilar edi?**

Muammolarga ega bo'lgan bolalar

Maxsus xojat va extiyoji bolalar

Miyasi ishlamaydigan, jinni, nogiron bolalar

«Imbetsil», «Daun», «Lunatiik-oyparast», «Aqli past» va b.

**Ma'lumki, ijtimoiy pedagogika fanining ob'ekti inson hisoblanadi.U qachongacha ushbu fanning ob'ekti bo`lib turadi?**

Maktabgacha tarbiya yoshigacha

Tugilganidan boshlab maktabni tugatganigacha

O'spirinlik yoshigacha

Butun umri davomida

**Ijtimoiy pedagogikaning qanday darajalari mavjud?**

Ijtimoiy, individual, madaniy-oqartuv

Sotsietal, sotsial-muxitiy, individual

Ta'limiy-tarbiyaviy, demokratik, madaniylashgan

Nazariy va amaliy, totalitar, individual

**Jamiyatning sotsietal darajasi deganda nima tushuniladi?**

Mikromuxit

Individlar guruxi

Ijtimoiy ish

Ideologiya

**Ijtimoiy ish tizimiga nimalar kiritiladi?**

Psixologik, tibbiy, xuquqiy va tashqiliy-boshqaruv jixatlari

Odamga ijtimoiy yordam berish, iqtisodiy yordam

Ijtimoiy-madaniy dasturlar, texnologiyalar...

Ijtimoiy – gumanitar bilimlar, ijtimoiy-pedagogik tafakkur

**Ijtimoiy faoliyat mazmuniga nimalar kiritiladi, uning vazifasi nimalardan iborat?**

Ijtimoiy xodimning O'z kasbini yaxshi bilishi, individga

moddiy va ma'naviy yordamni uyuştirish

Ta'lim berish,o'qitish, tarbiyalash, shaxsning ijtimoiylashuvini ta'minlash

Tashqiliy boshqaruv ishlari, ijtimoiy-salbiy xulqli bolalarni tuzatish

Xuquqiy va iqtisodiy ishlar, ijtimoiy-salbiy bolalarni tariyalash

**Ijtimoiy tarbiyaning yaxlit xoldagi natijasini nima deb hisoblasa bo`ladi?**

Insonparvarlashuv

O'z «Meni» ni anglashiga erishish

Ijtimoiylik

Personalizatsiyalashish darajasiga erishish

**Ijtimoiy ta'lim jaraeni birinchi navbatda nimaga qaratilgan bo`ladi?**

Salbiy xulq-atvordagi shaxslarga ta’lim berishga  
Shaxsni diagnostika qilish, individualligini aniqlash va o’qitishga  
Ijtimoiy pedagogik jaraen qatnashchilari o’rtasida muloqotni tashkil etishga  
Ob’ektning ma’lum sotsiumda ijtimoiylashuvini tashkil etish

### **Aloxidalanish nimani anglatadi?**

Ijtimoiy yo’nalishligini bilish  
O’z mavqeini bilishi, tushunishi  
O`zining ijtimoiy xulq-atvorini tushunib olishi  
Odamning yaxlit ijtimoiy faol shaxs sifatida shakllanib etishi

### **Aynan o’xhashlik, tenglashtirish (identifikatsiyalash )ning yakuniy natijasi nimadan iborat?**

Bolaning yoki ijtimoiy guruxning biron bir birlikka oidligini anglab yetishi  
Individning ijtimoiy munosabatlar tizimiga qo’shiluvchanligi,  
Individning moslashuvchan, ko’nikuvchan qulga aylanib qolishi  
Jinoyatchi, anarchist, qo’zgalonchi, terrorchi shaklidagi kishilarni bir-biriga o’xhash fikr yuritishi

### **Personilazatsiyalashish darajasi deganda nimalar tushuniladi?**

Biron ta shaxsning boshqalardan ajralib turishi  
O’z-o`zini nazorat qila bilishi, mas’uliyatni his etishi  
O`z ichki kechinmalariga berilib ketishi, yo’lgizlikni xush ko’rishi  
Shaxsga xos barcha xususiyatlarni egallab olishi, tashkilotchilik,  
ishga yunalganlik qobiliyati, fikrlash darajasi.

### **Ijtimoiy pedagog va psixolog o’z ishida qanday g`oyaga amal qiladi?**

Shaxsga gumanistik yondashish g`oyasiga  
O`zaro xarakat va muloqot jarayonida mijoz bilan birga qayg`udosh bo`lishga  
Empatiya va emotsiyalarga beriluvchan bo`lishga  
Ijtimoiy pedagog o`z ishida – Insonni oliy ijtimoiy qadriyat deb tan olib, shunga doimo amal qilishi

### **Ijtimoiy pedagogning shaxsga, guruxga shaxsiy - gumanistik yondashuvi qay tarzda sodir bo`ladi?**

Raxmdillik, oq ko’ngillilik bilan  
Individual tarzda  
Dialektik tarzda  
Ob’ekt ( mijoz ) shaxsini xurmat qilgan xolda

### **Ijtimoiy-gumanitar fanlar ichida qaysi fan shaxsning jamiyatda o’z o’rnini topishiga ko’proq amaliy yordam beradi?**

Psixologiya fani  
Pedagogika fani  
Sotsiologiya fani  
Turmush pedagogikasi ( ijtimoiy pedagogika )

### **Ijtimoiy pedagogika taxminan qancha fan bilan juda yaqin va uzviy bogliq?**

- 6 – 7 ta
- 7 – 8 ta
- 8 – 9 ta
- 10 – 12 ta

**Ijtimoiy faoliyatga yunaltirilgan mutaxassislarni tayerlash ishlari Rossiyada qachon boshlangan edi?**

- 1960-1970 y.
- 1890-1900 y.
- 1900-1910 y.
- 1930-1940 y.

**Rivojlangan Evropa mamlakatlari va A K SH da ijtimoiy tarbiyani amaliy jixatdan tashkil etish qachondan beri maxsus kasb darajasiga ko'tarilgan?**

- 1950-1960 y.
- 1890-1900 y .
- 1900-1910 y.

XX asr o'rtalarida

**Fuqarolik jamiyatining eng muxim ijtimoiy masalalaridan biri har doim nimalardan iborat bo'lган?**

Xaqiqat va tenglik, birodarlikning bo'lishi

Davlat idoralari va jamiyat tashkilotlarining bahamjixat faoliyat ko'rsatishlari

Xaqiqat,demokratiya, fuqarolarning o`z xuquqlarini bilishi va talab etishlari

Davlat rahbarlarining mamlakatni oqilona va adolatli boshqarishlari, fuqarolarga teng xuquqlar berishi

**Qadimgi kitoblardan qaysi birida ILOXIY NIZOM va OLIY NIZOMlar haqida gap boradi?**

Qur'oni Karimda

Xadislarda

Avestoda

Injilda

**Falsafada Aristoteldan keyingi «Ikkinch muallim» hamda o`z davrida ijtimoiy-siyosiy masalalar bo'yicha birinchi bo'lib yirik asarlar yaratgan olim kim?**

Al-Beruniy

Forobiy

Ibn Sino

Al-Xorazmiy

**Forobiy insonlarni axil va hamjixatlikda yashashda ta'lim va tarbiyaning ro'lini tushuntirish bilan birga yana qaysi muammolarga oydinlik kiritgan?**

Inson jamoasining kelib chiqishi, davlat tuzilishi va uni boshqarish

Ijtimoiy xayot, atrof-muxitning insonlarga ta'siri masalasi

Tarbiya yo`li bilan inson tabiatini o`zgartirish masalasiga

Fuqarolik jamiyatining shakllanishi masalasiga

**Ijtimoiy - pedagogik jaraen bosqichlari nimalarga asosan belgilanadi?**

Odamning ijtimoiy rivojlanishi darajasiga qarab

Sub'ekt va ob'ektning o`zaro muloqot, muammolariga ko'ra

Odamning har bir yosh bosqichida o`zini namoyon etishiga qarab

Shaxs qanday sharoitda tadqiqot olib borilishiga qarab

**Ijtimoiy pedagog, psixolog uchun uning faoliyatida yo`l ko`rsatgich bo'lib nima xizmat qiladi?**

Pedagogika va psixologiya fanlarini mukammal bilishi

Akademik bilimlar

Ijtimoiy soxa xodimlarining ilgor ish tajribalari

Uning o`zi orttirgan ijtimoiy tajriba, milliy qadriyatlar, milliy madaniyat

**Ijtimoiy pedagogik jaraenning birinchi, dastlabki bosqichi (etapi) qanday ataladi?**

Tanishuv etapi

Diagnostika etapi

Vazifalarni belgilab olish

Tayorgarlik etapi

**Ijtimoiy pedagogik jarayonning ikkinchi bosqichi (etapi) qanday ataladi?**

Bevosita faoliyat

Pedagogik texnologiyani tanlash

Diagnostika qilish

Ob'ekt individualligini aniqlash

**Ijtimoiy pedagogik jarayonning 3 - chi bosqichi qanday ataladi?**

Shaxs yashayotgan mikromuxitni o`rganish

Ma'lumotlar to`plash

Ma'lumot natijalarini e'lon qilish

Yakuniy bosqich (etap)

**Modellashtirish qanday xarakterga ega?**

Umumiyl va xususiy

Individual

Nazariy

Amaliy

**Pedagogik texnologiyani tanlash (ishlab chiqish) uchun ijtimoiy pedagog nimalarni bilmogi kerak?**

Pedagogik bilimlarni mukammal bilmogi kerak

Psixologik, pedagogik bilimlar va treninglar o`tkazishni

Yangi pedagogik texnologiyani hamda ob'yektning o`ziga xosligini

Ob'ekt imkoniyati, xulq-atvori, jismoniy kusuri, ijtimoiy-pedagogik maqsadi borligini

**Pedagogik texnologiyani amalga oshirish uchun uyda, Markazda qanday shart-sharoitlar talab etiladi?**

Optimal yakuniy natijaga erishish uchun imkoniyat bor

Optimal yakuniy natijaga erishish uchun maxsus ishlab chiqigan metodlar mavjud

Ixtisoslashtirilgan markazda amaliy yordam ko'rsatish imkoniyati bor

Ixtisoslashtirilgan markazda amaliy yordam ko'rsatish imkoniyati yoq

**Pedagogik texnologiyani amalga oshirish uchun Markazda yaxshi tanlab olingan texnologiya ijtimoiy pedagog tomonidan nimaga asosan amalga oshiriladi?**

O`zi tu`zib chiqqan dasturga binoan

Markaz mutaxassislari tomonidan tavsiya etilgan metodikalar asosida

Markazning bosh mutaxassisini tomonidan tasdiqlangan metodikaga ko`ra

Ijtimoiy pedagog, psixolog tomonidan ishlab chiqilgan metodika asosida

**Ijtimoiy - pedagogik texnologiyani aprobatasiya qilish qaysi etap (bosqich) ga kiradi?**

Tayorgarlik etapiga

Bevosita faoliyat etapiga

Yakuniy etapga

Texnologiyani sinovdan o`tkazish bilan boglik boshlangich quyi etapga

**Boshlang`ich quyi etapda ijtimoiy pedagogning faoliyat mazmuni qanday bo`ladi?**

Bolani pedagogik, psixologik korreksiya qiladi

Bolani pedagogik, psixologik reabilitatsiyalash, o`qitish bilan mashgul bo`ladi

Bolani, o`smirni o`z-o`zini tarbiyalash jaraeniga qo'shishga kirishadi

Ijtimoiy pedagog, psixolog bola, o`smir bilan adaptatsiyalashadi.

**Pedagogik ish ko'pincha kimlar bilan olib boriladi, pedagogik texnologiyalar qanday toifadagi odamlarga nisbatan qo'llaniladi?**

juda murakkab, muammoli odamlar bilan yoki ijtimoiy guruxlar bilan olib boriladi

Chetga ogishlarga duchor bo`lgan shaxslar bilan

Daun sindromiga uchragan bola va o`smirlar, «Tavakkal guruxi»ga kirgan o`smirlar.

Anomal bola va o`smirlar bilan

**Ijtimoiy - pedagogik jarayonda monitoring o`tkazish qachon ko`zda tutiladi?**

Boshlang`ich quyi etapda erishilgan natijalar ma'lum bo`lgach

Ma'lum bir kompleks pedagogik choralar ko'llanganidan so'ng

3- chi, yakunlovchi, oxirgi etap oldidan

2-chi, bevosita faoliyat yakunlanib, natija va xulosalar olingach.

**3-chi – yakunlovchi etapda qanday ishlar bajariladi?**

Pedagog va bolaning bir-birini tushunish asoslarini yaratish ishlari

Shaxsni o`z-o`zini rivojlantirish, o`z-o`zini tarbiyalash jarayoniga qo'shish ishlari

Monitoring o`tkazish ishlari

Texnologyaning ta'sirchanligini tahlil etish, baholash, faoliyatni belgilab olish ishlari

**Mijozning yangi sharoitga, o`zgacha xolatga moslashuv jarayoni qanday kechadi?**

Bola, o`smir moslashuv jaraenini juda oson bosib o'tadi

Pedagog va psixologning maxoratiga, empatiyaga qanchalik kuchli berilishiga bog`liq

Moslashuv jarayoni bola, o`smir uchun har doim ham og'riqsiz o'tavermaydi

Moslashuv jaraeni doimo juda murakkab.

**Ijtimoiy - pedagogik faoliyatda sub'ekt va ob'ektda sodir bo`ladigan o`zgarishlar qay tarzda yuzaga keladi?**

Portlash tarzida sodir bo`ladi

Sakrash tarzidagi xarakterda bo`ladi

Juda sekin, bir – ikki yil davomida sodir bo`ladi

Pedagogning ob'ektga nisbatan olib borgan ta'siriga bog`liq

**Qanday shaxs boshqa bir shaxsni ruxiy va ma'naviy jixatdan boyitishga qodir?**

O`z kasbini mukammal egallagan kishi

Pedagogik faoliyatga beriluvchan, ijtimoiy yo'nalgan shaxs

Psixologo - pedagogik xususiyatlar bor bo`lgan shaxs

Faqat yuksak madaniyatli shaxs.

**Insonni xurmat etish, hamdardlik, sofkillik...**

O`ziga talabchanlik, tashabbuskorlik, burch sezgisi...

Prognоз qila bilish, konstruktiv - tashkilotchilik, kommunikativlik,

Tadqiqotchilik, akademik bilimlar

Fuqaroviylar mas'ullik, empatiya, kirishimlilik, dilkashlik

**Ijtimoiy pedagogning gumanistik qadriyatlari asosida nima yotadi?**

Inson shaxsining individualligini, betakrorligini tushunish

Uni xulq-atvor va muloqot madaniyatiga rioya etishi

Pedagogik nazokatga rioya etishi

Bolaga, o'smirga va umuman insonga nisbatan chuqur hurmat va muhabbat

**Ijtimoiy pedagog, psixologning ahloq - odobga (etikaga) oid qoidalari – bu:**

Yuksak xulq-atvor normalariga rioya etishi, bolani sevishi

Rostgo'y, adolatli, sofdil, hamdard va nazokatli bo'lishi

Nutqiy madaniyati, orasta kiyinishi, emotsiyalarga berilmasligi

Mijozning jinsinini sir saqlash, mijozning istak-xoxishini birinchi o'ringa qo'yish.

**«Texnologiya» va «Pedagogik texnologiya» kabi tushunchalar pedagogika olamiga qachon kirib kelgan?**

XIX asr oxirida

XX asr boshlarida

XX asrning 2 chi yarmida

XX asr o'rtalarida

**Bolalar va o'smirlar orasidagi ijtimoiy - pedagogik faoliyat texnologiyasi qanday shakkarda amalga oshiriladi?**

Bolaning ota-onasi, tengqurlari bilan suxbatlashish

Diagnostika qilish, monitoring o'tkazish

Tashqiliy faoliyat, tashxis qo'yish, treninglar tashkil etish, kasbga yo'naltirish

O'z-o'zini rivojlantirish.

**Ijtimoiy pedagog, psixolog tomonidan qo'llaniladigan metodlar qaysi qatorda aniq ko'rsatib berilgan?**

Kommunikativ-metodik ishlari, kasbga yo'naltirish ishlari.

Ijtimoiy ish metodlari, pedagogik, psixologik, ijtimoiy pedagogik metodlar

Psixologik konsultatsiyalar berish, sotsiologik savol-javob

Psixologik ta'sir, modellashtirish, o'z individual metodlarini ishlab chiqish

**Bolalar va o'smirlarga yordam ko'rsatishning reabilitatsion xizmati quyidagilarni ta'minlashga qaratilgan:**

Ularni moddiy jixatdan qo'llash, turmush sharoitlarini yaxshilash

Bolalar va o'smirlarga yordam ko'rsatish markazlari tashkil etiladi

Yordam tuman xizmat bo'limlarining faoliyat yuritishlari ta'minlanadi

Bolalar va o'smirlarni qo'llab - quvvatlashni ta'minlashga qaratilgan

**Yordam ko'rsatishning reabilitatsion xizmati qanday usullarda amalga oshiriladi?**

Bola va o'smir oilasiga moddiy yordam berish

Bola va o'smirning ta'lim va tarbiyasi ustidan nazorat o'rnatish

Ekstremal xolatlarga tushgan

Ota - onasiz qolgan bolalarga turli xil yordam berish orqali

**«Qaltis gurux» dagi bolalarni katta yoshdagi kishilarining salbiy ta'siridan qutqarish qaysi tamoyillarga asoslanadi?**

Shaxsning xaq-xuquqlarini ustun qo'yish, adolatlilik

Berilaetgan yordamning begarazligi va to'la-to'kis bo'lishi

Berilayotgan yordamning ilmiy jixatdan asosli bo'lishi

Yordamning qonunga muvofiq bo'lishi

**Bolalar va o'smirlarga yordam ko'rsatish tuman xizmat bo'limi tarkibi taxminan necha bo'limdan iborat?**

3 ta bo'limdan

4 ta bo'limdan

5 ta bo'limdan

6 ta bo'limdan

**Reabilitatsiya qilish xizmatining asosiy vazifalari nimalardan iborat?**

Bola va o'smirning chetga ogish darajasini aniqlash

Shaxs rivojlanishidagi adekvat pedagogik jarayonni vujudga keltirish

Bola va o'smir tarbiyasini jadallashtirish

Ota va onasini moddiy qo'llab-quvvatlash

**Reabilitatsiya qilish ob'ektlari va sub'ektlari qaysi javobda to`g`ri ko`rsatilgan?**

Penitentsiar muassasalarda qayta tarbiyalanganbolalar

Nogiron, bezori, «tavakkal guruxi» ga kiruvchi bolalar

Ijtimoiy - pedagogik jixatdan nazoratsiz qolgan, dezadaptatsiyalangan bolalar

Psixosomatik, etim, bezorilik va bosqinchilik bilan shug`ullanuvchi, daydi bolalar.

«Ijtimoiy pedagogika» fanini o'qitish jaraenida talabalarning mustaqil ishi juda katta axamiyatga ega. Ularning mustaqil ishlari quyidagi vazifa va topshiriqlarni amalga oshirishni takosa etadi:

1. «Ijtimoiy pedagogika» fanining maqsad va vazifalari, uning ob'ekti va predmeti, ijtimoiy-pedagogik texnologiyalar xaqida asosiy tushuncha va tasavvurlarni mustaqil tarzda anglab etish;

2. Ijtimoiy pedagog, psixolog shaxsiga quyiladigan talablar, uning reabilitatsion xizmat modeli va mazmuni, faoliyat kursatish metodikasi xamda uning texnologiyalariga mustaqil ravishda izoxlar bera olishni;
3. Xaetda uz urnini topmagan bolalar va usmirlarni ijtimoiy-pedagogik jixatdan tuzatish muammolarini urganishni, karovsiz va etim bolalarga bolalar uylarida, reabilitatsion Markazlarda ijtimoiy reabilitatsiyalash ishlarini olib borish usullarini izlab topishni, shuningdek, ijtimoiy-salbiy xulk atvorli shaxslar bilan ish olib borishning pedagogik jixatlarini tavsiya etilgan adabiyotlar yordamida mustaqil ravishda bilib olishlarini;
4. Taklif etilgan mavzuga doir ma'lumot va axborotlarni izlab topish kunikma va malakalarini shakllantirishni;
5. Ommaviy axborot manbalaridan, maxsus adabiyotlardan foydalana olish kunikma va malakalarini rivojlantirishni, ular ustida ishlashni nazarda tutadi.
6. Mustaqil ravishda echilishi lozim bulgan test topshiriqlari, tavsiya etilgan adabiyotlar yordamida «Ijtimoiy pedagogika»ning muayyan mavzulariga doir referatlar yozish xam ushbu fanni yanada chukurrok egallab olinishiga, shubxasiz yordam beradi.

**MUSTAQIL ISH TOPSHIRIQLARINI BAJARISH BAROBARIDA  
«IJTIMOIY PEDAGOGIKA» FANIDAN TALABALARING BILIM VA  
MALAKALARIGA QUYILADIGAN  
TALABLAR.**

**«Ijtimoiy pedagogika» o`quv fanini urganish jaraenida talabalar quyidagi ijtimoiy pedagogikaga doir tushunchalarni bilishlari xamda kunikma va malakalarga ega bulmoklari nazarda tutiladi:**

-«Ijtimoiy pedagogika» va «ijtimoiy ish», «ijtimoiy tarbiya», «ijtimoiy ta'lim», ijtimoiy-pedagogik texnologiya, ijtimoiy-pedagogik jaraen, ijtimoiy –pedagogik jaraenning boskichlari, diagnostika, monitoring, Daun sindromi, fenilketonuriya kasalligi, akliy koloklik, me'er va me'rlardan chekinish, reabilitatsiyalash, «tavakkal guruxi», dezadaptatsiyalashuv, psixokorreksion texnika, ijtimoiy patronaj va boshkalar...

-amalietda bolalar uylarida, axolini ijtimoiy ximoyalash muassasalarida, ijtimoiy reabilitatsiyalash Markazlarida, maxsus sinflarda nogiron, etim, akliy jixatdan orkada kolgan bolalar va usmirlarga ijtimoiy – pedagogik, psixologik jixatdan erdam berish kunikmalariga ega bulishlari...

